



ISSN  
2181-1784  
SJIF: 5.423



# ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,  
natural and social sciences*

[www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)

*Exact sciences*

*Natural sciences*

*Engineering sciences*

*Pedagogical sciences*

*Social and Human sciences*

*Philological sciences*

*Philosophy sciences*

*Economic sciences*

**No7  
2021**



**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**ISSN 2181-1784**

**VOLUME 1, ISSUE 7**

**Impact Factor: 5.423**

**August**

**2021**

---

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL  
AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 7 -2021**

---

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Dr. KADIROV MUKHAMMADJON**

Candidate of philosophical sciences Associate professor of the department of  
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent State University of Oriental  
Studies

**EDITORIAL BOARD**

**Dr. PhD. N.B. KHODJAEVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Dr. Z.A. NUROVA**

Candidate of Biological sciences  
Associate professor of Termez branch  
of the Tashkent Medical Academy

**Dr. S.F. AMIROV**

Doctor of technical sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Transport

**Dr. A.H. KARSHIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
technical sciences  
Associate professor of Tashkent State  
Technical University

**PhD. A.A. SHAYUSUPOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**PhD. M.KH. EGAMOV**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Karshi  
Engineering Economics Institute

**Prof. G.M. RUZMATOVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**Prof. O. J. NISHANOVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor of National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**Prof. MUHIPOVA ULFATKHON**

Doctor of Philological Sciences  
Professor of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. S.A. KHASHIMOVA**

Doctor of Philosophy (DSc)  
in Philological Sciences  
Professor of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Dr. S. S. NURMATOV**

Candidate of Philological Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Prof. T. M. TOGAEV**

Doctor of Philological Sciences  
Associate professor of Uzbek Language  
and Literature named after Alisher Navoi



**Dr. PhD. A.E. RUZIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
Psychological Sciences  
Deputy Dean of the Faculty of Energy  
of Karshi Institute of Engineering and  
Economics

**Prof. YALCHIN KAYALI**

Ankara University, Faculty of  
Languages and History-Geography,  
Department of Eastern Languages and  
Literatures, Sub-Department of  
Indology, Faculty Member.

**Dr. A.KH. KHUDOYBERDIEV**

Candidate of Historical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Dr. U.A. ABDULLAEV**

Candidate of Historical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Mr. CHRISTIAN BARTOLF**

Doctor of Philosophy (PhD)  
In Political Sciences

**Prof. N.B. ABDULLAEVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor of the department of  
Philosophy and Fundamentals of  
Spirituality of National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**PhD. E.N. CHERNIKOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Uzbek State  
University of Physical Culture and  
Sports.

**Prof. PhD. SAO FEY**

Professor of Hangzhou Normal  
University, Linguist.

**PhD. CHJAN KONG**

School of Humanities and  
Communication, Zhejiang University of  
Finance and Economics.

**Dr. N.S. HAMRAEVA**

Doctor of Economics, Associate  
Professor of Karshi Institute of  
Engineering and Economics

**CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA**

<b>Saidov S.A.</b> // <i>Ibn al-Muqaffaning hayoti va ilmiy faoliyati</i> .....	<b>8</b>
<b>Khidirova M.Kh.</b> // <i>The use project work in ELT</i> .....	<b>15</b>
<b>Ergashev A.A.</b> // <i>Munduz etnotoponimining etimologik tadqiqi</i> .....	<b>19</b>
<b>Yunusova H.R.</b> // <i>Vizual poetik matnlarda grafik birliklar tahlili (hozirgi o'zbek she'riyati asosida)</i> .....	<b>26</b>
<b>Файзуллаев Дж.</b> // <i>Перспективы развития экономической интеграции в рамках ЕАЭС</i> .....	<b>31</b>
<b>Кирйигитов Б.А.</b> // <i>Перспективы использования возобновляемыми видами электроэнергии</i> .....	<b>41</b>
<b>Avliyokulova M.B.</b> // <i>Effects of some heavy metals found in semi-finished foods on human health</i> .....	<b>46</b>
<b>Tursinboyev O., Abduxalilov A.</b> // <i>Nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlashga qaratilgan jarayonlarning asosiy yo'nalishlari</i> .....	<b>53</b>
<b>To'yuchiyeva R.A.</b> // <i>Hindiston tashqi siyosati: Xitoy bilan munosabatlar dinamikasi</i> .....	<b>61</b>
<b>To'qmirzayeva I.I.</b> // <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishning o'rnini va ahamiyati</i> .....	<b>81</b>
<b>Xasanova X.N.</b> // <i>Kimyo darslarini takomillashtirishda jadvallardan foydalanish</i> .....	<b>85</b>
<b>Талипов Н.У., Субанова З.А.</b> // <i>Правильный выбор транспорта в глубокой карьере</i> .....	<b>92</b>
<b>Иброхимова Н.</b> // <i>Перспективы внедрения исламского банкинга в финансовую систему Узбекистана</i> .....	<b>101</b>
<b>Yusufkhonov Z.Y., Ahmedov D.T., KHusanov L.E., Masodiqov Sh.U.</b> // <i>Topical issues of improving the quality of road transport in the Republic of Uzbekistan</i> .....	<b>108</b>
<b>Камалова К.Ф.</b> // <i>Инновационные образовательные технологии в профессиональной подготовке специалистов</i> .....	<b>118</b>
<b>Yo'lchieva S.</b> // <i>Psychology of journalism: combination of theory and practice</i> ...	<b>125</b>
<b>Yuldoshev D.F., Muminov T.Sh.</b> // <i>City public transport and passenger traffic studying the effect of weather indicators</i> .....	<b>133</b>
<b>Ismoilov O.I., Murodkosimov S.M., Kamalova M.I.</b> // <i>Anatomo - physiological characteristics of the digestive system in children (literature review)</i> .....	<b>143</b>

---

<b>Султанбекова Д., Каримова Н. Э.</b> // <i>Личность Ань Лушаня и его роль в истории Китая</i> .....	<b>150</b>
<b>Очилов Б.О.</b> // <i>Влияние акрилового почвенного кондиционера на продуктивность и устойчивость мягкой пшеницы к болезням</i> .....	<b>158</b>
<b>Chimpo'latova S.A.</b> // <i>Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaollik muammosi</i> .....	<b>164</b>
<b>Axmedova D.</b> // <i>Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari</i> .....	<b>171</b>
<b>Niyazova Sh.</b> // <i>Oqimlarning internetda gavdalanishi: protestantizmning presviterianlik va baptistlik yo'nalishlari misolida</i> .....	<b>179</b>
<b>Berdiyeva Z.O., Yo'ldoshev B.</b> // <i>Hozirgi davr o'zbek she'riyatida badiiy konsepsiya masalalari (Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodi misolida.)</i> .....	<b>189</b>
<b>Boltayeva D.</b> // <i>Normativ huquq me'yorlarida axborot xurujidan himoya masalalari</i> .....	<b>196</b>
<b>Tursunova G.</b> // <i>AQSH musulmon jamoalarining vujudga kelishi va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni</i> .....	<b>201</b>
<b>Ishanov J. X.</b> // <i>Tomchilatib sug'orish tizimida hovuz tindirgichining samarali ishlatish usullari</i> .....	<b>206</b>
<b>Содиқов Х.С.</b> // <i>Новый Узбекистан и Кыргызстан: перспективы развитие и сотрудничества (на примере Ферганской области)</i> .....	<b>210</b>
<b>Джаббаров О.Дж., Хужаев Т.Х.</b> // <i>Анализ моделей сои с помощью цепей маркова</i> .....	<b>216</b>
<b>Азизов К.Х., Бекетов А.К.</b> // <i>Влияние неровностей дорожного покрытия на режимы движения автомобилей</i> .....	<b>223</b>
<b>Ergashev B.Z., Samatov G.A.</b> // <i>Kontrailerli tashuvlarni tashkil etishning afzalliklari</i> .....	<b>235</b>
<b>Salomov K.A.</b> // <i>Xizmat itlarini oziqlantirish me'yorlari hamda oziqa sarflarini energetik qiymatlari</i> .....	<b>239</b>
<b>Kudratova A.I.</b> // <i>Funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi</i> .....	<b>247</b>
<b>Muxlisa Abdujabbarovna</b> // <i>Ikki muqaddas kitob: Qur'on va Bibliyadagi masallarning qiyosiy tahlili</i> .....	<b>254</b>
<b>Fayziyeva S.</b> // <i>XX asrning 20- yillari matbuotida jahon adabiyoti masalalari tadqiqi</i> .....	<b>262</b>
<b>Буранова Ж.А.</b> // <i>Мифологизм в прозе Аман Мухтара (на примере романа «Человек перед зеркалом»)</i> .....	<b>269</b>
<b>Юлдашева Т.А.</b> // <i>Русский язык в современном мире: традиции и инновации в преподавании русского языка в национальных группах</i> .....	<b>274</b>
<b>Eldorbekov G'.I.</b> // <i>Yangi O'zbekiston – yangi qo'shniçilik</i> .....	<b>280</b>

---

---

<b>Yesimbetova B.Y.</b> // <i>Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilishda ilgari surilgan versiyalarni tekshirishning ayrim masalalari.....</i>	<b>291</b>
<b>Ismailov S.A.</b> // <i>Yangi O'zbekiston ilm-fan taraqqiyoti yo'lida kimyo sohasiga berilayotgan e'tibor.....</i>	<b>296</b>
<b>Xojoyeva M.Y.</b> // <i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari va assesment metodi.....</i>	<b>302</b>
<b>Mutallibjonov M.</b> // <i>Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish yuzasidan xorijiy tajribalar tadqiqi va uning kontekstual jihatlari.....</i>	<b>308</b>
<b>Mustafayev U.U.</b> // <i>Oliy ta'lim: savodsizlikning ildizi qayerda?.....</i>	<b>313</b>
<b>Ismonova Y.A.</b> // <i>Qadrini yo'qotayotgan qadriyatlar!.....</i>	<b>318</b>
<b>Nazarova A.R.</b> // <i>Afg'onistonda "She're nav" va uning Boriq Shafeiy ijodidagi o'rni.....</i>	<b>324</b>
<b>Eshnazarova X.M.</b> // <i>Zahiriddin Muhammad Boburning tarixda tutgan o'rni...</i>	<b>332</b>
<b>Джурраев Ш., Муртозаев Ш.</b> // <i>Педагогическое планирование и средства учебного процесса в философии.....</i>	<b>335</b>
<b>Халимова Д.Дж.</b> // <i>Некоторые вопросы развития биологических технологий.....</i>	<b>342</b>
<b>Avezov H.I.</b> // <i>Features of innovative product development by science-intensive businesses in the present economic conditions.....</i>	<b>349</b>
<b>Nurmatova D.G.</b> // <i>Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalar.....</i>	<b>357</b>
<b>Rasulov O.A.</b> // <i>Pandemiya sharoitida Jazoirning ijtimoiy-siyosiy islohotlarning istiqbollari va ularning iqtisodiy omillar bilan aloqasi.....</i>	<b>364</b>
<b>Pardayeva M.D.</b> // <i>Yangi O'zbekiston: ajdodlarimizning boy merosi va qo'shnichilik munosabatlari.....</i>	<b>371</b>
<b>Xolmurodov N.Q.</b> // <i>O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....</i>	<b>379</b>
<b>Юлдашева Т.</b> // <i>Современные инновационные технологии в образовании и их применение.....</i>	<b>386</b>
<b>Murodilloyev N.B.</b> // <i>Ranglarning Koreya ijtimoiy-falsafiy hayotida tutgan o'rni va ramziy ma'nolari.....</i>	<b>394</b>
<b>Mirzachayev A.</b> // <i>Imom Abu Hanifaning ba'zi asarlardagi bahsli masalalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni</i>	<b>402</b>
<b>Tuychiyev Z.N.</b> // <i>O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda so'filylikning o'rni</i>	<b>407</b>

---

## **IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI**

**Sarvar Atabullo o'g'li Saidov**

*O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi tayanch doktoranti  
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot  
markazi ilmiy xodimi  
E-mail: sarvarsaid@bk.ru*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Uning yunon va fors madaniyatining bebaho durdonalari borasida qilgan tarjimalari tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar.** Arastu, yunon va fors madaniyati, Kalila va Dimna, jamiyat, Organon.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется вклад Ибн аль-Мукаффы в искусство исламского перевода. Его переводы бесценных шедевров греческой и персидской культуры были изучены на основе исторических источников.*

***Ключевые слова.** Аристотель, греческая и персидская культура, Калила и Димна, Общество, Органон.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes Ibn al-Muqaffa's contribution to the art of Islamic translation. His translations of the priceless masterpieces of Greek and Persian culture have been studied on the basis of historical sources.*

***Keywords.** Aristotle, Greek and Persian Culture, Kalila and Dimna, Society, Organon.*

### **KIRISH**

Barchamizga ma'lumki, VIII asr islom ilm-fanida har tomonlama taraqqiyot va yuksalish davri bo'ldi. Ayniqsa tarjima san'ati nihoyat darajada rivojlanib, islom madaniyatining boshqa qavmlar madaniyati bilan tashishuvi va ularning ijobiy tomonlarini qabul qilish jarayoni jadallashdi. Hozirgi kunga kelib islom ilm-fani taraqqiyotini o'rganish jarayonida boshqa xalqlar madaniyatining islom madaniyatiga kirib kelish yo'nalishlarini har tomonlama tadqiq etish muhimdir. Bu jarayonda arablar bilan bir qatorda, ajam xalqlari orasidan chiqqan iqtidorli tarjimonlarning faoliyatini ham alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq.



## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

VIII asrda yashab ijod etgan shunday mohir tarjimonlardan biri Abu Muhammad Abdulloh ibn al-Muqaffa (724-759) bo‘lib, o‘zining qisqa umri davomida yunon, fors tillaridan bir qancha noyob asarlarni arab tiliga tarjima qildi hamda islom madaniyatini Aristotel asarlari, forslarning “Risola Tansar”, “Xudoynoma”, “Oyinanoma” kabi donishmandlik durdonalari, hindlarning “Kalila va Dimna” singari noyob namunalari bilan yaqindan tanishtirdi.

Ibn al-Muqaffaning hayoti haqidagi ma’lumotlarda chalkash jihatlar ancha ko‘p. Biz uning qachon tug‘ilganligini va qachon qatl etilganligini komil ishonch bilan ayta olmaymiz. Lekin uning qatl etilishi hijriy 142 yildan 145 yilgacha bo‘lgan degan taxminlar mavjud. Uning tavalludi haqida esa manbalar hijriy 106 va 108 yillar oralig‘ini ko‘rsatadilar. Ammo shu narsaga ishonchimiz komilki, u umrining oxirgi yillarini fikr va adab taraqqiy etgan Abbosiylar davrida o‘tkazdi. Ibn al-Muqaffa Fors o‘lkasining hozirgi Feruzobod shahri hududida joylashgan Jur nomli qishloqda tavallud topgan. Ibn Nadimning aytishicha, uning forscha ismi Rozbeh bo‘lib, islom dinini qabul qilishidan oldin Abu Amr degan kuniyasi bo‘lgan. Islomni qabul qilganidan keyin esa Abdulloh ismini o‘ziga qabul qilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Olim va adiblar jamoasi ibn al-Muqaffaning tarjimonlik iste’dodiga va uning ushbu sohadagi mahoratiga ittifoq qiladilar. Ushbu olimlar orasida eng ko‘zga ko‘ringan shaxslardan biri Johiz bo‘lib, ibn al-Muqaffaning tarjimonlik mahoratini e’tirof etadi.

Abdulloh ibn al-Muqaffa tomonidan “Kalila va Dimna” ni tarjima qilish jarayonida bir bob qo‘shilgan bo‘lib, unda mutafakkir shunday fikrlarni ilgari suradi: Ushbu “Kalila va Dimna” kitobi hind olimlari tomonidan tuzilgan asar bo‘lib, unda o‘zlarini ilhomlantirgan so‘z va masallarni keltirganlar.

Ibn Hajr al-Asqaloni “Lisonul mezon” asarida ibn al-Muqaffaning tarjimasi borasida to‘xtalib: “Kalila va Dimna” asarini ibn al-Muqaffa arab tiliga tarjima qilgan deydi.

Ba’zi tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, ibn al-Muqaffaning “Kalila va Dimna” ni tarjima qilishining asl sababi bu uning jamiyatni isloh qilishga bo‘lgan intilishidir. Ibn al-Muqaffa o‘z davri jamiyatidagi ko‘plab maqtab bo‘lmaydigan nuqsonlarning, siyosiy sohadagi erksizlikning shohidi bo‘ldi. Tabiiyki, u xalifa va uning atrofidagi a’yonlarni ochiqdan-ochiq tanqid qila olmas edi. Xalifa Mansur davrida uning mana shunday islohotchilik g‘oyalari ayni etilgan davr edi. U o‘zi va xalifa o‘rtasidagi mavqeini Beydebe va Dibshilam o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga qiyosladi. Ibn al-

Muqaffa “Kalila va Dimna”ni tarjima qilish jarayonida hind va forslarda bo‘lgani kabi mazkur kitobdagi g‘oyalarning xalifalar va raiyyat hayotida ijobiy ta’sir qoldirishiga umid qildi.

Ibn al-Muqaffa xalifa Mansurni davlat ishlarida qilichga suyanuvchi, unga qarshi bo‘lganlarga nisbatan shafqatsiz bo‘lgan hukmdor sifatida tasavvur qilgan. SHu sababli uning “Kalila va Dimna” asarini tarjima qilishdan yana bir maqsadi ushbu kitobdagi g‘oyalar bilan xalifani tanishtirish hamda uning nuqsonlarini o‘ziga ko‘rsatishdan iborat edi.

SHu nuqtai nazardan aytish mumkinki, ibn al-Muqaffaning ushbu asarni tarjima qilishdan asosiy maqsadi o‘zining tarjimonlik san’atidagi mahoratini boshqalarga ko‘rsatib qo‘yishdangina iborat bo‘lmay, balki jamiyatni isloh qilish borasida boshqalarga bir saboq berishdan iborat bo‘lgan.

**Munozara.** Ibn al-Muqaffaning Arastu asarlari borasidagi tarjimalariga ishora qiluvchi dastlabki asar Soid Andalusiyning “Tabaqotul umam” asaridir: “Arastuning mantiqqa oid asari Abbosiylar davlatida faoliyat ko‘rsatgan fors notig‘i, Abu Ja’far al-Mansurning kotibi Abdulloh ibn al-Muqaffaga mashhurlik olib keldi.<sup>1</sup> U Arastuning mantiqqa oid bo‘lgan uchta kitobini arab tiliga tarjima qilgan. Bular: “Kategoriya”, “Organon” va “Analitika” kitoblaridir. U shuningdek Porfiriyning “Isog‘uchi” nomi bilan mashhur bo‘lgan mantiqqa oid qitobining kirish qismini ham tarjima qilgan. U ushbu kitoblarni oson iboralar orqali hayratlanarli tarzda tarjima qilgan. Ibn al-Muqaffa hindlarning “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan kitobini ham tarjima qilgan. Ibn al-Muqaffa ushbu kitobni fors tilidan arab tiliga tarjima qilgan birinchi tarjimonidir. Uning odob-axloq va siyosatga bag‘ishlangan ajoyib asarlari, sultonga itoatli bo‘lishni targ‘ib qiluvchi “YAtiyma” nomi bilan mashhur bo‘lgan risolasi bor”.<sup>2</sup>

Ibn al-Muqaffa Fors o‘lkasida voyaga yetgan. Bu yerda u tabiiy holatda fors madaniyatini o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lgan, keyin esa Basraga ko‘chib o‘tgan. Bu shahar ilmiy muhiti va olimlar jamoasi bilan o‘sha davrda nihoyatda mashhur edi. Shuningdek ushbu shaharda har qanday inoyatga munosib bo‘lgan shoirlar va mutakallimlar istiqomat qilar edilar.

Basrada ibn al-Muqaffa Al-Ahtam sulolasi homiyligida hayot kechirdi. Al-Ahtam sulolasi vakillari bu davrda o‘zlarining fasohat va notiqlik sohasidagi

<sup>1</sup> “Фихрист” да ҳам айтилганидек (118-бет), Ибн ал-Мукаффа Абдуллоҳ бин Али хизматида бўлиб, халифа Жаъфар ал-Мансурнинг сиёсатиға қарши бўлган. Габриелининг мақоласида ва биз келтирадиган маълумотларда ҳам Соид Андалусийнинг нотўғри маълумот берганлиги ойдинлашади.

<sup>2</sup> Габриелининг мақоласида ҳам Ибн ал-Мукаффанинг форс тилидан қилган таржималари ва ёзган асарлари тўғрисида муфассал келтирилган.

mahoratlari bilan mashhur edilar. Bu rivojlangan shaharda ibn al-Muqaffa kabi yosh yigit arablar bilan muloqotga kirishadi, ularning suhbatlarini tinglaydi hamda ulardan arab tilida to'g'ri muloqot qilishni, umuman ushbu tilning barcha sir-asrorlarini o'rganadi [4,15].

Yoshlik yillaridan ibn al-Muqaffaning ilmga bo'lgan intilishi, zehni, aql-zakovati, odob go'zalligi namoyon bo'la boshlaydi. Natijada mahalliy hokimlar va amirlar uni o'z devonlariga kotiblik qilishga unday boshlaydilar. Ibn al-Muqaffa ularning saroylarida yuksak vazifalarda xizmat qildi.

Ibn al-Muqaffa Yazid ibn Umar Abu Hubayraga kotiblik qilgan. Ehtimol, ushbu amir ibn al-Muqaffani kotiblikka taklif etgan ilk amaldordir. Aytilishicha, Yazidning vafotidan keyin ibn al-Muqaffa uning akasi Dovud ibn Umarga kotiblik qiladi va bu amirning Kermondagi devonida kotib bo'lib qoladi.

Ibn al-Muqaffaning bir qancha risolalari, asarlari bugungi kunda ham butun jahonda mashhur bo'lib, ular orasida ayniqsa "Al-adab al-kabir" va "Al-adab as-sag'ir" asarlari alohida ahamiyatga molik. Mazkur asarlarni o'qigan inson ulardan bebaho hikmatlar, pand-nasihatlar, o'gitlar olishi bilan birga muallifning go'zal odob va yuksak axloq sohibi bo'lganligiga, do'stlikni nihoyatda yuksak insoniy fazilat deb bilganligiga bir lahza bo'lsa ham shubha qilmaydi. Ibn al-Muqaffa do'st-birodarlariga nisbatan sodiq va vafoli inson bo'lib, uning eng yaqin ikki do'sti Abdulhamid ibn Yahyo va Ammora ibn Hamza edi. Ibn al-Muqaffa va do'sti kotib Abdulhamid Yahyo o'rtasidagi o'zaro sadoqat qissasini ko'plab yozuvchilar shunday ta'riflaydilar: "Bani Umayya sulolasining oxirgi xalifasi Marvon ibn Muhammad qatl etilganidan keyin uning kotibi Abdulhamid ibn Yahyo o'z do'sti ibn al-Muqaffaning uyida yashirindi. To'satdan askarlar kelib ularni qo'lga olishdi va ulardan so'rashdi: Sizlardan qaysi biringiz Abdulhamid? Ularning ikkovlari ham men deb javob berishdi. Ammo o'z do'stining hayotidan xavfsiragan Abdulhamid askarlarga o'zini tanishtirdi" [1,34].

Ammora ibn Hamza va ibn al-Muqaffaning do'stligi haqida al-Gahsiyari shunday yozadi: "ibn al-Muqaffa nihoyatda saxiy, muhtojlarga yordam beruvchi, ularni taomlantiruvchi oliyjanob inson edi. U Kermonda Dovud ibn Umarga kotiblik qilardi va unga har tomonlama foyda keltirardi. Har oyda Basraning besh yuzdan ikki ming atrofidagi aholisiga xayr-ehson qilardi. Ibn al-Muqaffa va Ammora ibn Hamza o'rtasida do'stlik va kuchli mehr-muhabbat aloqalari o'rnatilgan edi. Xalifa Ja'far al-Mansur Ammora ibn Hamzaning xizmatidan voz kechib, uni Kufaga jo'natib yuborgan edi. Ibn al-Muqaffa tez-tez Ammora ibn Hamzani ziyorat qilib turardi" [2, 69].

Shuningdek, Ibn al-Muqaffa o‘z mol-davlati borasida xasislik qilmaydigan, unga shukr qilishni biluvchi, xalqqa foyda keltirishga intiluvchi, forsiy tabiatiga xos bo‘lgan hazil-mutoyibaga kuchli mayl bildiruvchi olim bo‘lganligini keyingi asrlarda yozilgan ko‘plab manbalar tasdiqlaydi. Ibn al-Muqaffa haqida so‘z yuritganda uning o‘z davridagi ilm ahli orasidagi mavqeini bilish muhim ahamiyatga egadir. Biz bilamizki, bu davrdagi kotib va mutafakkirlar ziyoli va madaniyatli toifa bo‘lib, omma qalbini ziyo bilan to‘ldirishda katta hissa qo‘shganlar. Ibn al-Muqaffa fors madaniyatining ta’siri kuchli bo‘lgan ushbu toifadan edi.

Ibn al-Muqaffa Islom ilm-fanining eng mahsuldor mutafakkirlaridan biri bo‘lib, arab-musulmon ilm-fanining, kitobat ilmining yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U o‘z ta’limotida har doim oliy idealga intildi, bu esa uning asarlarida namoyon bo‘ldi. “Al-adab al-kabir” asari gapimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. Mutafakkir ushbu asarni yozish orqali donishmandligi, siyosati, axloqi va go‘zal siyrati bilan boshqalarga namuna bo‘la oladigan komil hukmdor obrazini yaratishni maqsad qilgan. Uning ideal hukmdor borasidagi g‘oyalari italiyalik faylasuf Makiavellining fikrlariga qarama-qarshi yo‘nalishdadir.

Nikollo Makiavelli hukmdorlarning siyosati borasida so‘z yuritar ekan, ularni o‘z vazifalarini ado etishda din, adab, oliyjanoblik qoidalariga zid ravishda yolg‘on va tovlamachilikdan foydalanishga undaydi. Makiavelli ta’limotining asosi “Maqsad vositani oqlaydi” degan g‘oyaga asoslanadi. Makiavelli o‘zining “Podshoh” nomli asarida shunga o‘xshash fikrlarni ilgari suradi. Ibn al-Muqaffa esa “Al-adab al-kabir” asarida hukmdor xislatlarini shunday ta’riflaydi: “Hukmdor uchun qahr-g‘azab munosib emas, chunki hukmdorning kuch-qudrati uning qahriga bog‘liq emas. Podshohga yolg‘on gapirish ham xos emas, chunki hech kim uni xohlaganidan boshqa narsaga majburlay olmaydi. Hukmdorga baxillik ham munosib emas, chunki hukmdor faqirlik xavfidan xoli bo‘lgan ozchilik insonlardan biridir”. Ibn al-Muqaffa ushbu fikr orqali oliy idealni o‘rnak sifatida namoyish etadi.

Ibn al-Muqaffaning e’tiborini o‘ziga tortgan masalalardan biri do‘stlik g‘oyasi bo‘lib, mutafakkir komil tarzidagi do‘stlik tushunchasini o‘z ta’limotida ilgari suradi. “Al –adab al-kabir” asarida Ibn al-Muqaffa ideal do‘stlik munosabatdariga o‘z diqqatini qaratar ekan, xalqni o‘zi tavsiflagan oliy darajadagi do‘stona munosabatlarni o‘rnatish uchun intilishga da’vat etadi. Uning mana bu fikrlariga e’tibor beraylik: “Senga o‘z nuqtai nazarimga ko‘ra insonlarning eng ulug‘laridan deb hisoblaydiganim, suhbatdosh do‘stim haqida bilganlarimni hikoya qilaman. Mening nigohimdagi eng ulkan narsa uning nigohlarida dunyoning eng kichik zarrasi kabi edi. U qorin g‘amidan xoli edi. O‘zida yo‘q narsalardan g‘ururlanib, rohatlanmas,



o'zida bor narsalarni esa oshirib ko'rsatmas edi. Behuda o'yin-kulgudan xoli, o'ziga nisbatan boshqalarda shubha-gumon paydo bo'lishiga yo'l qo'ymas edi. U ruh va jismga nisbatan haddan ziyod ehtiyotkorlik qilmasdi. Tiliga erk berishdan xoli edi, bilmagan narsasi haqida gapirmas, bilganlari borasida esa bahslashib o'tirmas edi. Jaholatga erk berishdan o'zini tiyib turardi, ezgulikka xizmat qilmaydigan masalani taqdim qilmasdi" [3, 124].

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ibn al-Muqaffa doimo yozgan kitoblarida, qilgan amallarida va aytgan hikmatlarida oliy idealga tomon intilgan. Bunda din, siyosat va jamiyat borasidagi forslar yaratgan nazariyalarning ta'siri katta bo'ldi. Keyin esa bularning barini yodda tutib, inkor etib bo'lmaydigan jihatlarini targ'ib qildi. Mutafakkir boy forsiy merosni faqatgina yod olish bilan kifoyalanib qolmadi. Balki uni har tomonlama o'zlashtirib, o'ziga qabul qildi, natijada esa forsiy va islomiy tafakkur tarzini o'zaro bog'lagan durdona asarlar yaratdi. U fors davlatchiligi tarixiga doir "Oyinanoma", "Xudoynoma", "Kitob Tansar", Xusrav Anushervonning tarjimayi holiga bag'ishlangan "Kitob at-toj" asarlarini arab tiliga tarjima qildi. Ibn al-Muqaffa o'z asridagi siyosiy va ijtimoiy muammolar borasida mufassal to'xtalib, ushbu muammolar borasida o'z fikrlarini ilgari suradi hamda biografik tarjimalarida ushbu masalalarni ham eslab o'tdi.

## **REFERENCES**

1. Abdullatif Hamza. Ibn al-Muqaffa. Dorul fikr al-arabiy. Misr.: 1960. B.260.
2. Abu Abdulloh Muhammad Gahsiyari. "Kitobul vuzaro val kuttob". – Bayrut.: Dorul fikr al-hadis, 1988. – B.216.
3. Ibn al-Muqaffa. Al-adab al-kabir. Ahmad Zakiy Bosho tahqiqi. Bayrut.: Dor ibn hazm. 1994. – B.128.
4. Muhammad Salim Jundi. Ibn al-Muqaffa. – Damashq.: Arab kutubxonasi, 1955. – B.182.
5. Saidov, S. (2021). IBN AL-MUQAFFANING ISLOM TARJIMA SAN'ATIGA QO 'SHGAN HISSASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
6. Jurayev, S. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BAXT-SAODAT MASALASI. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).
7. O'G'Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI

---

АНАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

8. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL.

Вестник науки, 3(11), 5-8.

9. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).

10. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 204-206).

## **THE USE PROJECT WORK IN ELT**

**Malika Kholiyor kizi Khidirova,**

Student of Karshi State University

### **ANNOTATION**

*The main idea of working on a project is to apply the skills of students developed in English lessons in practice, to show the degree of proficiency in certain language means. The use of the project work in ELT helps the teacher to focus the students' attention on the practical importance of learning a foreign language*

**Key words:** *project work, language skills, learning a foreign language*

### **АННОТАЦИЯ**

*Основная идея работы над проектом - применить на практике навыки студентов, выработанные на уроках английского языка, показать степень владения определенными языковыми средствами. Использование проектной работы в ELT помогает учителю акцентировать внимание студентов на практической важности изучения иностранного языка.*

**Ключевые слова:** *проектная работа, владение языком, изучение иностранного языка.*

### **ANNOTATSIYA**

*Ingliz tili darslarida loyiha ishlari ustida ishlashdan asosiy maqsad- malaka va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, ma'lum til vositalarini bilish darajasini ko'rsatishdir. Loyiha ishidan foydalanish o'qituvchiga o'quvchilar e'tiborini chet tilini o'rganishdagi amaliy ahamiyatiga qaratishga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *loyiha ishi, til bilish, chet tilini o'rganish*

### **INTRODUCTION**

The project work method is easy to use in all types of lessons. This method instantly covers all the students in the classroom and activates them [1]. The fact that the whole topic, part of it or a set of questions to be asked to students on the basis of the selected problem is prepared in advance by the teacher gives a good result in the work.

The design method can take 5-10 minutes depending on the solution to the problem. In this case, the answers of students are not allowed to interfere with the teacher or others, do not express any opinion, and the results are not evaluated, scores are not given. This rule is often controlled automatically by the teacher, i.e. the student quickly corrects his or her reaction to the misconception expressed by the

student. This situation stops students from thinking, undermining the method of mental attack used in the lesson.

Objective: To get the student's own opinion, albeit incorrectly is to achieve expression. After the teacher has summarized, the clear opinions expressed will be known to each student. Students' thinking is guided and encouraged by the teacher. From time to time opinions are generalized.

Once opinions on the solution of the problem are formed, it is finally summarized and a clear opinion is reached. Students then compare their suggestions on their own, understand right and wrong opinions, and evaluate themselves. But the teacher is not allowed to evaluate or reprimand them.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

Processes to be carried out by the teacher-trainer on homework and preparation for homework in order to further strengthen the acquired knowledge and develop students' skills of independent work

### **Procedure:**

The task is given to the student in order to further consolidate the acquired knowledge and develop in them the ability to work independently.

1. The task should be clear.

In this case:

- The questions should be clear;
- Where to find answers to these questions;
- It is advisable to clearly indicate the literature.

2. The form of performance is also required to be clear:

- preparation of abstracts;
- take notes;
- problem solving;
- development of any event;
- make management decisions and ect.

3. Students need to know in advance why they will be graded. Therefore, it is worth mentioning how their work is evaluated.

The “design” method is a method of gathering free ideas and feedback from learners on a problem and using them to come to a definite solution. There are written and oral forms of the "design" method. In the oral form, each of the learners expresses their opinion orally on the question posed by the educator. Learners state their answers clearly and concisely. In the written form, students write their answers



to the question on paper cards in a short and visible way. The answers are fastened on the board (using magnets) to the “pinboard” board (using needles). In the written form of the "design" method, it is possible to group the answers according to certain characteristics. When used correctly and positively, this method teaches a person to think freely, creatively and non-standardly. Additional exercises in the organization of project work and the use of some new pedagogical technologies during the exercise [7].

The problem question is asked

Thoughts and ideas are remembered and cherished

Thoughts and ideas are memorized and grouped

Clear ideas are selected

1. When using the "design" method, it is possible to involve all learners. In particular, a culture of communication and discussion is formed in learners. In learners, their opinion is only develops the ability to express in writing, not intellectually, the ability to think logically and systematically. Failure to evaluate the opinions expressed leads to the formation of different ideas in learners. This method serves to develop creative thinking in learners. The method of "brainstorming" is carried out by the teacher depending on the purpose:

2. When the goal is to determine the initial knowledge of the learners, this method is implemented in the introductory part of the lesson.

3. Repetition of a topic or linking of one topic to the next topic is done in the transition to a new topic.

4. Reinforcement of the passed topic is carried out in the reinforcement part of the lesson after the topic.

Basic rules for using the "design" method:

1. Opinions expressed are not discussed or evaluated.

2. What ideas are expressed will be taken into account, even if they are not correct.

3. Every student must attend.

Stages of the "design" method:

1. Students are given instructions and asked to give their answers (opinions, ideas and comments) on this instruction.

2. Learners give feedback on the instruction.

3. Students' ideas (from tape recorders, videotapes on colored paper or on the board) are collected.

4. Ideas are grouped according to certain characteristics.

5. The clear and correct answer to the above question is selected.

#### **Advantages of the design method**

1. Lack of evaluation of results leads to the emergence of different ideas in learners;
2. All learners participate;
3. Ideas are visualized;
4. Students will have the opportunity to assess their basic knowledge;
5. Students become interested in the topic.

#### **Disadvantages of the design method:**

1. Difficulty of correct instruction by the instructor;
2. Require high hearing ability from the educator.

#### **CONCLUSION**

In conclusion, we can say that the main idea of working on a project is to apply the skills of students developed in English lessons in practice, to show the degree of proficiency in certain language skills. The use of the project work helps the teacher to focus the students' attention on the practical importance of learning a foreign language and increases students' motivation in a foreign language classroom.

#### **REFERENCES:**

1. Haines S., (1991) Projects for the EFL Classroom: Resource materials for teachers. Walton-on-Thames: Nelson,
2. Phillips D., Burwood S., Dunford H., (1999) Projects with Young Learners. Oxford: Oxford University Press.
3. Fried-Booth D., (2000) Project Work. Oxford: Oxford University Press.
4. Hutchinson T., (1991). Introduction to Project Work - Oxford: Oxford University Press, 1991.
5. Kim, M. K. (2015). Students' and Teacher's Reflections on Project-Oriented Learning: A Critical Pedagogy for Korean ELT. English Teaching, 70(3).
6. Stoller, F. (2002). Project work: A means to promote language and content. Methodology in language teaching: An anthology of current practice, 10, 107-119.
7. Jalolov J. Methods of teaching English in high school. - Tashkent, Teacher's Publishing House, 1997.

## MUNDUZ ETNOTOPONIMINING ETIMOLOGIK TADQIQI

**Ergashev Abduxalim Abdujalilovich**

Filologiya fanlari nomzodi

Andijon davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada nomlar, xususan, joy nomlari, urug‘- qabila nomlari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni tarixan o‘rganish, qayd qilish bilan insonlar qadim zamonlardan buyon qiziqib kelganlar. Turkiy urug‘ va qabilalar, shuningdek, O‘rta Osiyo hududida o‘tmishda yashagan boshqa etnoslarning nomlariga oid manbalar hamda O‘zbekistonda mavjud ayrim joy nomlari va etnonimlar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni ilmiy jihatdan o‘rganish va yozilishiga e‘tibor qaratish, etnonimlarni etimologik tahlil qilish ishlari ular asosida yasalgan joy nomlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada turkiy xalqlarga tegishli bo‘lgan munduz etnotoponimi etimologiyasiga doir fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Munduz, etnotoponim, etnonim, etimologiya, joy nomlari, urug‘ nomlari.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассмотрены особенности географических названий и названиях племен, внимание к научному изучению и написанию источников по названиям тюркских племен и родов, а также других этнических групп, проживавших в Средней Азии в прошлом, а также некоторых топонимов и этнонимов в Узбекистане, этимологический анализ этнонимов является важным источником для изучения топонимов на их основе. В статье представлены мнения и комментарии по этимологии этнотопонимии мундуз, принадлежащих тюркским народам*

**Ключевые слова:** *мундуз, этнотопоним, этноним, этимология, топонимы, семенные названия.*

### ANNOTATION

*The article is interested in the historical study of names, in particular, place names, tribal names. From ancient times, people are interested in Turkic tribes and clans, as well as the names of other ethnic groups living in Central Asia in Uzbekistan. attention to the scientific study and writing of information about certain place names and ethnonyms, the work of etymological analysis of ethnonyms is an important source in the study of place names based on them. This article presents*

*opinions and comments on the etymology of munduz ethnotoponymy belonging to the Turkic peoples.*

**Keywords:** *Munduz, ethnotoponym, ethnonym, etymology, place names, seed names.*

### **KIRISH**

Dunyodagi har bir xalq, millatning tili, urf-odatlarini, kiyinishi o'ziga xos, ayri-ayri bo'lgani singari ular tomonidan qo'yilgan toponimik nomlar ham turlichadir. Aynan bir xil, takrorlangan joy nomlarini dunyo tillarida uchratish mushkul. Ular o'zining ixchamligi, keng iste'molda bo'lishi, tarjima qilinmasligi bilan tildagi boshqa so'zlardan farqlanib turadi. Masalan, Ungut, Saroy, Do'lan, Munduz, Sulduz, Qurama, Jaloyir kabi joy nomlarini rus, ingliz, nemis tillariga yoki, aksincha, rus, ingliz, nemis tillaridagi Slavyan, Kelt, Sakson, Gelvet, Vestgot, Ostgot, Ink, Astek, Mayya kabi qabila nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilish mumkinmi? Aslo yo'q! Boisi ularda xalqlarning ko'p asrlilik tarixi, urf-odatlarini, madaniyati va san'ati yashirinib yotibdi. Shu ma'noda toponimlarni, xususan, uning eng yirik tarmog'i hisoblangan etnotoponimlarni tadqiq qilish bizga qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi etnik tarkibiga singib ketgan urug'-qabila nomlari hamda bu nomlar asosida yuzaga kelgan joy nomlarini alohida olingan hududlar bo'yicha tadqiq qilish, ularning atoqli otlar tizimida tutgan o'rnini belgilash, kelib chiqish ildizlarini aniqlash, lug'aviy-ma'naviy, morfologik va so'z yasalishi jihatlariga ko'ra tahlil qilish, areal kartalarini yaratish hamda etimologiyasini ochish orqali tarixning biz uchun qorong'i bo'lib yotgan sahifalarini yoritish imkoni tug'iladi.

Tarixga nazar tashlasak, o'zbek millati uzoq va murakkab tarixiy jarayonlarda turli xalqlarga mansub bo'lgan qabila hamda urug'larning o'zaro aralashib, qo'shib ketishi natijasida shakllanganligini ko'ramiz. Xalqimiz ichida turkiy xalqlarga mansub bo'lgan qoraqalpoq, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, tatar, turk millat vakillari bilan birga fors-tojik, arab, rus, lo'li, mo'g'ul, koreys kabi boshqa xalq vakillarini uchratishimiz mumkin. Ma'lumki, o'zbek xalqining millat bo'lib uyushuvida ko'plab etnik guruhlar o'z ulushini qo'shgan va bu guruh nomlari, ularning madaniyati, tili, xalqimiz o'tmishini yaratishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu etnik guruhlar nomi va shu asosda yuzaga kelgan joy nomlarini tadqiq qilishda etnotoponimlar alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, hozirda Farg'ona vodiysi hududida O'zbekistonning uchta (Andijon, Namangan, Farg'ona), Qirg'izistonning uchta (O'sh, Jalolobod, Batkent), Tojikistonning bitta (So'g'd) ma'muriy viloyatlari joylashgan.



Farg‘ona vodiysi toponimik tizimida etnooykonimlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Chunki o‘tmishda vodiylar aholisining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Bu hududda asrlar davomida turli urug‘, qabila, qavm, xalqlarga mansub kishilar istiqomat qilganlar. Ularning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan o‘troqlashib etnik nomlarini unutib yuborganlar. Lekin etnik guruhlarining nomi ular yashagan joylarda toponim sifatida saqlanib qolgan.

Farg‘ona vodiysida o‘zbeklar bilan yonma-yon va hatto aralashib yashab kelayotgan qirg‘iz xalqining etnomadaniy aloqalar tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalardan ayon bo‘ladiki, qadimgi turkiy etnoslardan biri hisoblangan qirg‘izlarning ajdodlari azaldan Tyan-shanning shimoliy hududlaridan tortib, to Yenisey (Enasoy) daryosigacha bo‘lgan keng sahro va dashtlarda ko‘chmanchilik bilan kun kechirganlar. XVI asrda ularning ayrim etnik guruhlari Farg‘ona vodiysi hududlariga ham kelib joylasha boshlaganlar. XVII-XIX asrlarda ko‘pgina qirg‘iz urug‘lari Farg‘ona vodiysining tog‘, tog‘oldi hamda adir yonbag‘irlaridan o‘z chorvalari uchun yaylov sifatida foydalanganlar. Bu yerga asosan Tyan-Shan, Chotqol, Oloy, Qorategin va Qashg‘arda yashagan qirg‘izlar kelib joylashganlar<sup>1</sup>.

## **ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI**

O‘tmishda qirg‘izlar uchun ham barcha ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlar kabi urug‘-qabilaviy tuzilish xarakterli bo‘lgan. Qirg‘iz urug‘lari ham xuddi o‘zbek urug‘lari singari joy nomlariga urug‘-qabilalar nomlarini singdirganlar. Chunki joy nomlari unutilmas bebaho tarix oinasidir. Bu nomlarning har biri ostida o‘sha davr kishilarining o‘ziga xos hayot tarzi yotadi. Quyida biz, Farg‘ona vodiysi hududlarida uchraydigan “munduz” etnotoponimining lisoniy-etimologik xususiyatini ochib bermoqchimiz.

“Munduz” etnotoponimi Xo‘jaobod tumanidagi Birlashgan qishloq fuqorolar yig‘iniga qarashli mahalla. Bu mahalla Andijon-O‘sh yo‘li yoqasida joylashgan. Bundan tashqari, viloyatning Xo‘jaobod, Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida qirg‘izlarning munduz urug‘i vakillari istiqomat qiladilar

1. Mavjud ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, qirg‘izlar uchta yirik guruhlariga birlashganlar: “o‘ng” qanot qirg‘izlari, “so‘l” qanot qirg‘izlari hamda “ichkilik” qirg‘izlari. Huddi shu urug‘chilik tamoillari asosida qirg‘izlar

<sup>1</sup> Бу ҳақида қаранг: Абдуллаев У. Ўзбек-қирғиз этномаданий алоқалари // Жамият ва бошқарув.- 2004.- № 2, Валихонов Ч.Ч. Қирғизлар ҳақида. Қирғизлар. – Бишкек, 1999., Мўлдабоев И. Қирғизларнинг этник маданиятининг пайдо бўлиши. // Қирғизлар.- Бишкек, 1999.

ma'lum bir hududlarda, xususan. Farg'ona vodiysida hayot kechirishgan. Vodiyning shimoliy qismida qirg'izlarning "o'ng" qanot guruhiga kiruvchi sayoq, jedigar, bag'ish, mongoldar hamda "so'l" qanot guruhiga mansub sari, basiz, qushchi, chonbag'ish, qiyot, munduz kabi urug'-qabilalari joylashgan bo'lib, janubiy qismida esa asosan "ichkilik" guruhiga kiruvchi qipchoq, nayman, teyt, kesak, jookesak, qondi, bo'ston, naygut, avot, tuyalas kabi urug'-qabilalar, sharqiy hududlarida esa "ichkilik" guruhiga kiruvchi bo'ston, qipchoq, tayit, nayman, mungush, kesak hamda "o'ng" va "so'l" guruhiga mansub bag'ish, mongol, munduz, bassiz urug'lari istiqomat qilishgan. "Munduz" so'zining lisoniy etimologik jihatiga e'tibor beradigan bo'lsak, qirg'izlarning ichkilik bo'limiga qarashli so'l qanot qabilalaridan biri<sup>2</sup>. Qirg'iz olimi O'.Qoraevning keltirishicha Quv o'g'illari - Basiz, Lalim qushchi, Kattabog'ish, Saru, Sunjek xitoy bilan (Said) kelishib, uning yo'lini davomchilaridan bo'lib qolishdi.

## **MUHOKAMA**

Munduz (Oy bosh munduz) qirg'iz xalqining chap qanot urug'i bo'lib, ularga o'xshash munduz etnonimi janubiy oltoyliklarning tarkibida bor. Bundan tashqari, Qirg'izlarning Qo'chqor munduz urug'i bilan oltoyliklarning Qo'chqor mundus elatlari (mayda qisimlari)ning nomi mos keladi. Qirg'iz xalqining genetik kelib chiqishini yaxshi bilganlar Munduzlarni qadimgi urug'larning qatoriga qo'shadilar. Oltoylik telemutlarnin suyagi yoki urug'i mundus qadimgi va keng tarqalganlaridan biri. Shunga muvofiq S.Abramzon qirg'iz urug'i munduzni kelib chiqish ildizini birikmasiga kiritgan qadimgi urug'larning qatoriga qo'shgan<sup>3</sup>.

2. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilishicha munduz-ahmoq odam, degan ma'noni ifodalaydi va asarda u shunday misol orqali ifodalangan:

Necha munduz orsa et ezgu

Necha egri ersa yo'l ezgu<sup>4</sup>

Ma'nosi: Yolg'izlikdan ko'ra qancha ahmoq bo'lsa ham, hamroh yaxshi, cho'lda boshi oqqan tomonga ketgandan ko'ra qancha egri, qing'ir-qiyshiq bo'lsa ham yo'l yaxshi.

3. "Devonu lug'otit turk" asarida "Mundiz aqin<sup>5</sup>" degan ibora ham ishlatilgan va bu so'z "oquvchi sel" degan ma'noni ifodalashi aytilgan. Munduz mahallasi reliefi

<sup>2</sup> Отаккуров. С. Киргиз санжираси. 1992 й. 160 бет.

<sup>3</sup> Караев Ў. Киргиз элининг тузилиши // Материалы международной конференции, 1000 - летью эпоса "Манаса" 1996 й. Бишкек. С - 42.

<sup>4</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч жилдлик. 1-жилд. Тошкент.1960. 426 бет.

<sup>5</sup> Тюркской словарь. С- 349.

jihatan yuqori tomoni adirlik va tepaliklardan iborat. Bahor oyida ob-havoning noqulay kelishi oqibatida yog‘ingarchilikning ko‘p bo‘lishi natijasida sel yoki yomg‘ir yoqqan paytda sel va yomg‘ir suvlari adirdan pastka tomon yuvilib tushadi va mahallaning ikki tomondan o‘tib, past tomondagi arqqa tushadi. Shundan kelib chiqqan holatda qadimda aholi o‘zi yashab turgan joyni “Munduz aqin” deb nomlagan bo‘lishi hamda, keyinchalik “oqin” tushib qolib Munduz so‘zi yakka holda qo‘llanayotgan bo‘lishi mumkin.

4. Munduz - “munduz yo‘rg‘a ot” ma‘nosini ifodalashi haqida ham M.Qoshg‘ariy ma‘lumot beradi<sup>6</sup>. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu yolg‘iz yo‘rg‘asi bor ot, chopishda tengi yo‘q ot degan ma‘nolarni anglatadi. Tarixdan bizga ma‘lumki qirg‘izlar asosan tog‘ va adirliklarda istiqomat qilganlar va asosan chorvachilik, yilqichilik, bilan shug‘illanganlar. Shundan kelib chiqqan holda qirg‘izlar Munduz so‘zini o‘zlariga “totem” sifatida qabul qilgan bo‘lishi mumkin.

5. Munduz mahallasida istiqomat qiluvchi Z.Sultonovning fikriga qaraganida<sup>7</sup> Munduz etnotoponimi quydagi tarzda yuzaga kelishi mumkin:

Mann-duzd (tojikcha) “men o‘g‘ri” degan ma‘noni anglatadi.

Ilgari vaqtida shu yerlik bir yigitning Tojikistonga borib bir qizni olib qochib kelgan ekan. Shunda ketma-ket quvib kelgan tojiklar qishloqdagi odamlardan hammasini bir yerga to‘plab, tojik tilida; “Kim duz?” - “O‘g‘iri kim?” - deb so‘rabdi. Shunda haligi yigit o‘rtaga chiqib; “Men duz”, ya‘ni “O‘g‘ri men” degan ekan. *Menduz* atamasi shundan qolgan ekan. Vaqt o‘tishi bilan *menduz* odamlar tilida *munduzga* aylanib ketgan.

6. Internet<sup>8</sup> ma‘lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, Munduz qabilasi - chap qanotdagi qadimgi yirik qabilalardan biri hisoblanadi. Munduz- so‘z oxiridagi –“z” qo‘shimcha hisoblanib (-“z”/ -lar) qadimgi turkiy tilidagi -lar qo‘shimchasi bilan bir xil ma‘noga ega. Masalan, qirg‘iz, basiz, talas va boshqalar. Etnonimning parallellari hozirgi oltoy va turkmanlarning tarkibida mavjud ekanligi aniqlandi. Tarixiy folklor ma‘lumotlariga ko‘ra, oltoy xalqining "munduz" urug‘i genetik jihatdan qipchoqlar bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Teleut shajarasiga ko‘ra, muzlagan muzdan tug‘ilgan egizaklarga Chulum Munduz va Kotkor Munduz ismlari berilgan. Qirg‘iz munduz qabilasining "zulum munduz" va "kotkor munduz" qabilalari Oltoy bilan bevosita etnogenetik aloqalarga ega ekanligi aniq. Mahmud Qoshg‘ariy "Munduz" so‘zini

<sup>6</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч жилдлик. 1-жилд. Тошкент.1960. 426 бет.

<sup>7</sup> Талаба Маҳкамова Лола томонидан 18.06.72 й. ёзиб олинган маълумот.

<sup>8</sup> <https://www.google.com> мундуз +племя

quyidagi ma'nolarda izohlaydi: 1. Oqayotgan suv; 2. Yo'rg'a ot oti; 3. Yaxshi odam. V.V.Radlov bu so'zni "oddiy", "kamtarin" ma'nosida ko'rib chiqadi.

Munduz qabilasi vakillari O'zbekistonning Hujaobod, Oyim, Izboskan, Qo'rg'ontepa hududlarida hamda Qirg'izistonning Kemin, Jeti-O'g'uz, Qo'chqor, Jung'ol, Norin va boshqa viloyatlarda yashaydilar. Asosiy urug'lari: otumush, yoriq, kansoyul, mayda munduz, sokuchu, ko'kchelek, qizil bosh, oq bosh, dargg'a, to'g'unay, aziq, sapalak, baymunduz, oq uylu va boshqalardan iborat.

7. Aholi tomonidan yozib olingan ikkinchi bir etimologiyaga qaraydigan bo'lsak, joyning Andijon va Qirg'izistonning O'sh viloyatini bog'laydigan yo'l-yoqasida hamda masofaning o'rtasida joylashganini hisobga olgan holatda qadimda bu ikkala shaharlarga asosan ot ulovlarda qatnalgan. Joy adirliklardan iborat bo'lgani uchun aynan shu yerga kelganda, otlarning charchashi natijasida almashiniladigan joy, o'sha eng chopqir yo'rg'a otlarning eng yaxshisini "Munduz" deb nomlanishi joy nomiga ko'chib o'tgan.

O'rganilayotgan hudud Buyuk Ipak yo'lidagi eng muhim bekatlardan biri bo'lganligi bois, turkiy xalq, elatlar bilan bog'liq nom sifatida o'ziga xs va serqirra ma'noga ega. Shu bois, etnotoponimlarga xos yashovchanlik va barqarorlik ularni o'zbek tilining qadimgi boyliklaridan biri sifatida talqin qilishga imkon beradi.

## **XULOSA**

Ushbu etnonim yuqoridagi so'zlar asosida "munduz" - so'zining "totem" sifatida urug' va joy nomiga ko'chishi orqali ifodalanadi. "Munduz" so'zi birinchi navbatda, ot nomidan olingan bo'lib, etnonim sifatida urug' nomiga ko'chgan va bu so'z urug' nomida o'sha millat yashayotgan joy nomiga o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki, "munduz" va bir qator urug'larning qadimda qaysi kasb-kor bilan mashg'ul bo'lganini ham bilib olishimiz mumkin.

## **REFERENCES**

1. Abdullaev U. O'zbek-qirg'iz etnomadaniy aloqalari // Jamiyat va boshqaruv.- 2004.- №

2. Валихонов Ч.Ч. Қирғизлар ҳақида. Қирғизлар. – Бишкек, 1999., Мўлдабоев И. Қирғизларнинг этник маданиятининг пайдо бўлиши. // Қирғизлар.- Бишкек, 1999.

3. Караев Ў. Киргиз элининг тузилиши // Материалы международной конференции, 1000 - летию эпоса "Манаса" 1996 й. Бишкек. С - 42.

4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч жилдлик. 1-жилд. Тошкент.1960. 426 бет.

5. Тюркской словарь. С- 349.

6. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч жилдлик. 1-жилд.  
Тошкент.1960. 426 бет.



## **VIZUAL POETIK MATNLARDA GRAFIK BIRLIKLAR TAHLILI (HOZIRGI O‘ZBEK SHE‘RIYATI ASOSIDA)**

**Yunusova Hilola Ravshan qizi**

Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili o‘qituvchisi,  
- manat, rice;
- vegetable mixture;
- cheakers.

The data obtained during the study of semi-finished products are presented in the following table:



General view of the polarograph  
The process of working on a polarograph

**The content of heavy metals in some foods is  
mg / kg**

Mahsulotlar	Pb		Cd		Zn		Cu	
	SanPiN №0366-19	Natija	SanPiN №0366-19	Natija	SanPiN №0366-19	Natija	SanPiN №0366-19	Natija
Go'sht va go'sht mahsulotlari	0,5	0,4 2	0,05	0,0 3	70	30	5	3
Tuxum oqsili	0,5	0,3	-	-	-	-	-	-
Sut (yog'sizlantirilgan)	0,1	0,0 7	0,03		1,0		5,0	
Smetana 25%	0,1	0,0 6	0,4	0,0 2	0,6	0,3	0,5	0,0 9
Smetana 5%	0,1	0,0 7	0,5	0,3	1,0	0,9 4	0,3	0,0 1
Tvorog	0,3	0,3	0,1	0,0 1	4,0	1,3	50,0	29, 3
Pishloq	0,5		0,2		4,0		50,0	
Muzqaymoq	0,1		0,03		1,0		5,0	
Donlar	0,5		0,1		-		-	
Dukkaklilar	0,1		0,1		-		-	
Yormalar	0,5		0,1		-		-	
Un (bug'doy)	0,5		0,1		-		-	
Makaron	0,5		0,1		-		-	
Non va non mahsulotlari	0,35		0,2		-		-	
Shakar	0,5		0,05		-		-	
Sabzavotlar	0,05		0,03		5,0		10,0	
Choy	10,0		1,0		-		100,0	
Ichimlik suvi	0,1		0,005		1,0		5,0	

**REFERENCES:**

1. [Анализ смертельных отравлений в Московской области в период 2005–2015 годы](#) /Кудряшов В.И., Максимов А.В. //Судебная медицина. - 2016. - №4. - С. 32-35.



2. Агрэкология. Справочник / Под ред. В.А Черникова, А.И.Чекереса. М., Колос, 2000. – 563 с.
3. Амирджян Ж. А. Содержание тяжелых металлов в загрязненных почвах // Химия в сельском хозяйстве. 1994. - № 1. - С. 26.
4. Бакунин В. В., Шестакоа С. В. Содержание тяжелых металлов в мясе // Животноводство. 1987. - № 11. - С. 12.
5. Барабанщиков Н.В., Хрисанова Л.П. Распределение и концентрация микроэлементов в молоке и молочных продуктах // Молочная промышленность. 1983, №10, С. 23-25.
6. Васильев А. В., Кудрявцев В. Н., Морозов И. А. и др. Сельскохозяйственные животные естественный барьер миграции токсикантов в трофической цепи человека // Аграрная наука - 1998 - № 7. -С. 19-21.
7. Волошин Е.И. Аккумуляция кадмия и свинца в почвах и растениях // Агротехнический вестник, 2000, №3, С 23 24.
8. Вяйзенен Г. Н., Савин В. А., Гуляев В. А. и др. Ускорение выведения тяжелых металлов из организма животных. Новгород, 1997. - 301 с.
9. Новиков Ю.А. Экология, окружающая среда и человек: Учеб. пособие. - М.: ФАИР ПРЕСС, 2000. – 320 с.
10. Самохин В. Т. Обмен кадмия у жвачных // Сельское хозяйство за рубежом / Животноводство. 1972. - № 3. - С. 15.
11. Mamasaliev, M. M. (2020). Main directions of the influence of modern civilization on the spiritual image of the individual. *Вестник науки*, 3(11), 5-8.
12. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 106-109).
13. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 204-206).
14. Очилова, Н. Р., Мамасалиев, М. М., & Астанов, А. Р. (2020). Внимание воспитанию гармонично развитого молодого поколения. *International Independent Scientific Journal*, (14-2), 18-20.
15. Очилова, Н. Р., & Мамасалиев, М. М. (2016). Структура образа жизни молодежи Узбекистана на современном этапе развития. *Молодой ученый*, (5), 587-588.

- 
16. Turaeva, Sanobar Khalimovna (2021). THE PROBLEMS OF SOCIAL AND ETHNIC CONFLICTS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1532-1536.
  17. Ruziboev Dilshod A'zam ugli. (2021) TOURISM POWER OF UZBEKISTAN. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2021: 5.423,215-222.

## **NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARNI BANDLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN JARAYONLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

O'ZMU magistranti – **Tursinboyev Olimjon**

Ilmiy raxbar – Abduxalilov Abdullo

Sotsiologiya bo'yicha falsafa doktori(PhD)

### **ANNOTATSIYA**

*Kishilik jamiyatining shunday bir toifa kishilari borki, ular o'z imkoniyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarmoq uchun alohida e'tiborga muhtoj nogironligi bor shaxslardir. Ularning jamiyatga qo'shilib ketishi, o'z o'rnini topa olishi ko'p jihatdan jamiyatning boshqa a'zolari va shu jamiyatning normative hujjatlariga bog'liq. Biz ushbu maqolada shu masalani atroflicha yoritishga harakat qildik.*

**Kalit so'zlar:** *Nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironlar mehnati, mehnat shartnomasi, ish beruvchi, ish o'rni.*

### **АННОТАЦИЯ:**

*В человеческом обществе есть категория людей с ограниченными возможностями, которым необходимо особое внимание для реализации своего потенциала. Их интеграция в общество и их способность найти свое место в значительной степени зависит от других членов общества и нормативных документов этого общества. Мы постарались подробно осветить этот вопрос в этой статье.*

**Ключевые слова:** *инвалиды, трудовой договор, работодатель, работа.*

### **ANNOTATION**

*There is a category of people in human society who are people with disabilities who need special attention in order to realize their potential. Their integration into society and their ability to find their place depends to a large extent on other members of society and the normative documents of that society. We have tried to cover this issue in detail in this article.*

**Keywords:** *Persons with Disabilities, Disabled Labor, Employment Contract, Employer, Job.*

### **KIRISH**

Nogironlar mehnatidan foydalanish uchun nogironlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan korxonalar, sexlar va uchastkalar tashkil etiladi. Ko'zi ojiz nogironlar sharoitlari o'z imkoniyatlariga mos keladigan ishlab chiqarishda ishtirok etishda imtiyozli huquqqa egalar.

Xodimlarining soni yigirma kishidan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi. Nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini yaratish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ijro etmaganligi uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotga har bir yaratilmagan ish joyi uchun ana shu korxonalar, muassasalar va tashkilot xodimining o'rtacha yillik ish haqi miqdorida jarima solinadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Nogironligi tufayli nogiron bilan mehnat shartnomasi tuzishni yoki ish yuzasidan uni yuqori lavozimga ko'tarishni rad etishga, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishga, nogironni uning rozilgisiz boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi, tibbiy-ijtimoiy ekspertizaning xulosasiga ko'ra, nogironning sog'lig'i kasb vazifalarini bajarishga monelik qilgan yoki nogironning yoxud boshqa shaxslarning sog'lig'i va mehnat xavfsizligiga tahdid qilgan hollar bundan mustasno. Nogiron o'z mehnat qobiliyatini tiklaganidan keyin, ilgari ishga yoki shunga teng ishga joylashish huquqiga ega.

Agar xodim ish beruvchining aybi bilan nogiron bo'lib qolsa hamda o'zgalarning parvarishiga va yordamiga muhtoj bo'lsa, unda ish beruvchi nogiron mehnat qobiliyatini yo'qotgan davrda uni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari yoki tibbiy-maslahat komissiyalarining xulosasiga binoan, parvarish qilayotgan shaxsni o'z hisobidan ta'minlashi hamda jabrlangan xodimga yetkazilgan moddiy zarar va ma'naviy ziyonning o'rnini qoplashi shart.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uyda ishlovchi nogironlarga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nogironlarga mazkur faoliyat uchun yashashga mo'ljallanmagan joylar berilishida, xom ashyo olishi va mahsulot sotishida zarur yordam ko'rsatadilar.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishiga asosiy sabab sifatida quyidagi omillar ko'rsatib o'tilgan:<sup>1</sup>

- insonlarni uzoq umr ko'rish yoshi ortganligi;
- surunkali kasalliklar sonining ortib borishi;
- tabiiy ofatlar sonining ortganligi;
- jarohatlar sonining ortganligi;

<sup>1</sup>Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. – Ташкент, 2012. – С. 116.

– aholi o‘rtasidagi nochorlik ahvoli;

– ish bilan ta‘minlanmaslik (ayniqsa, aqliy va ruhiy nuqsonlari bor nogironligi bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta‘minlash masalalarining muammoligi).

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yer yuzida nogironligi bo‘lgan shaxslar sonining ortishiga ko‘rsatib o‘tilgan sabablarning bir qismi O‘zbekiston uchun ham xosdir.

Aksariyat rivojlangan davlatlarning tajribalari shundan dalolat beradiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishda birinchi navbatda ijtimoiy himoya yoki ijtimoiy imtiyozlar yaratish emas, balki ularning bandligini, ya‘ni ish bilan ta‘minlash masalasi muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlardan ma‘lum bo‘lishicha, dunyo bo‘yicha jami nogironligi bo‘lgan shaxslarning 2/3 qismi ma‘lum darajada uy sharoitida, oddiy yoki maxsus yaratilgan ish o‘rinlarida mehnat bilan shug‘ullanish imkoniga ega. Ammo ularning atigi 11% i ishga joylashgan.

Rossiya davlatida nogironligi bo‘lgan shaxslarning 25 %, AQShda 29 %, Fransiyada 30%, Germaniya hamda Buyuk Britaniyada 40 % gacha va Xitoyda 80 % nogironligi bo‘lgan shaxslar ish bilan ta‘minlanganligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida aholining 2,4 % ini nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etib, katta yoshdagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘rtacha 34 ming nafari (5%) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band ekanligi masalaning mohiyatini yanada oshiradi. Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning 3,5 % ini I guruh, 55,8% ni II guruh va 40,7% ni III guruhdagilar tashkil etadi<sup>22</sup>.

Nogironlarning mehnatidan foydalanish uchun nogironlarning ehtiyojlarini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, maxsus korxonalar, sexlar va uchastkalar barpo etiladi. Ko‘zi ojiz nogironlar sharoiti o‘zlarining imkoniyatlariga mos keladigan ishlab chiqarishlarda qatnashishda ustunlik huquqiga ega.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar va birlashmalar uyda ishlovchi nogironlarga, shuningdek yakka tartibdagi mehnat faoliyati band bo‘lgan nogironlarga mazkur faoliyat uchun odam turmaydigan bino yoki xonalar ajratib berish, xom ashyo sotib olish va mahsulotni sotishda zarur yordam beradi.

Xususan, 2010 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq, 2011 yil 1 yanvaridan boshlab, III guruh nogironligi

<sup>22</sup> Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. – Ташкент, 2012. – С. 116.



bo'lgan shaxslarga pensiya to'lash tartibi bekor qilindi hamda ushbu toifadagi shaxslarni ish bilan ta'minlash masalasi kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qoldi<sup>2</sup>.

Albatta nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashning davlat uchun iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilish ancha mushkul. Ammo olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lgan nogironligi bor shaxslar budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan ular uchun to'lanayotgan pensiya miqdorining deyarli 50% ni o'zlari qoplab berishlari mumkin. Bundan tashqari, ishlayotgan nogironligi bo'lgan shaxslar bandlikka ko'maklashish jamg'armasiga o'z hissalarini qo'shib, aksariyat holatlarda daromad solig'ini ham to'lab keladilar. Shu singari bir foizli jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasiga ham o'z hissalarini qo'shib, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun o'zlarining kichik ulushlarini qo'shadilar.

Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat, nodavlat, jamoatchilik tashkilotlari hamda ish beruvchilarning kompleks yondashuvi natijasidagina nogironligi bo'lgan shaxslarni oqilona ishga joylashtirish samaradorligi yuqori bo'lishi mumkin. Turli davlatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni oqilona ishga joylashtirish mexanizmlarining quyidagi turlarini farqlash mumkin:

- qonunchilikda nogironligi bo'lgan shaxslarni boshqa fuqarolar bilan teng huquqlarga ega ekanliklarini belgilash;
- ish o'rinlarini zahirada saqlash (kvotalash);
- ishga joylashtirish jarayoniga ergoterapevtlar va ijtimoiy xodimlarni jalb etish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni vaqtincha yoki sinov muddati bilan ishga joylashtirish;
- ishga joylashgan nogironligi bo'lgan shaxs va ish beruvchini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy korxonalar va ijtimoiy muassasalarni tashkil etish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish jarayoniga nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlarini faol ishtirok etishlarini ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlashda jamoatchilik faolligini oshirish.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarini zahirada saqlash mexanizmi Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda joriy qilingan. Mazkur davlatlarda xodimlarning soni 20 kishidan 50 kishigacha bo'lgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar 2 % dan 6 % gacha ish

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонунга қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисидаги Қонуни. 2011 йил.

o‘rinlarini zahirada saqlashlari belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida 20 kishidan ortiq bo‘lgan korxonalar, muassasa va tashkilotlar 3% ish o‘rinlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun zahirada saqlashlari lozim<sup>1</sup>.

AQSh va Buyuk Britaniya davlatlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirishning majburiy mexanizmlari qo‘llanilmaydi, ammo mazkur davlatlarning qonunchiligida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishlari uchun boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxsning ish beruvchi bilan suhbat olib borishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lishi lozim, shu jumladan, ko‘zi ojiz nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ham, nogironligi bo‘lgan shaxslarning shaxsiy hayotlariga aloqador ma‘lumotlarni so‘rab olish taqiqlanadi, ayrim holatlarda hattoki nogironlik to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani so‘rab olishga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

Aksariyat rivojlangan davlatlarda (Shvesariya, Avstriya, Fransiya, Koreya, Italiya, Rossiya va h.k.), shu jumladan, O‘zbekistonda ham nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashganligidan qat’i nazar pensiya to‘lovining saqlab qolinishi ularning ishga joylashishlari uchun eng muhim rag‘batlantiruvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya singari davlatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar ishga joylashganlaridan keyin pensiya 3 oydan 3 yilgacha to‘lab borilib, uning oqilona ishga joylashganligi va o‘z ishiga to‘liq moslashganidan keyin pensiya to‘lovi to‘xtatiladi.

Rossiya, Ukraina va Belorussiyada nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish jarayoniga ergoterapevtlarni jalb etish mexanizmi keng joriy qilingan. Ushbu mutaxassislar nogiron shaxslarni cheklangan yoki yo‘qotgan turmush faoliyatini tiklash bilan shug‘ullanadi. Ergoterapevtlar bundan tashqari nogironligi bo‘lgan shaxslarda ijtimoiy-maishiy ko‘nikmalarni shakllantirish, orientatsiya, kasb ko‘nikmalarini hosil qilish singari vazifalarni ham amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda, afsuski, ergoterapevt mutaxassislar tayyorlanmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, nogironligi bo‘lgan shaxslarni yakka tartibdagi rehabilitatsiya dasturining ijtimoiy-maishiy va kasbiy bo‘limlarini shakllantirishga salbiy ta’sir etadi. Ukraina, Rossiya, Belorussiya davlatlarida nogiron shaxslarni yakka tartibdagi rehabilitatsiya dasturlari bir oy mobaynida ijtimoiy xodim, ergoterapevt, rehabilitolog va boshqa mutaxassislar ishtirokida tuziladi. O‘zbekistonda esa ushbu vazifani tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining vrachlari ko‘rik o‘tgan

<sup>1</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Биринчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ўн тўртинчи сессиясидаги маъруза, 1999 йил 14 апрель. Материалы международного форума «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». – Ташкент, 2012. – С. 117.

kunning o‘zida bajaradi va bu xato, kamchiliklar salmog‘ining yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta‘minlashda jamoatchilik faolligini oshirish mexanizmi aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda tashkil etilgan. Masalan, Yaponiya, Filippin, Tayland, Koreya, Hindiston va boshqa bir qator davlatlarda jamiyat a‘zolarining faollashuviga asoslangan yondashuv modeli keng qo‘llaniladi. Yoki ushbu model – mahalliy jamiyat rivojlanishida barchaning ishtirokini ta‘minlovchi yondoshuvdir. Mazkur model 30 yillar ilgari joriy etilgan bo‘lib, Osiyo va Tinch okeani hududi hamda boshqa mamlakatlar tajribasida qo‘llanib kelinmoqda.

Mazkur modelni o‘zbek taraqqiyot modeliga o‘xshash jihatlari ham e‘tiborga loyiq. Masalan, modelning 5 ta modeli o‘z ichiga moddiy ta‘minot, sog‘liqni saqlash, to‘sqinliksiz muhit, shart-sharoit, ijtimoiy muhit, ta‘lim, bandlik, rehabilitatsiya (uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, komplekslilik tamoyillari) jarayonlarini qamrab olgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta‘minlashda barchaning ishtirokini ta‘minlovchi yondoshuv quyidagi prinsiplarga tayangan bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- ish uslubi o‘zgaruvchan;
- oson moslashuvchan;
- qo‘shimcha mablag‘, qo‘shimcha kuch talab qilmaydigan bo‘lishi lozim.

Barchaning ishtirokini ta‘minlovchi yondoshuvda nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlari katalizator (ya‘ni liderlik) rolini o‘ynashi muhimdir. Chunki mazkur tashkilotlar:

1. Muammolarni yaxshi biladi.
2. Kadrlar tarkibi va tarmog‘i mavjud.
3. Moddiy-texnik baza mavjud.
4. Mahalliy xususiyatlarni ob‘ektiv hisobga oladi.
5. Masalaning yechimiga xolisona yondoshadi.
6. Tizimda struktura mavjud.

Hozirgi vaqtda nogironligi bo‘lgan odamlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi isloh qilish jarayonida turibdi. Ilgarilari hastalik –nogironlik – mehnatga layoqatsizlik tushunchasini tengligiga asoslangan hayot faoliyatining turli xil mezonlarini cheklash darajasini aniqlashga asoslangan manzilli yondashuvga bosqichma-bosqich o‘tish yuz bermoqda. Nogironlikni aniqlashni tartibi, davlatning ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarni taqdim etish tartibi qayta ko‘rib chiqildi.

Davlat uchun nogironligi bo'lgan odamlarni ishga joylashtirishni iqtisodiy ahamiyatini deyarli baholab bo'lmaydi, biroq uni raqamlardagi to'liq foydasini hisoblab chiqish murakkab ish, chunki u pul ko'rinishida hisoblash chiqish qiyin bo'lgan ko'plab omillarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Son sifatida hisoblash yengil kechadigan omillardan biri – bu O'zbekistonning rasmiy sektorida ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar budjetdan tashqari fondan olinadigan pensiyalarini 50 foizga yaqinini qoplashadi, qo'shimcha tarzda bandlikka ko'mak berish fondiga mablag' ajratadi va bir qator holatlarda daromad solig'ini to'lashadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishni ahamiyatini pasaytirmagan holda qayd etishimiz kerakki, ularni ish bilan ta'minlashni ijtimoiy ahamiyati juda ham muhim hisoblanadi.

Ishga joylashtirish nafaqat moddiy ta'minlanishni anglatadi. Nogironligi bo'lgan odamlarni ishga joylashtirishning ijtimoiy ahamiyati ularni o'z-o'zini namoyon qila olish, jamiyat rivojiga o'zlarining noyob hissalarini qo'shish imkoniyati, muloqot va jamiyatiga kirishishlari uchun imkoniyatlarni taqdim etishni ta'minlashdan iboratdir. Nogironligi bo'lgan odamlarni ishga joylashtirish ularga nisbatan bo'lgan achinish, qobiliyatiga ishonchsizlik, hamda ularni jamiyat uchun ortiqcha tashvish keltiruvchi ko'rinishda bo'lgan bir taxlitdagi munosabatlarni bartaraf qilish imkonini beradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini, xususan, nogironligi bor bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlashni muvofiqlashtirib boruvchi davlat va nodavlat tashkilotlaridan iborat milliy va hududiy kengashlar tashkil etish, mazkur kengashlarga jamoatchilik faollarini jalb etish;

- bandlik masalalarini monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish, natijalarni baholash, huquqiy masalalar yuzasidan davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlarining malakalarini birgalikda oshirish kurslarini tashkil etish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarga mehnat va kasbiy tavsiyalar berishning yangi zamonaviy standartlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning saqlanib qolgan mehnat faoliyatini baholash hamda mehnat tavsiyalari berish maqsadida turmush faoliyati cheklanishining yangi standartlari va uslublarini ishlab chiqish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joylarini attestatsiyadan o'tkazish uslublarini takomillashtirish hamda mazkur attestatsiyalarda mehnat tavsiyalarini bergan mutaxassislar ishtirokini ta'minlash;

- "Mehnat bozori" to'g'risida avtomatlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish hamda tashkilot, muassasa va korxonalar o'rtasida tizimli ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish;

- davlat, nodavlat tashkilotlari hamda barchaning ishtirokini ta'minlovchi yondoshuvga asoslangan tizimning imkoniyat va ehtiyojlar haritasini ishlab chiqish, qiyosiy tahlil qilish orqali mavjud muammolar yechimini topish;

- jamoat nazorati tizimini shakllantirish, ijtimoiy hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- kadrlarni to'g'ri tanlash va tayinlash bo'yicha jamoat kengashlarini tuzish, mazkur kengashlarning asosiy qismiga nodavlat tashkilotlari hamda jamoatchilik faollari a'zolarini jalb qilish;

- nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash, ularga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirishda barchaning faolligiga asoslangan yondashuv imkoniyatlaridan kengroq foydalanish.

## **REFERENCES**

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1999 yil 14 aprel

2.Международный форум «Духовно-нравственные основы общества в системе социальной поддержки детства и семьи». Сборник материалов. – Ташкент, 2012. – С. 116.

3. Bolalar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – farovon va taraqqiy etib boruvchi jamiyat asosi. Xalqaro forum materiallari. – Toshkent, 2013. – B. 75.



---

## **HINDISTON TASHQI SIYOSATI: XITOIY BILAN MUNOSABATLAR DINAMIKASI**

**To'ychiyeva Ra'no Almamatovna,**  
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,  
Ijtimoiy fanlar kafedrası,  
tayanch doktorant,  
Email: [rano-tuichiyeva@mail.ru](mailto:rano-tuichiyeva@mail.ru)  
Tel.: +998974046454

### **ANNOTATION**

*This article analyzes how India has organized its foreign policy and what strategies it has pursued since gaining independence to the present day. The article also discusses in detail the internal and external factors that have helped the country to achieve effective, positive results in foreign policy and, conversely, have had a negative impact. The article also examines India's relationship with the United States and Russia, which are currently striving for global hegemony. Changes and development trends in relations with China are at the center of the discussion. It also cites India's successes, shortcomings and contradictions in its relations with its neighbors - Pakistan, Bangladesh, Myanmar, Nepal and Bhutan - as well as their specific reasons. Chronological approach, comparison and synthesis-analysis methods were used in writing the article. The article consists of an annotation, keywords, introduction, main part, conclusion and bibliography.*

**Keywords:** foreign policy strategy, China, USA, Russia, Pakistan, Afghanistan, Iran, Tibet, Kashmir, security, border issues.

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola Hindiston mustaqilligini qo'lga kiritgan vaqtdan boshlab bugungi kungacha bo'lgan davrda o'z tashqi siyosatini qanday tashkil qilganligi va qanday strategiyalar asosida olib borganini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada mamlakatga tashqi siyosatda samarali, ijobiy natijalarga erishishda yordam bergan va aksincha, salbiy ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar batafsil ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada Hindistonning hozirgi paytda global gegemonlikka intilayotgan AQSh va Rossiya bilan munosabatlari o'rganiladi. Xitoy bilan munosabatlardagi o'zgarish va rivojlanish tendensiyalari muhokama markazida turadi. Shu bilan birga, Hindistonning qo'shnilari - Pokiston, Bangladesh, Myanma, Nepal va Butan bilan munosabatlaridagi muvaffaqiyatlar, kamchiliklar va ziddiyatlar hamda ularning o'ziga xos sabablari ham keltiriladi. Maqolani yozishda xronologik*

*yondashuv, taqqoslash va sintez-tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqola annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.*

***Kalit so'zlar:** tashqi siyosat strategiyasi, Xitoy, AQSH, Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Tibet, Kashmir, xavfsizlik, chegara muammolari.*

## **KIRISH**

Hindistonning tashqi siyosiy strategiyasi o'z taraqqiyotida uchta asosiy bosqich – mustamlakachilik, Javaharlal Neru davri va geosiyosiy pragmatizm davrini bosib o'tgan deya baholanadi. Britaniya imperiyasi hukmronligining janubiy qismida Hindiston markaziy pozitsiyani egalladi va ingliz imperiyasi g'arbda Fors ko'rfazidan sharqda Malakka bo'g'ozigacha bo'lgan joyni nazorat qildi. Mustaqillikning dastlabki o'n yilliklarida Hindiston J.Neru boshchiligida “Uchinchi dunyo” – “antimperializm” birdamligi tamoyillariga asoslanib, muqobil yevrosentrizm hamda dunyo tartibining bipolyarligini qo'llab-quvvatlovchi va “sovuq urush”ga nisbatan betaraf davlatga aylanishga intildi.

Va nihoyat, tashqi siyosatning "realistik" paradigmasining konsepsiyasi Indira Gandi nomi bilan bog'liq bo'lib, uning moddiy asoslari iqtisodiy salohiyat va harbiy kuchga tayandi. 1971 yilda Bangladeshni (o'sha paytda Sharqiy Pokistonni) ozod qilish uchun g'alaba qozongan to'qnashuv jarayonida amaliy konsepsiya sinovdan o'tkazildi va o'sha yili Sovet Ittifoqi bilan tuzilgan tinchlik va do'stlik shartnomasi geosiyosiy “xavfsizlik kamari” ga aylandi.

Hindistonning tashqi siyosiy strategiyasi 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida biroz o'zgartirildi. Sovet Ittifoqining parchalanishi, ikki qutbli dunyoning qulashi, islomiy siyosiy kuchlar ta'sirining kuchayishi, Xitoyning jadal iqtisodiy rivojlanishi va boshqa omillar Hindistonning tashqi dunyodagi xatti-harakatlariga jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Hindistonning hukmron doiralari shunday xulosaga kelishdi: mamlakatning harbiy-siyosiy salohiyati to'g'ridan-to'g'ri o'sish va rivojlanishning innovatsion intensiv modeli bilan belgilanuvchi iqtisodiyotning rivojlanishiga, uning tuzilishiga hamda diversifikatsiyasiga bog'liq.

Darhaqiqat, mamlakatning yangi salohiyati 1991 yilgi iqtisodiy islohotlar konsepsiyasida belgilandi va u 90-yillarning o'rtalariga kelib Hindistonni jadal iqtisodiy o'sish traektoriyasiga olib chiqdi. O'z navbatida, islohot natijalari hind harbiy elitesining siyosiy tafakkurida aks etdi. Bu davrga kelib, Hindistonning maqsadi mintaqaviy emas, balki kelajakdagi global kuch sifatida tobora qat'iyat bilan harakatlanuvchi mamlakatga aylanish ekani sezila boshlandi. Ob'ektiv ravishda mamlakat oldida harbiy-texnik salohiyatni sifat jihatidan yangilash vazifasi turgandi.

Bundan tashqari, Xitoyning tezlashtirilgan iqtisodiy o'sishi va harbiy xarajatlar hamda harbiy salohiyatni muntazam takomillashtirish talabi kabi omillar Hindistonning siyosiy va harbiy tuzilmalarini yanada "shoshilishga" majbur qildi.

Keyinchalik, 90-yillarning o'rtalarida Hindiston harbiylari Rossiya bilan hamkorlikdan umid qilishda davom etishdi, ammo ichki mudofaa sanoati majmuasi inqirozi, ikki tomonlama tashqi iqtisodiy aloqalarning sezilarli qisqarishi va liberal islohotlar Rossiya bilan harbiy-texnikaviy hamkorlikning bir tomonlama yo'naltirilishiga olib kelgani muhokamalarga sabab bo'ldi. Klinton ma'muriyati zudlik bilan Dehli signallariga javob qaytardi va Hindistonning o'zida (birinchi navbatda ingliz tilidagi "elita" ichida) Amerika bilan harbiy aloqalarni faol rivojlantirish tarafdorlari bor ekanligini bildira boshladi. To'g'ri, 1998 yildagi yadroviy sinovdan so'ng, Hindistonga nisbatan "qattiq" sanksiyalar qo'llanildi, ammo ko'p o'tmay Jorj Bush ma'muriyati Vashington uchun geosiyosiy jihatdan "noqulay" qarorni qayta ko'rib chiqishni boshladi. Bunday harakatlarning asosiy sabablaridan biri Hindistonga Osiyo-Tinch okeani mintaqasida "qarshi vazn" roli berilganligi edi.

Biroq, Hindiston boshqalarning geosiyosiy rejalarini amalga oshirishga osonlikcha rozi bo'lgan deb o'ylash noto'g'ri bo'ladi. Mamlakatning hukmron doiralari, ayniqsa, ularning G'arbga yo'naltirilgan qismi, o'zlarining yo'llari bilan Hindistonning geosiyosati va harbiy-siyosiy strategiyasini diversifikatsiya qilishga, AQSh, Rossiya va Xitoy bilan munosabatlarining maksimal darajada qaytarilishiga harakat qilishdi. Bir tomondan, Hindiston hukmron doiralari mamlakat uchun eng qulay sharoitda harbiy-texnikaviy sohada Rossiya bilan hamkorlik aloqalarini faol ravishda davom ettirdilar. Boshqa tomondan, Hindiston harbiy idorasi ta'minotning tartibsizligi va kerakli ehtiyot qismlar bilan to'liq ta'minlanmaganligidan shikoyat qilishdi. Shuningdek, Hindiston hukumati savdo-iqtisodiy aloqalar va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohasida amerikaliklar siyosiy shartlar qo'yish amaliyotidan voz kechmaganligidan xabardor edi. Shuningdek, Amerika xuddi shunday jangovar texnikasini Hindistonning "potensial dushmani" – Pokistonga ham sotish ehtimoli yuqori edi. Shuni esda tutish joizki, Hindistonning Janubiy Osiyo mintaqasidan tashqariga chiqqan yangi roli mamlakatning tezlashtirilgan modernizatsiyasi va iqtisodiyotini chuqur diversifikatsiyasi natijasi edi. Hindlar asosiy ikki sababga ko'ra kelajakka ishonch bilan qaradilar. Birinchidan, iqtisodiy o'sish dinamikasi yiliga 8-8,5 foizni tashkil qildi, xususan, qishloq xo'jaligi sohasi faol rivojlandi (bu mamlakatda ichki siyosiy barqarorlikni saqlash uchun muhim edi). Ikkinchidan, mamlakatni siyosiy boshqarish uslubi yanada oqilona tamoyillarga tayana boshladi va ushbu yondashuvning mazmuni quyidagilarda o'z aksini topdi:

a) hukumatning sa'y-harakatlarini mamlakatni rivojlantirish strategiyasiga yo'naltirish;

b) ma'muriy muassasalar faoliyatining sifat jihatidan yaxshilanishi;

v) davlat boshqaruvini davlat siyosatidan ongli ravishda ajratish, bu odatda hind jamiyatini muntazam ravishda idrok etish kuchiga xalaqit berardi.

Biroq, tashqi siyosatdagi bu muvaffaqiyatlar Hindistonda milliy xavfsizlikka oid uzoq muddatli muammolarni bartaraf eta olmadi. Ushbu qiyinchiliklar orasida bir nechta asosiy muammolarni ajratib ko'rsatish odat tusiga kirdi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hindiston allaqachon Afg'onistonning eng yirik mintaqaviy donoriga aylanib, bu davlatga 1 milliard dollardan ziyod yordam yuborishga ham ulgurdi. Ba'zi hind mutaxassislari bunday yordamning samarali yetkazib berilishini shubha ostiga olishdi, ayniqsa, Eron atrofidagi vaziyatning murakkablashishi munosabati bilan so'nggi o'n yil ichida Hindiston tomonidan Eron, Hindiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyo o'rtasida transport loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini baholash qiyin bo'ldi. Mazkur masalada Hindiston doimiy ravishda AQShning bosimi ostida bo'lib, u mamlakatni Eron bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni butunlay qisqartirishga undab keldi. Afg'onistonda Hamid Karzay rejimining tanqidiy ahvolini hisobga olgan holda, tabiiyki, savol tug'ilardi, Hindistonning bu davlatdagi pozitsiyalari nimadan iborat edi? Avvalo, Hindiston chegaralarining g'arbiy va sharqiy perimetrida "siyosiy islom" ning ta'siri kuchayayotgani ko'plab muammolarni keltirib chiqarayotgan edi.

Pokiston va Bangladesh Xalq Respublikasida siyosiy islom kuchlari allaqachon hukumatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritishni boshlagan edilar. Hindistonlik siyosatshunoslarning fikriga ko'ra, ushbu kuchlarning maqsadi ikki tomonlama ssenariy: dunyoviy partiyalar va uyushmalarning marginallasuvi va uzoq muddatli istiqbolda ikki davlat o'rtasida "islomiy siyosiy front" yaratish, shuningdek, Hindistonning Janubiy Osiyo mintaqasida o'sib borayotgan geosiyosiy ta'sirini susaytirishga erishish edi. Harbiy mutaxassislarning fikricha, Hindistonning quruqlik va dengiz chegaralari himoyasi yetarli darajada mustahkam emas edi. Davlat chegaralarining "g'ovakliligi" g'iyohvandlik vositalari, noqonuniy qurol-yarog' va o'q-dorilar, shuningdek, soxta banknotalarning Hindistonga va undan tashqariga intensiv ravishda "harakatlanishi" uchun asosiy sabab bo'layotgandi. Shu kabi omillar jamiyatda nomutanosiblikni keltirib chiqarib, iqtisodiyot va siyosiy institutlarga ta'sir qilayotgan edi. Bundan tashqari, Hindiston bilan chegaradosh davlatlar, aniqrog'i "muammoli qo'shnilar" – notinch Nepal va Bangladesh beixtiyor hind-xitoy mojarosining o'rtasida turdi. Harbiy mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu va boshqa

omillardan Hindiston dushmanlari o'zlarining mintaqaviy manfaatlariga erishishda foydalanishga harakat qildilar. Geografiik joylashuvning o'zi ham mamlakatni murakkab vaziyatga tushishiga sabab bo'ldi: Hindiston "oltin yarim oy" va "oltin uchburchak" o'rtasida - giyohvand moddalarning asosiy ishlab chiqaruvchilari orasida joylashgan.

Harbiylar, ayniqsa, "oltin uchburchak" mamlakatlaridan biri bo'lgan Myanma bilan chegaralarning o'tkazuvchanligidan xavotirda edilar, chunki Hindistonning ba'zi shimoliy-sharqiy shtatlaridagi isyonchi guruhlar Myanma bilan chegarada qurol-yarog' va giyohvand moddalar tranzitini kuchaytirishda davom etdilar.

Janubiy Osiyo mintaqasidagi strategiya bo'yicha Hindistondagi ekspertlar o'rtasida turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, mutaxassislarning bir guruhi Pokiston va Bangladesh Hindiston manfaatlari yo'lida kerakli kuch, deb hisoblasa, boshqalari, ayniqsa, harbiy muhitdagilar, Hindiston ushbu davlatlarning qulashi uchun "ishlashi" kerak, deb o'ylashadi. Bundan tashqari, Pokistondagi ichki siyosiy jarayonlar, birinchi navbatda, jamiyatni pastdan islomlashtirish va harbiy-diniy koalitsiyani yaratish uzoq muddatli asosda Hindiston xavfsizligiga tahdid solmoqda. Va nihoyat, Tolibon Kobulda hokimiyat tepasiga qaytishi mumkinligi ehtimoli kuchayganidan so'ng Hindistonda Afg'oniston bilan kelajakdagi munosabatlar to'g'risida aniq tasavvur yo'q.

Ba'zi ekspertlar mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlashda tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlarning aniq ko'rinishi yo'q deb hisoblashadi. Hindistonning yetakchi strategik sheriklari sifatida mutaxassislar AQSh, Rossiya, Xitoy, Isroil, Vetnam va Eronni alohida ta'kidlashadi. Ularning fikriga ko'ra, dunyoning "postipolyar" konfiguratsiyasi hali aniq tasavvurga ega bo'lmaganligi sababli, Hindiston uchun yangi tashqi siyosiy strategiyani ishlab chiqish kamida 5-7 yilni talab qiladi. Biroq, Xitoy omili, ayniqsa, Hindistonning siyosiy elitasini qattiq havotirga qo'yadi. Hind-xitoy mojarosi, hech bo'lmaganda yashirin shaklda, ikkala mamlakat uchun kam bo'lgan energiya manbalari ustida raqobat natijasida kuchayishi mumkin.

Ko'p sonli omillar va kuchlar chizig'ining murakkab birlashuvi Hindistonning doimiy o'zgarib turadigan, global va mintaqaviy tarkib bilan "to'yingan" tashqi siyosiy strategiyasini shakllantiradi.

Iqtisodiy o'sish markazlarining Shimoliy Atlantikadan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga siljishi rivojlanayotgan geosiyosiy kuchlar, birinchi navbatda, Hindiston-Xitoy-AQSh virtual "uchburchagi" ga e'tibor kuchayishiga olib keldi.



Bir tomondan, AQSh-Hindiston yadroviy kelishuvi va strategik muloqoti ba'zi G'arb mutaxassisleri tomonidan Pekinga bosimning ideal ko'rinishi sifatida qaralmoqda. Bunda Hindistonning geosiyosiy roli va Xitoy-Hindiston munosabatlarning oliy hakami sifatida Amerikaning roli oshib borayotganini ko'rish mumkin. Boshqa tomondan, Washington xayrixohlik bilan Xitoyga dunyo ishlarida o'ziga "yordamchi" sifatida qo'shimcha rol o'ynashiga imkon bermoqda.

Dunyoning muhim mintaqalaridan – Osiyo-Tinch okeani mintaqasida tashqi siyosiy hujumni rivojlantirayotgan Amerika harbiy-siyosiy tuzilmasi Hindiston bilan muvaffaqiyatli harbiy-texnik hamkorlik qilishdan mamnun. C130 Hercules harbiy transport samolyotlari (1 milliard dollar) va Rossiyaning Tu-142M samolyotining o'rnini bosuvchi P8i dengiz patrul samolyotlarini (2 milliard dollar) ushbu mamlakatga sotish bo'yicha istiqbolli kelishuvlar imzolandi. Amerikaning harbiy texnika yetkazib berishdagi geosiyosiy maqsadi aniq: Hindiston qurolli kuchlarini AQSh harbiy-sanoat kompleksi bilan mustahkamlash va doimiy ravishda o'ziga "bog'lab olish". Biroq, hind-amerika munosabatlari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning o'zaro harakati dinamikasi hamda Hindistonning "buyuk shimoliy qo'shnisi" Xitoy bilan qiyin munosabatlari bilan ancha murakkab traektoriya bo'ylab rivojlanmoqda.

Hindistonda AQSh bilan "yadroviy kelishuv" ni tanqid qilish davom etmoqda. Bu holat chapda ham (kommunistlar va ba'zi boshqa partiyalar tomonidan) va o'ngda ham ("Bharatiya Janat Party") yuz bermoqda. Tanqidlarning mohiyatini bitta jumla bilan aniqlash mumkin, ya'ni "yadroviy kelishuv" Hindistonning suverenitetini cheklaydi. Qarshilikning alohida xususiy sabablari ham mavjud. Jumladan, boshqaruvdagi asosiy ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'zlarining siyosiy ta'sirini xavf ostiga qo'yishni istamaydilar, chunki saylovchilarning katta qismi AQShga va uning siyosatiga ishonmaslikda davom etmoqda. Bundan tashqari, yaqinda ba'zi bir muhim shtatlarda bo'lib o'tgan qonunchilik saylovlari Milliy Kongressning pasayish tendensiyasini tasdiqladi va mamlakatdagi siyosiy vaziyatga nisbatan qo'shimcha noaniqliklar yuzaga keldi. Shu bilan birga, Hindistonning ichki siyosiy nutqida XRR va uning siyosati haqida zikr qilish chastotasi so'nggi paytlarda sezilarli darajada oshdi.

Chegara muammosi, ehtimol, Dehli va Pekin o'rtasidagi munosabatlarning to'sig'idir. Agar hindlar 1962 yilgi ikki davlatning "chegara urushi" deb nomlangan fojiali voqealarini eslashda davom etsa, demak, xitoyliklar Hindistonga nisbatan o'zlarining tarixiy da'volariga ega. Norasmiy ravishda xitoylik olimlar Hindistonning "abadiy" ikki tomonlama pozitsiyasiga murojaat qilishadi: bir tomondan hindlar



Tibetni Xitoyning bir qismi deb bilishadi, boshqa tomondan, ushbu hudud, go'yoki birinchi Bosh vazir Javaharlal Neru (1947-1964) davridan boshlab Hindiston va Xitoy o'rtasidagi "bufer zonasi" sifatida qaralishda davom etmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, muzokaralar jarayonining muqobil variantlari ikkala tomon uchun ham cheklangan.

Xitoy Tibetdan tashqari, Shinjonda ham muammolarni boshdan kechirmoqda. Biroq, Hindiston hech qachon ulardan foydalanishga urinmaydi (agar hozirgi paytda Pokistonda ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish borasida ikki davlat o'rtasida "strategik tushuncha" mavjud bo'lsa). Bundan tashqari, Dehlining Xitoy uchun ushbu qiyin davrdagi cheklovi Pekin tomonidan qadrlanadi va bu ikki tomonlama munosabatlarni yakuniy tartibga solish yo'lini qisqartirishi mumkin.

Hindiston tashqi siyosati bir nechta muhim yo'nalishlarda olib boriladi, ulardan biri uchta o'ta yirik davlatlar - Hindiston, Rossiya va Xitoyning o'zaro aloqalari bilan bog'liq bo'lmoqda. Xususan, gap Rossiya-Hindiston-Xitoyning "strategik uchburchagi" haqida ketmoqda. Jahon siyosatining ushbu sohasida doimiy ravishda juda qiziqarli voqealar bo'lib turadi. Rossiya va Hindistonning ikki tomonlama munosabatlarni avvalgi rivojlanish yo'liga qaytarish, vujudga kelgan muammolarni yengib o'tish qobiliyatini baholash o'rinli ko'rinadi. Ko'pgina mutaxassislarning ta'kidlashicha, vaqti-vaqti bilan munosabatlarda yuzaga keladigan "ishqalanish" hind harbiy muassasalarining Rossiya harbiy texnikasi sifatiga nisbatan noroziligi sabab yuzaga kelib turadi.

Xitoy-Hindiston munosabatlarida muammolar kam emas. Ularning tarixiy kelib chiqishi ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi holatiga ham ta'sir qiladi. Pekin Hindistonning 1998 yildagi yadroviy sinovi Xitoyning faraziy yadro tahdidiga javob ekanligini unutmagan. Bundan tashqari, har ikki tomonda ham bir-birlarining niyatlari to'g'risida jiddiy shubhalar saqlanib qolmoqda. Hindistonga Xitoyning Pokiston bilan yaqin ittifoqdosh aloqalari yoqmaydi. G'adar strategik portini modernizatsiya qilish Myanma va Bangladeshning Chittagong bilan birgalikda energiya yetkazib berishini samarali nazorat qilishning potentsial imkoniyatini yaratdi. Hindiston uchun Fors ko'rfazi Xitoyni "o'rab olish" strategik rejasining bir qismiga aylanmoqda. Bundan tashqari, AQSh Hindistonga nisbatan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi Xitoyga qarshi strategik muvozanatga ega kuch deb qaraydi.

O'z navbatida, Xitoy 2006 yil noyabr oyida Hindistonga yadro energetikasi sohasida ikki tomonlama hamkorlikni taklif qildi. Siyosatshunoslar Dehli ham, Pekin ham ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga amaliy yondoshishini ta'kidlaydilar. O'zaro savdo aylanmasining yillik o'sishi 30 foizni tashkil etgan holda,

Xitoy allaqachon Hindistonning eng yirik tashqi savdo sherigiga aylandi va bu borada Qo'shma Shtatlarni birinchi o'rindan siqib chiqardi.

Dunyoning eng ko'p aholi yashaydigan ikki mamlakati o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning tez sur'atlarda o'sib borishi bo'yicha ba'zi ekspertlar Pekinning ongli siyosati, xususan, Hindiston shimoliy-sharqidagi kam rivojlangan va geografik jihatdan ajralib qolgan shtatlarni Tibet va Xitoyning boshqa janubiy mintaqalari bozorlari bilan chambarchas bog'lashni maqsad qilib olgan deb bilishadi. Bundan tashqari, Pekin Hindiston infratuzilmasiga sarmoya kiritish uchun sharoitlarni yaxshilashga intilmoqda. 25 mingdan ortiq xitoyliklar Hindistonning axborot texnologiyalari bo'yicha kerakli muassasalarida o'qitildi.

Keyingi o'rinda Xitoyning ishlab chiqarish imkoniyatlari va hind axborot texnologiyalari tajribasini birlashtirgan qo'shma korxonalarni ishga tushirish turibdi. Shunga qaramay, hindlarning ongida Xitoyning qiyofasi hanuzgacha qarama-qarshilik xususiyatlarini saqlab qolgan. Bir tomondan, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va uning siyosiy oqibatlari hindlarni Xitoyning Osiyodagi harakatlariga o'tmishdagidan ko'ra xotirjamroq qarashga undaydi. Boshqa tomondan, hindistonliklar Xitoy o'z iqtisodiy salohiyatini qanday boshqaradi va bu harakatlar Hindiston manfaatlariga qanday ta'sir qiladi, deb ikkilanishmoqda. Ammo, ba'zi G'arb siyosatshunoslari ta'kidlaganidek, Pekin ham, Dehli ham ichki va tashqi siyosiy muammolarini hal qilish uchun "yumshoq kuch" tamoyillarini afzal ko'rishadi.

Xitoy-Hindiston munosabatlarining tarixiy dinamikasi Rossiyaga uning kelajakdagi faoliyati paradigmasini aniq ko'rsatib beradi. Birinchidan, majburiy iqtisodiy tiklanish mamlakatga tashqi siyosatdagi "yumshoq kuch" dan faol foydalanishga imkon beradi va shu bilan G'arbg nisbatan "pastlik majmuasi" dan butunlay xalos bo'ladi. Ikkinchidan, sanoat asosidagi iqtisodiy o'sish "uchburchak" doirasidagi o'zaro aloqalarni tabiiy holga keltiradi va mamlakat uchun Sibir va Uzoq Sharqni rivojlantirishdek strategik maqsadiga erishishni osonlashtiradi. Uchinchidan, uch mamlakatning gorizontol o'zaro ta'siri "xilma-xillikda birlik" asosida jahon tizimida yangi tuzilishning prototipi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday imkoniyatda "uchburchak" tiklanishi va uning strategik ahamiyati oshishi mumkin.

Dunyoning ikki yirik davlatlari – Xitoy va Hindiston o'rtasidagi munosabatlar hamkorlik va raqobat elementlarining murakkab ko'rinishi bilan ajralib turadi. Bunday murakkablik ularning geosiyosiy o'zaro ta'sirining tarixiy xususiyatlarini, shuningdek, ushbu yirik davlatlarning jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlaridagi pozitsiyasining o'ziga xos ko'rinishlarini aks ettiradi. Aytish mumkinki, o'tmishdagi tarixiy davrlardan meros bo'lib qolgan xurofotlar hanuzgacha

ikki tomonlama munosabatlarning sotsiopsixologik asoslariga ta'sir qiladi va o'zaro shubha va ishonchsizlik elementlarini saqlab qoladi.

Shunga qaramay, Xitoy va Hindiston o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda va ularning hozirgi rahbarlari Xu Szintao va Manmoxan Sinx tomonidan yaratilgan o'tmishni yengish uchun siyosiy iroda ko'rsatishmoqda. Ikki davlat siyosatchilari ham o'z mamlakatlarini buyuk qit'a kuchlari ekanligi va dunyo siyosatida o'ziga xos muhim o'zgaruvchan davrlarni bosib o'tayotganlari haqidagi tushunchadan kelib chiqmoqdalar. Shuningdek, endi ular "dengizlar bekalari" (avval Angliya, keyin AQSh) asta-sekin o'z o'rinlarini Xitoy va Hindistonda "qit'a gigantlari" ga bo'shatib berishayotgani haqida ta'kidlashmoqda.

Kelishuvning ikkinchi muhim jihati zamonaviy geosiyosatning eng muhim elementlari sifatida iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini umumiy tushunish bilan bog'liq. Hindiston matbuotining yozishicha, kelajakda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini 225 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Garchi bu raqam mubolag'a bo'lib ko'rinsa-da, ikki mamlakat rahbarlarining maqsadi juda aniq: sanoatni modernizatsiyalashni maksimal darajada oshirish (shu jumladan, uning ilmiy-texnik klasterini ham), Hindiston va Xitoyda munosabatlar rivojidan manfaatdor nufuzli kuchlarni shakllantirish hamda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdir. Biroq, Xitoy-Hindiston munosabatlarida bir qator muammolar mavjud, ularni hal qilish istiqbollari esa hali jumboqligicha qolmoqda. Ba'zi xitoylik va xalqaro ekspertlarning fikricha, hal qilinmagan hududiy muammolar XXR uchun foydalidir, chunki Pekin ishonganidek, vaqt Xitoy uchun ishlaydi.

Taxminan 2008 yildan buyon Xitoy va Hindiston munosabatlarida mintaqaviy va qisman global darajadagi raqobatni kuchaytirish muammosi birinchi o'ringa chiqdi. Janubiy Osiyoda va Hind okeanida xavfsizlik masalalariga yondashuvlardagi farqlar chuqurlashib bordi, bu esa "strategik ishonchning yo'qligi" ni namoyon qildi.

Xitoylik mutaxassislarni xavotirga soladigan narsa bu – Xitoy o'zining tarixiy ta'sir doirasi deb hisoblagan ba'zi hududlarda Hindistonning faolligidir. Ba'zi ekspertlar Xitoyga bu hududlarda Hindistonning "chaqirig'iga" javoban Pokiston bilan aloqalarni yanada kuchaytirishni va Hindiston bilan murakkab munosabatlarni rivojlantirgan Bangladesh va Nepal kabi davlatlar bilan hamkorliklarni yanada jadal rivojlantirishni taklif qilishmoqda.

Bir qator xitoylik mutaxassislar hind-amerika munosabatlarining yaxshilanishi fonida harbiy sohada AQSh bilan aloqalarning kuchayganidan xavotirda. Ularning fikricha, AQSh Pekinda Hindiston bilan yadroviy kelishuvini "muzdan eritish" to'g'risidagi qarori bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida geosiyosiy mavqega ega

Xitoyga qarshi o'zining "hind qanotini" kuchaytirish strategik maqsadini ko'zlaydi. Xitoy-Hindiston savdo-iqtisodiy aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishda muammolar ko'lami keng (Hindistondan Xitoyga eksport asosan tovarlarga, Xitoydan import asosan tayyor mahsulotga to'g'ri keladi). Jumladan, Xitoy-Hindiston munosabatlarida energiya resurslari uchun raqobat tobora murakkab muammoga aylanib bormoqda. Xitoy va Hindiston neft importiga bo'lgan keskin ehtiyojni his qilgan holda Markaziy Osiyo (Qozog'iston), Lotin Amerikasi, Angola, Nigeriya hamda Myanmada uglevodorodlarga kirish uchun raqobatga kirishishgan. Hozirga qadar Xitoy bundan foyda ko'rib keldi, yuqori narxni taklif qildi va oluvchi mamlakatlar infratuzilmasiga sarmoya kiritdi.

Shubhasiz, uzoq muddatli (va, ehtimol, o'rta muddatli) istiqbolda, avvalambor mintaqaviy darajada, Xitoy Hindistonni o'zining strategik raqibi deb bilishi mumkin. Biroq, hozirgi paytda Pekin Dehli bilan mamlakatning ichki rivojlanishi va uning "yaqin" va "uzoq" tashqi siyosat ustuvorliklari bilan bog'liq holda me'yoriy va barqaror munosabatlarni saqlashdan manfaatdor.

Dehlidagi kadrlar o'zgarishi Xitoy-Hindiston munosabatlariga amaliy va o'zaro manfaatli yo'nalishlarni berishda muhim ahamiyatga ega edi: masalan, Hindistonning Xitoydagi sobiq elchisi Shiv Shankar Menon bosh vazirning milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchisi lavozimiga tayinlangan. Sh.Sh. Menon Xitoy bilan munosabatlarga yangicha yondashuv tarafdori sifatida tanilgan, o'tmishdagi qo'rquv va xurofotlardan uzoqlashgan. XXRga yangi yondashuv, deydi hindistonlik siyosiy tahlilchilar, Xitoyni nafaqat ta'sirchan iqtisodiy yutuqlarga, balki jiddiy ichki muammolarga ham yetakladi, ularning yechimi partiyaning asosiy sa'y-harakatlariga bo'ysunadi. "Samarali iqtisodiyot - bu samarali tashqi siyosatning asosiy sharti", deyishadi Hindiston va Xitoydagi strategik elita vakillari. Xuddi shu tarzda, bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish dinamikasi to'g'ridan-to'g'ri o'zaro iqtisodiy manfaatdorlikdan kelib chiqadi deb, aytish mumkin.

Uzoq vaqt davomida Rossiya va Hindiston o'z sabablariga ko'ra - "bir qutbli", ya'ni, monopolyar "Amerika dunyosi" farovonligi illuziyasi bilan o'zlarini xursand qilishdi. Ikkala mamlakatning elitalari Vashington tomonidan o'rnatilgan qoidalar bo'yicha jahon siyosatida rol o'nashga tayyor edilar. Biroq, kutilmagan global iqtisodiy inqiroz bir qutbli dunyo siyosiy iqtisodining xavfli ekanligini ko'rsatdi va ko'pchilikni, shu jumladan Moskva va Dehlini ko'proq tashabbus va jasorat ko'rsatishga majbur qildi.

Rossiya-Hindiston sammiti uchrashuvlari, shubhasiz, nafaqat aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi, balki Dehli va Moskvani geosiyosiy paradigmani o'zgartirishga,

ammo yangi sharoitlarda va yangi mazmunli tarkibga qaytishga undadi. Endi yangi rus-hind "Antantasi" uchun sharoit yanada qulayroq, Rossiyaga na Amerika, na Xitoy bilan janjallashish kerak emas, shunchaki aniq siyosiy irodaga tayanib, o'zining strategik manfaatlarini himoya qiladi.

Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Bundan esa, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining diqqat markazida bo'lishini hamda yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim ekanligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun xorijiy til o'rgatish jarayonida turli innovatsion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy til o'rganishning va uni o'rgatishning pedagogik o'ziga xosligi chet tilidagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan talabalar chet tilini o'zlashtirish jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning pedagogik jihatlari bilishni talab qiladi. Ta'lim oluvchining xorijiy tilni o'rganishi nafaqat o'zlashtirilgan bilimlarning hajmi va sifati bilan tavsiflanadi, balki bilim jarayonlarining tuzilishi bilan, talabadagi mantiqiy operatsiyalar va aqliy harakatlarning tizimi bilan ham tavsiflanadi. Bu esa mahsus metodlar orqali ta'lim oluvchining nazariy va amaliy ko'nikmalarini vijoylantirishni taqazo etadi.

Bu esa, turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotganligi ham quvonchli hol. Ushbu ta'limning ko'plab afzallik tamonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Ushbu texnologiyalar axborotdan foydalanuvchilarga keng qamrovli yo'l ochib berish bilan birga ularni muhofaza etish muammosini keltirib chiqaradi.

Masofadan o'qitishda o'qituvchi bilan tinglovchining orasida to'g'ridan - to'g'ri muloqatning yo'qligi ham ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, muammoli o'qitish jarayonini tashkil etishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Tinglovchini yetuk mutaxassis qilib tayyorlashda muammoli o'qitishni tashkil etish muloqotni telekonferensiya orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, bu bilan muammoni hal etish uchun qo'shimcha o'quv materiallarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bular qatorida turli darajadagi muammoli topshiriqlar, muammoli vaziyat hosil qiluvchi ko'rsatmalar va hokozalar bo'lishi maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonida yuqori

malakali, fan asoslarini puxta egallagan, har tamonlama yetuk mutaxasislarni tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun hozirgi zamon talablariga muofiq xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Chet tili darslarida zamonaviy o'quv – texnik vositalari, lingafon xonalari, multimedia, maxsus dasturlashtirilgan mavzular, ko'p tilli elektron lug'atlardan bevosita foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chet tillarini o'rgatishda masofaviy ta'lim usullaridan, matbuot, telekommunikatsiya va internet materiallaridan foydalanish o'quvchi – talabalarning faqat chet tillarini o'rganibgina qolmay, balki intellektual darajasini oshirish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Chet tilini o'qitishda eng samarali yondashuvlar qatorida axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, masofaviy ta'limda til o'rgatish metodikalarini ko'rsatish mumkin. Komyutar texnologiyalari, ayniqsa, internetdan foydalanib til o'rganishda juda keng imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilarga namoyon bo'ladi: 1) chet tilida og'zaki munosabatlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari va malakalaridan amaliyotda faol foydalanib, olgan til materiallaridan faqat o'zining nutqida emas, balki internet orqali tanishgan suhbatdoshi nutqini tushunishda ham foydalanishda o'rganish; 2) o'zlashtirgan nutqiy bilimlarini munosabatning o'zgaruvchan vaziyatlariga ko'chirish moslashuvchan ko'nikmasini shakllantirish; 3) norasmiy muloqat shaklida amalga oshiriladigan suhbatni uyushtirishga, so'zlashishni o'rganishga nisbatan kuchli, darhol yuzaga keladigan motivatsiyani va haqiqatga yaqin munosabat motivatsiyasini yaratish; 4) psixologik to'sqinlarni yengish, xususan, chet tilida so'zlashishdan va xatoga yo'l qo'yishdan cho'chish, to'sig'ini hamda ichki va tashqi tortinish hamda uyalish hissini yo'qotish; 5) ta'lim sifatining yuqori darajaga ko'tarilishi va darhol natijaliligi; mashg'ulotlar ikkinchi mashqdayoq, foydalanuvchilar asosiy o'quv matnida berilgan nutqiy qolipda o'rganayotgan chet tilida so'zlasha boshlaydilar; matn ta'sir ko'rsatish suggestiv vositalaridan (shu jumladan, xotiraga kiritish) foydalanib, mashg'ulotlar birinchi mashqdayoq etiborga olinadi; 6) ko'p sonli nutqiy, yuksak va grammatik birliklarni taqdim etish va o'zlashtirish; bir taqdim etishda 150 – 200 yangi so'zlar, 30 – 50 nutqiy namunalar va bir nechta odatiy nutqiy hodisalar kiritiladi va o'zlashtiriladi. Internet materiallarida so'zlashish ko'nikmalarini amalga oshirilishi sharti sifatida so'z boyligiga, til materiallari hajmiga unchalik katta talablar qo'yilmaydi. Biroq so'zlashish muloqot jarayonida shaxs sifatida to'laqonli ishtirik etish uchun foydalanuvchi egallab olishi kerak bo'lgan so'z va umuman, til materiallari hajmi zarur minimumini belgilaydi. Masofadan o'qitish kursining

maqsadi eng umumiy ko‘rinishda birinchi navbatda, o‘rganilayotgan tilda muloqat og‘zaki shakliga tinglash va gapirishga o‘rgatish bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, kurs uzaytirilishi muloqat yozma shakllariga jiddiy e‘tibor qaratish imkonini beradi. Yozma muloqat nutqiy faoliyatning o‘qish va yozish (yozma nutq) kabi turlarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Masofadan o‘qitish kursida ta‘lim maqsadlarini kengaytirish ilgari egallagan nutqiy malakalarini faollashtirishni, kommunikativ malakani yanada yuqori darajasini shakllantirish hamda foydalanuvchilarning Grammatik bilimlarini yanada chuqurroq tizimlashtirishni ko‘zda tutadi. Masofaviy ta‘limning samaradorligi tinglovchilarga xotiralarida ko‘proq axborotni saqlab turish, o‘zlarining xabardorliklarini kengaytirish, ishlarida yaxshiroq natijalarga erishish imkoniyatini beradigan omillardan biri interfaollik omilidir. Masofaviy ta‘limda yuqorida aytilgan afzallik va qulayliklardan tashqari ba‘zi bir muammolarga duch kelishimiz mumkin. Avvalambor masofaviy ta‘lim jarayoniga mos va xos bo‘lgan metod tanlab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har bir ta‘lim tizimining samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishi unda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq albatta. Shu o‘rinda ta‘lim metodi tushunchasiga ta‘rif berib o‘tsak.

Ta‘lim metodi bu – zamonaviy darajada o‘quv tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan pedagog va ta‘lim oluvchilarning o‘zaro bog‘liq faoliyat usullaridir. Chet tillarini masofaviy o‘qitishda interfaol ta‘lim metodini tanlash bu ayni maqsadga muvofiq ish. Chunki interfaol ta‘lim metodi ta‘lim jarayonida ta‘lim oluvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ta‘lim oluvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishlarini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon qilish va ifodalash imkoniyati, maruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, ta‘lim oluvchilar tashabbus ko‘rsatishga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim – tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ana shularni inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki. Interfaol metod chet tillarini masofaviy o‘qitish jarayonida ko‘plab ijobiy natijalarga olib keladi. Chet tillarini masofaviy o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta‘lim oluvchilarning ishtirokini faollashtiradi, ularni maksimal natijaga samaraga erishishga undaydi.

Shuningdek, interfaollik, o'qituvchilarga kursga murakkabroq materiallarni kiritishga yordam beradi. Interfaollikni ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar tanishishi kerak bo'lgan muhitni imitatsiya qilish bilan qo'shib olib borish mumkin. Masalan, agar kurs kompyuter dasturidan foydalanishni nazarda tutgan bo'lsa, ekrandagi tasvirlar, ushbu dasturni ishlashda tasvirlanishi kerak bo'lgan rasmlarga mos kelishi kerak. Talabalarga esa, o'rganilayotgan masalalardan biriga mos keladigan amalni bajarish vazifasini berish lozim. Bu masalaga oid murakkabroq mavzular uchun tijorat jarayonini modellashtirish va o'quvchiga undan o'tishni tavsiya etish mumkin. Masofaviy ta'lim – interfaollikni nazarda tutgan internet texnologiyalarining maxsus vositalar bilan amalga oshiriladigan, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro ta'sir masofada amalga oshiriladigan va o'quv jarayoniga mos bo'lgan kompyuterlarni aks ettirgan ta'lim shaklidir.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan masofaviy ta'lim mohiyatini tushunishga yagona tizim yo'q deb xulosa qilish mumkin. Biroq hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'limni masofaviy ta'limning texnologiyasi ko'rinishida keltirilgan, bu esa qonunchilik bazasi bilan mustahkamlanmagan. Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol metodlarni qo'llashning asosiy maqsadi o'quvchilarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularga bilish hamda izlanish malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchining faol munosabati, bir – birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'qitilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O'qituvchi darsiga tegishli muommolarga o'quvchilarni jalb etish, ularning harakatini faollashtirish va natijada o'zlashtirishlarni ta'limlashi lozim.

Masofaviy o'qitishda interfaol metod bugungi kun nuqtai – nazaridan eng lozim bo'lgan metodga aylanmoqda. Misol uchun men ma'lum mavzu yuzasidan o'z fikrimni bildiraman. Unga munosabat, boshqalarning fikri menga qiziq bunday vaziyatda aynan tarmoq orqali tarmoq orqali fikr almashish, nafaqat tanishlardan balki, internet orqali tanish yoki notanish bo'lgan boshqa foydalanuvchining fikrini bilish ham qiziq. Turli millat vakili turlicha fikr bildirishi mumkin. Ana o'shanda umumiy xulosani chiqarib olish imkoniyati yuzaga keladi. Interfaol metod o'qitilayotgan mavzuning ham tushunarliroq holda yetib borishi uchun xizmat qilishi mumkin. Fikr so'ralishi shunga binoan ma'lum mavzu tanlanishi. Oddiy misol ham mana shu ko'targan mavzuimizga bildirilayotgan fikrlarda ham mujassam.

Endi esa masofaviy ta'lim kamchiliklar haqida to'xtalib o'tsak; – Birinchi muammo bu – masofali o'qish odamlar bilan muloqat qilishni chegaralaydi. Masofali ta'lim ishtirokchilarning turli hududlarda (joylarda) bo'lishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, ko'pchilik tinglovchilar an'anaviy ta'limga qaraganda, tyutor – maslahatchi va kursdoshlari tamonidan ko'proq shaxsiy e'tibor hamda ular bilan muloqat qilish imkoniyatlariga ega deb hisoblaydilar.

Sifatli masofali dasturlar talabalarni guruh bo'lib bajaradigan loyihalar va on – line munozaralar yordamida o'ziga tortadi. Bunda o'qituvchilar talabalar savollariga o'z vaqtida javob beradilar va ularning ishlarini doimiy ravishda baholaydilar, talabalar esa ko'proq o'zaro muloqot qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Keyingi muammodan biri bu – masofaviy ta'lim kurslarida o'qiyotgan talabalarning bilimni baholashda aniqlik bo'larmikan? O'lisda turib istalgan shpargalkadan foydalanish mumkin. Uning uchun hech qanday cheklovlar yo'q. – Navbatdagi muammolardan biri bu – vaqt. Ta'lim olish vaqti sizning qo'lingizda bo'lmaydi. Maxsus tayinlangan vaqtlardagini siz ta'lim olish imkoniga ega bo'lasiz. – Galdagi muammo bu – siz foydalanayotgan texnologiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aytaylik texnikaning buzilib qolishi, yoki internet tezligining kam bo'lishi sizga noqulayliklar olib kelishi mumkin.

Ta'lim tizimida interfaol usulni qo'llaganda o'qituvchi talabani faol ishtirok etishga chorlaydi. Ba'zi hollarda talabaning kamgapliligi yoki uyatchanligi, o'z fikrini ochiq ifoda etishda tortinchoqligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bu hol albatta ta'lim samaradorligini tushurishga xizmat qilishi mumkin. Aynan ana shunday holatlarga duch kelmaslik va bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida aynan masofaviy ta'limda boshqa ta'lim metodlarida nisbatan ko'proq interfaol metodni tanlash va amalda qo'llash ko'zlangan maqsadga tezroq va samaraliroq yetib olishga yordam beradi. Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda, talabaning o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

O'quv re'ja, dastur, darslik, standart me'yori, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi. Ta'lim oluvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni talabaning ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv – bilim jarayonida talabaning manfaatdorligi oshadi. Bu holat ta'lim oluvchini o'quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi. Endi esa chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning afzalliklari haqida to'xtalsak, bunda birinchi galda



o‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi. O‘z vaqtida talaba – o‘qituvchi – talaba orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi. o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materialini yaxshi esda qoladi.

### **XULOSA**

Ta’lim oluvchida o‘zaro muloqatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko‘nikmalari shakllanadi. Har bir talabaning o‘zi mustaqil fikr yuritishga, ishlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda ta’lim oluvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Albatta interfaol darslarni tashkil etishning ham o‘ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Bular, o‘quv – biluv jarayoni ko‘plab vaqt sarflashni talab qiladi. Interfaol mashg‘ulotlarida barcha talabalarni kerakli nazorat etib borishning imkoniyati bo‘larmaydi. Juda murakkab materiallar o‘rganilayotganda o‘quvchilar muammoni to‘laqonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o‘qituvchining ro‘li past bo‘lishi hollari kuzatiladi. Guruhlarda o‘quv jarayoni kechayotgan kuchsiz talabalarning ishtiroki tufayli kuchli talabalar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o‘qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo‘yicha mushohada yuritishga, muammolarni o‘z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo‘lishi kerak.

### **REFERENCES**

1. Abduqodirov A. Pardayev A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan. 2009.
2. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan. 2000.
3. Hayitov A. Boymurodov N. Ta’limdagi noan’anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. – T.: Yangi asr avlodi. 2006.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU. 2004.
5. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi. 1996. 7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.



## **JAMIYAT IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA AYOLLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILLARI**

**Dilbar Axmedova**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada ayollarning jamiyat hayotidagi oʻrni tadqiq qilingan. Mustaqillik yillarida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar mazmuni yoritib berilgan. “Ijtimoiy faollik” tushunchasining falsafiy mazmuni ochib berilgan. Tarixiy taraqqiyotda ayollarga munosabat masalasi tahlil qilgan.*

***Kalit soʻzlar.** Gender siyosati, ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, gender tenglik, strategiya.*

## **ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА**

**Дилбар Ахмедова**

Независимый исследователь Бухарского государственного университета

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье исследуется роль женщины в обществе. Изложено содержание реформ, направленных на повышение общественно-экономической активности и поддержку предпринимательской деятельности женщин за годы независимости. Раскрывается философский смысл понятия «социальная активность». А также анализировано проблема отношения к женщинам в историческом развитии.*

***Ключевые слова.** Гендерное политика, социальная активность, предпринимательство, гендерное равенство, стратегия.*

## **FACTORS OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN THE SOCIAL AND ECONOMIC LIFE OF SOCIETY**

**Dilbar Akhmedova**

Independent researcher at Bukhara State University

### **ANNOTATION**

*The article examines the role of women in society. The content of reforms aimed at increasing social and economic activity and supporting women's entrepreneurial activity during the years of independence is stated. The philosophical meaning of the*

*concept of "social activity" is revealed. And also analyzed the problem of attitudes towards women in historical development.*

**Keywords.** *Gender policy, social activity, entrepreneurship, gender equality, strategy.*

## **KIRISH**

2003 yilda respublikamizda tashkil etilgan «Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi» mulkdorlar sinfining manfaatlarini himoya qiluvchi, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlovchi harakatdir. Partiya safida mayda va o‘rta biznes bilan shug‘ullanuvchi ayollar ham bor. Buxoro viloyatida bozor infratuzilmasini rivojlantirishda ayollarning roli va o‘rning ortib borishiga ko‘maklashayotgan «Tadbirkor ayol» uyushmasi faoliyati misolida nodavlat notijorat sektorining ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi salmog‘ini kuzatish mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Ayollar ijtimoiy faolligining demokratik jarayonlar va jamiyat ma‘naviy-madaniy hayotini o‘zgartirishga, yangilashga qaratilgan jihatlari A.E.Abdusamedov, F.Abdurahmonov, O‘.M.Abilov, B.Aliev, S.Atamuratov, E.X.Bobomurodov, I.Karimov, T.Mahmudov, Q.Nazarov, I.Saifnazarov, A.Qodirov, A.Huseynovanning ilmiy tadqiqotlarida u yoki bu yo‘nalishda tahlil qilingan [3-18].

Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, kompleks yondashuv, kontent-analiz kabi usullariga tayanildi.

## **NATIJALAR**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish davlat va jamiyat tomonidan maxsus chora-tadbirlar ko‘rishni, uzoqqa mo‘ljallangan rejalar, dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuni esda tutish zarurki, raqobatga, manfaatlar to‘qnashuviga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida barcha ayollar ham o‘z qobiliyati va salohiyatini to‘liq namoyon etish imkoniga ega bo‘lavermaydi. Keskin raqobat, mulklarning xilma-xilligi tufayli murakkablashadigan «Kim o‘zdi» hammaning ham o‘z ichki ijodiy kuchlarini ro‘yobga chiqarishiga imkon beravermaydi. Bu o‘rinda tashabbuskor ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularga «o‘z ishi»ni rivojlantirishda yordam berish zarur bo‘ladi. Xususiyl mulk egasi bo‘lgan ayolgina iqtisodiy munosabatlarda faollik ko‘rsatadi.

Xususiyl mulk kishida ijobiy ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Tejamkor bo‘lish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, tashabbuskorlik bilan ishlash, loqaydlik va

tanballik kabi illatlarga barham berish, kishilarni ishbilarmonligiga qarab taqdirlash, vaqtning qadriga yetish ana shunday fazilatlar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda aholini doimiy ish bilan ta'minlash hamma vaqt dolzarb muammolardan bo'lib kelgan. Aholi sonining yildan-yilga o'sishi yangidan-yangi ish joylarini talab etardi. To'g'ri, 1960–1986 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yangi korxonalar va fabrikalar bunyod etildi, mamlakatdagi yirik qurilishlarga o'zbek yoshlari jalb qilindi. Masalan, 1970–1986 yillar mobaynida O'zbekiston xalq xo'jaligi sohasidagi ishchi va xizmatchilar orasida xotin-qizlar 1024 ming kishiga ko'payib, 41 %dan 43 %ga yetgan [19]. Ayniqsa noishlab chiqarish sohasida ayollar ko'paygani kuzatiladi. Masalan, 1986 yil hisobotiga muvofiq, ayollar salmog'i respublika sog'liqni saqlash muassasalarida 72,7 %ni, xalq ta'limi va maorif tizimida 60,5 %, madaniyat va ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish sohasida 57,1 %, savdosotiq va umumiy ovqatlanish sohasida 55,8 % tashkil etgan. 1970–1980 yillarda xalq xo'jaligi mutaxassislari orasida o'zbek ayollari, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2,3 baravar ko'paygan [20]. «Ayni paytda ayollarning oliy ta'lim darajasi kasbiy mashg'ulligiga mos kelmaydi, – deb yozadi D. Bobojonova, – Shu narsa kishini ranjitadiki, ayollarning kam malakali yoki malakasiz mehnat bilan mashg'ulligi erkaklarga nisbatan ortiq. Respublika sanoati, qurilishi, qishloq xo'jaligida qo'l mehnati bilan band bo'lgan ayollar ulushi sobiq Ittifoqdagi o'rtacha darajadan yuqori bo'lgan. Respublika sanoatida qo'l mehnatining salmog'i 35,3 % bo'lgani holda, ayollar orasida 42,5 %ni tashkil qilgan [21]. Akademik M.Sharifxo'jaev yozganidek, «totalitar dunyo «bozori»dan bizga boqimandalik va taqsimotga asoslangan iqtisodiy «qadriyat» meros qoldi. Odamlar ongi, dunyoqarashi, ko'nikmalari mutlaqo buzib yuborildi, shaxssizlik holati butun jamiyatning illatiga aylandi. Kommunistik mafkura bu borada o'z manqurt siyosatining samarasiga to'la erishgan edi» [22].

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlar amalga oshirildi.

Birinchidan, ayollar ijtimoiy-iqtisodiy faolligini ta'minlashning huquqiy-normativ bazasi shakllantirildi;

Ikkinchidan, ayollarning iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotdagi ishtirokini ta'minlaydigan ijtimoiy tizim tashkil qilindi;

Uchinchidan, jamiyatda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok qilishi uchun demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy va ma'naviy muhit shakllantirildi. Ushbu o'zgarishlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib

berish, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirish yo‘llarini aniqlash muhim masaladir.

Ta’kidlash joizki, mamlakatda ayollar tadbirkorligini, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yuksaltirishga oid bir qator tadbirlarni amalga oshirayotgan siyosiy partiyalar bo‘lsada, ularning ko‘lami, salmog‘i va ayollarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga ta’siri hali davr talablari darajasida emas. Hozirgi davrda siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashayotgan ayollar 40-44 % ini tashkil etadi.

Hozirgi zamon ilm-fanida «faoliyat», «faollik», «ijtimoiy faollik» tushunchalari keng qo‘llaniladi. Aslida, ushbu tushunchalar negizida insonning yon-atrofga, ijtimoiy munosabatlarga, olamni anglashga oid tajribasi, ya’ni faoliyati yotadi. Demak, «ijtimoiy faollik» tushunchasi «faoliyat» va «amaliyot» tushunchalari bilan bevosita bog‘liq, hatto genezisi va etimologiyasi nuqtai nazaridan ulardan kelib chiqadi [23-29].

Bugungi kunda respublikamizda tadbirkorlik faoliyatiga oid yetarli huquqiy baza yaratildi. Lekin shunga qaramasdan, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar hamda yangi ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi ularga yangicha yondashuv va huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirishni talab etmoqda. Bu borada, albatta, Prezidentimiz tomonidan keltirib o‘tilgan takliflarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish, mustahkamlashga, shuningdek ularni huquqiy jihatdan har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning 16 mamlakatida O‘zbekistonning biznes elchilari tayinlangan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatiga doir milliy qonunchilik o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab rivojlantirilib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida aynan kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish, tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash kabi maqsadlar asosiy ustuvor vazifalar sifatida belgilab kelindi.

Tarixiy taraqqiyotga nazar solsak, yurtimiz tarixida tadbirkorlik qadim zamonlardan buyon alohida o‘rin egallab kegan. Jumladan, O‘rta Osiyo ayollarining qadimgi tarixiy davrlardagi ijtimoiy mavqei va ularning hayot tarzi haqidagi ba’zi bir ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya”, Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otut turk” asarlarida uchratish mumkin.

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida mamlakatimizda tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Prezident qarori 13.08.2019 yilda [1] qabul qilindi.

Ta’kidlash joizki, ma’lum bir davlatda ayollar tadbirkorligi muhitini aniqlovchi bir qator xalqaro standartlar mavjud bo‘lib, uning rivojlanish darajasi "Ayollar tadbirkorligi Global indeksi" deb nomlanadigan davlatlar reytingini belgilab beruvchi xalqaro hujjat bilan aniqlanadi. "Ayollar tadbirkorligi Global indeksi" butun dunyoda ayollar tadbirkorligi rivoji istiqbollarini o‘lchab beradi. Ayollar tadbirkorligi rivoji sifatini esa, 3 ta asosiy omil:

- tadbirkorlik muhiti;
- tadbirkorlik ekotizimi;
- ayollarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istaklari belgilab beradi.

Ushbu hujjatni tayyorlashda bir qator omillar hisobga olinadi. Ayollarning biznes sohasida yaratilgan ta’lim tizimi va resurslaridan, davlat organlari va tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar infratizimidan foydalanish imkoniyatlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish va taqdim etish masalalari kabi omillar shular jumlasidandir. Tadbirkorlikni, hususan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, bevosita shu sohadagi qonunchilik asoslarini ham takomillashtirib borishni talab etadi. O‘zbekistonning "Ayollar tadbirkorligi global Indeksi"ga a’zo davlatlar qatoriga kirishi mamlakatda ayollar tadbirkorligi rivoji va istiqbollarini dunyo rivojlangan mamlakatlari standartlarida o‘lchash imkoniyatini beradi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonun hujjati qabul qilindi. Hozirgi kunda xotin-qizlarimizning jamiyatdagi rolini oshirishga, ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham juda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, 02.09.2019 yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni [2] qabul qilindi. Qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta’rif berilib, davlat xizmati, saylov jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim, ilm-fan, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun davlat tomonidan teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi kafolatlandi. Gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni



ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha Maslahat-kengashlari tashkil etildi.

### **XULOSA**

Siyosiy partiyalardagi xotin-qizlar ulushi 44 foizga, oliy ta'lim sohasida 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Joriy yilning may oyida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini qabul qildi. Mazkur strategiyada boshqa ustuvor yo'nalishlar singari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalasi ham o'rin egalladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Hayotimizning fayzu farishtasi bo'lgan munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimizga munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, ularni rozi qilish – barcha darajadagi rahbarlarning nafaqat xizmat vazifasi, balki, eng avvalo, insoniy burchidir".

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida Prezident qarori (13.08.2019)
2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.09.2019)
3. Abdusamedov A. Milliy kadrlar tayyorlash va islom. – T.: Fan, 1998
4. Abdurahmonov F. Milliy manfaatlar va milliy birlik tuyg'usi. – T.: IIV Akademiyasi, 1995
5. Abilov O'.M. Mustaqillik va optimizm. – T.: Fan, 1997
6. Aliev B. Bozor munosabatlarining qaror topish sharoitida mehnat jamoasining ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi. – T.: Fan, 1992
7. Atamuratov S. Milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat. – T.: Fan, 1991
8. Bobomuradov E.X. Stanovlenie i razvitie obshchestvennoy psixologii lyudey. – T.: Fan, 1994
9. Karimov Ibrohim. Ma'naviyat, falsafa, inson. – T.: Fan, 1999
10. Mahmudov T. Kamolot asrorlari. – T.: Ma'naviyat, 2006
11. Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. – T.: Fan, 1992
12. Саифназаров И. Сиёсий фаоллик ва маънавият. – T.: Маънавият, 2004.
13. Хусейнова, А. А. (2010). Торговля людьми: попытка противодействия. *Социологические исследования*, (11), 150-151.



14. Холова, Э. Х., & Хусейнова, А. А. (2012). ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН" О ПРОТИВОДЕЙСТВИИ ТОРГОВЛЕ ЛЮДЬМИ". *Современные научные исследования*, (12), 1-1.
15. Холова, Э. Х., & Хусейнова, А. А. (2010). Закон Республики Узбекистан «о противодействии торговле людьми». *Journal of Siberian Medical Sciences*, (4).
16. Хусейнова, А. А. (2017). ФИЛОСОФСКОЕ МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. *Ученый XXI века*, 88.
17. Хусейнова, А. А. (2017). О СУЩНОСТИ ФИЛОСОФСКОГО МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 74-78).
18. Хусейнова, А. А. (2016). СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ РЕНЕССАНС И АБДУРАХМАН ДЖАМИ. *ББК 65.34. 13 (2Рос–4Кем)*, 355.
19. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. – Тошкент: Фан, 1989. – С. 209.
20. Аминова Р. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 106.
21. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80-йиллар мисолида). – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 109–110.
22. Шарифхўжаев М. Ўзбекистон: янги ғоялар, янги ютуқлар. – Т., Шарқ. – 2002. – Б. 177.
23. Khajieva, I., Khujaniyazova, G., Kenjaeva, K., & Jumaniyozov, F. (2020). Foreign language competenceformation of the future teacher of vocational education in the information and educational environment. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 360-365.
24. Zhabborova, O. I., & Kenjaeva, N. P. (2018). Bases of gender equality of rights in Uzbekistan. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (5-2).
25. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОЗДАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 119-123).
26. Кенжаева, Х. П. (2021). ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИ МЕЗОНЛАРИ ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАЛҚИНИДА. *Academic research in educational sciences*, 2(3).
27. Кенжаева, Х. П. (2021). Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни. *Scientific progress*, 1(6), 957-961.

28. Кенжаева, Х. (2021). Миллий маънавий меросимизда таълим-тарбия масалалари. *Общество и инновации*, 2(6/S), 18-24.
29. Khajieva, I., Khujaniyazova, G., Kenjaeva, K., & Jumaniyozov, F. (2020). Foreign language competenceformation of the future teacher of vocational education in the information and educational environment. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 360-365.

## **OQIMLARNING INTERNETDA GAVDALANISHI: PROTESTANTIZMNING PRESVITERIANLIK VA BAPTISTLIK YO‘NALISHLARI MISOLIDA**

**Shohsanam Niyazova,**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti,

[shohi21@mail.ru](mailto:shohi21@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada kibermakonga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan xristian dini, xususan, uning oqim va yo‘nalishlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Tadqiqotda xristian jamoalari dastlabki onlayn tarmoq va veb-saytlarni yaratishidan ko‘zlagan maqsadlari ochib berilgan. AQSh presviterian cherkovi hamda dunyodagi eng yirik baptistlar milliy tashkiloti – Janubiy baptistlar konvensiyasining saytlari tahlil uchun olinib, bu saytlarda ko‘rsatgan ilk onlayn xizmatlar, ularning ko‘lami va zarurati o‘rganilgan.*

*Olimlar fikriga tayanilgan holda nasroniylik tarixidagi birinchi kibercherkov, uning yaratilishi, virtual imkoniyatlari va an‘anaviy cherkovlardan farqi tahlil qilingan. Muallif bu orqali kibercherkovlarning an‘anaviy cherkovlardan ustun tomonlari va kamchiliklarini aniqlashga urinadi. Qolaversa, butun dunyoda avj olayotgan tendensiya, ya‘ni onlayn diniy amaliyotlarning yuzaga kelishi, asoslari va ommalashishining sabablarini o‘rganishga intiladi.*

*Internet makonida birinchilardan bo‘lib ochilgan xristian diniy saytlari (sbcnet.org va pcusa.org) bugungi kunda ham o‘z faoliyatini uzluksiz olib borayotgani inobatga olinib, ularning kontenti 1996, 2010 va 2021-yillar kesimida qiyoslash usulida tadqiq qilingan. Natijada ushbu saytlarning rivojlanish tendensiyalari, e‘tiqod qiluvchilarni o‘ziga jalb etish mexanizmlari oydinlashgan.*

***Kalit so‘zlar:** onlayn diniy amaliyotlar, “Presbynet”, “Sbcnet”, AQSh presviterian cherkovi, Janubiy baptistlar konvensiyasi, “Baptistlik e‘tiqodi va missiyasi” kitobi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается христианская религия, которая одной из первых вошла в киберпространство, в частности ее течения и направления. Раскрыта цель христианских общин, которые создали первые онлайн-сети и веб-сайты. Автором были проанализированы сайты пресвитерианской церкви США и крупнейшей в мире баптистской национальной организации — Южной*

*баптистской конвенции, и изучены первые онлайн-услуги, предоставляемые на этих сайтах, их объем и необходимость.*

*Также были проанализированы первая киберцерковь в истории христианства, ее создание, виртуальные возможности и отличия от традиционных церквей на основе мнения ученых. Таким образом, автор пытается выявить преимущества и недостатки киберцерквей от традиционных. Автор стремится исследовать растущую тенденцию во всем мире — происхождение, основы и причины религиозных практик в Интернете.*

*Учитывая, что христианские религиозные сайты (sbcnet.org и pcusa.org), которые были первыми в Интернете, все еще работают непрерывно, их содержание было изучено путем сравнения в 1996, 2010 и 2021-годах. В результате стали понятны тенденции развития этих сайтов и механизмы привлечения верующих.*

**Ключевые слова:** *онлайн религиозные практики, “Presbynet”, “Sbcnet”, пресвитерианская церковь США, Южная баптистская конвенция, книга «Баптистская вера и миссия».*

#### **ABSTRACT**

*The article considers the Christian religion, which was one of the first to enter cyberspace, in particular its currents and directions. The purpose of the Christian communities that created the first online networks and websites, is revealed. The author analyzed the websites of the Presbyterian Church of the USA and the world's largest Baptist national organization — the Southern Baptist Convention, and studied the first online services provided on these sites, their volume and necessity.*

*The author also analyzed the first cyberchurch in the history of Christianity, its creation, virtual opportunities and differences from traditional churches based on the opinion of scientists. Thus, the author tries to identify the advantages and disadvantages of cyberchurches over traditional ones. The author seeks to explore a growing trend around the world — the origin, foundations and causes of religious practices on the Internet.*

*Considering that Christian religious sites (sbcnet.org and pcusa.org), which were the first on the Internet, are still working continuously, their content was studied by comparison in 1996, 2010 and 2021. As a result, the trends in the development of these sites and the mechanisms for attracting believers became clear.*

***Keywords:** online religious practices, “Presbynet”, “Sbcnet”, Presbyterian Church of the USA, Southern Baptist Convention, Book of Baptist Faith & Message.*

## **KIRISH**

Protestantlar xristianlikning Internetga dastlab kirib kelgan oqimlaridandir. Xususan, ulardan presviterianlar birinchilardan bo‘lib 1985-yilda o‘zining kibermakondagi faoliyatini boshlagan. AQShlik olim va pastor M. Vindxem “Kibercherkov: kibermakonda xristian jamoasi” nomli tadqiqotida boshqa cherkovlarga nisbatan AQSh presviterian cherkovi kiberkommunikatsiya texnologiyalarining oldingi safida bo‘lganligini, yozuvchi va rohib Ch. Henderson ayni shu cherkov onlayn makonga kirib kelgan birinchi denominatsiya bo‘lganini ta’kidlagan. Ularning dastlabki tarmog‘i “Presbynet” bo‘lib, unda cherkov rohiblari va o‘z tarafdorlarini virtual olamda jamlagan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Protestantizmning presviterianlik va baptistlik yo‘nalishlarining kibermakonga kirib kelishini amerikalik olimlar M. Vindxem, Ch. Henderson, J. Zeliski birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan. Ularning ilmiy izlanishlarida “Presbynet” va “Sbcnet” tarmoqlarining qachon ish boshlagani, ularda ko‘rsatilgan dastlabki onlayn xizmatlar o‘z aksini topgan. Shuningdek, mazkur tarmoqlar yirik diniy saytlar yuzaga kelishiga zamin yaratgani asoslab berilgan. “Kibermakonning birinchi cherkovi” deya tan olingan godweb.org saytining xristianlik tarixidagi ilk kibercherkov bo‘lgani ham bu olimlar qayd etgan ma’lumotlar orqali ayon bo‘ladi.

Maqolada tadqiqot uchun tanlab olingan sbcnet.org va pcusa.org saytlari yuqorida zikr qilingan tarmoqlardan o‘sib chiqqan. Shunga ko‘ra, ularning bugungi kundagi faoliyatini o‘rganish uchun mazkur saytlar, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi hamda Youtube platformasidagi sahifalari kontenti 1996, 2010 va 2021-yillar kesimida qiyoslash usulida tadqiq qilindi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Presbynet” – AQSh presviterian cherkovi xodimlari va a‘zolari uchun mo‘ljallangan onlayn tarmoq bo‘lgan. Cherkovning ko‘plab ma‘muriy vazifalari u orqali onlayn shaklda ham amalga oshirilgan. “Presbynet”ga mahalliy cherkov rohiblari yoki xristianlikdan ta’lim beruvchilarni ma’lumotlar bilan ta’minlovchi tarmoq sifatida qaralgan: muhim, tezkor xabar yoki e’lonlarni “hamkasblar” (cherkovning boshqa xodimlari)ga yuborish; yuzma-yuz uchrashuvlarni onlayn suhbatlarga almashtirish; press-reviz va o‘quv materiallarini elektron ko‘rinishda

qabul qilish va ularni tarqatma materiallarga qo‘shish, boshqa shtat va shaharlardagi presviterian markazlarning xodimlari bilan onlayn bog‘lanish mumkin bo‘lgan [1].

Xristian diniga oid dastlabki onlayn forum (“Origins”) va guruhlar (net.religion.christian) asosan aholi tomonidan foydalanilgan bo‘lsa, “Presbynet” AQShning turli shaharlarida joylashgan cherkovlarning xodimlari tomonidan foydalanilgani bilan ajralib turadi. Bu diniy idora vakillari zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va uni o‘z faoliyatida tatbiq qilishga intilganligidan dalolat beradi. Shunday intilish va harakatlar natijasida 1996-yilda “Presbynet” tarmog‘i barcha uchun ochiq rasmiy veb-sayt – pcusa.org (Presbyterian Church USA) darajasiga olib chiqilgan. Xuddi shu yili dunyodagi eng yirik baptistlar milliy tashkiloti – Janubiy baptistlar konvensiyasining sbcnet.org (sbc – Southern baptist convention) sayti o‘z faoliyatini boshlagan.

XX asrning birinchi va ikkinchi o‘n yilligiga kelib, e‘tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra protestantlik xristianlikning ikkinchi yirik oqimiga aylandi. 2010-yil holatiga ko‘ra, barcha xristianlarning qariyb 37 %i, ya‘ni 800 mln.dan ortig‘i protestantdir. Davlatlar kesimida qilingan statistik tahlillarga muvofiq, aholisining protestantlikka mansubligiga ko‘ra dastlabki 10 ta davlatning birinchisi AQSh hisoblanadi [2]. Mamlakatdagi protestantlarning eng ko‘pi, ya‘ni 15,4 %i o‘zlarini baptistlar, deb hisoblaydi. Ularning aksari Janubiy baptistlar konvensiyasi a‘zolaridir [3]. Ana shunday yirik diniy tashkilot, qolaversa, baptistlarning kibermakonga kirib kelish ildizi esa “Sbcnet” tarmog‘i va undan o‘sib chiqqan sbcnet.org saytiga borib taqaladi.

sbcnet.org va pcusa.org saytlari dastlabki ommalashgan saytlar bo‘lganligi sababidan tahlil uchun tanlab olindi. Ularning 1996, 2006, 2016, 2021-yillar kesimidagi kontenti qiyoslash usulida o‘rganilib, umumiy va o‘ziga xos jihatlarini topishga erishildi.

1996-97-yillarda ushbu ikki saytda asosan cherkov o‘tkazgan tadbirlar yoritilgan. Bu orqali cherkovga tashrif buyuruvchilar zaruriy ma‘lumot bilan ta‘minlangan va boshqa insonlar cherkovga jalb etilgan. Qolaversa, ayollar, erkaklar va yoshlar bilan ishlovchi cherkov xodimlarining elektron pochta xat yuborish imkoniyatini taqdim etish bilan odamlarni cherkovga yanada yaqinlashtirish, uchrashuvlarni oldindan kelishib olish usulida ishlangan. Ta‘limoti va aqidasi o‘z aksini topgan kitoblarni barcha bepul yuklash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu ayniqsa sbcnet.org saytida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Janubiy baptistlarning “Baptistlik e‘tiqodi va missiyasi” kitobining matni to‘liq shaklda saytga joylangan.

2006-yilga kelib, mazkur saytlar turli shahar va davlatlardagi ayni shu oqimga tegishli cherkovlar uchun asosiy va ishonchli ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qilgan.



Ularda cherkovlarning rivojlanishi, o'z missiyalarini amalga oshirishi uchun muammo, savol va takliflarini bildirish imkoniyati bo'lgan. Cherkovlar o'zini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun o'z xizmatlari, o'quv dasturlari va boshqa loyihalarini reklama qilishga katta urg'u bergan, homiyalar topishga mo'ljallangan sahifalar ochilgan. Natijada cherkov zimmasidagi vazifalarni bajarish, ayniqsa, targ'ibot ishlari jaddalashgan.

AQSh presviterian cherkovi va Janubiy baptistlar konvensiyasi saytlarida e'lon qilingan maqolalarning mazmuni o'rganilganda, quyidagilar ma'lum bo'ldi. pcusa.org saytida 2016-yil mart arxiviga ko'ra, maqolalar ibodat (325 ta); taqvodorlik (208 ta); ta'lim dasturlari (163 ta), statistik (134 ta) ma'lumotlar hamda boshqa turli mavzulardan (120 ta) iborat bo'lgan. Ibodat bo'limida psalomlarga asoslangan o'nlab madhiyalar, presviterlarning turli mavzudagi ma'ruzalari, bayram taqvimlari berilgan. Shuningdek, duolarda nimalarni iltijo qilish borasida taklif va tavsiyalar keltirilgan. Masalan, arman genotsidida qirilganlar ruhini yod etish maqsadida har yili 24-aprelda ular haqiga duo qilish so'ralgan eslatmalar saytga joylangan.

Taqvodorlik mavzusidagi maqolalarda qurolli to'qnashuvlar, irqchilik, uydagi zo'ravonlikni boshdan kechirgan insonlarga dalda berish, xudoga bo'lgan ishonchini so'ndirmaslik maqsadida muqaddas bitiklardan misollar keltirilgan. Bu orqali din insonlarni birlashtirishi, ruhiy kuch berishiga ishora bor. Masalan, saytda AQShning Arkanzas shtatidagi Vestsayd maktabida 1998-yil ro'y bergan ommaviy otishmada halok bo'lganlarning oila a'zolariga hamdardlik bildirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan oromgohdan reportajlar berilgan. Natijada foydalanuvchilar e'tibori ushbu hodisa va jabrlanganlarga cherkov ko'rsatayotgan yordamga qaratilgan. O'z-o'zidan internet foydalanuvchilarida cherkov og'ir ahvoldagi insonlarga befarq emasligi va atrofdagilarni ham befarq bo'lmaslikka chaqirishga qodir degan xulosa kelib chiqadi.

Insonlarni Presviterian cherkovi jamg'armasiga xayriya qilishga undovchi maqolalar saytda alohida o'rin tutgan. Masalan, shunday maqolalardan birida cherkovning sodiq a'zolaridan biri o'limi oldidan merosining katta qismini cherkovga emas, mahalliy universitetga o'tkazib bergani so'roq ostiga olingan. Bunga cherkov hech qachon hech kimga tama ko'zi bilan qaramaganligi bois odamlar o'z merosi yoki xayriya mablag'ini cherkov jamg'armasiga o'tkazishi odat tusiga aylanmaganligi sabab qilib ko'rsatilgan. Zero, insonlar bu ishni amalga oshirsa, cherkov orqali qancha ezgu ishlar bajarilishiga sababchi bo'lishi va bu Yaratgan nazdida ham afzal amallardan ekani ta'kidlangan.

Saytning 2021-yil mart oyidagi maqolalar arxivi bilan 5 yil avvalgi arxiv taqqoslanganda ibodat mazmunidagi maqolalar 122 taga, xudojo'ylik mazmunidagilar 90 taga, ta'lim dasturlari 4 taga ortganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, duo (92 ta maqola), liturgiya (81 ta), missionerlik (98 ta), immigratsiya (67 ta), erkaklar (53 ta), ayollar (62 ta), bolalar (64 ta) kabi turli mavzudagi maqolalar qo'shilgan.

Ko'p o'qilgan maqolalarning aksarida har qanday vaziyat va muammoga din, xususan presviterianlik ta'limoti nuqtai nazaridan yechim izlashga undash va buni muqaddas bitiklardan namunalar keltirgan holda dalillash ruhi yetakchilik qiladi. Og'ir o'tmishiga qaramay bugun muvaffaqiyatlarga erishayotgan zamondoshlarning hayoti, diniy faoliyatidan misollar keltiriladi. Maqolalar 3 til: ingliz, ispan, koreys tillarida joylashtirilgani bu tillarda so'zlashuvchilar orasida presviterianlar ko'pligidan darak beradi.

Janubiy baptistlar konvensiyasi sayti - sbcnet.org'da 1996-yilda maqolalar jamlangan bo'limlar soni atigi 5 ta bo'lgan bo'lsa, 2006-yilda bo'limlar soni 15 taga yetgan. "O'zlikni topish yo'li", "Qanday qilib nasroniy bo'lish" sarlavhali maqolalardan tortib, "Missionerlar madaniy qoliplarni parchalamoqda" kabi bahsli maqolalar o'quvchilar e'tiborini tortgan. AQSh presviterian cherkovi o'z saytini bir necha tilda yurgizishga intilsa, baptistlar konvensiyasi sayti faqat ingliz tilida ish yuritadi. Ma'lumotlarga ko'ra, baptistlarning 2/3 qismi AQShda istiqomat qiladi, Janubiy baptistlar konvensiyasi esa butun Qo'shma Shtatlarda yashovchi 14,5 mln. baptistlarni va 47 mingdan ortiq mahalliy cherkovlarni birlashtiradi [4]. 2016-yilga kelib saytga baptistlarni "Baptistlik ta'limoti va missiyasi" kitobining 7 tildagi tarjimasini joylangan va barcha istovchilar o'qishi uchun erkin qilib qo'yilgan.

Diniy ibodat va rasm-rusumlarni onlayn amalga oshirish borasida ham yuqoridagi ikki oqim, demakki, ularga tegishli ikki saytning o'z rejasi bor. Jumladan, AQSh presviterian cherkovi 2020-yil aprelida "Virtual makondagi ibodatlar uchun qo'llanma"ni ishlab chiqdi va o'z saytida e'lon qildi [5]. Unga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri translyatsiyalar yoki oldindan yozib olingan amaliyotlarga Xudoni birgalikda ulug'lash, Iso Masihning tanasi bilan bog'liqlikda bo'lish va Ruhning xalos etuvchi kuchini izlash sifatida qarash o'rinli. Qo'llanmada quyidagilar bo'yicha yo'riqnomalar keltirilgan:

— *Gibrid yig'ilishlar* doirasida ba'zi insonlar, ya'ni uyidan chiqqan olmaydiganlar va kasalxonada yotganlar cherkovda o'tayotgan ibodatlariga real vaqt rejimida onlayn qo'shilishiga ruxsat beriladi. Bunday hollarda ibodat qilish tartibi, ketma-ketligi o'zgarishsiz qoladi. Ammo yetakchi (pastor)lar virtual ishtirokchilar o'zlarini

jamoadan ajralib qolgandek his qilmasliklari uchun ular bilan muloqotni chat/izohlar/shaxsiy yozishmalar oynasida olib borishlari zarur.

— *Sirli marosimlardan* cho‘qintirish va yevxaristiya insonning jismonan ishtirok etishini talab qilgani bois ularni onlayn rejimda o‘tkazish yoqlanmaydi.

— Jamoalar faqat virtual makonda to‘planganda *kundalik ibodatlardan* “Umumiy ibodatlar kitobi” (“Book of Common Worship”), “Yaratganga shukur” (“Glory to God”) kitobida yoxud “AQSh Presviterian cherkovi kundalik ibodati” mobil ilovasi (PC(USA) Daily Prayer app)da keltirilgan ibodat xizmatlariga tayanishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zotan, bunday ibodatlarining asosiy qismini psalomlar, muqaddas bitiklar, shukronalik va o‘tinch duolari tashkil etadi.

— *Kongregatsional* ishtirok masalasida har bir jamoa o‘zi tanlagan media-platforma imkoniyatlaridan foydalangan holda izoh, post yozish, layk bosish, repost qilish kabilar orqali o‘z ishtirokini ta‘minlashi lozim.

— Cherkov uchun *xayr-ehson mablag‘larini* to‘plashda odamlar uchun oson va qulay bo‘lgan, muntazam, avtomatlashtirilgan onlayn xizmatlarni joriy etish yo‘llarini topish cherkov xodimlariga yuklatilgan.

— *Jonli efirlarda* ibodat xizmatlariga taalluqli madhiya va qo‘shiqlardan foydalanishda mualliflik huquqiga daxl qilmaslik uchun [www.onelicense.net](http://www.onelicense.net) saytidagi materiallar ichidan tanlash tavsiya qilinadi.

— *Onlayn amaliyotlar* uchun Facebook Live, Google Hangout, Periscope, Skype, YouTube, Zoom platformalari keng qo‘llanilishi mumkin.

Qo‘llanmadan kelib chiqib, AQSh presviterian cherkovi virtual ibodatlarini o‘zining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali ado etishni yo‘lga qo‘ydi. 2006-yil Youtube‘da, 2010-yil Facebook va Twitter ijtimoiy tarmoqlarida rasmiy sahifalari ochildi. Youtube‘dagi sahifa ([youtube.com/c/presbyterianchurch](https://youtube.com/c/presbyterianchurch)) 2010-yil 1-dekabr sanasida 61 ta video arxivi va 10 500 ta kuzatuvchiga ega bo‘lgan. 2021-yilning 18-yanvar holatida 350 dan ortiq videolar joylashtirilgan. Ular tematikasiga ko‘ra 29 ta to‘plamga (pleylist)ga ajratilgan. Masalan, eng ko‘p video “Jahon bo‘ylab missionerlik”, “Ispan/portugal tillaridagi ibodatlar”, “Presviterianlar dunyo ishlarida”, “E‘tiqodingni saqlab qol” bo‘limlaridan joy olgan. Ko‘p ko‘rilgan videolardan biri “Presviterian bo‘lish” deb nomlanadi (1,4 ming marta ko‘rilgan, 21.04.2021 y. holatiga ko‘ra). Unda turli millat va kasb egalari qanday qilib presviterianlikni qabul qilgani va bu ularning hayotini qanday o‘zgartirib yuborgani haqida hikoya qilinadi. Tabiiyki, bu kabi videoroliklarda presviterianlikni targ‘ib qilish, ular safida bo‘lishga undash g‘oyasi ochiq-oydin aks etgan.

Dunyo bo‘ylab presviterian cherkovi tarafdorlari 1,9 milliondan ortiq bo‘lsa-da [6], uning Youtube’dagi sahifasiga obuna bo‘lganlar (1,94 ming, 21.04.2021 y. holatiga ko‘ra) juda oz. Buni shu bilan izohlash mumkinki, Amerikadagi shtatlar va boshqa davlatlardagi presviterian cherkov (prixod)lari Youtube’da o‘zlarining alohida sahifalari va kuzatuvchilariga ega. Masalan, Hindistondagi uchta cherkov: Jovai (7,13 ming obunachi), Laban (3,32 ming) hamda Malki (3,28 ming) presviterian cherkovlari Youtube kanali murojaat qiluvchilar nisbatan ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Janubiy baptistlar konvensiyasining saytida esa diniy marosimlarni onlayn amalga oshirish borasida biror yo‘riqnoma e‘lon qilinmagan. Shunga qaramay, tashkilotning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari arxivida ba‘zi diniy marosim va va‘z-suhbatlar onlayn o‘tkazilganligiga dalolat beruvchi videomateriallar saqlanib qolgan. Xususan, Facebook tarmog‘idagi sahifada ([facebook.com/SBCExecComm/](https://facebook.com/SBCExecComm/)) 2020-yilda 4 marta: 10-aprelda “Ehtirosli juma onlayn ibodati” (14 ming kuzatuvchi, 368 ta izoh – 20.05.2021 y. holatiga ko‘ra), 6-mayda “Tog‘dagi ibodat” (18 ming kuzatuvchi, 736 ta izoh – 20.05.2021 y. holatida), 17-iyunda “Amerikada irqchilik mavzusida muloqot” (13 ming kuzatuvchi, 546 ta izoh – 20.05.2021 y. holatida), 16-sentabrda “Har yilgi virtual yig‘ilish” (1,1 ming marta ko‘rilgan, 6 ta izoh – 20.05.2021 y. holatida) jonli efirda o‘tkazilgan.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda o‘tkazilgan mazkur tadbirlardan biri – “Ehtirosli juma onlayn ibodati” tahlil qilindi. Ibodat odatga ko‘ra soddalashgan tartibda o‘tgan. Pastor kompyuter va kamera qarshisida uni turli davlatlarda, o‘z uylarida tomosha qilib turgan dindoshlariga Injilning Iso Masihni o‘limiga bag‘ishlangan qismlaridan parchalar o‘qib, mav‘iza qildi. “Zoom” dasturi orqali ushbu amaliyotga turli shaharlardagi cherkov xodimlari ulangan bo‘lib, ular ham navbatma-navbat qisqa mav‘izalarini aytib o‘tdilar. Ekraning bu tomonida turgan onlayn tomoshabinlar esa pastorning so‘zlarini boshlarini quyi solib, ko‘zlarini yumib, jon qulog‘i bilan tingladilar. So‘ng o‘z duolari, iltijolari va shukronalik so‘zlarini tarmoqning “Izohlar” bo‘limida yozib qoldirdilar. Izohlar ichida pastorlardan ular uchun duo qilishlari so‘ralgan iltijolar yoxud onlayn ibodatga turli davlatlardan ulanganlarning salomlarini ham o‘qish mumkin Demak, baptistlarning aynan “Ehtirosli juma” kungi ibodatlarini o‘z tarziga ko‘ra onlayn amalga oshirish mumkin. Bunda mehrob vazifasini kompyuter yoxud noutbuk ekраниy kameralar bajaradi.

Shunga o‘xshash amaliyotni AQSh presviterian cherkovining Facebook’dagi sahifasi ([facebook.com/pcusa/](https://facebook.com/pcusa/))da ham kuzatish mumkin. Bu sahifaga har kuni matn va videodan iborat o‘nga yaqin post qoldiriladi. “Tadbirlar” bo‘limida jonli efirda, onlayn o‘tkaziladigan tadbirlar, xususan, diniy amaliyotlarning e‘lonlari beriladi.

Masalan, 2020-yilning 1-dekabrida #GivingTuesday shiori ostida seshanba kungi ibodat jonli efirda ado etilgan.

Protestantlikda sirli marosimlardan faqat cho‘qintirish va non bilan tamaddi qilish tan olinadi. Xususan, presviterianlikda diniy marosimlar ibodat, presviter – cherkov jamoasi rahbarining va’zi va psalomlar aytishdan iborat bo‘ladi. Yuqorida aytilgan seshanba kungi ibodatda quyidagilar amalga oshirildi: tonggi madhiya-psalomlar pastorlar tomonidan kuylanib, kuzatuvchilardan jo‘r bo‘lish so‘raldi; monitor ekranida pastor tomonidan suv quyilib, cho‘qintirish ado etildi; muqaddas kitobdan oyatlar o‘qildi; kuzatuvchilarga o‘z duolarini “Izohlar” bo‘limida yozishlari so‘raldi. Ushbu amaliyotni 3,8 ming Internet foydalanuvchisi kuzatgan va 105 ta izoh yozib qoldirilgan (20.02.2021 y. holatiga ko‘ra).

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, kibermakonga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan AQSh presviterian cherkovi va Janubiy baptistlar konvensiyasi o‘z veb-saytlaridan asosan o‘zi haqida ma’lumot beruvchi manba sifatida foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan Facebook’dagi sahifasi orqali esa interaktiv muloqot va onlayn diniy amaliyotlarni ado etadi.

Protestantlikning presviterian va baptistlik oqimlari kibermakonga kirib kelib, rasmiy veb-saytlarini ochar ekan, faoliyatini avvalo muqaddas kitoblari va ta’limoti to‘g‘risidagi ma’lumotni raqamlashgan shaklda barcha uchun ochiq holatda taqdim etishdan boshlagan. Cherkov ishini yoritish bilan bir qatorda ana shu tadbirlarda foydalanilayotgan kunlik ibodat va duolarning matnlarini, qo‘shiq va psalomlarning matnlarini Internetga joylashtirgan.

Ibodatlarni onlayn – jonli efirda ado etish esa ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifalarini ochgandan so‘ng yo‘lga qo‘yildi. Boisi endi bir vaqtda ikki tomonning jam bo‘lishi va ikki tomonlama muloqot asnosida, hatto ikki tomon bir-birini ko‘rib turgan holda ibodatlarni amalga oshirish imkoni paydo bo‘ldi.

### **(REFERENCES)**

1. Wyndham, M. (1996) Cyberchurch: christian community in cyberspace. A Dissertation for the Degree Doctor of Philosophy. The Southern Baptist Theological Seminary. P 143-145
2. Global Christianity A Report on the Size and Distribution of the World's Christian Population. The Pew Forum on Religion&Public Life. December 19, 2011.

- 
3. Appendix B:Classification of Protestant Denominations. May 15, 2015.  
<https://www.pewforum.org/2015/05/12/appendix-b-classification-of-protestant-denominations/>
  4. <https://www.sbc.net/about/what-we-do/fast-facts/> - murojaat sanasi 21.05.2021 y.
  5. [https://www.pcusa.org/site\\_media/media/uploads/covid-19/guidelines\\_on\\_worship\\_in\\_virtual\\_space\\_-\\_revised\\_4.7.20.pdf](https://www.pcusa.org/site_media/media/uploads/covid-19/guidelines_on_worship_in_virtual_space_-_revised_4.7.20.pdf) – murojaat sanasi 09.03.2021 y



## **HOZIRGI DAVR O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIY KONSEPSIYA MASALALARI**

**( Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodi misolida.)**

**Berdiyeva Zulayxo Ochilovna**

QarDu Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Adabiyotshunoslik kafedrasida 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., professor **Yo'ldoshev Boynazar**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada hozirgi davr o'zbek she'riyatida badiiy konsepsiya masalalari, shoir va shoiralarning she'riyatidagi o'ziga xosliklar, ijodkor "men" ining she'riyatda aks etishi haqida so'z boradi. Bunda Zebo Mirzoning rangin bo'yoqlar bilan yo'g'rilgan she'rlari hamda Halima Ahmedovaning eng sara ijodiy na'munalari asosida badiiy konsepsiyaning mohiyatini ochib berishga harakat qildik.*

***Kalit so'zlar:** Konsepsiya, badiiy g'oya, portret, psixologizm, xarakter, hayot haqiqati, davr muammolari, estetik ideal, pafos.*

### **ANNOTATION**

*This article deals with the issues of artistic concept in modern Uzbek poetry, the peculiarities of the poetry of poets and poetesses, the reflection of the creative "I" in poetry. At the same time, we tried to reveal the essence of the artistic concept on the basis of Zebo Mirzo's colorful poems and the best creative examples of Halima Ahmedova.*

***Keywords:** Concept, artistic idea, portrait, psychologism, character, reality of life, problems of the period, aesthetic ideal, pathos.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются вопросы художественного замысла в современной узбекской поэзии особенности поэзии поэтов и поэтесс б отражение творческого "Я" в поэзии. При этом мы постарались раскрыть суть художественной концепции на основе красочных стихотворений Зебо Мирзо и лучших творческих примеров Халима Ахмедовой.*

***Ключевые слова:** Концепция, художественная идея, портрет, психологизм, персонаж, реальность жизни, проблемы природа, эстетических идеал, пфос.*

### **KIRISH**

Har bir davr adabiyotda mohiyati, ma'no-mazmuni bilan o'z nafasini qoldiradi. Mustaqillik davr o'zbek she'riyati ham abiyotimiz gulshanida o'zining salmoqli

o'rniga egadir. Bugunning shoir va shoiralari she'riy asar yaratishda butunlay yangicha ruh va kayfiyat bilan qalam tebratmoqdalar.

Yaratilayotgan har bir yangi ijod mahsuli shaxs ruhiyati uning ichki kechinmalarining yorqin ifodachisi bo'ladi. Istiqlol davr she'riyatining boshqa davrlar she'riyatidan farqli jihati shundaki, bu davr she'riyatida milliy o'zlikni anglash, erkin fikrlash ruhi yetakchilik qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ushbu maqolada adabiyotimizning eng betakror janri bo'lgan lirik asarlar, bugungi kun she'riyatining o'ziga xos jihatlari haqida yirik adabiyotshunos olimlarning fikrlariga tayangan holda iste'dodli shoirlarimiz Zebo Mirzo va Halima Ahmedovalarning ijod na'munalarining badiiy konseptual xususiyatlarini tahlil qilamiz. Bu jarayonda ilmiy bilishning mantiqiylik, psixologik, izchillik hamda tavsifiy yondashuvlaridan foydalanamiz.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatiga nazar solar ekanmiz, yangicha ruh, yangicha yondashuvlar, erkin va hur fikrlar oqimi, hayotdan zavqlanib yashash, vatanga bo'lgan muhabbat, insoniy tuyg'ular tarannumi, muhabbat va sadoqat tuyg'ularining rangin satrlar ila qalamga olinganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda o'zbek she'riyati gulshanida qalam tebratayotgan iste'dodli shoirlarimiz Zebo Mirzo va Halima Ahmedovalarning ijodi o'zining rangin bo'yoqdorligi, serqirraligi hamda badiiy konsepsion jihatdan nihoyatda puxtaligi bilan ajralib turadi.

Endilikda ramzlar, timsollar, metoforalar asosida mushohada yuritish va badiiy umumlashmalarda falsafiy teranlikka intilish hozirgi davr she'riy madaniyatining galdagi ustuvor xususiyatlaridan hisoblanadi. Badiiy umumlashtirilgan ramzli obrazlilik bu she'riyatning bosh fazilatiga aylandi.

Bugungi davr she'riyatida badiiy konsepsiya masalalariga toxtalishdan avval konsepsiya va badiiy konsepsiya o'zi nima? degan savolga javob beramiz.

Konsepsiya (lot. conceptio-, tizim)- biror bir sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; adabiyotda- biror asarning asosiy g'oyasi.

Badiiy konsepsiya- badiiy asar mohiyatini, ijodkorning "meni"ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan asar o'z konsepsiyasiga ko'ra muallifning badiiy- estetik olamiga tegishli bo'ladi.

Halima Ahmedova ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning she'rlaridagi bosh qahramon inson va uning ko'ngli ruhoniyaatidir. Inson botini, siyratining sirlari, ruhoniy dunyosi evrilishlari tahlil qilinadi. Badiiy tadqiqotchilikning tabiati shundaki, qalbni o'rganish – Haq ishqini bilishdan, haqiqatni anglashdan, tuyg'ular tarixini akslantirishdan iborat.

Shunisi jozibki, shoira she'rlarida Haq ishqiz egulik, adolat, go'zallikning yamyashil yashnoq timsoli sifatida talqin qilinadi. Ular borlik va yo'qlik oralig'idagi hayotning yorug'ligini, ko'ngillardaginur-ziyoning poydorligini ta'minlab kelayotgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar enagasidir. Va lekin lirik qahramon ko'nglini qayg'u kemiradi; dar-alam og'ritadi. Boisi shundaki, ma'naviy zulm xillariga toqati yo'q ("Pardozi-andozi zo'r yolg'on so'zlarni, ikki dunyoda ham olmagayman tan. Kelisha olmasam nima qilayin, bedavo kapalak ko'ngillar bilan"). Lirik qahramon qalbidagi mangu mung hukmron emasham emas, Aksincha, ma'naviy qashshoqlikka qarshi qahr, millat munqlariga o'kinch-alamkashlik bor. Dardkashlik ruhi shoira she'rlarida badiiyatning muhim xususiyatlaridan biri sifatida bo'y ko'rsatadi.

Shoira ijodida badiiy konsepsiyaning namoyon bo'lishi Haq ishqiz adolatning beqiyos, benazir, buyuk timsoli sifatida poetik tadqiq etiladi. Lirik qahramon dilidagi haq ishqining cheksizligiga ishonadi. U o'zini anglash orqali ko'nglining tub – tubida ko'kargan, gullayotgan ishonchni tanib boradi. Bundan anglashiladiki, ishonch, mehr, e'tiqod, ham yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida egulikka kamarbasta; egulik xizmatidadir. Banda haq ishqiziga suyanib o'zligini topmoqda; botinidagi ma'naviy tayanch kuchlarini yuzaga chiqarmoqda, namoyon etmoqda.

Demak, bandaning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortmoqda. Insonparvarlik, dunyoga mehr, e'tiqod, yurtsevarlik tuyg'ularining ildizi bandaning o'zida, o'zligidadir.

Halima Ahmedovanning talqiniga ko'ra inson komillikka muhtoj. Ma'nan takomilga hamisha tashna. Haq ishqiz banda tabiatidagi kemtiklar o'rnida ma'naviyat chechaklarini ko'kartiradi; ahloqiy qadriyatlar (ishonch, mehr, muhabbat, oqibat, e'tiqod va h.k) kabi kurtaklarni undiradi.

Shoira haqiqatning buyuk timsolini ilohiylik iroda erki, ruh erkinligi bilan tutash, bog'liq holda deya talqin etadi. Uning she'rlaridagi pokiza ruhiyat dunyosining jilvalanishi o'z davri uchun katta ma'naviy boylik bo'lib hisoblanadi.

Dardkashlik ruhi shoira she'rlarida badiiyatning muhim xususiyatlaridan biri sifatida bo'y ko'rsatadi.

“Bozorlar shovqini, mozor jimligi

Dunyoni to'ldirib turgan bir chog'da.

Nega sen o'zingni ko'rmaysan axir,

Ko'ngling ichidagi qop-qora dog'da"- deb yozadi lirik qahramon. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, demak, banda tor-shaxsiy mayllaridan, xohish-istaklardan baland ko'tarilgan taqdirdagina haqiqatni xolis izlashga, anglashga qodir.

Halima Ahmedova lirikasida ranglar ( yashil, oq, pushti, sariq, moviy, qora va h.k) , dov-daraxtlar, qushlar, maysa-o'simliklar, tuproq, shabboda ramzi asarlari badiyaatining asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi.

Shoira Halima Ahmedova o'z she'rlari orqali qalb tug'yonlarini baralla kuylaydi. Insoniy kechinmalarni go'zal satrlar jilosi ila tasvirlab beradi. Uning quyidagi she'rda baxt, insonning bu hayotda nima uchun yashayotganligi hamda nima qilsa o'zidan yaxshi nom qoldira olishi haqida so'z boradi.

Mendan olislarda tentiraydi baxt,  
Mendan olislarda quvonch sargardon.  
Ko'nglimni quyoshga aylantirib ber,  
Agar osmonliging rost bo'lsa osmon.

Sezdim

Qahr bilan kelar qahraton  
Derazam ko'zida muzlaydi afsun,  
Va borliq qalbida ko'pirgan ishqni  
Allaqayerlarga olib ketar kun.  
Ammo, muzlayotgan bu men emasman,  
Emasman, umiddan qochgan muhojir.  
Va tuman ortida ufqsiz qolgan  
Beshavqat tuyg'uga bo'lmagan asir.  
Hali yodimda bor quyosh nigohi  
Va dilimni suygan nur qahqahasi.  
Ishqning ohangiga solay umrimni,  
To ko'nglim quyoshga aylangunicha,  
Asrayin jon degan tomchi nurimni.  
Mendan olislarda tentiraydi baxt,  
Mendan olislarda quvonch sargardon.  
Ko'nglimni quyoshga aylantirib ber,  
Agar osmonliging rost bo'lsa osmon.

Yuqorida keltirilgan she'rda shoiraning bu hayotga bo'lgan umidi, ko'ngil torlarida jilvalanayotgan hayotga, yashashga bo'lgan muhabbati aks etgan. U osmonga murojaat qilib" ko'nglimni quyoshga aylantirib ber "-deydi. Har bir inson

bu hayotga kelar ekan, shunday yashashi kerakki, uning ko'ngli huddi quyosh kabi iliq, beg'ubor, pok bo'lishi kerak. Ammo bu mashaqqatli hayot yo'llarida doim ham inson qalbini pok saqlashi imkonsizdek tuyuladi. Shunday vaziyatlarga qaramasdan, inson o'zligini, qalbinnig tub-tubida bir zarradek bo'lsa ham yashirinib yotgan mehr-muhabbat tuyg'usini, yaratganga bo'lgan ishonchini, iymon hamda e'tiqodini saqlab qolmog'i shart. Ana shundagina behudaga yashamayotgandek his etadi o'zini. Shoiraning bu satrlar orqali aytmogchi bo'lgani ham har qanday vaziyatda ham inson umidini saqlab qolishi kerakligi nazarda tutilgan.

Qahr bilan kelar qahraton  
Derazam ko'zida muzlaydi afsun  
Ammo muzlayotgan bu men emasman  
Emasman umiddan qochgan muhojir

Shoira qishning qahratonini ham mening umidimni, hayotga bo'lgan muhabbatimni, yashashga bo'lgan umidimni muzlatolmaydi deb yozadi. Inson konsepsiyasi hamisha san'atkorning dunyoqarashi, hayotiy ideali hamda ijodiy pozitsiyasidan tarkib topadi. Inson shaxsiyatidagi komillik xususiyatlarining asosini belgilovchi ezgulik, e'tiqod, adolat tuyg'ularini tarbiyalash va shakllantirishda har tomonlama barkamol shaxs konsepsiyasiga oid nuqtai- nazarni va badiiy tadqiqotchilik prinsiplarini ko'rsatadi. Zero, har bir she'rning badiiy barkamolligi, qahramon psixologiyasi, voqea-hodisaning ta'sirchan tarzda aks ettirilganligi bilan belgilanadi. Bugungi davr she'riyatida badiiyhago'ylikdan ko'ra fikr- mulohaza, kechinma, tuyg'ularni ochiq tarzda tasvirlab berish kuchli.

Har bir inson, shu jumladan shoir-shoiralar o'z e'tiqodidan kelib chiqib, bu yorug' dunyoni ham o'z tushunchasidagi yaxshi odamni ham muayyan o'z ideali nuqtai nazarida tasavvur qiladi. Shunga ko'ra, insonning psixologiyasi, fikriy saviyasi, atrof-tevaragini o'z rayiga qarab o'zgartirishga harakat qiladi. Shoira ham o'z she'rlari orqali o'z qalb kechinmalarini, o'zligini aks ettirgan.

Zebo Mirzo ijodiga yuzlanadigan bo'lsak, uning she'rlarida ham haqiqiy o'zbek ayollariga xos bo'lgan vafo, sadoqat, oqilalik tuyg'ularining tarannumini, vatanga bo'lgan muhabbat, onaga bo'lgan mehr, do'stlik, oilaga bo'lgan e'tibor, tabiat mo'jizalaridan hayratlanish, zavqlanish kabi tuyg'u va kechinmalarnig ta'sirchan tasviriga guvoh bo'lamiz.

### **ONAMGA**

Oq sochlari oppoq tun uning,  
Umri halol ishqqa bayroqdir.  
Ox, yuzlari dunyoyi dunning

Go'zalidan chiroyliroqdir.

\* \* \*

( Bo'lolmadim hassasichalik),  
Otam dardin ko'targan mohim.

Ushoqqina onam ko'ngliga  
Bir hovuch nur bergin, ilohim!

\* \* \*

O'zi potrab chiqqan chashmaday

Yoningizdan oqdimu ketdim.

O'zgalarga daryo tutdimu,

Oh, onam-a sizni unutdim.

\* \* \*

Qaldirg'ochlar mendan yaxshiroq

Baxt to'kadi hur quchog'iga

Men ham uning tirmog'imanu

Arzimayman, lek tirmog'iga.

\* \* \*

Ismaloqlar bo'yini tarab,

Bahor shoshsa yurgan joyiga,

Robbim meni gul qilib yarat,

Hech bo'lmasa, uning poyiga!..

Shoiraning yuqorida keltirilgan she'ri juda ham ta'sirchan hamda mazmunli. She'rda ona siymosi, uning fidokorligi, farzandiga bo'lgan muhabbati, farzandning onasining xizmatida bo'la olmaganligidan afsus chekishi, kabi g'oyalari ilgari surilgan. Shoiraning badiiy-estetik g'oyalari o'ziga xos tarzda she'rda aks etgan, hamda chuqur mazmun kasb etgan.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi davr o'zbek she'riyatida qalam tebratayotgan ko'plab shoir va shoirlar ijodida badiiy konsepsiya tamoyillari o'zinig yorqin ifodasini topgan. Davrlar o'tishi bilan she'riyatdagi mavzular ko'lami hamda g'oyasi ham o'zgarib bormoqda. Bugungi kun shoirlari o'z fikrlarini erkin ifodalay olishlari, hurfikrlikni tarannum etishlari bilan ko'plab ustunliklarga egadirlar.



## **REFERENCES**

1. “Konsepsiya asoslari” O’zME Ikkinchi jild. Toshkent.2000.
2. “Hozirgi adabiy jarayonda badiiy konsepsiya” Ukim, bu nima Qomus
3. Halima Ahmedova „, Dil ustiga ko’prik qurib” Abdulla Ulug’ov 2000.
4. „, O’zbek adiblari” S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016-yil.
5. Halima Ahmedova “ Yashil ” Toshkent-“ O’zbekiston”-2016.
- 6.

## **NORMATIV HUQUQ ME'YORLARIDA AXBOROT XURUJIDAN HIMOYA MASALALARI**

**Boltayeva Dilsora**

Ilmiy tadqiqotchi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada radikal g'oyalar hamda axborot xurujidan himoyalaniş uchun ishlab chiqilgan huquqiy norma va dasturlarning dolzarbligi, ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** "Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiya", "Sakinah Kampaniyasi", "Syamin-2015".

### **ANNOTATION**

*This article provides information on the relevance and importance of legal norms and programs designed to protect against radical ideas and information attacks.*

**Keywords:** "Cybercrime Convention", "Sakina Campaign", "Xiamen-2015".

### **KIRISH**

Internetdagi radikalizm - zo'ravonlikni qamrab oluvchi matnlar, terroristik hujumlarni qanday qilib eng yaxshi yo'lga qo'yish kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmalar, ekstremistik filmlar yoki ovozli kliplar, forumlarda odamlar va muassasalarga tahdidlarni qamrab oladi<sup>60</sup>. Turli xalqaro tashkilotlar axborot texnologiyalarining jinoiy maqsadlarda qo'llanmasligini va ularning umumbashariy tinchlikka xavf solish uchun ishlatilmasligini ta'minlashga urinmoqda. 2001 yilning 25-noyabrida Yevropa kengashi internet jinoyatlariga qarshi kurashish uchun konvensiya qabul qildi. Konvensiya axborot texnologiyalaridagi jinoyatlariga qarshi umumiy choralar ko'rishga, zarur qonunlar qabul qilishga va muammoga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga chaqiradi<sup>61</sup>.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

"Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiya" yoki ("Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi") birinchi xalqaro shartnoma hisoblanib, Internet va kompyuter jinoyatlari borasidagi milliy qonunlarni uyg'unlashtirish, internetda tarqatilayotgan radikal g'oyalarni aniqlash va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali muammolarni hal qilishga intiladi. 2006 yil 1 martda

<sup>60</sup> <https://www.government.nl/Radicalisation> and terrorism.

<sup>61</sup> Muhammad A.Y. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: "Movarounnahr", 2016. – B.590.

Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha protokol kuchga kirdi. Qo'shimcha protokolni ratifikatsiya qilgan davlatlardan irqchi va ksenofobik materiallarni internet tizimlari orqali tarqatish ta'qiqlandi. Shuningdek irqchilik yoki ksenofobiya tahdidlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish talab qilinadi. Konvensiya quyidagi jinoyatlarni oldini olish uchun imzolangan. Internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar, mualliflik huquqini buzish, kompyuter bilan bog'liq firibgarlik, virtual bolalar pornografiyasini hamda radikal g'oyalar va tarmoq xavfsizligini buzishni oldini olishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnomadir. Buddapesht konvensiyasining 9-moddasida bolalar pornografiyasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar aks etgan. Konvensiyaga a'zo davlatlar bolalar bilan bog'liq xatti-harakatlar qasddan va huquqsiz sodir etilgan bo'lsa ichki qonunchiligiga binoan jinoiy javobgarlik sifatida choralarni ko'radi<sup>62</sup>.

Konvensiyaning asosiy maqsadi jamiyatni kiberjinoyatchilikdan himoya qilishga qaratilgan. Xususan internetga tegishli qonunlarni qabul qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyatni tinchligini asrashga qaratilgan. Konvensiya Yevropa va xalqaro ekspertlarning to'rt yillik mehnati mahsulidir. 2016 yil iyul oyidan boshlab Yevropa Kengashiga kirmaydigan davlatlar Avstraliya, Kanada, Isroil, Yaponiya, Panama, Shri-Lanka va AQSh ushbu shartnomani ratifikatsiya qilganlar. Misr Konvensiyani imzolamagan bo'lsada Misr Prezidenti Al Sisi hukumati 2018 yilda kompyuter jinoyati bilan bog'liq asosiy qonunni qabul qildi. Facebook va Twitter singari ijtimoiy tarmoqlarda soxta yangiliklar va terrorizmni targ'ib qiluvchilarni qonun hujjatlari asosida jinoiy javobgarlikka tortish nazarda tutildi<sup>63</sup>. Strategik aloqa, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistlarning manipulyatsion xabarlarini katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Odamlarni, ayniqsa yosh ayollar va erkaklarni o'z saflariga jalb qilishdi. Radikalizatsiya ko'p jihatdan milliy chegaralarni kesib o'tadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt davlatlarga o'ziga xos majburiyat yuklaydi. Paktning 20-moddasida milliy, irqiy diniy nafratni tashkil etuvchi har qanday tashviqot va diskriminatsiya, adovat yoki zo'ravonlikka undash qonun bilan ta'qiqlanishi aks etgan. Bunday cheklovlarning ko'pgina misollari Internetga taalluqlidir. Agar ushbu cheklovlarning buzilishi (ya'ni noqonuniy tashviqot) sodir bo'lsa, og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi.

Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha protokol 2013 yil 28-yanvar Strasburgda kiritildi. Konvensiyada internet tizimlari orqali tarqatiladigan irqchi va ksenofob maateriallar uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilandi.

<sup>62</sup> <https://www.coe.int/Council> of Europe.

<sup>63</sup> [www.coe.int/CETS](https://www.coe.int/CETS) 185-Convention on Cybercrime-Coe.

Shuningdek konvensiyaning 3-moddasida irqchi va ksenofobik materiallarni kompyuter tizimlari orqali tarqatilganda davlatlar o'z ichki qonunchiligiga binoan choralarni ko'radi. Genotsidni tashkil etuvchi harakatlarni yoki insoniyatga qarshi jinoyatlarni ta'qiqlash 6-moddada aks etgan<sup>64</sup>. Radikalizatsiyalashgan kontentni tartibga solish hozirgi paytda bir nechta mamlakatlarda faol ravishda olib borilmoqda. Buyuk Britaniyada "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Internet-ma'lumot bo'limi" (CTIRU) tashkil etildi. Bu bo'lim 2010 yilda "terrorchilik harakatlarini rag'batlantiruvchi yoki ulug'laydigan" 49000 dan ortiq kontentni olib tashlagan. London politsiyasi har hafta 1000 dan ortiq ekstremistik veb-sahifalarni olib tashlaydi. 2014 yilda jugendschutz.net kontenti nafrat bilan gapiradigan barcha huquqbuzarliklarning 58 foizini olib tashlashga erishdi<sup>65</sup>.

2015 yil 13-noyabrda Fransiya hukumatining iltimosiga binoan Facebook qirg'in bilan bog'liq 32000 ta xabarni o'chirib tashladi. Fransiyada 2015 yil 5-fevraldagi 125-sonli farmon bilan Fransiya hukumati veb-saytlarni blokirovka qilishga imkon beradi. Daniyada sud qaroriga binoan politsiya messenjdagi kontentlarni yopishi mumkin. Birlashgan Qirollik va Tunisda ogohlantirishlar beriladi va filtrlash qo'llaniladi. Hindistonda Internet-provayder litsenziyasini blokirovka qilish bilan bir qatorda to'xtatib qo'yish ham buyurilishi mumkin. Avstraliyada messenjer terroristik harakatlarni targ'ib qilish, axloq me'yorlarini buzish, jinoyat yoki zo'ravonlik masalalarini targ'ib qilish, rag'batlantirish yoki ko'rsatma berish sodir etsa, profil hamda kanal aniqlangan taqdirda olib tashlanishi mumkin. Komissar terroristik harakatlarni targ'ib qilish uchun topilgan materiallarni Avstraliya Federal Politsiyasiga xabar qiladi.

Saudiya Arabistonidagi "Sakinah Kampaniyasi" radikal g'oyalarga qarshi kurashishda muhim dasturlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sakinah mustaqil nodavlat tashkilot tomonidan yuritiladi. Islom ishlari vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Diniy qarashlarga radikal qarashni targ'ib qilish uchun Internetdan foydalanadigan shaxslarni tog'ri yo'lga solishga intiladi. Dialog va qarama-qarshi dalillar yuqori darajada olib boriladi. Qirollikdagi boshqa radikalizatsiyaga qarshi kurashish strategiyalariga o'xshab, Sakinah Kampaniyasi diniy bilimlarni izlayotgan shaxslar bilan onlayn aloqada bo'lib, ularni ekstremistik manbalardan uzoqlashtirishga harakat qiladi. Milliy internetni filtrlash va monitoring qilish tizimi Ar-Riyodda joylashgan. Internet xizmatlari bo'limi Ichki ishlar vazirligi boshchiligidagi xavfsizlik

<sup>64</sup> [https://www.enisa.europa.eu.Additional Protocol to the Convention on Cybercrime, concerning the criminalization of acts of a racist and xenophobic nature committed through computer systems \(2003\), Council of Europe, Treaty No.189](https://www.enisa.europa.eu.Additional Protocol to the Convention on Cybercrime, concerning the criminalization of acts of a racist and xenophobic nature committed through computer systems (2003), Council of Europe, Treaty No.189).

<sup>65</sup> Jugendschutz.net is a platform on which any individual can report violations of youth protection laws (<http://www.jugendschutz.net/en/hotline/>).

qo'mitasining ko'rsatmalariga asosan veb-filtrlashni boshqarish uchun javobgardir. Hozirgacha bloklangan saytlarning aksariyati noqonuniy yoki axloqsiz kontentga tegishlidir. Saudiya Arabistonida Internetning joriy etilishi qirollikda jihodchi adabiyot va targ'ibotning tarqalishini sezilarli darajada kengaytirdi. Ruxsatsiz fatvolar chiqarilishini cheklash uchun so'nggi qadamlar qo'yildi. Hozirda faqat davlat homiysi bo'lgan Islom Ulamolari Kengashi bilan bog'liq bo'lgan ulamolar fatvo chiqarishi mumkin<sup>66</sup>. Amerika tadqiqotiga ko'ra bir nechta davlatlar Qirollik Internetdagi ekstremizmga qarshi qanday kurashayotganiga qiziqishmoqda. Bunda bu dasturning ahamiyati katta. AQSh Harbiy akademiyasining Terrorizmga qarshi kurash markazining har oylik nashr etilgan nashrida aytilishicha, Internetda ekstremizm va zo'ravonlik tarqalishi butun dunyo bo'ylab Qirollikning Sakinah kampaniyasi radikal g'oyalarga qanday kurashyotganiga bo'lgan qiziqishiga olib keldi<sup>67</sup>.

Amerikalik ekspert Kristofer tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu kampaniya turli ekstremistik mafkuralarga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Uning fikriga ko'ra, Sakinah kampaniyasi nodavlat va mustaqil dastur bo'lib, u yerda malakali olimlar faoliyat yuritadi. Ulamolar onlayn chat xonalariga kirib, foydalanuvchilar bilan Islom va takfiriy g'oyalarning zarari to'g'risida munozaralar olib borishmoqda deb ta'kidlaydi. Internetga ulangandan so'ng, dastlab shaxs bilan suhbatlashgandan so'ng, Sakinah ishchisi ularga shaxsiy suhbat xonasiga o'tishni taklif qiladi. Ushbu onlayn suhbatlar ketma-ket postlar shaklida amalga oshiriladi. Ikkinchi holatda, odatda ular bilan suhbatlashayotgan kishi savol yuboradi, so'ngra Sakinah ishchisi javob beradi. Ushbu suhbatlar bir necha soat ichida amalga oshirilishi mumkin, ammo ular bir necha oy davomida davom etishi ma'lum bo'lgan. So'ngra dialog stenogrammasi boshqalar o'qishi uchun Internetda joylashtiriladi va dastur ko'lamini ko'paytiradi<sup>68</sup>.

Sakinahning 2017 yilgi hisobotiga ko'ra, dastur o'zining onlayn dialoglari va munozaralariga kirgan 3250 ta radikalning 1500 tasining fikrlarini mo'tadil qilish va to'g'rilashga muvaffaq bo'ldi. Ushbu barcha suhbatlar va tahrirlar kampaniya tomonidan hujjatlashtirilgan va arxivlangan bo'lib, mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun muhim hisoblanadi. Dastur Facebook va Telegram kabi messengerlarda ham faol bo'lib, ular bir nechta akkaunt va platformalarni boshqaradi. Facebook platformasida 410,000 obunachisi yoki izdoshlariga ega<sup>69</sup>.

<sup>66</sup> <https://ctc.usma.edu/Christopher> Boucek. Campaign and Internet Counter-Radicalization in Saudia Arabia. August 2008.

<sup>67</sup> <https://carnegieendowment.org>. Christopher Boucek. The Sakinah Campaign and Internet Counetr-Radicalization in Saudia Arabia. August 25, 2008.

<sup>68</sup> <https://www.arabnews.com>. Saudi Sakinah campaign draws world's interest. 29 March 2015.

<sup>69</sup> [www.terrorismanalysts.com](http://www.terrorismanalysts.com). By Abdullah bin Khaled al-Saud. The Tranquillity Campaign: A Beacon of Light in the Dark World Wide Web.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlarning tegishli organlari tomonidan birgalikda o'tkazilgan "Syamin-2015" onlayn-terrorizmga qarshi mashg'ulot 2015 yil 14 oktyabrda janubiy-sharqiy Xitoyning Fujian provinsiyasining Syamin qirg'oq shahrida bo'lib o'tgan. Mashg'ulotda ShHT delegatlari va guruhning kiberterrorizmga qarshi kurashish tashkiloti ishtirok etdi. Ushbu mashg'ulot internet va ijtimoiy tarmoqlardan terrorizm, separatizm va ekstremizmni g'oyalari tarqatishda foydalanadiganlarni aniqlashga xizmat qildi. Bu ShHT tomonidan uyushtirilgan terrorchilarga qarshi kurash bo'yicha birinchi qo'shma onlayn mashg'ulot hisoblanadi<sup>70</sup>. 2013-2015 yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik dasturi asosida ShHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi tomonidan 2013 yil 20 sentyabrda kiber ekspertlar guruhi tashkil etildi. ShHTga a'zo davlatlar terrorizm, separatizm va ekstremizmning onlayn faoliyatiga qarshi kurashda hamkorlik qiladi.

## **XULOSA**

Mashg'ulotning asosiy maqsadi ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida terrorizm, separatizm va ekstremizm g'oyalari uchun internetdan foydalanishni aniqlash va oldini olish uchun hamkorlik mexanizmini takomillashtirishdan iborat bo'lib, mashg'ulot shuningdek a'zo davlatlarga huquqiy tartiblar, tashkiliy va texnikaviy almashinuvda yordam berishga qaratilgan. Shuningdek internetdan terrorizm, separatizm va ekstremizm faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanadigan terrorchilarga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu mashg'ulot mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni samarali himoya qilish va davlatlarning terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik darajasini yanada yaxshilash uchun xizmat qildi<sup>71</sup>.

## **REFERENCES**

1. Muhammad A.Y. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: "Movarounnahr", 2016. – B.590.
2. Jugendschutz.net is a platform on which any individual can report violations of youth protection laws (<http://www.jugendschutz.net/en/hotline/>).
3. <https://ctc.usma.edu>. Christopher Boucek. Campaign and Internet Counter-Radicalization in Saudia Arabia. August 2008.
4. <https://carnegieendowment.org>. Christopher Boucek. The Sakinah Campaign and Internet Counetr-Radicalization in Saudia Arabia. August 25, 2008.

<sup>70</sup> <http://english.chinamil.com.cn>. Zhang Tao. SCO hosts first joint online counter-terrorism exercise in China. 2015/10/15.

<sup>71</sup> <https://www.refworld.org>. Country Reports on Terrorism 2015-China. 2 June 2016.



## **AQSH MUSULMON JAMOALARINING VUJUDGA KELISHI VA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTDAGI O‘RNI**

**Tursunova Gulnoza**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Magistranti Gulnoza\_rose@rose.mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunda AQShda islom dini jadal sur‘atlar bilan o‘shib boryapti. Hozirgi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlari jahonda iqtisodiy va siyosiy sohalarda o‘zining beqiyos mavqeiga ega bo‘lgan kam sonli mamlakatlardan biri bo‘lib, rivojlangan mamlakatlar orasida aholisining e‘tiqodiga ko‘ra xilma-xilligi bilan ajralib turadigan mamlakatdir. Ayni paytda Qo‘shma Shtatlarda umr kechirayotgan musulmonlar turli oqim va harakatlarga mansub odamlardir, ular rang-barang ijtimoiy, diniy va siyosiy yo‘nalishlarning vakillari hisoblanadilar. Mazkur maqolada AQShdagi musulmonlar ijtimoiy hayotiga ob‘ektiv baho berish, uni yetarli darajada tahlil etish hamda ilk musulmonlar va islom dinining tarqalish tarixini o‘rganish va manbalar tahlili yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar.** AQSh, islom, musulmonlar, ilk musulmonlar guruxi, Musulmon muhojirligi, , islom dini.*

### **ABSTRACT**

*Islam is growing rapidly in the United States today. Today, the United States is one of the few countries in the world that has an unparalleled position in the economic and political spheres, and is one of the most developed countries in terms of population diversity. Muslims currently living in the United States are people of different denominations and movements, representing diverse social, religious, and political backgrounds. This article provides an objective assessment of the social life of Muslims in the United States, an adequate analysis of it, as well as a study of the history and sources of the spread of early Muslims and Islam.*

***Keywords.** USA, Islam, Muslims, the first Muslim group, Muslim immigration,, the religion of Islam.*

### **KIRISH**

Hozirgi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlari iqtisodiy va siyosiy sohalarda jahonda o‘zining beqiyos mavqeiga ega bo‘lgan kam sonli mamlakatlardan biridir. Islom bugungi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlarda eng tez rivojlanib borayotgan dinlardan biridir. Darhaqiqat, bugungi kunda Amerikadagi islomiy jamiyat tez sur‘atlar bilan o‘shib bormoqda.

Ayni paytda Qo‘shma Shtatlarda umr kechirayotgan musulmonlar turli oqim va harakatlarga mansub odamlardir, ular rang-barang ijtimoiy, diniy va siyosiy yo‘nalishlarning vakillari hisoblanadilar. Bu musulmonlar orasida muhojirlar va yerli xalq vakillarini, sunniylar va shialarni, sobit e‘tiqodlilar va turli o‘ziga xos yo‘nalishdagilarni uchratish mumkin. Hozir AQSh aholisi tarkibida mavjud musulmonlar miqdorini aniq belgilash mushkul vazifa, lekin, shuni aytish mumkinki, ularning yarmidan ko‘p qismi muhojir oilalarning birinchi, ikkinchi, uchinchi avlodiga mansub.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Islom dini va musulmonlarning hayoti, musulmon tashkilotlarining faoliyati, jamiyatdagi roli, ahamiyatiga bag‘ishlab turli davrlarda va yurtlarda bir qancha olimlar izlanishlar olib borganlar. Shulardan Uilyam Dikson, Br‘yus Kinni, Uilyam Xart, Jeyn Smit, Edvard Kyortis va Timoti Xoll, kabi ko‘plab olim va tadqiqotchilarning asarlarida uchratish mumkin. Tadqiqot jarayonida Amerika Qo‘shma Shtatlarida Islom dini va musulmonlarning hayoti xorijiy adabiyotlar, manbalar va jurnallar asosida tahlil etildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, AQSh fuqarolarining 84 foizi xristianlar (54 foiz protestantlar, 28 foiz katoliklar), 7,5 foizini hech qanday dinga e‘tiqod qilmaydigan - dinsiz deb hisoblaganlar, 3,5 foiz musulmonlar, 2 foizi yahudiylar, 3 foizi turli din vakillari[1].

Amerikaning zamonaviy musulmon aholisi etnik, ijtimoiy, iqtisodiy va diniy guruhlar sarchashmasini o‘zida namoyon etadi. Amerikada tug‘ilgan musulmonlar Amerika jamiyatiga yahshi integrallashgan, ko‘pchilik boshqa joylardan kelganlar esa endigina Amerika hayotiga moslasha boshlashdi.

Amerikaga islomning kirib kelishi to‘g‘risida xilma-xil fikrlar mavjud. Amerikaga ilk musulmonlar guruxi G‘arbiy Afrikadan 1530-1851 yillar orasida qul savdosi natijasida kela boshlagan. Qullik uchun zo‘rlab olib kelinayotgan minglab G‘arbiy Afrikaliklarning 14-20 foizini musulmonlar tashkil etgan. Bu musulmonlarning avlodi o‘z dinlarini unutib, asta-sekin xristianlikni qabul qilganlar [2].

Keyingi ko‘p sonli musulmonlar Amerikaga 1875-1912 yillar oralarida, hozir Livan, Suriya, Iordaniya, Falastin Milliy Ma‘muriyati va Isroil davlatlari egallab turgan mintaqaning qishloq joylaridan ko‘chib kelishdi. Ushbu mintaq u zamonlar Katta Suriya deb atalar va Usmonli imperiyasi tasarrufida edi. Ushbu mintaq u zamonlar Katta Suriya deb atalar va Usmonli imperiyasi tasarrufida edi. Bu

mintaqadan Amerikaga kelgan erkaklarning ko'pchiligi nasroniylar bo'lsa-da, biroq ularning muayyan qismi musulmon guruhlar edilar. Niyatlari o'z iqtisodiy ahvollarini o'nglash bo'lgan bu erkaklar asosan qishloq xo'jaligidan ish topdilar yoki savdo-sotiq bilan shug'ullandilar. Ular oila ta'minoti uchun yetarli mablag'ni ishlab topish uchun kelishgan, bu maqsad amalga oshgach yurtlariga qaytmoqchi edilar. Muhojirlar orasida turk armiyasida xizmat qilishdan qochib kelganlar ham bor edi. Ularning barchasi ham AQShning sharqiy qismida, o'rta G'arb va Tinch okeani qirg'og'idagi sarhadlarda o'rnasha boshladilar[3].

Birinchi jahon urushi tugab, Usmonli imperiyasining parchalanib ketishi Yaqin Sharq musulmon davlatlaridan muhojirlarning ikkinchi to'liqini Amerika qirg'oqlariga yetkazdi. Bir qism musulmonlar G'arbga iqtisodiy tanglik bilan bir qatorda siyosiy sabablarga ko'ra ham ko'chib ketishdi. Ularning ko'pchiligi Qo'shma Shtatlarga avvalroq borib o'rnashgan yaqinlariga borib qo'shildilar.

Musulmon muhojirligi tarixining 1947-60 yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichida Qo'shma Shtatlarga islomiy olamdan ko'tarilgan oqim yana kuchaydi, ular orasida Yaqin Sharq va boshqa mamlakatlarning vakillari ham ko'p edi. 1953-yili qabul qilingan Fuqarolik va muhojirlik qonuni kvota tartibiga o'zgartirishlar kiritdi. 1947-yili Hindiston yarim oroli bo'linib ketgach, Hindiston va Pokistondan AQShga yuzlandilar [4].

Uchinchi bosqich muhojirlarning kelib chiqishlari asosan shahardan bo'lgani uchun faqat N'yu-York, Chikago kabi katta shaharlarga kelib o'rnashdilar. Ular dastlab kelganlarga qaraganda ilm jihatidan ustunroq edilar, ular AQShda o'qishni davom ettirish, ilg'or texnika yutuqlarni o'zlashtirish niyatida kelgan edilar [5].

Musulmon muhojirligining to'rtinchi, eng so'ngi bosqichi 1965-yili Prezident Lindon Jonson taklifi bilan Yangi qonun qabul qilingandan keyin boshlandi, bunga ko'ra uzoq vaqt amalda bo'lgan, milliy va etnik tamoyillarga asoslangan cheklashlar muomaladan chiqarib tashlandi. AQSh fuqarolarining qarindoshlariga hamda Qo'shma Shtatlar uchun zarur ixtisos egalariga imtiyozlar beriladigan bo'ldi. Yangi qonun Amerika davlati tarixidagi eng muhim ahamiyatga ega hujjatlardan biridir, chunki u XX asr boshidan beri ilk bor chet elliklar uchun Qo'shma Shtatlarga, millatidan qat'iy nazar, ko'chib kelish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda Qo'shma Shtatlarda yashayotgan musulmonlarning soni haqida aniq ma'lumot yo'q. Shuning uchun musulmonlar sonini aniqlash uchun debat va tekshiruvlar ketmoqda. Turli xil tashkilotlar, institutlar turli xildagi taxminlarni bildirishadi. Aniq deb keltirilgan ma'lumotlar taxminlardan xoli emas. Hozirgi kunda AQShdagi musulmonlar soni miqdorini aniq belgilashda ba'zi tafovutlar mavjud.

Birinchidan, buning asosiy sababi-ba'zi diniy tashkilotlar o'z izdoshlari sonini ko'paytirib ko'rsatishga harakat qiladilar.

Ikkinchidan, AQSh konsitutsiyasiga ko'ra, din davlatdan ajratilgan, bu Amerika qonunchiligida ham o'z aksini topgan: AQShning aholini ro'yxatga olish Byurosi, odatda, fuqarolarga diniy mansubiyat haqida savol bermaydi. Aslida AQShda aholi diniy mansubligi bo'yicha hisobga olinmaydi - bu holat fuqarolarning konstitusion huquqlari buzilishi deb baholanadi. AQSh muhojirlik xizmati ham bu mamlakatda yashashni ixtiyor etganlarning e'tiqodi haqida ma'lumotlar to'plamaydi. Qo'shma Shtatlardagi aksariyat masjidlar ham o'z jamoa a'zolarining ro'yxatini tuzmaydilar, ibodat qiluvchilarning hisob-kitobi bilan shug'ullanmaydilar [5].

Shu bois ham, Qo'shma Shtatlardagi musulmonlarning miqdori rasman aniqlanmagan, bu masalani o'rganadigan butun tadqiqotchilarning barchasi qabul qilgan ma'lumotlar quyidagicha:

Jumladan, 2000 yili AQShdagi musulmonlar soni Shimoliy Amerika islom jamiyati (ShAIJ,) ma'lumotiga ko'ra, 7 mln., Amerika oliy islom kengashi ta'kidlashicha, 15 mln., ijtimoiy so'rov natijalariga asosan 2 milliondan 5 milliongacha, Britaniya ensiklopediyasi ma'lumotlariga ko'ra, 4,175 mln. kishini tashkil qilgan. Amerika oliy islom kengashi 15 mln, oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, hozir AQShdagi musulmonlar soni 9 732 061 kishi bo'lib, mamlakat aholisining 3,5 foizini tashkil qiladi [6]. Bu sonlar juda ham ajablantiradi chunki AQSh musulmon imigratsiyasining o'sishi unchalik ko'p emas. Amerika islom muassasining ma'lumotiga ko'ra, AQShda har yili 100 000 kishi islomni qabul qilmoqda [6].

## **XULOSA**

Tinchlik bor joyda rivojlanish, taraqqiyot uchun qulay imkoniyat bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Amerkadagi ilk musulmonlarning hayot tarzi boshqa hududdagi dindoshlarinikiga nisbatan ancha og'ir kechgan. Bu yo'lda ularning aksariyati kuchli tazyiqlarga qaramay o'z diniy e'tiqodlarida bardavom bo'lgan, ayrimlari esa ma'lum bir doira ta'siri ostida dinlaridan voz kechganlar yoki o'zlarini kechganday tutganlar. Bugungi kunda AQShda islom dini jadal sur'atlar bilan o'sib boryapti. Diniy tashkilotlarning huquqiy asosi esa AQSh konsitutsiyasida belgilab qo'yilgan. AQShdagi har bir diniy tashkilot tegishli hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tadi. Musulmonlar AQSh madaniyatiga ham sezirali darajada hissa qo'shganlar va qo'shib kelmoqdalar. Yakuniy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlarda tarqalgan dinlar, ularning yo'nalishlarini o'rganish hozirgi davrning diniy manzarasini yaqqol tasavvur qilish, kelajakda ham bu boradagi tinchlikni saqlash va hamkorlikni mustahkamlash yo'llari hamda imkoniyatlarini izlab topishda katta

ahamiyatga ega.

## REFERENCES

1. Islom va hozirgi zamon . O‘quv qo‘llanma. Toshkent islom universiteti, T-2010.-B.189.
2. Laura K. Egendorf. Islam in America. Detroit, New York, San Francisco, San Diego, New Haven, Maine, London, Munich. 2005. 33.
3. Lampman. J. Muslim in America// The ChristianScience Monitor. January 10, 2002. –Б. 52.
4. Timothy L. Hall. American Experience: Religion in America. Facts on File Inc. New York. 2007. –B. 15.
5. Philippa S, Daniele T./ Muslims in the United States: Demography, Beliefs, Institutions. Woodrow Wilson International Center for Scholars, Washington, D.C. 2003. –B.56.
6. Мусульмане в Америке. Государственный департамент США. Бюро информационных программ. -59 с.
7. Источники: статические данные из сборника/ Muslim americans: Middle Class and Mostly Mainstream Pew Research Center.
8. <http://www.afncana.ru/konkurs/raboti/Tulsky/islam.htm>.
9. Америка мусулмонлари ҳаёти/журнал/АҚШ давлат департаментининг халқаро ахборот дастурлар бўлими/<http://useinfo.state.gov/>Маънавий муштараклик. –Б.2.

## **TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMIDA HOVUZ TINDIRGICHINING SAMARALI ISHLATISH USULLARI**

**J. X. Ishanov**

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Javlon\_Ishanov@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Hozirgi kunda, suv tanqisligi tobora ortib borayotgan bir vaqtda, suv resurslarni tejashni davirning o‘zi taqozo qilmoqda. Maqolada tomchilatib sug‘orish tizimi suv tindirgichining suv olish manbasiga, o‘rnatilgan shag‘al qum shag‘al filtr va xovuz (tindirgichning) optimal turini tanlash, suv loyqalgini kamaytirish hamda tindirgichni va filtr tizimini ishlatish davomiyligini oshirish.*

***Kalit so‘zlari:** tomchilatib, shag‘al qum shag‘al, sug‘orish, optimal, suv, filtr, resurs, tindirgich, xovuz, tejamkorlik.*

### **ABSTRACT**

*Today, when water scarcity is increasing, it is time to conserve water resources. In the article, the drip irrigation system depends on the source of the sump water intake, the choice of the optimal type of installed gravel-sand-gravel filter and pool (sump), reducing the turbidity of the water and increasing the duration of the sump and filter use. system.*

***Keywords:** drip, gravel sand gravel, irrigation, optimal, water, filter, resource, sedative, pool, conservation.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasining sug‘oriladigan yer maydoni 4,0 million 300 gektarni tashkil qiladi. Mamlaktimiz sub-arid mintaqa bo‘lganligi sababli, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini sug‘ormasdan turib yuqori hosil olish mumkin emas. Shu sababli undan oqilona foydalanish, sohaga innovasion texnologiyalarni keng tatbiq etish ayni zaruratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4919-sonli qarori qabul qilingan.

### **ADABYOTLAR TAHLILI VA METODOLGIYA**

Keng qo‘llanilayotgan egatlab sug‘orishda o‘simlikka keragidan ortiq suv beriladi va dala bo‘ylab sug‘orishga berilgan suv bir tekisda taqsimlanmaydi. Xamda sug‘orish davomiy olib borilmasligi oqibatida o‘simlik chanqab stress holatiga



tushadi va o'z quvvatini ko'proq o'simlik o'zni saqlab qolishga sarflaydi. Egatlab sug'orishda o'simlik uchun berilgan mineral o'g'itlarning malum bir qismi suvga qo'shilib oqib chiqib ketadi va yerga singib begona o'tlarning rivojlanishiga olib keladi. Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik O'zbekistonda sug'orima dehqonchilik orqali yetishtiradigan mahsulotlarning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bosh sabablardan biridir.

Bozor iktisodiyotiga o'tish jarayoni mamlakatimiz qishloq xo'jaligida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlardan yuqori xosil yetishtirish maqsadida tuproq unumdorligini saqlash va orttirib borish, dehqonchilik madaniyatini yanada yuksaltirish uchun istiqbolli tomchilatib sug'orish usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda keng joriy etishni taqozo etmoqda[2].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tomchilatib sug'orish tizimini asosiy elementlaridan biri bo'lgan hovuz (tindirgich).

**Hovuz-tindirgich**- oqar suv tarkibidagi loyqa oqiziqlarni ushlab qolish (suvni tindirish) hamda sug'orish uchun zarur bo'ladigan suv zaxirasini saqlash uchun mo'ljallangan inshoot. Bu inshootga irrigatsiya tarmog'i ya'ni kanallardan suvni oladi va suvdagi loyqa tindiriladi, tindirilgan suvni nasos qurilmasi orqali tomchilatib sug'orish filtr qurilmasiga yuboradi [3].

Amudaryo yuqori qismi Tojikiston va O'zbekistonning Avg'oniston bilan chegarasida oqadi, uzunligi 2540 km havzaninig maydoni qariyb 465 ming km<sup>2</sup>, shundan 227,3 ming km<sup>2</sup> suv to'playdigan tog'li qismiga to'g'ri keladi, Amudaryo Afg'onistonda Hindukush tog'larining shimoliy yonbag'ridan 4950 m baladlikdagi muzlikdan boshlanadi. Amudaryoning asosiy suv rejimi uning yuqori, tog'li qismida shakllanadi. Bu joyda Amudaryo tor, ba'zan chuqur va nishabi katta o'zanda oqadi. O'zan o'rta hisobda har bir km ga 4 m dan (ayrim joylarda esa 10 m dan ham ko'p) pasayib boradi. Shu tufayli daryo juda tez oqadi, oqimning tezligi 4—6 m<sup>3</sup>/s. Amudaryo daryosidan suv olib qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun ishlatadigan viloyatlar Surxnadaryo, Qashqadaryo, Buxaro, Xorazim va Qoraqolpog'iston Respublikasi xisoblanadi. Malumki, Amudaryo daryosining suv loyqa suv xisoblanib, bu daryodan suv oladigan kanalarning loyqaligi juda yuqori bo'lganligi uchun kanllar tez loyqa o'tiradi, shuning uchun fermerlarimiz tomchilatib sug'orish tizimini qo'lashga juda ko'p muammolarga duch kelishgan va keshmoqda.

Yuqoridagilarni inobotga olib suv olish manbasidan, tindirgichga kelayotgan suvning tarkibidagi loyqalar ekin maydonini sug'orish mavsumida tindirgichni m'alum bir xajmini to'ldiradi, loyqalarni tindirgichga kelayotgan hajmini kamaytirish

**Uchinchidan,** ushbu turdagi yuklarni tashishning ma'lum texnologiyalari MDH davlatlari orasida butun tarmoq modelida qo'llanilishi mumkin emas, chunki ularning tuzilish xususiyatlari MDH davlatlari temir yo'llarida harakatlanuvchi tarkib parkining o'ziga xos xususiyatlariga, tarmoq va iqlim xususiyatlari shartlar mos kelmaydi. Transport kompaniyalarida kontrailer transportini joriy etish jarayonini tezlashtirish uchun sharoit yaratish kerak.

**Kontrailer usulida tashishning asosiy afzalliklari:**



1. **Ekologik tozaligi** - temir yo'l transporti boshqa transport turlariga qaraganda eng ekologik toza transport turlaridan biridir. Energiya resurslarining bir xil sarflanishi bilan temir yo'llar ancha katta hajmdagi yuk tashish ishlarini bajaradi. Temir yo'l transportining energiya samaradorligi avtomobil transportiga qaraganda ikki-uch baravar yuqori. Yuk tashishda qo'llanilgandek, bugungi kunda havoda transportdan chiqayotgan gazlarning emissiya koeffitsienti 656 g / tkm, avtomobil transportida 72 g / tkm, dizel bilan ishlaydigan poezd esa atmosferaga atigi 35 g / tkm va 18 g. / km elektrvozlarda. [3];

2. Bojxona punktlardan tez o'tishi (xalqaro tashish uchun). Xalqaro yuk tashish salohiyati yiliga 32 mln. Latvijias Auto (Latviya tashuvchilar uyushmasi) ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda MDH davlatlari hamda Latviya chegarasidagi nazorat-o'tkazish punktlarida transport vositalarining bojxona protseduralarini kutishning o'rtacha vaqti 40 soatdan oshgan. Shu bilan birga, "Vi-king" konteyner-piggyback poyezdi MDH va Litva chegarasini 30 daqiqada bosib o'tdi [4]. Shu sababli, tez buziladigan, mavsumiy, qimmatbaho va xavfli tovarlar egalari kontrailer texnologiyalaridan foydalanishdan manfaatdor bo'lishi mumkin.

3. Yuqori tezlikdagi harakat. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarida konteyner poyezdining o'rtacha kunlik tezligi kuniga 960 km ga etishi mumkin.

4. Tranzit yuk avtomobil transportining tashilishini kamaytirish orqali megapolislarning transport tizimlarini yuklanganlik darjasini tushirish. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab baxtsiz hodisalar yuk mashinalari va og'ir yuk mashinalari haydovchilarining aybi bilan sodir bo'ladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Kontrailer usulida tashish bugungi kunda yuk tashishning eng istiqbolli turlaridan biridir. MDH davlatlarida tirkamali yuk tashishni tashkil etish uchun bir qator birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

**Birinchi**dan, barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan, yuklash-tushirish ishlarining samaradorligini ta'minlaydigan, shuningdek, ishonchli mahkamlash vositalariga ega bo'lgan yangi turdagi universal harakatlanuvchi tarkibni yaratish.

**Ikkinchi**dan, bu transport turini davlat tomonidan subsidiyalash orqali Kontrailer usuli operatorining muqobil tarif siyosatini ta'minlashi kerak, chunki bunday transport xizmati nisbatn iqtisodiy yuqori emas. Davlat subsidiyalari mazkur transport turining avtomobil transporti bilan raqobatlashishiga imkon beradigan jozibador tariflarni yaratishga imkon beradi.

**Uchinchi**dan, huquqiy masalalarni hal qilish, ya'ni MDH mamlakatlarida tashish qoidalarini ishlab chiqish va joriy qilish kerak.

**To'rtinchidan**, ushbu transport turiga talabni rag'batlantiruvchi qo'shimcha qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur. Masalan, MDH davlatlarining ayrim hududlarida ekologik talablarni kuchaytirish. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarida bu masalaga har tomonlama yondashilgan. Yuk tashishda qo'yiladigan ekologik me'yorlarni murakblash, mashinaning o'qi yuklanishining cheklanishini va dam olish va ta'til kunlarida yuk mashinalarining yo'llarga chiqishini taqiqlashni qo'shishimiz mumkin.

**Shubhasiz**, kontrailer usuli o'zi judda ziddiyatli va ularni tashkil etish kompleks yondashuvni talab qiladi, lekin yuqorida ko'rsatilgan shartlarning bajarilishi MDH davlatlarida hususan O'zbekistonda kontrailer usulida tashishning ijobiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

### **REFERENCES**

1. "MDH temir yo'llari sherigi" jurnalining maxsus soni "Konteyner tashish" 2012 yil.
2. Viking (poezd) / Vikipediya - bepul ensiklopediya [Elektron manba]. –URL: [http://ru.wikipedia.org/wiki/Viking\\_\(train\)](http://ru.wikipedia.org/wiki/Viking_(train))
3. Nechaev S. MDH Temir yo'llari tabiatga boradi / "Ekologiya". Qo'shimcha, 115 -son (4900) [Elektron manba]. Manzil: <http://www.kommersant.ru/doc/1966362/print>.
4. "MDH temir yo'llari sherigi" jurnali, maxsus son, konteyner tashish, 2012. - S. 9.
5. Smolyanivov A. Transport infrastructure condition for organizing piggyback traffic. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 403 (2019) 012200 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/403/1/012200
6. A Rajapov, M Jian, S Hayrutdinov, B Ergashev. International Conference on Intelligent and Interactive Systems and Applications. DOI: 10.1007/978-3-030-02804-6\_86
7. МММ М. N. Irisbekova, В. Z. Ergashev. ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ИНДЕКСЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛОГИСТИКИ.

**UDK:636.314**

## **XIZMAT ITLARINI OZIQLANTIRISH ME'YORLARI HAMDA OZIQA SARFLARINI ENERGETIK QIYMATLARI**

**Salomov Komil Abduxolikovich**

Milliy kinologiya markazi instruktori bojxona xizmati katta leytenanti

### **ANNOTATSIYA**

*Itlarning muvozanatli hayot kechirishi va yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi ularning to'g'ri ovqatlanishi bilan bevosita bog'liq. To'g'ri ovqatlanish dietaning fiziologik asosli ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek sifatli va izchil ovqatlanishni nazarda tutadi.*

**Kalit so'zlar.** *It, ferment, norma, kkal, rasion, oqsil, yog', go'sht, uglevod, modda, vitamin.*

### **ABSTRACT**

*The fact that dogs live a balanced life and have a high performance is directly related to their proper feeding. Proper nutrition means that the diet is based on physiologically grounded levels of nutrient requirements, as well as a quality and consistent diet.*

**Keywords.** *Dog, enzyme, norm, kcal, ration, protein, fat, meat, carbohydrate, substance, vitamin.*

### **KIRISH**

It yirtqich xayvon turkumiga kirib, asosan go'sht iste'mol qiladi. Noto'g'ri oziqlantirish organizmga salbiy ta'sir qilmasligi uchun ovqat xazm qilish tizimining o'ziga xos fiziologik xususiyatlarini xisobga olish zarur. Tana kerakli moddalarni turli kimyoviy - biologik jarayonlarga to'xtovsiz sarflaydi. Organizmi uz faoliyatini davom ettirish uchun sarflanayotgan moddalarning o'rni to'liq qoplanishi shart. Bunday manba vazifasini fermentlar ta'sirida tana kelib tushadigan moddalar bajaradi.

Ozuqa moddalari deb-modda almashinuvi jarayonida it tanasiga singiydigan va itning xayot faoliyatini ta'minlash uchun foydalaniladigan ozuqaning kimyoviy moddalari (oqsil, yog', mineral tuzlar, uglevod, vitaminlar va suv) ga aytiladi.

Ozuqa maxsulotining qimmatlari itlarnig sog'lig'i va ish qobiliyatini ta'minlash uchun ozuqa moddalari quvvat bo'lgan ehtiyojini qondirish xususiyati to'yimlilik bilan ajralib turadi. To'yimlilik-uning ozuqa, biologik va energetik qiymatiga bog'liq.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maxsulotning ozuqa qimmatlari-oqsil, uglevodlar yog‘lar, mineral tuz va vitaminlarning miqdoriy tarkibi bilan aniqlanadi.

Ozuqaning biologik qimmatlari-uning tarkibidagi sifatli oqsillar va yog‘larning miqdori bilan belgilanadi. Xayvonot olamiga oid maxsulotlar: go‘sh, baliq, sut va sut maxsulotlari- oqsillarga juda boy bo‘lgan manbalar sirasiga kiradi. Bu maxsulotlar tarkibidagi oqsillarda o‘rnin almashtirib bo‘lmaydigan barcha aminokislotalar mavjud bo‘lib, oshqozon - ichak yo‘lida oson parchalanadi va yaxshi xazm bo‘ladi. Oqsillar o‘simlik oqsillariga nisbatan biologik jihatdan 1,2 marta qimmatli va samaraliroqdir.

Rasion asosida to‘g‘ri oziqlantirish – itning sog‘lig‘i, o‘sish sur‘ati, rivojlanishi, gavda bichimi, vazniga ijobiy ta‘sir etib, xal qiluvchi axamiyat kasb etadi. U it kuchi va ish qobiliyatini saqlashning muxim omilidir.

Itlarning bir maromda xayot kechirishi va ish qobiliyatining yuqoriligi ularni to‘g‘ri oziqlantirishga bevosida bog‘liq. To‘g‘ri oziqlantirish deganda- oziqlantirish tartibiga rioya qilgan xolda, to‘yimli moddalarga bo‘lgan extiyojning fiziologik jihatdan asoslangan me‘yorlari xamda sifatli va muvofiqlashtirilgan rasion bo‘yicha oziqlantirish (jadval-1) jinsi, yoshi va o‘rta va katta zotli itlar uchun maxsus jadval asosida xisoblash dasturiga binoan amalga oshiriladi.

**1-jadval**

### **O‘zbekiston Respublikasi DBK hisobidagi xizmat itlarini oziqlantirish rasioni**

/r	Mahsulotlar nomi	Mikdori ( sutkada bir itga grammada)	
		Katta yoshdagi itlar	4 oylikkacha bo‘lgan kuchuk bolalari
.	Go‘sh mahsulotlari	400	200
.	Krupa	600	300
.	Sabzovotlar	300	100
.	Xayvon yogi	13	10
.	Osh tuzi	14	10
.	Sut	-	500

	Suyak uni	15	10
--	-----------	----	----

Yuqoridagi jadval asosida xizmat itlarini kunlik oziqaga bo'lgan talabini rasion asosida to'laqonli yoshi, jinsi va rasion asosida to'laqonli me'yorini matematik usulda tez va oson xisoblash dasturi bo'lib qo'shimcha tarzda omborxonada qolgan mahsulotlarni necha kunga yetishi haqida xam ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Oziqlantirish qoidalarini buzish-amaliy mashg'ulot (dressirovka) va ulardan foydalanish sifatini keskin pasaytirib yuboradi. Ko'p xollarda og'ir kasalliklarga chalinish, ozib ketishga, ba'zida esa itni nobud bo'lishiga olib keladi. Tanada kechayotgan jarayonlarning bir maromda bo'lishi asosan, ularni oziqlantirish sifatiga bog'liq. To'g'ri oziqlantirishni tashkil qilish—faqat itlarnig to'yimli moddalarga bo'lgan fiziologik extiyojini xisobga olgan xolda, berilayotgan ozuqaning miqdori va sifati tartibga solingandagina mumkin bo'ladi. Itlarni kam oziqlantirish xam, keragidan ortiq oziqlantirish xam zarar keltiradi, jinsiy xujayralar, xomilaning embrional rivojlanishi va nasl sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

Oqsil itlarga tanadagi ishdan chiqqan to'qimalarni yangilash xamda emizikli urg'ochi itlarning sutida oqsil xosil qilish uchun kerak. Rasionda oqsil yetishmasligi kuchuklar o'sishi va rivojlanishining sekinlashuvi, urchish funksiyasining buzilishi, ozuqadagi to'yimli moddalarning qiyinlik bilan xazm bo'lishi, organizmning kasalliklarga qarshi kurashining pasayishiga olib keladi. Rasiondagi ortiqcha oqsil xam itga zarar keltiradi. Oqsillarga bo'lgan extiyojning eng maqbul miqdori quyidagicha: 1 kg tirik vazn uchun katta yoshli itlarga 4,5 gramm , kuchukchalarga 9,0 gramm. Xizmat itlari o'rtacha ish bajarganda oqsilga bo'lgan extiyoj taxminan 30 foiz ga ortadi. Katta yoshli urg'ochi itlar bo'g'oz, emizakli bo'lsa yoki erkak itlar va boshqalarning ish xajmi keskin oshsa, oqsillarga bo'lgan talab xam ortib boradi.

Ozuqaning energetik qimmati yoki kaloriyaliligi biokimyoviy oksidlanish jarayonida ajraladigan oqsil, uglevod va yog'larda mavjud bo'lgan quvvatlar miqdoridan tashkil topgan. quvvat (energiya) ichki a'zolarining ishlashi. Muskullar va xarakat tonusi, shuningdek, tananing muayyan xaroratini saqlash va boshqalar uchun zarur. Quvvat-oqsil, yog' va uglevodlar xisobidan ishlab chiqariladi xamda oziqlantirishning umumiy darajasini belgilaydi va kilodjoulda ifodalangan umumiy (ya'ni) quvvatning miqdori bilan tavsiflanadi. Shu narsa aniqlanganki, tanadagi bir gramm oqsil oksidlangan: 16,7 kdj: 1 gramm yog'dan-37,7 kdj va 1 gramm uglevoddan-15,7 kdj quvvat ajraladi: 4,186 kdj 1kal quvvatga teng. Quvvatga bo'lgan

extiyoj it vazniga, atrof–muxit xarorati, jun qatlamining xolati, jinsi, yoshi, tana tuzilishi, muskullarning ishi, itning fiziologik xolatiga va bo‘g‘oz urg‘ochi itlarga bog‘liq. Ularning quvvatga bo‘lgan bir kecha-kunduz extiyoji yozda pasayadi, qish faslida esa, o‘rtacha 15 foizga ko‘payadi. Shu bois erkak itlar urg‘ochilar, katta yoshli va kichik yoshdagilar, ozg‘in muskulli itlar va xomsemiz itlar, jaxldor itlar sovuq aloqa qilayotgan erkak va urg‘ochilarga, bo‘g‘oz va emizakli urg‘ochi itlarga berilayotgan ovqatning kaloriyasini oshirish lozim. (2-jadval) Bajarilayotgan ishlar og‘irlashgan sari-quvvatga bo‘lgan extiyoj xam ortib boradi.

**2-jadval**

**Ozuqalarni to‘yimlilik darajasi kilokalloriya (kkal) xisobida.** *(bir boshga sutkasiga)*

/r	Ozuqa nomi	100 grda Kkal.	o‘rta yoshli kunlik meyor	Kkal	katta yoshli kunlik meyor	Kkal
	sechka (guruchli)	344,0	0,075	258	0,15	516
	yachnevaya/arpa	354,0	0,075	265,5	0,15	531
	jo‘xori	328,0		0		0
	bug‘doy	335,0		0		0
	Go‘sh	274,0	0,112	306,88	0,14	383,6
	subprodukti	241,0	0,12	289,2	0,15	361,5
	Sabzi	35,0	0,015	5,25	0,025	8,75
	piyoz	47,0	0,01	4,7	0,02	9,4
	Lavlagi	43,0	0,015	6,45	0,02	8,6
<b>0</b>	Karam	27,0	0,02	5,4	0,03	8,1
<b>1</b>	Tuz	0,0	0,005	0	0,008	0
<b>2</b>	Sut	59,0		0		0
<b>3</b>	kartoshka	77,0	0,02	15,4	0,025	19,25
	sholg‘om	32,0	0,02	6,4	0,03	9,6



<b>4</b>						
<b>5</b>	suxoy korm Shappi	350,0	0,1	350	0,2	700
<b>6</b>	Tuxum	158,0		0		0
<b>7</b>	suxoy korm Starter	0,0		0		0
<b>8</b>	suxoy korm PAPPY	0,0		0		0
<b>Jami</b>				<b>1513,2</b>		<b>2555,8</b>

Masalan, itlar bajarayotgan oʻrtacha ish quvvati sarfini 20 dan 30 foiz ga oshiradi. Ishga sarflanayotgan quvvat miqdori-itning tayyorgarlik darajasi va nasliga bogʻliq. Rasiondagi quvvatning yetishmasligi uning ozib ketishi, keragidan ortigʻi esa semirib ketishiga sabab boʻladi

**Uglevodlar.** Uglevodlar (qand, kraxmal, kletchatka va boshqalar) – tanadagi quvvatning muxim manbai boʻlib xizmat qiladi. Chunonchi, kletchatka ichaklarning kerilishi va siqilishiga yordam beradi. Uglevodlarga boʻlgan eng maqbul extiyoj quyidagicha: 1 kg. tirik vaznga katta yoshli itlar uchun-10gr., shu jumladan, kletchatka-1 gr., kuchuklar uchun-15,8 gr., shuningdek, kletchatka-1,5 gr. Katta yoshli itlarning uglevodlarga boʻlgan extiyoji –rasiondagi yogʻga nisbatan teskari proporsiyani tashkil etadi. qand va kraxmalni keragidan ortiqcha berish-ularni semirtirib yuboradi.

**Yogʻlarga.** Yogʻlarning oziqlantirishdagi axamiyati-tana xujayralari tarkibiga kiruvchi xayotiy zarur yogʻ kislotalarining mavjudligi va yuqori kaloriyaliligi bilan belgilanadi. Katta yoshli itlarnig yogʻlarga boʻlgan eng maqbul extiyoji 1 kg tirik vazniga 1,32 gr.ni, kuchuklar uchun-2,64 gr.ni tashkil etadi. Itlar rasionida yogʻlarning yetishmasligi oqibatida oʻsishning sekinlashuvi, urchish funksiyasining buzilishi, gipovitaminoz, teri kasalliklari dermatitlar, giperkeratoz, poʻst tashlash, shoʻralash, junning depigmentatsiyasi va boshqalar kuzatiladi. YoGʻlarning rasionda keragidan ortiq boʻlishi xam zararlidir.

**Vitaminlar.** A vitamini (retinol)-baliq moyi, sut maxsulotlari, tuxum sarigʻi, sabzavotlar va baliq jigarida boʻladi. Ushbu vitamin koʻrish quvvatini oshiradi, modda almashinuvini osonlashtiradi, oʻsishni tezlashtiradi, tananing yuqumli kasalliklarga boʻlgan qarshiligini oshiradi.

S vitamini (askarbin kislotasi)- karam, kartoshka, ko'katlar, ozuqa xamirturishlari, jigar tarkibida uchraydi, tananing yuqumli kasalliklarga bo'lgan qarshiligini oshiradi, oqsil va uglevodli moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

V1 vitamini (aneyrin)- javdar va bug'doy unidan yopilgan non, suli yormasi, go'sht, sabzavot, xamirturushlar tarkibida bo'ladi. Tanadagi uglevodlarning to'liq oksidlanishiga ko'maklashadi, asab tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

V2 vitamini (riboflavin)- xamirturushda, javdar va bug'doy non, kartoshka, karam, go'sht, suli yormasida bo'ladi, o'sish jarayonini tezlashtiradi, to'qimalarni yangilaydi, ozuqaning xazm bo'lishini yaxshilaydi.

D vitamini (ergokalsiferol)- baliq moyi, sut, jigar tarkibida mavjud, bu vitamin yetishmaganda- skelet suyaklari yumshab, qiyshtayadi.

RR vitamini (nikotin kislotasi)- javdar non, suli yormasi, go'sht, baliq, kartoshka tarkibida bo'ladi, tanadagi modda almashinuvida ishtirok etadi.

**Suv.** Itlar suvsizlikka ochlikka nisbatan bardosh bera olmaydilar, juda qiynaladilar. Katta yoshli itlarning ichimlik suvga bo'lgan extiyoji 1 kg tirik vazniga-40ml.ni, kuchukchalar uchun-80-120 ml.ni tashkil etadi. Suvga bo'lgan extiyoj oziqlantirish xususiyati, yil fasli, bajarilayotgan ishlar va boshqalarga bog'liq. Katta xajmdagi ishlar bajarilganda va yozda unga bo'lgan extiyoj keskin ortadi. Beriladigan ichimlik suvi toza, tiniq, xidsiz, iliqroq bo'lishi shart. Iflos suv yuqumli kasalliklar manbai bo'lgani sababli itlarning ko'lmak suv, kichik suv xovuzlar, shuningdek, axoli yashaydigan joylardan oqib o'tuvchi ariq, daryo suvlaridan ichirish man etiladi.

**Ozuqa maxsulotlari.** Oziqlantirish uchun ularga asosan go'sht, kalla-pocha, ichak-chavaq, yormalar, non, kartoshka va sabzavotlar beriladi. Bundan tashqari, kuchukchalar va emizikli urg'ochi itlar- tuxum, sut va tvorog bilan boqiladi.

Go'sht eng to'yimli ozuqa xisoblanadi. Aksariyat xollarda mol va qo'y go'shtlarinig past navlaridan foydalaniladi. Xom go'sht qaynatilganidan foydaliroqdir. Yaxshisiz yog'siz go'sht berish zarur, chunki yog'li go'sht oshqozon - ichak yo'liga salbiy ta'sir qiladi.

Ozuqa rasionidagi go'shtning namunaviy me'yori: katta yoshli xizmat itlari uchun- 400 gr., 2 oygacha bo'lgan kuchukchalar uchun-50 –200 gr., 2-4 oylik kuchukchalar uchun 200-400 gr., 4-6 oyliklar uchun 400-500 gr., 6 oylikdan 1 yoshgacha bo'lganlar uchun 500-600 gr. ni tashkil qiladi.

Quruq ozuqalar: Ular pedegri, chappi kabilardir. Quruq ozuqalar tarkibida asosan quyidagi zarur moddalar: oqsil, yog', mineral tuzlar, uglevod, vitaminlar, suv, aminakislotalar, baliq xamda suyak unlaridan tashkil topadi. Ular juda foydali, sarf qilingan quvvat urnini qoplaydi, ishtaxa bilan iste'mol qilinadi. Xozirgi kunda ushbu

ozuqalarning tan narxi yuqoriligi e'tiborga olinib, ko'pgina nasldor itlar bilan shug'ullanadigan klublar, xamda kinologiya soxasiga oid pitomniklarda itlarga berilmaydi. Ular o'rniga go'shtdan tayyorlangan ozuqalar bilan oziqlantiriladi. U bilan xizmat itlari bilan xizmat safarlarida, tog' u dashtlar, cho'llarda sharoitda itlarni oziqlantirish juda qulay. MKM da asosan go'shtdan ozuqalar. Quruq ozuqalar esa faqat favqulodda xolatlar xizmat safarlarida ishlatiladi.

Suyaklar: Uzoq vaqtdavomida suyak bermaslik it skletining umumiy zaiflashuviga olib keladi.

Sut va tvorog: kuchukchalar, bo'g'oz va emizikli urg'ochi itlar xamda kasal, ozib - to'zib ketgan itlar uchun juda qimmatli ozuqa xisoblanadi.

Kuchukchalar, bo'g'oz va emizikli urg'ochi, kasal va urchish davrida erkak itlar tuxum bilan boqiladi.

Mol yog'lari: (mol yog'i, omuxta yog') yilning sovuq oylarida, rasionga qo'shimcha ravishda bir kecha-kunduz 20-30 gr.dan beriladi.

Bug'doy, tariq, ko'k, arpa, guruch yormalari ozuqa rasionining asosini tashkil etadi.

Sabzavotlar: (sabzi, lavlagi, kartoshka, karam) vitaminlar, tez xazm bo'luvchi uglevodlar, mineral moddalar, organik kislotalar va kletchatkalarining manbaidir.

Ozuqa qo'shimchalari-xamirturush, vitaminli preparatlar, suyak uni, osh tuzi va boshqalar xam vitaminlar, mineral moddalarga boydir. Ozuqa xamirturushlari, pivo achitqilarida «V» guruxi vitaminlari mavjud bo'lib, ular bir kecha-kunduz, urchish davrida esa erkak itlarga 20-30 gr.dan, kuchuklarga 5-10 gr.dan beriladi.

## **XULOSA**

Itlar rasion bo'yicha oziqlantiriladi. Rasion - bu itlarning to'yimli moddalarga bo'lgan extiyoji fiziologik me'yorini ta'minlovchi ozuqa maxsulotlarining bir kunlik to'yimlilik madalarni tashkil etadi.

Bunga go'sht maxsulotlari, yorma va sabzavotlarning almashinuvi natijasida erishiladi. Agar itlar o'rtacha to'lalikka ega bo'lib, vazni o'zgarmasa rasion to'g'ri tuzilgan xisoblanadi. Aksincha itlar ozib ketsa - ozuqa yetishmagan, semirsa- rasiondagi ozuqalar me'yoridan oshib ketgan bo'ladi. Oziqlantirish me'yori talablariga qat'iy rioya qilish - sifatli oziqlantirishning asosiy shartidir. Itlar ishtaxasini kuzatib borish zarur, chunki ozuqani ishtaxa bilan yemaslik- rasion noto'g'ri tuzilganligidan dalolat beradi. Tayyorlangan ovqatlar xilma - xil, mazali bo'lishi va xushbo'y xid taratishi lozim. Bu to'yimli moddalarning tez xazm bo'lishini ta'minlaydi.

Ozuqa sho'rva - bo'tqa xolida tayyorlanadi. Tarqatishdan oldin uni 30 - 35 gradusgacha sovutish zarur. Xar bir itga 2 tadan 5 litrli idish ajratiladi: biri ozuqa, ikkinchisi esa suv uchun mo'ljallanadi. Xar gal ovqatlanishdan keyin idish yuviladi, ikkinchi idishdagi ichimlik suvi esa har kuni almashtiriladi.

Yuqorida ta'rif etilgan oziqa tayyorlash usuli ko'p yillardan buyon amaliyotda foydalanib kelinib o'zining samarasini berib kelmoqda.

### **REFERENCES**

1. "Kinologiya asoslari" Toshkent shahar 2018 y.
2. В.Н.Зубко "Служебное собаководство" Москва 1987 г.
3. Е.Л.Ерасулимский "Итларни экстерери ва унинг баҳолаш"  
Москва, 2002.
4. Н.Флерова. Итлар ва уларнинг сочлари ғамхўрлик. - 1994 йил М.Вербьер.
5. А.А.Стекольников "Озиқлантириш ва ит ва мушук касалликлари": қўлланма.  
- СПб: Публишер "Лан", 2005..

## **FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI**

**Aziza Ismatillayevna Kudratova**

*Samarqand VXTXQTMOHM*

[azizaqudratova81@mail.ru](mailto:azizaqudratova81@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalarining metodologik tahlili keltirilgan. O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar.** *Kompetensiya, kompetentlik, funksional savodxonlik, ta’lim sifati, o‘qituvchi kasbiy kompetentligi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье дан методологический анализ понятий «компетентность», «компетенция». Проанализирована компетентность учителя в формировании функциональной грамотности учеников.*

**Ключевые слова.** *Компетентность, компетенция, функциональная грамотность, качество образования, профессиональная компетентность учителя.*

### **ANNOTATION**

*The article provides a methodological analysis of the concepts of "competence", "competence". The competence of the teacher in the formation of functional literacy of students is analyzed.*

**Keywords.** *Competence, competence, functional literacy, quality of education, professional competence of a teacher.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovasion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712 sonli prezident farmoni tasdiqlandi. Konsepsiyada ta’lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta‘limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovasion loyihalarni joriy etish; xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish; yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish; yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish; xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish [1].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj monitiring natijalariga ko‘ra Respublikada 59% ni tashkil etadi.

1 jadval

<b>Respublikada o‘qituvchilarning umumiy soni</b>	<b>Oliy toifa</b>	<b>1 toifa</b>	<b>2 toifa</b>	<b>Mutaxassis</b>
497523	4%	10%	27%	59%

Bir jihatni inobatga olishimiz kerakki oliy va birinchi toifali o‘qituvchilarning asosiy faoliyati o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni emas, fundamental bilimlar bazasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Chunki amaldagi davlat ta‘lim standarti “Kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan” bo‘lsada, dasturida nazariy



ma'lumotlarga urg'u berilgan. Darsliklarda "funktional savodxonlik"ni shakllantirishga doir mavzular va topshiriqlar kiritilmagan. O'quv rejada amaliy-tadbiqiy masalalarga soatlar ajratilmagan.

Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etmoqda;

davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda;

foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab etilmoqda [1].

O'quvchilarda funktsional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kacbii kompetentligi shakllanishi "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini anglash darajasi bilan bog'liq.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da kompetensiyaga - muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlar doirasi, vakolat; shaxsning biror bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi, deb ta'rif berilgan [2].

Kompetensiya (lot. competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba [3].

Vazirlar Maqkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187 son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan [4]

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan: kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

Kompetentlik - shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir [5].

O‘zbek tilidagi «-lik» qo‘shimchasi ma’lum sifatga egalik darajasini bildiradi. Shuning uchun «kompetentlik» atamasi ma’lum sifatlar va ularga egalik darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi. Kompetentlik – deganda ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi ta’lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlari tushuniladi [6].

A.V. Xutorskiy o‘z ishlarida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini aloxida ta’riflaydi [7].

Kompetensiya – shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, malaka, idrok, faoliyat) ning o‘zaro yig‘indisi bo‘lib, samarali faoliya sifatini belgilaydigan zaruriyatdir. Kompetentlik – kompetensiyaga ega insonni boqarish tushuniladi, professionallik faoliyati predmetiga tegishli xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Kompetentli yondashuv ilk bor Angliyada, kasbiy sohaning maqsadli buyurtmasi sifatida vujudga kelgan.

O‘tgan asrning 70-yillarida AQShda biznes sohasida “kompetensiya” va “tayanch kompetensiyalar” tushunchalari muvaffaqiyatli kasb egasi sifatlarini aniqlash muammolari bilan bog‘liq holda qo‘llanilgan. Yevropa ta’lim fondi 1997 yilda kompetensiyani “nimanidir yaxshi yoki samarali bajara olish”, “ishga qabul qilinayotganda talab qilinadigan talablarga muvofiq”, “o‘ziga xos mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyati” deb izohlagan [8].

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘hshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi. Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: *Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman*. Kasbiy kompetensiya shakllanishi bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir [9].

N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: «kompetentlik bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga yega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning yegallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi» [10]. A.X. Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergan: «kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir» [11].

Kompetensiya – u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan sotsiolingvistik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi, kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya meyorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir [12].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tadqiqot tahlillari asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'qituvchining professional kompetentligi uning kasbiy (ta'limiy, texnologik, metodologik) tayyorgarlik darajasi hamda o'quvchilarning bilim olishga motivatsiyaning kuchliligi bilan baholanadi.

O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kabi kompetentligini o'rganishni quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirishni talab etadi:

- tarkibiy tuzilishiga ko'ra (funksional savodxonlik, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi);
- funktsionalligiga ko'ra (amaldagi tadbiqi);
- genetik (faoliyatni o'tmish, bugun va kelajakda o'rganish asosida o'qituvchining kabi kompetentligini rivojlantirish ) [13].

O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'rganishda asosan Ye.V. Baxareva “Umumta'lim maktab o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan foydalanildi [14].

Ye.V. Baxareva o'z tadqiqotlarida o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini quyidagi mezon va ko'rsatkichlar asosida baholagan:

1. O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanish darajasi. Ko'rsatkichlar: o'qituvchining fan metodologiyasi, psixologik-pedagogik kompetensiyasi, ta'lim jarayoni valeologiyasi

sohasidagi kompetensiyasi, kommunikativlik, tadqiqotchilik, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari.

2. O‘z kasbiy kompetensiyasini oshirishga bo‘lgan motivatsiya darajasi. Ko‘rsatkichlar: maqsadga yo‘nalganlik, qatiiyatlik, innovatsiyalarga ochiqiligi, vijdonan yondashuv kompetensiyalari.

3. O‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasi. Ko‘rsatkichlar: tayanch kompetensiyalarining shakllanganligi, tanlov erkinligiga asoslangan harakatlar mustaqilligining shakllanish darajasi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Umumiy tahlil natijalaridan shuni takidlash mumkinki, o‘qituvchining yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkich va mezonlarga egalik darajasi uning o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda kasbiy kompetentlik darajasini baholash imkonini beradi.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, avvalam bor o‘qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o‘zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanadi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, -: 2006. – jild.557 b.).
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.
4. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
5. Oliy ta‘lim Davlat ta‘lim strandarti. 5110100-Matematika o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar. Rasmiy nashr. - Toshkent. - 2013.
6. Temurov S.Y. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. Monografiya. -T.: «Fan va texnologiya», 2014. 9 b.

7. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290.
8. Совет Европы. Ключевые компетенции для Европы: симпозиум док. DECS. Берн, 1996.С. (96) 43.
9. Тожибоева Г.Р., Пулатова Д.Т. Педагогик компетентлик: назария ва амалиёт. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
10. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. - Т.: Фан. - 2004. - 127 б., Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. //Пед. фан. докт. дисс. - Тошкент. - 2007. - 349 б
11. Махмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндошувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. - 2012. - № 4. 8-12 бетлар., Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жиҳатлари //«Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишда инновация технологияларининг аҳамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар
12. Ризкулова К.Д. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими. //Педагогика фанлари бўйича фан доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т.: 2017. – 365 б.
13. Лебедев О.Е. Управление образовательными системами. Учебно - методическое пособие для вузов. - М.: Литературное агентство «Университетская книга», 2004. - 136 с.
14. Бахарева Е.В. Развитие профессиональной компетентности учителя по формированию функциональной грамотности учащихся основной школы. //Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. М. 2009.

## **IKKI MUQADDAS KITOB: QUR'ON VA BIBLIYADAGI MASALLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**Muxlisa Abdujabbarovna**

Magistrant, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada masal so'z san'ati ekanligi haqida fikr yuritilgan. Unda masalning xalqlarni xalqlarga bog'lovchi serqirra va bebaho ma'naviyat ko'priki ekanligi borasida so'z yuritiladi. Budan tashqari mavzu yuzasidan misollar keltirilgan. Qur'oni karim va Bibliyada keltirilgan masallarni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari nazariy jihatdan asoslash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot ishini o'rganish jarayonida mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, ularni o'zaro taqqoslash, olingan natijalarni umumlashtirish, ilmiy tanqidiy, retrospektiv tahlil hamda holislik va qiyosiy tahlil uslublaridan foydalanildi.*

***Kalit so'zlar.** Masal, Qur'on, Hadis, Baranov, Qurtubiy.*

## **TWO HOLY BOOKS: QURANIC AND BIBLICAL PARABLES AND COMPARATIVE ANALYSIS BETWEEN THEM**

### **ANNOTATION**

*This article states that the parable as the art of speech is a multi-faceted and invaluable spiritual bridge connecting nations with nations. There are also examples on the article. This article is to provide a theoretical framework for their similarities and differences through a comparative analysis of the Koran karim and in the Bible. In the process of studying the research work, literature review on the subject, their comparison, generalization of the results obtained, scientific criticism, retrospective analysis, honesty and comparative analysis methods were used.*

***Keywords:** Proverbs, Holy Quran, Sacred Hadic, Baranov, Kurtby.*

## **ДВЕ СВЯЩЕННЫЕ КНИГИ: КОРАНИЧЕСКИХ И БИБЛЕЙСКИХ ПРИТЧ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕЖДУ НИМИ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье утверждается, что притча как искусство речи представляет собой многогранный и бесценный духовный мост, соединяющий*



*народы с народами. Есть также примеры на тему. Одной из самых актуальных проблем сегодня является теоретическое обоснование их сходства и различий путем сравнительного анализа Корана и библейских притч. Процесс исследования включал изучение литературы по теме, их сравнение, обобщение результатов, научный критический, ретроспективный анализ, а также методы объективного и сравнительного анализа.*

**Ключевые слова:** *Притчи, Коран, Хадис, Баранов, Куртуби*

### **KIRISH**

O‘tmishdan ma’lumki, O‘zbekiston hududida azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o‘zaro inoq va tinch-totuvlikda istiqomat qilishgan. Bu haqda fikr yuritganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Ma’lumki, bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

Tadqiq qilinayotgan “Ikki muqaddas kitob: Qur’on va Bibliyadagi masallarning qiyosiy tahlili” mavzusi ushbu imkoniyatlar natijasidandir. XXI asrga kelib dunyo bo‘yicha Qur’oni karim matnini boshqa muqaddas kitoblar bilan qiyosiy o‘rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Bibliya va Qur’oni karim masallarini qiyosiy tadqiq qilish - masal tarixi va uning muqaddas kitoblardagi o‘rnini aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)**

Ishning nazariy asosi va tadqiq yo‘nalishini belgilashda ushbu sohaning ko‘zga ko‘ringan mutaxassislari, arab olimlari va hozirgi zamon Yevropa olimlarining merosiga suyanildi. Jumladan, Manna‘ al-Qatton, ibn Qayyum, Alizada, Mufaddal ad-Dabbi, Abu Fadl Ahmad an-Naysaburiy, Muhammad ibn Abi Bakr, V.I. Dal, G.L. Permyakov I.M. Snigerov va boshqalar. Jumladan: Mannon Qatton, ibn Javziy, al-Maydoniy, ash-Shofihiy, al-Mavardi, al-Hakim at-Termiziy kabi arab olimlarining masal janri haqidagi nazariy mulohazalari va V.Propp, G.L.Permyakov, A.Dandis, A.Krikman paremiologlarning maxsus tadqiqotlari ushbu ish uchun asos bo‘ldi. Shu diqqatga sazovorki, arab olimlarinnig “masal” tushunchasiga yondashuvi ko‘p jihatdan G.L.Permyakovning “клище” nazariyasiga mos kelishi ma’lum bo‘ldi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)**

Tadqiqot ishini o'rganish jarayonida mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, ularni o'zaro taqqoslash, olingan natijalarni umumlashtirish, ilmiy tanqidiy, retrospektiv tahlil hamda xolislik va qiyosiy tahlil uslublaridan foydalanildi. "Masal" istelohi Odam (a.s) kabi ko'hna va tansiqdir. Turkiy xalqlarning Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Muhammad Sharif Gulhaniy kabi olimlari o'z asarlarida ko'plab maqol va masallar keltirganlar. Vladimir Dal, Noqiy Esonbat singari toatar olimlarning tom-tom maqol kitoblari, maqollarning jadvalini ishlab chiqqan G.L. Permyakovning buyuk ilmiy xulosalarini e'tirof etgan holda tan olish kerakki, maqol va masallar olami murakkab va cheksizdir, shu kungacha mavjud hech qanday nazariya ularning chegarasini mukammal va mufassal belgilab bera olmaydi. Mavzuning ziddiyatli va murakkab ekanligi oqibatida O'zbekistonda ushbu soha bo'yicha izlanishlar kam, xususan, Qur'oni karim va boshqa muqaddas kitoblardagi masallar juda kam o'rganilgan. Muqaddas kitoblardagi masallarni qiyosiy o'rganish deyarlik mavjud emas. Manna'al-Qattoning "Mabahis fi u'lumil-qur'an", ibn Javziyning "Amsal ul-qur'an", V.G. Melnikov "Вечные истины", Alizadaning "Каран и Библия сравнительный анализ" asarlarining ichki qurilishi va mavzu doirasini batafsil yoritish lozim ko'rildi. Masal janriga oid barcha birikmalar lafziy qurilmasi, uning mazmuniy mundariyasi, shakl, ma'no va mantiq nuqtai nazaridan o'rganib chiqildi.

## **-TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

Qur'oni karim va Bibliyada keltirilgan masallarni qiyosiy tahlil qilish orqali bu borada qalam tebratgan mualliflarning asarlariga e'tibor qaratildi. Ayniqsa "masal" atamasining kengqamrovli ma'nolarini yoritildi. "Masal" istelohi Odam (a.s) kabi ko'hna va tansiqdir. Turkiy xalqlarning Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Muhammad Sharif Gulhaniy kabi olimlari o'z asarlarida ko'plab maqol va masallar keltirganlar. Vladimir Dal, Noqiy Esonbat singari toatar olimlarning tom-tom maqol kitoblari, maqollarning jadvalini ishlab chiqqan G.L. Permyakovning buyuk ilmiy xulosalarini e'tirof etgan holda tan olish kerakki, maqol va masallar olami murakkab va cheksizdir, shu kungacha mavjud hech qanday nazariya ularning chegarasini mukammal va mufassal belgilab bera olmaydi. Mavzuning ziddiyatli va murakkab ekanligi oqibatida O'zbekistonda ushbu soha bo'yicha izlanishlar kam, xususan, Qur'oni karim va boshqa muqaddas kitoblardagi masallar juda kam o'rganilgan. Muqaddas kitoblardagi masallarni qiyosiy o'rganish deyarlik mavjud emas. Manna'al-Qattoning "Mabahis fi u'lumil-qur'an", ibn Javziyning "Amsal ul-qur'an", V.G. Melnikov "Вечные истины", Alizadaning "Каран и Библия сравнительный

анализ” asarlarining ichki qurilishi va mavzu doirasini batafsil yoritish lozim ko‘rildi. Masal janriga oid barcha birikmalar lafziy qurilmasi, uning mazmuniy mundarijasi, shakl, ma’no va mantiq nuqtai nazaridan o‘rganib chiqildi.

“Masal” aytilishga oson bir ibora bo‘lsada, bu nom atrofida bir qoidaga bo‘ysunmaydigan turli-tuman, juda ko‘p kichik janrlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham bu mavzu dunyo tilshunoslari e’tiboriga tushib, hozirda u bilan jiddiy shug‘ullanayotdan olimlar doirasi kengaymoqda. Tahlil qilayotgan mavzu juda ziddiyatli, tilshunoslikda nihoyatda kam o‘rganilgan muammolardan biridir. Umuminsoniy tafakkur, mafkura, axloq-odob qonuniyatlari bor ekan, umumbashariy hikmatlar, o‘g‘itlar, “nima qilish mumkin-u”, “nima qilish aslo mumkin emasligi” haqidagi pandlar dunyoning turli burchagida yashaydigan xalqlarga hatto “tarjimonsiz” tushunarli bo‘lgan mushtarak tafakkur chechaklari, aynan bir xil yohud bir biriga g‘oyatta o‘xshab ketadigan maqol, matal, rivoyat-u masallar ham mavjudligi ajablanarli emas. Bu qabildagi lisoniy- mantiqiy jamg‘arma turlizabon millatlarning oltin xazinasidir. Qizig‘i shundaki, bir biridan ko‘plab chaqirim uzoqda yashaydigan xalqlar fikrdosh bo‘lib, bir birlarini tarjimonsiz ham yaxshi tushunayaptilar. Chunonchi, yapon bilan hind, ingliz bilan turk, arab bilan xitoy, o‘zbek bilan qozoq, chex bilan ukrain ham faqat o‘ziga mansub antiqa hikmatlari, iborasozlik san’atlari bilan bir-birlariga juda yaqin yoki aynan bir fikrni ifodalovchi iboralarga ega ekanliklari ma’lum bo‘lib qolayapti. Qur’oni karimda masallar keltirish uslubi o‘ziga hosdir. Unda voqea hodisani tabiat hodisalariga, hayvonlarga solishtirish ahmiyatlidir. O‘xshatishning asosi yaxshi-yomonni ajrata bilish, voqeani tafsilotini bilmasdan turib ham yakuniy xulosaga kela olishdir. Hayvonlarga nisbatan keltirilgan masallarning asosiy maqsadi ham shu asosga qurilgan. Hamma uchun aniq malum bo‘lgan hayvonni tabiiy bir hislati borki Alloh taolo uni biror bir hodisaga muqoyasa qiladi. Agar solishtirilayotgan odam hayvonning yomon hislatiga o‘xshatilayotgan bo‘lsa, biz uni ta’vil qilmasdan turib bilamizki u inson yomon xulqli, yomon fe’lli, harom amal qiluvchi odamdir. Agar hayvonlarning yaxshi hislatiga solishtirilsa, u holda undan o‘rnak olsa bo‘ladigan odam ekanligi anglanadi. “Chumoli kabidir” iborasi ishlatilganda, hamma biladiki, u mehnatsevar inson. Chunki chumolini mehnatsevarligi barchaga ma’lumdir. “Musichadek beozor”, “ittek vafodor” shular jumlasidandir. Bu kabi masallar manbasi yo‘q, yoshu qariga malum bo‘lgan tafsirdir. Ana shuning uchun ham Alloh taolo hammaga ma’lum bo‘lgan bu turdagi masallarni Qur’oni karimda ko‘p zikr qilgan. Xususan bunday masallar Bibliyada ham ko‘p uchraydi. Chunonchi Dovud sanosida qabih insonlarni sifati ketganda ularning tillarini ilonga o‘xshatgan: “zero urush-janjallar ularning tillarini

ilondek o'tkir qiladi". Bu masal Isroil xalqi surgundan qaytganda aytilgan bo'lib, Xudo o'z tilidan bayon qilgan. Sanoda Xudovand Bobil shohini masxaralab shunday deydi: "xatto, sarv daraxti ham xalokatingdan mamnun, Lubnon sadrlari ham uni masharalab shunday deydi: "endi sen chuqurda yotibsan, xech kim bizni kesgani kelmas". Xudovand filistlarni xonavayron qilayotgan paytda ularni sifatlab qutbdagi so'zlarni aytadi. "Bizni urgan tayoq sindi, den quvonmangiz ey filistlar! Axir ilonning tuxumidan qora ilon chiqadi". Bu masallardan ko'rinib turibdiki Bibliyada ham hayvonlarga masal keltirishlik urf bo'lgan.

Qur'oni karimning o'zida masalga yuksak ahamiyat berilgan. Qur'ni karimda masalga berilgan etiborni yuksakligini isboti o'laroq Alloh taolo 21-oyatdayoq masalga murojaat qilgan. (baqara 17). Unda ko'rsatmalar mavjud bo'lib, moddiy tasvirlardagi mavhum g'oyalarni yoritishda foydalanilgan. Bular aslida taqlidlar, taqqoslashlar tufayli diniy haqiqatlarni oydinlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalning lavhalari kundalik hayotdan olingan va shuning uchun hamma uchun yaqin va tushunarli. Hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik muammolariga ta'sir qiluvchi tabiat hodisalari bilan o'xshashliklar inson va tabiatning birligini anglashga yordam beradi. Ko'pincha, bunday taqqoslashlar suraning asosiy g'oyasini ifodalab, oldingi va keyingi oyatlarning ma'nolari jamlangan yakuniy fikrni ifodalaydi. Bundan tashqari, "nur" va "ankabut" suralarining nomlari ularga kiritilgan masallarning asosidan kelib chiqqan. Masallar Qur'oni karimda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, taqqoslashlar odamlarda mulohaza yuritishga undaydi, ularda yashiringan ma'noni mustaqil ravishda kashf etadi. Fikrlash orqali bilimlarni anglash, inson uni o'z kashfiyoti sifatida qabul qiladi va unga katta ishonch bilan qaraydi. Shu tufayli, masalar asosida qilingan yakuniy xulosa odatdagi buyruqlar (amr) va taqiqlarga (nahiy) qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Masallarning bu xususiyati Qur'oni karimda bir necha bor ta'kidlangan (39-sura "Zumar", 27-oyat; 59-sura "hashr", 21-oyat).

Ikkinchidan, masallar dunyo - oxirat bilan bog'liq diniy tasvirlarni idrok etishni osonlashtiradi. Masalan, riyo qilgan holda sadaqa beradigan kishi haqidagi masalda, bunday ish oxirat uchun hech qanday mukofot keltirmasligini aniq tushuntiradi: "Bunday "sadaqalar" chang-tuproq bilan qoplangan silliq toshga o'xshaydi: yomg'ir tushganda, u yalang'och qoladi. Ular qo'lga kiritgan narsalariga qodir emaslar" (2-sura "Baqara", 264-oyat).

Uchinchidan, masallar hodisalar va harakatlarning mohiyatini ochib beradi, sirni oshkoralik bilan, yashirin narsani esa oydinlik bilan taqqoslaydi. Shunday qilib,

"sudxo'r bo'lgan kimsalar qiyomatda jin chalgan majnun kabi turadilar" (2-sura "Baqara", 275-oyat) oyatida ribo ko'rinishida oson foyda olishga bo'lgan chanqoqlik jinnilikka o'xshashligini va shuning uchun qiyomat kuni ularni aqldan ozishlari ta'kidlamoqda.

To'rtinchidan, masallar xayrli amallarga bo'lgan qiziqishni va buning natijasida va'da qilingan mukofotga ega bo'lish istagini uyg'otadi. Bularga xayr-ehson uchun mukofotni misoli donni unib chiqishi-yu, uning ko'payib ketishi bilan taqqoslaniladi: "Allohning yo'lida mollarini sarf qilganlar yetti donadan o'sgan va har bir quloqning yuz donasi bo'lgan donga o'xshaydi" (2-sura "baqara" surasi, 261-oyat).

Beshinchidan, Qur'oni karim masal orqali insonlarda yomon ishlardan nafratlanish va ulardan saqlanish istagini uyg'otadi. Masalan, "A'rof" surasida Alloh taoloning oyatlaridan yuz o'giranlar va ko'rsatmalarga quloq solmaydiganlar haqida bir rivoyat keltirilgan: "Bas, uning misoli xuddi bir itga o'xshaydiki, uni haydasang ham tilini osiltirib turaveradi, yoki o'z xoliga qo'ysnag ham tilini osiltirib turaveradi. Bu bizning oyatlarimizni yolg'on degan kimsalarning misolidir. Ular tafakkur qilsinlar uchun Siz bu qissalarni so'ylang" (7-sura "A'rof", 176-oyat). Dunyo hoyu havaslariga berilib, faqat lazzatlanish haqida o'ylash, o'z qadr-qimmatini yo'qotadi va haydab chiqarganda ham, uni yolg'iz tashlaganingizda ham tilini osiltirib turuvchi itga o'xshaydi. Ular poraxo'rlik va yomonlik qilishdan to'xtamaydilar, hoh nasihat qilinsin, hoh qilinmasin.

Adabiy majozning qonunlari, yangi ahd masallari, Injil janrlari, har qanday masihiy jamiyati uchun juda muhimdir. Bibliya masallari o'zlariga axloqiy, axloqiy va falsafiy omil sifatida insonning savollariga asosiy javobni beradi va insonning xulq-atvorini tartibga soluvchchi manba hisoblanadi. Bibliyadagi masallar va ayniqsa "Sulaymon hikmatlari" zamonaviy hayot muammolariga echim hisoblanadi. Sulaymon masallari asosan yoshlarga murojaat qiladi.

Arnot bu kitobni "Yerdagi samoviy qonunlar" deb ataydi, bu uning mazmunini aniq tasvirlaydi. Ushbu masal, ko'pincha osongina eslab qolish mumkin bo'lgan tarzda tuzilgan. Bibliya masallari ikki qismdan iborat bo'lib, ular o'xshatish yoki bir biriga taqqoslashdan iboratdir.

Bibliya masallarning quyidagi turlari mavjud:

1. Ba'zi masallar oddiy haqiqatni ifodalaydi:

"Egamizga insonlarning yo'llari ma'qul kelganda, dushmanlari bilan ham yarashtiradi". (hik.17-7)

2. Ba'zi masallar ikki qismdan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan taqqoslanad:



“uzoq yurtdan kelgan xushxabar charchagan odamga sovuq suv kabidir”. (hik. 25.25)

3. Bibliya masallari ikki yoki undan kop iboradan tashkil topgan bo‘lib, qarama-qarshi ma’ nolarga ega bo‘ladi:

“Solihning xotirasi muborak bo‘ladi, fosiqning nomi yoddan ko‘tariladi”. (hik.10.7) Bibliyada Ikki yoki undan ko‘p iboralardan iborat masallar mavjud bo‘lib, ularda bir xil fikr biroz farq bilan takrorlanadi: “zero buzuq xotin – tubsiz choh, zinokor xotin tor quduqdir”. (hik.23.27)

Bibliya masallarini yana ikki qismga bo‘lish mumkin:

1. Bibliyada shunday masallar borki u mutlaq haqiqatni anglatadi: “egamizning nomi mustahkam qal’adir. Solih u yerda omonda bo‘ladi”. (hik.18.10)

2. Bibliyadagi shunday masallar borki u haqiqat , ammo bundan istisno bo‘lishi mumkin. Masalan: “haqiqiy do‘st har doim sevadi, aka–ukalar ham og‘ir kun uchun tug‘ilgan”. (17:17) Bu kabi masallar insonlarning fikr yuritishga undaydi va bu insonning shaxsiy kashfiyoti hisoblangani uchun uzoq vaqt xotirasida qoladi. Bibliya masallari quyidagi hususiyatlarga ega:

1. Naql qilish.
2. Kinoya.
3. Qisqalik.
4. Isbot talab qilmaydi.
5. Muammoni yechimini ko‘rsatadi.
6. Kamchiliklarni ko‘rsatadi.
7. Yaxshilikka dalolat qiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Ucha dunyo dinlari - yahudiylik, nasroniylik va islom dini kelib chiqishida umumiy xususiyatlarga ega va shu ma'noda bir-biriga bog‘liqdir. Uning bog‘liqligi Qur’oni karim, Bibliya keltirilgan asosiy manbalarini taqqoslashda aniq ko‘rinib turibdi. Biroq, masal sohasida deyarlik tadqiqotar yo‘q, qiyosiy jihatlar yaxshi o‘rganilmagan. Olimlarning ishlarining aksariyati yahudiylik, nasroniylik, islom va ularning asosiy manbalari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga qaratilgan edi. Bizning oldimizga qo‘ygan maqsadimiz Qur’oni karim va Bibliyada keltirilgan masallarni qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir. Shu orqali ikki muqaddas kitobning o‘shash masallari va qarama qarshi masallarini o‘rganib, ularni grammatik tahlil qilish, ichki qurilmasini o‘rganish va balog‘iy san’atini aniqlashdan iborat. Ikki muqaddas kitobni tahlil qilar ekanmiz, shu ma’lum bo‘ldiki, unda keltirilgan masallar



naqadar bir – biriga o‘xshash, naqadar bir-biriga yaqin ma’noili va bir hil jozibaga ekan. Misol uchun Alloh taolo Qur’oni karimda “toki tuya igna teshigidan o‘tmas ekan, ular ham jannatga kira olmaslar” shunday oyat keltiradi. Buni qarangki Bibliyada ham shunday masal keltirilgan: “boy odamning xudo shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna qulog‘idan o‘tishi qulayroqdir”.

Bu boradagi izlanishlar juda oz bo‘lib o‘zbek tilida bunday qiyosiy mavjud emas. Bu soha tadqiq qilinishga muhtoj sohalaridan biri ekanligiga xulosa qilindi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 89 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 24.01.2017.
3. “Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5046-Фармони. 19.05.2017 // <http://lex.uz/docs/3210345>
4. Abu Fadl Ahmad an-Naysaburiy. Majma al-amsol.Qohira1:352h
5. Ahmad Rushdiy Solih. Funun al-adab al-sha’biy.Qohiram19523.
6. Abdulaziz Mansur.Qur’oni Karim.O‘zbekcha izohli tarjima.Qur’oni karimni o‘rganish ilmiy markazi.2004.
7. Bibliya online.pritchi vedeniye
8. Dal.B.I.Poslovitsi russkogo naroda.M.1957.
9. Hayotul masih.Fridrik Valim. Matbuatul-nil.1949.
10. Ibn al- Qoyyum Javziyyz.Amsalul-qur’an.Bag‘dod. 1978. - 34 b.
11. Ibn Javziy.Amsalal-quran.dorul-ma’rifa
12. Majmaal amsol. Manno Qotton.Mabahis fi ulumil quran.Qohira.
13. Manno Qatton.Mabahis fi ulumil quran.Qohira.

## **XX ASRNING 20- YILLARI MATBUOTIDA JAHON ADABIYOTI MASALALARI TADQIQI**

**Fayziyeva Saodat**

**([saodat-fayz@mail.ru](mailto:saodat-fayz@mail.ru); [saodatfayziyeva@gmail.com](mailto:saodatfayziyeva@gmail.com))**

Buxoro viloyati Olot tumani 1- umumta'lim maktabi o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada XX asrning 20- yillarida matbuot sahifalarida chop etilgan jahon adabiyoti masalalari o'rganilib, ular qiyosan tadqiq etiladi. "Maorif va o'qitg'uchi", "Yer yuzi", "Alanga" kabi davriy nashrlarda bosilgan V.Shekspir, L.N.Tolstoy, A.S.Pushkin, R.Tagor hamda rus adabiyotining bir necha vakillari (Pushkin, Lermontov, Gogol, Belinskiy)ga bag'ishlab yozilgan maqolalar tabdilidan kelib chiqib tahlil qilinadi, yakunda tegishli xulosalar beriladi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalarini "Jurnalistika tarixi", "Chet el adabiyotshunosligi tanqidchiligi va tarixi" va "Adabiyot nazariyasi" darslarida qo'llash mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Jadid matbuoti, "Maorif va o'qitg'uchi", "Yer yuzi", Tagor, Pushkin, "Alanga", Lermontov, "Shohnoma", Cho'lpon.*

### **ABSTRACT**

*This article examines and compares the issues of world literature published in the press in the 1920s. V. Shakespeare, LNTolstoy, ASPushkin, R. Tagore and several representatives of Russian literature (Pushkin, Lermontov, Gogol, Belinsky) published in such periodicals as "Education and Teacher", "Earth", "Flame" The scientific significance of the article is that its results can be used in the courses "History of Journalism", "Critique and History of Foreign Literature" and "Literary Theory".*

**Keywords:** *Jadid press, "Education and teacher", "Earth", Tagore, Pushkin, "Flame", Lermontov, "Shohnoma", Cholpon.*

### **KIRISH**

XX asrning 20- yillari (1920- 1930 –yillar) adabiyotimiz tarixiga alohida sahifa bo'lib kirdi. Boisi XIX asrning II choragida shakllangan matbuot bu davrda faqat siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy hodisalar jarchisi bo'libgina qolmay, adabiyot targ'ibotining asosiy manbalaridan biriga, adabiy- estetik bahslar olib boriladigan maydon darajasiga ko'tarildi. Endi adabiy jarayon haqida faqat chiqarilgan kitoblar, sahnaga qo'yilgan tomosha ( pyesa)lar orqaligina emas, balki gazeta- jurnallar orqali ham bilib olish mumkin bo'ldi.

XX asrning 20- yillari matbuotida jahon adabiyoti masalalariga e'tibor bir muncha kuchaygan. "Maorif va o'qitg'uchi", "Inqilob", "Alanga", "Yer yuzi", "Bilim uchquni", "Tong yulduzi", "Bilim o'chog'i", "O'zgarishchi yoshlar", "Mushtum", "Qizil O'zbekiston", "Zarafshon", "Qizil yo'l", "Xudosizlar", "Yosh kuch", "Ko'mak", "Yangi yo'l" kabi davriy matbuot namunalarini tadqiq etish jarayonida ulardan ayrimlarida jahon adabiyoti masalalariga alohida o'rin ajratilganini ko'rishimiz mumkin.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

20- yillar matbuotida asosan jahon adiblarning shaxsiyatiga, ayrim hollardagina ular yaratgan asarlarga e'tibor qaratilgan. Biz quyida ularni davriga qarab tahlil qilish asnosida tadrijiy o'sishni ko'rib chiqamiz ( tadqiqotda ayrim maqolalar olindi, xolos):

1. Cho'lpon. "Shahnoma"ning turkcha tarjumasini ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1925- yil).
2. Cho'lpon. "Tagor va tagurshunoslik" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1925- yil).
3. H.Nuriy. "Rusiyaning buyuk adiblari" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1926- yil).
4. "Robindranat Tag'ur" ("Yer yuzi" jurnali. 1926- yil).
5. "Rabindranat Tagor" ("Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1926- yil).
6. Saidg'ani. "Pushkin" ("Yer yuzi" jurnali. 1927- yil).
7. Cho'lpon. "Jurjdandin (Moler)" ("Zarafshon" gazetasi. 1927- yil).
8. "Maksim Gorkiyning yubilayi" ("Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1928- yil).
9. "Maksim Gorkiy va proletariat adabiyoti" ("Yer yuzi" jurnali. 1928- yil).
10. "Maksim Gorkiy" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1928-yil).
11. Rafiali. "SHekspir" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1928-yil).
12. Rahim Ali. "Lef Nikolay o'g'li Tulstuy" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1928-yil).
13. V.Friche. "Tulstuy to'g'risida" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali. 1928-yil).
14. H. Badriy. "Lef Tulstuyning tug'ilg'onig'a yuz yil" ("Yangi yo'l" jurnali. 1928- yil).
15. A.V.Lunacharskiy. "Lef Tulstuy yubileyni ahamiyati to'g'risida" ("Alanga" jurnali. 1928- yil).
16. "L. N. Tolstoy" ("Yangi Farg'ona" gazetasi. 1928- yil).
17. Usmon. Go'zal so'z ustasi (N.V. Gogol tug'ilganiga yuz yil to'lishi munosabati bilan). ("Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1929- yil).

18. Mahmud Rahmon. “Rabindranat Tag‘ur” (“Yer yuzi” jurnali. 1930- yil).

“**Shahnoma**”ning turkcha tarjumasini muallifi Cho‘lpon maqola avvalida Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub bu buyuk asarning turkiy tilda bironta mukammal tarjimasini yo‘qligidan afsuslanadi. 1900- yillarda Toshkentda asarning nasriy tarjimasini bosilgani, lekin u faqat quruq manfaat uchun tarjima qilingani muallif tomonidan ta‘kidlanadi. Cho‘lpon yana “Shohnoma”ning ozarbayjoncha nazmiy tarjimalariga ham to‘xtaladi: “...Faqat ozarbayjon shevasida mashhur “Sobir” tomonidan tajriba shaklida bir narsa boshlang‘on bo‘lsa ham, uning bemahal o‘limi bilan chala qolib ketgan edi. Yana ozarbayjon shevasida “Shahnoma”ning “Suhrob”ga taalluqli qismi nazm bilan tarjuma qilinib, Tiflisdagi “G‘ayrat” bosmaxonasida bosilib chiqqan edi. “Mulla Nasritdin” majmuasining burung‘i suratchisi (rassomi) “Ruttir” tomonidan u tarjumaga ikkita surat tortilib berilgan edi. O‘sha vaqtlarda fors va rus adabiyotidan xabardor bir kishiga haligi tarjumani ko‘rsatib, fikrini so‘rag‘onimda – “bu tarjumadan ko‘ra rus shoiri Jukovski tomonidan qiling‘on tarjuma yaxshiroq; lekin “Ruttir”ning tortqon rasmi ularning ikkavidan ham yaxshiroq”<sup>72</sup>

Maqolaning asosiy mazmuni Cho‘lpon shaxsiy ish bilan Marg‘ilonga borganida “Shohnoma” asarining nazmiy turkcha (o‘zbekcha- S.F.) tugal tarjimasini topganiga qaratilgan. Muallif vaqti ozligidan bu manbaga to‘la qarab chiqishga ulgurmaydi, ammo imkon qadar u haqda ma‘lumot berishga harakat qiladi: Tarjima qo‘lyozma- eski nusxalardan bo‘lib, tili “Muhammadiya” kitobining tilida( Cho‘lpon ma‘lumoti). Boshdan- oyoq nazm bilan yozilib, fasllar (hikoyalar)ning sarlavhalari “Shohnoma”ning o‘zidagi kabi- nasr bilan qo‘yilgan. Tarjima mutarjimning o‘z qalami bilan yozilgan yoki asl nusxasidan ko‘chirilganligi aniq emas. Faqat tarjimaning shu nusxasi 2-3 kotibning qo‘lidan chiqqanligiga Cho‘lpon e‘tibor qaratadi. Boisi tarjimaning yarimlarigacha puxta va pishiq, lekin o‘qilishi qiyin bir xat bilan- juda diqqat bilan yozilgan. Qolgan yarmi (nazm qismi) yana bir boshqa kotib tomonidan xomroq ko‘chirilgan. Oxirroqlarida “Hikoya dar xotima kitob” sarlavhasi bilan Sulton Mahmud G‘aznaviy to‘g‘risida bir hikoya boshlanib, bu hikoya tugallanmay qoladi.

Cho‘lpon tarjimaning qachon va kim tomonidan qilinganini bayon qilmoqchi bo‘lib, bu narsa hech qayerda ochiq- aniq raqamlar bilan ko‘rsatilmagani, lekin 906- hijriyda Misrdagi charkas xonlaridan “G‘uriqonsuxon” (?) zamonida bo‘lganligiga bir necha ishoralar borligini aytadi.

<sup>72</sup> Чўлпон. “Шаҳнома”нинг таржумаси// Маориф ва ўқитғучи.- 1925. Н\* 5-6. Б. 18.

Taassufki, maqolada bu mutarjimning ismi keltirilmagan. Bu tarjima XVIII yo XIX asrda yaratilgan yuqorida sanalgan tarjimalardan biri ekanligi haqida ham ma'lumot mavjud emas. Nima bo'lganda ham, Cho'lponning bu maqolasi adabiyotimiz uchun qimmatli ma'lumot bo'lib qoladi.

**“Tagur va tagurshunosliq”** maqolasi “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalining 1925- yil 11-12- sonlarida chop etilgan. Izzat Sulton maqola muallifi sifatida A. Sulaymon nomini ko'rsatadi,<sup>73</sup> lekin asl manbani tadqiq qilganda Abdulhamid Sulaymon o'g'li aynan shu maqolasini “Cho'lpon” taxallusi bilan yozganiga guvoh bo'lamiz. Bu manba o'zbek adabiyotiga hind xalqining buyuk vakili Robindranat Tagor haqida ilk ma'lumot bergan manba bo'ladi. Maqola ikki qismdan iborat bo'lib, uning avvalida Tagorning o'rganilishi haqida gapirilsa, ikkinchi qismida Tagor hayotidan ayrim lavhalar beriladi. Aslida, Robindranat Tagor shaxsiyati bilan dunyo adabiyoti ijodkor Nobel nomidagi xalqaro mukofotni olganidan keyin tanish bo'ldi, desak, yanglishmaymiz. 20- yillarda Qozon shahrida chiqqan bir risolada Sharqning ulug' shoirlari haqida gapirilganda aynan Umar Xayyom va Tagor tilga olinishi ham bejiz emas.

Cho'lpon Robindranat Tagorning tuzukroq tarjimayi holi yo'qligini ta'kidlaydi va uning asarlari ruschaga o'girilib chop etilishini pog'onama- pog'ona izohlaydi. Rus tilida adib qalamiga mansub asarlar ilk bor “Kichik adabiy hikoyalar” nomi bilan chiqqan bo'lsa, ikkinchi marta xuddi shu to'plamga bir- ikkita hikoya qo'shilgan holda “Yangi hikoyalar” nomi bilan chiqqan. Ko'p o'tmay, aynan o'sha to'plam “Tashna toshlar” nomi ostida chop etilgan. Yuqorida aytilganidek, adib xalqaro mukofotni qo'lga kiritganidan so'ng uning shaxsiyatini bilishga intilish butun dunyo adabiyotida kun tartibiga qo'yildi. Fransuz adibi Romen Rollan Mahatma Gandi va Robindranat Tagor haqida bir necha mulohazalarini e'lon qiladi, yana Tagorning fransuzchaga o'girilgan asarlariga so'z boshi yozadi.

Cho'lpon o'zi izlagan ohanglarni aynan Tagor ijodida topa olgani uchun uni o'zbek adabiyotiga tanitishni, asarlarini o'zbekchada o'qishni istaydi. Shuningdek, u adibning eng yuksak asari sifatida “Shanti Nikitan”da ochgan maktabini ta'kidlaydi. Maqola intihosida Cho'lpon Tagor ijodiga tegishli “Hoy, yo'lovchi qiz!” she'rini ilova qiladi.

Shekspir adabiyot maydonida o'z ovozi bilan o'chmas iz qoldirgan shaxsiyat namunasidir. Uning qalamiga mansub asar, xoh u sonet bo'lsin, xoh tragediya, xoh komediya, insonlar ko'ngliga kirmasdan qolmaydi. 20- yillar matbuotida bu adibning ijodini ochib berish maqsadida katta tajriba yaratildi. Rafiali ismi ostida berilgan

<sup>73</sup> Султон И. Ўзбек совет адабий танқиди. I том.- Т.: ФА, 1987.- Б. 51.



“Shekspir” maqolasi “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 1928- yil 3-4- sonlarida “G‘arb adabiyoti tadqiqi” rukni ostida chop etilgan. U shu turdagi maqolalardan tubdan farq qiladi. Boisi “Shekspir” maqolasida ijodkor shaxsi haqida gapirilib, so‘ng asarlari nomi “quruqqina” sanab ketilmaydi, balki avval Shekspir davrida Angliya (Angiltara)<sup>74</sup> dagi ijtimoiy hayot haqida, keyin adibning tarjimai holi to‘g‘risida gapirilib, birin- ketin asarlari janriga qarab tahlilga tortiladi. Maqola uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida Shekspirning hayoti, “Qirol Jon”, “Richard II”, “Genrix IV”, “Genrix VI”, “Richard III”, “Genrix V”, “Genrix VIII” kabi tarixiy xronikalari ( Adabiyotshunos O. Qayumov iborasi) haqida ma‘lumot beriladi va “Richard III” fojeasi va “O‘n ikkinchi kecha” komediyalaridagi ayrim qahramonlar xarakteri tahlil qilinadi.

Ikkinchi qismda esa “Venetsiya savdogari” asarini tahlil qilish asnosida o‘rta asrlarda yahudiylarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lingani ochib beriladi. Yana “Romeo va Juletta” hamda “Otello” fojealari haqida so‘z boradi. “Otello” tragediyasidagi qahramonlarga ( Otello, Dezdemonna, Yago) munosabat bildiriladi.

Uchinchi qismda “Hamlet” asari va uning mazmuni, bu asarning umumbashariy ahamiyati haqida gapiriladi. Shuningdek, Shekspirning Rim mavzusidagi fojealari (“Yuliy Sezar”, “Antonio va Kleopatra”, “Kariolan”) hamda “Qirol Lir” asari to‘g‘risida ham mulohazalar bayon qilingan.

Munaqqid “Romeo va Juletta” tragediyasi haqida shunday deydi: “Shekspir zamon, makon , sharoitga tamoman rioya qilib, muhabbatdek butun insonlar uchun oshno va yaqin bo‘lg‘on va o‘lmaydig‘on umumbashariy ehtirolarni katta bir san’atkorlik bilan tasvir qilg‘ondir”.<sup>75</sup>

Yana Shekspirning xasislik fojealari deb munaqqid uchta fojeani sanaydi. Ular quyidagilar: “Otello”, “Simbelin”, “Troil va Kressida” hamda “Qishki ertak” (manbada “Qish matali”- S.F.). Shuningdek, Rafiali maqolada faqat o‘zining kuzatishlarinigina emas, balki boshqa olimlarning ham tadqiqklariga e‘tibor qaratadi. Xususan, Stujnikov degan olim Shekspirning ijodini asarlarining yaratilgan davriga qarab to‘rt davrga bo‘ladi. Ulardan birinchisi Shekspirning o‘zgartirgan asarlari davri. Bizningcha, bu davr tarixiy xronikalar yaratilgan davr bo‘lib, ijodkor aynan o‘sha asarlarining asosini tarixchi Xolenshedning “Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikalari” dan olgan edi.<sup>76</sup>

<sup>74</sup> Manbada aynan shunday berilgan.

<sup>75</sup> Рафиали Х. Шекспир// Маориф ва ўқитгучи.- 1928. Н\* 4.

<sup>76</sup> Қаюмов О. Чет эл адабиёти.- Т.: Ўқитувчи, 1973.- Б. 188.



Ikkinchi davr esa Shekspirning favqulodda shuhrat qozongan asarlari davri bo'lib, bu davrda "Romeo va Juletta", "O'n ikkinchi kecha", "Venetsiya savdogari" kabi asarlar yaratilgan. Uchinchi davr ijodkorning inson qalbidagi shiddatli ehtirolarni tasvir etgan fojealari yaratilgan davr bo'lib, "Otello" asari bu davrning eng yuksak namunasi edi. Nihoyat, oxirgi to'rtinchi davr 1609- 1616- yillarni o'z ichiga olib, bu davrda "badbinlikdan qo'l tortib, hayot bilan kelishib"<sup>77</sup> qolgan Shekspir "Simbelin", "Qishki ertak", "Bo'ron" (manbada "To'lqin"- S.F.) kabi asarlar yaratdi.

Rafiali "Hamlet" asarining tahliliga kirishganda Hamletga quyidagicha ta'rif beradi: "Hamlat adolat va haqiqatning orasidag'i ixtilofning tug'urg'oni malanxulik (bizningcha, melanxolik- S.F.) bir huzun va dahshatli bir badbinlik natijasida harakatlarida yavoshliq bilan xarakteriza qila oladi". Bu gaplarda xulosa chiqarsak, munaqqid asarlarga faqat adabiyot doirasida e'tibor qaratmagan, balki asar qahramonlariga shaxs sifatida yondashib, uning psixologiyasiga ham ma'lum chizgilar berishga harakat qilgan. Bu maqola ham o'z davri uchun muhim va qimmatli manba bo'lganligini alohida qayd etishimiz joiz. Sababi 20- yillarda bu kabi keng doirada tadqiqot olib borilmagan. Muallif ham tadqiqotchilik mahorati bilan bemalol Fitrat va V. Mahmud kabi qalami o'tkir munaqqidlarga teng keladigan darajada mahorat ko'rsatgan.

## **XULOSA**

XX asrning 20- yillari matbuotida jahon adabiyoti masalalarini o'rganish 10- yillardagidan ancha rivoj topgan edi. Boisi 10- yillar matbuotini tadqiq etish jarayonida vaqtli nashrlar sahifalarida asosan turk va tatar adabiyoti ( yana ham aniqroq aytganda, dramaturgiyasi- S.F.) masalariga ko'p murojaat qilinganini ko'rishimiz mumkin. 20- yillarda esa bu jarayon avval rus adabiyotini o'z doirasiga sola olgan bo'lsa, keyinchalik hind ( Tagor misolida), fors (Firdavsiy misolida) va bora- bora g'arb adabiyoti (Shekspir misolida)ni ham qamrab oldi.

## **REFERENCES**

1. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи.- Тошкент: Гафур Ғулом, 2009.- 378 б.
2. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилиқ маҳорати: филол. фанлари номзоди....дис.- Тошкент: ТошДУ, 1998.- 158 б.
3. Карим Б. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд.- Тошкент: Университет, 2000.- 103 б.

---

<sup>77</sup> Аунан манбадан олindi.

- 
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.- Тошкент: Ўзбекистон, 2008.- 534 б.
  5. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот фихристи. 1- китоб.- Тошкент: Миллий кутубхона, 2010.- 257 б.
  6. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот саҳифаларида.- Тошкент: Маънавият, 112 б.
  7. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи.- Тошкент: Ўқитувчи, 1973.- 296 б.
  8. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.- Тошкент: Маънавият, 2004.- 461 б.

---

**МИФОЛОГИЗМ В ПРОЗЕ АМАН МУХТАРА (НА ПРИМЕРЕ  
РОМАНА «ЧЕЛОВЕК ПЕРЕД ЗЕРКАЛОМ»)**

**Буранова Жамила Алиевна,**  
преподаватель кафедры русского языка и литературы Каршинского  
государственного университета

**АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируется роман узбекского писателя Амана Мухтара «Человек перед зеркалом». Исследуются мифологизированные особенности произведения. Рассматриваются мифологизированные образы и мотивы романа.*

***Ключевые слова.** Иллюзорный мир, ирреальный мир, мифологизированный образ, мифологизированный элемент, реальный мир, символичность, художественный мифологизм.*

**MYTHOLOGISM IN THE PROSE OF AMAN MUKHTAR (ON THE  
EXAMPLE OF THE NOVEL "MAN IN FRONT OF THE MIRROR")**

**Buranova Jamila Aliyevna**  
Lecturer, Department of Russian Language and Literature, Karshi State  
University

**ABSTRACT**

*The article analyzes the novel by the Uzbek writer Aman Mukhtar "Man in front of the mirror". The mythological features of the work are investigated. The mythologized images and motives of the novel are considered.*

***Key words.** Illusory world, unreal world, mythologized image, mythologized element, real world, symbolism, artistic mythologism.*

**ВВЕДЕНИЕ**

Современная литература во многом охватывает художественный мифологизм как конститутивная форма отражения действительности. Мифологизированные образы и мотивы часто встречаются в произведениях современных узбекских писателей. К плеяде подобных авторов можно отнести известного писателя Амана Мухтара. Его роман «Человек перед зеркалом» богата своего рода мифологизированными элементами.

Композиционно роман состоит из двух частей и шести глав. Повествование ведется из уст главного героя Вали. Роман начинается с невероятно-трагического события, которое произойдет после природной стихии: аэроплан, высыпавший вредные удобрения на поля, бился о крышу школы Ширинкула, в результате чего погибли сам управляющий аэропланом Бадалбек и учитель школы Сирож. Оба эти человека ненавидели друг друга. Но самым впечатлительным было то, что труп Бадалбека *«лежал в объятиях с мертвым телом Сирожа-учителя»* [5, С. 166]. События романа повествует главный герой – тридцатилетний юноша Вали, который был свидетелем последствия этого несчастного происшествия. До конца романа судьба Вали сплетается с этими двумя людьми, в результате чего герой довольно мучается.

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

В сюжет своего произведения автор включает определенный отрезок жизни Вали, его философские размышления, воспоминания, сны, притчи, сказки и др. мифологические формы повествования, которые помогает А.Мухтару раскрыть сам образ героя, и вместе с тем, показать проблемы объективной действительности. В произведении автор поднимает вечные проблемы: добра и зла, греха и покаяния, правды и лжи, совести и др.

После смерти Сирожа-учителя и Бадалбека Вали становится свидетелем нереальных событий. Как-то он на окраине Ширинкула увидит чайхану, где пил чай Сираж-учитель как ни в чем не бывалый. Удивленный юноша поздоровался с ним: *«Он хладнокровно улыбаясь, кивал головой. Потом, – ничего не сказав, показав, что не хочет разговаривать, – повернул лицо в сторону»* [5, С. 169] Кроме этого Вали увидел четырех подозрительного человека, которые также долго являются тайными для него. Однажды герой в поиске истины о Сироже-учителе приходит в его дом. Его там приветствует вся семья, и невестка учителя рассказывает одну историю произошедшую с ее свекром: *«... снова увидел человека перед зеркалом. Но эта была какая-то давняя болезнь, и я не обратив внимания, зашел во внутрь. Зашла и неожиданно услышала, как отец почему-то бранился и звук разбитого зеркала.*

*– Когда я выбежал, отец сказал, что зеркало само разбилось, – бормотал зять»* [5, С. 191]. Зеркало, как магический предмет, часто встречается в мифологии. В древнегреческой мифологии считалось, что «отражение человека воспринималось, как двойник и второе злое Я» [3]. В энциклопедическом словаре славянской культуры, письменности и мифологии дается такое определение: «Зеркало – межа, граница, кордон между земным и

потусторонним миром (разбитое зеркало считалось нарушением этой межи, предрекало беду» [4]. В романе зеркало символизирует преграду между реальным и ирреальным миром, разбив которого, Сирож-учитель переходит в иной мир.

После того момента, когда Вали становится свидетелем трех мест, связанных с Сирожем-учителем (первое – его могила, где он был схоронен, второе – чайхана, где пил чай уже умерший Сирож-учитель и третье – подвал, где сидел завязанный, «чудовище» учитель), он ставит перед собой цель – раскрыть истину, в результате чего попадает очень тяжелое состояние. По ночам он страшно просыпается и долго не может спать: перед глазами Вали появляются предупредившие его четыре человека, которых он увидел рядом с Сирожем-учителем, сам учитель в разных обликах и близкие Мамлакатхона. Вали начинает жить в своем страшном и одиноком мире. Он часто размышляет о собственной жизни, и считает эти муки наказанием за грехи, которые он совершил: *«После того как я бросал себя в огонь, в воду, я понял, что охладел от жизни. Внутри пусто. Был похож на камыша»* [5, С. 217]. Разбитое зеркало Сирожем-учителем, открыл внебытийное пространство, куда попадает Вали и не может раскрыть свое сердце никому. У Вали этот иллюзорный мир смешивается с реальностью и заставляет его заблуждаться между ними.

Символичность можно заметить и в образе кладбища. Вали вспоминая своих отца, мать и сестренку посещает это место, но его беспокоило не это. В мире героя существовали могилы Сирожа-учителя и Бадалбека. Могилы этих двух неприятелей находились рядом, и на одной из этих могил можно было заметить изменения. Кладбище выполняло грань между реальным и ирреальным миром. Приходя сюда, Вали вспоминал притчи, услышанные им в детстве. Первая притча о цыганке, которая вышла замуж за царя. Царь ставит условие перед девушкой: бросишь свою профессию и не будешь просильничать. Спустя годы, царь тайно наблюдал за ней и заметил, что она запираясь, разложивала на полки по кусочку лепешки и выпрашивая, собирала их обратно. Вторая притча о долине под названием Гурбат (Чужбина, горесть), где люди жили в обилии как в враю. Но вдруг им соскучилось от всего этого и захотелось горестная жизнь. Их мечты осуществились, после чего они со скорбью смотря на небо умоляли: *«...– Сердце горит. Вода... Вода... Вода...»* [5, С. 217]. Обе притчи отражают жизнь Вали в ином ракурсе: грех, который он совершил, связываясь с Мамлакатхоном.

Вали находился между несколькими пространствами и как признаётся он сам: *«Для меня эти дни смешались, со сном, раздумьем, жизнью, Было сложно различить каждое было сложно»* [5, С. 220]. Подобная неомифологизированная форма описания романа, помогает автору всесторонне раскрыть внутренний и внешний мир героя, показывает его судьбу и возмездие. Это грехи Вали перед родителями, женой, Сирожем-учителем и др. Но за свои грехи Вали винил своих учителей, считая себя недовоспитанным. Также герой романа считает все свои муки платой не только за совершенные им самим грехи, но и за всего человечества. *«Мне казалось, что я восстал ради справедливости. Смотря на это, какая-то Черная Сила восстала против меня.*

*Беспокойствия в моей жизни, это не только следствия Земных преступлений, но и результат определенных Небесных случаев!»* [5, С. 274]

Значимым в романе является образ Сирожа-учителя. В начале своего повествования Вали описывает его благородным человеком, но с течением времени его мнение начинает изменяться. Вспоминая рассказанное Сирожем-учителем, Вали начинает замечать в нем злого и эгоистичного человека. *«Вы слышали про двуглавого змея? Забыв, что у нее тело и живот один, за едой две головы нападая друг на друга, хотят обгрызть друг друга... Мы воспитывались как эти змеи! Когда думали – одна голова! Когда говорили – другая! Когда одиноки – с одной головой, в кругу – со второй головой... Вынужден носить две головы!»* [5, С. 246]. Сирож-учитель, хотя явно не раскрывая, но воспитывал своих учеников по этому принципу.

Несмотря на препятствия и предупреждения, герой романа ищет истину, которая не дает ему покой. По пути к истине, он прибывает в вневременной и внепространственный мир, где он находится в неживом и немертвом состоянии. Здесь Вали сталкивается с различного рода приключениями. Вслед за просителем он сталкивается с отверстием, иным миром, безграничным небом, морем, на берегу которого ходили голые мужчины и женщины сильно похожие на него, и прикрывали руками свои постыдные места. В облике этих людей он видел свое греховное отражение. Также он встречает пасущих овец со свиниными головями. Наконец, придёт тот час, когда он станет лицом к лицу Сирожем-учителем, находящем в этом нереальном мире. Учитель подробно объясняет тайну произошедших нереальных событий. Но после разговора с Сирожем-учителем Вали заметит в нем черты Дьявола и вспомнил поучительную фразу: *«В мире есть вещи, которых один видят, а другие нет!»* [5, С. 297].



Часто встречаемые в произведении сны и галлюцинации уносит героя в иной мир и как зеркало отражает его настоящий облик. *«Мир – мираж; он существует в силу того, что мы существуем, если нас не будет, тогда его тоже не станет...»* [5, С. 237]. Сны и философские размышления Вали – это его ирреальный мир. Этот мир лишен объективности. Применяя в романе подобного рода форму изображения событий, автор раскрывает подлинную реальность действительности. На примере судьбы обычного молодого человека, показана жизнь многих людей. Автор в романе поднимает вечные проблемы добра и зла, греха и покаяния, правды и лжи, справедливости и бесчестия.

Таким образом, известный современный узбекский писатель Аман Мухтара в своем романе «Человек перед зеркалом» широко применил мифологизированные сюжеты, элементы и образы. Герой романа Вали в поисках пути к истине прибывает во вневременной и внепространственный мир, где он находится в неживом и немертвом состоянии. Переживания и муки в сознании героя смешиваются, и он не может определить реальную жизнь от иллюзий. В сюжет романа автор включает определенный отрезок жизни Вали, его философские размышления, воспоминания, сны, притчи, сказки и др. мифологические формы повествования, которые помогает А.Мухтару раскрыть сам образ героя, и вместе с тем, показать проблемы объективной действительности.

## REFERENCES

1. Buranova J.A. Mythopoeics in Khurshid Dustmukhammad`s creation Journal of information and computational science. 2. Central Asian journal of innovations and research. Uzbekistan, 05.2021. <https://www.sciencepublish.org/index.php/ics/issue/view/4> ; <https://www.sciencepublish.org/index.php/ics>
2. Buranova J.A., Sadinova D.U. Features of Mythologism in Timur Pulatov`s Story “Possession”. INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION. 03.2021. 402-405 p. DOI:doi.org/10.31149/ijie.v4i3.1393 <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/1517>
3. Елакрезаз: Образ зеркала в мифах. [m.vk.com.@elacrezaz](https://m.vk.com/@elacrezaz) 7 мая 2019
4. Кононенко А.А. Энциклопедический словарь славянской культуры, письменности и мифологии. <https://history.wikireading.ru>
5. Мухтор О. Тўрт томон қибла: Уч романдан иборат Шарқ дафтари: (Трилогия). – Т.Шарқ, 2000. – С. 166.

---

**РУССКИЙ ЯЗЫК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТРАДИЦИИ И  
ИННОВАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В  
НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ**

**Юлдашева Тохта Аметовна**

Старший преподаватель

Чирчикского государственного педагогического института

Ташкентской области Республика Узбекистан

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются традиции и инновации преподавания русского языка в узбекских и иноязычных направлениях высших учебных заведениях.*

*Ключевые слова: русский литературный язык, языковые барьеры, межличностная коммуникация, преподавание русского языка.*

**RUSSIAN LANGUAGE IN THE MODERN WORLD: TRADITIONS  
AND INNOVATIONS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE IN  
NATIONAL GROUPS**

**Yuldasheva Tokhta Ametovna**

Senior Lecturer

Chirchik State Pedagogical Institute

Tashkent region Republic of Uzbekistan

**ABSTRACT**

*The article examines the traditions and innovations of teaching the Russian language in Uzbek and foreign language directions of higher educational institutions.*

*Keywords: Russian literary language, language barriers, interpersonal communication, teaching the Russian language.*

**ВВЕДЕНИЕ**

Язык и время - одна из проблем, волнующих исследователей. Язык живет во времени, а время отражается в языке, точнее оказывает влияние на язык. Возросшие темпы языковых изменений объясняются прежде всего меняющимся составом и обликом русского общества, сменой социальных, политических, экономических, а также психологических установок.

Раньше источником нормы была художественная литература, в ней черпал свои ресурсы язык (поэтому он и называется литературным). Сейчас ситуация изменилась. Русская речь во многом обновляется через язык СМИ,

разговорную сферу. Телевидение, радио становятся законодателями речевой моды, воспитателями языкового вкуса - нередко невысокого класса. Однако игнорировать эти процессы нельзя, в них заложены объективные потребности нового поколения - более технически образованного, более раскованного, более контактирующего с носителями других языков.

На языковые процессы, особенно на расширение словаря, влияет развитие науки, техники. Приведем для сравнения такие цифры: словарь произведений А.С. Пушкина насчитывает 21 тыс. словоупотреблений, Вильяма Шекспира — 24 тыс., а в последнее издание словаря С.И.Ожегова включено 72 500 слов и 80 000 фразеологизмов. В то же время развитие электроники, компьютерных технологий привело к появлению 60 тыс. наименований; в химии, по данным Н.Л. Васильева, насчитывается около 5 млн. номенклатурно-терминологических наименований. При этом в развитии русского языка обнаруживаются процессы, стимулированные извне и внутренними законами языка.

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Один из них - закон системности; другой - закон традиций, сдерживающий инновации; далее - закон аналогии, подрывающий основы закона традиций, а также действуют законы экономии (наименьших усилий в выражении мысли) и противоречий (готовящий как бы «взрыв» изнутри).

Примером закона традиции можно считать сохранение ударения в словах включить - включит, звонить - звонит.

Закон аналогии, т.е. уподобление одной формы другой, действует, к примеру, в случае читать - читаю и махать - махаю (разг.) вместо машу.

Закон речевой экономии проявляется в употреблении, особенно в устной речи, простых форм вместо сложных: гречневая крупа - гречка; Брат сказал, что приедет отец. - Брат сказал о приезде отца, он проявляется и в аббревиатурах: вуз, ЧДПИ и т.д.

Действие закона противоречий, к примеру, можно увидеть в том, что меняются наименования родства, вместо деверь - брат жены, вместо шурина - брат мужа; в устной речи появляются признаки письменной и даже её символика: человек с большой буквы, доброта в кавычках.

Безусловно, активные процессы наблюдаются в русской лексике и фразеологии. Словарь стремительно растет, так как, по подсчетам ученых, объем знаний, которыми располагает человечество, удваивается каждые 10 лет. Кроме того, ориентация СМИ на непринужденное общение, изменение

психологического отношения к языку привело к тому, что языковые традиции жестко не сковывают человека, ослабла официальность в формах выражения, расширилась сфера спонтанного, неподготовленного общения. Официальные лица уже не говорят «по бумажке», отказались от «ритуального языка». Вместе с тем речь многих людей, особенно публичных, далека от совершенства. Это и вызывает опасения по поводу «порчи» языка.

Методика преподавания иностранных языков и русского языка как иностранного в частности переживает этап активного развития, переосмысления целей, задач и принципов обучения иностранному языку, поиска новых способов и средств обучения. Практика обучения иностранным языкам диктует необходимость интеграции методики преподавания иностранных языков с другими гуманитарными науками, такими как психология, социология, этнография. В последние годы появляется все больше сторонников понимания процесса обучения иностранному языку как процесса межкультурной коммуникации, то есть «общения языковых личностей, принадлежащих различным лингвокультурным сообществам» [Гудков, 2003, с. 51]. Как пишет С.Г. Тер-Минасова: «Каждый урок иностранного языка – это перекресток культур, это практика межкультурной коммуникации, потому что каждое иностранное слово отражает иностранный мир и иностранную культуру: за каждым словом стоит обусловленное национальным сознанием ...представление о мире» [Тер-Минасова, 2008, с. 30]. Целью обучения иностранному языку (в частности русскому как иностранному) в этом случае становится, прежде всего, формирование у учащихся коммуникативной и, в ее составе, межкультурной компетенции как «умения общаться с представителями другой культуры, включающее способность к пониманию ограниченности собственной культуры и собственного языка, и умение переключиться при встрече с другой культурой на другие не только языковые, но и неязыковые формы поведения» [Бердичевский, 2011, с. 4].

Задачей преподавателя русского языка становится не просто обучение иностранных учащихся языковой системе русского языка: фонетике, лексике, грамматике, но формирование у них способности правильно оценивать коммуникативную ситуацию при общении с носителями языка, считывать культурные коды, содержащиеся в речи носителей русского языка, адекватно воспринимать сигналы невербальной коммуникации (жесты, мимику и т.п.) собеседника. Кроме рецепции, целью обучения русскому языку является формирование готовности действовать и продуцировать речевые произведения

в соответствии с культурными, этикетными и речевыми нормами русского лингвокультурного сообщества.

Одной из актуальных проблем, привлекая в свете межкультурной коммуникации внимание педагогов и преподавателей, работающих с иностранными учащимися, стала проблема адаптации инофонов к обучению и проживанию в инокультурной среде. Первая волна исследований феномена адаптации («приспособление организма, личности или группы к новым внешним условиям» [Азимов, 2009, с. 9]) была посвящена вопросам психологической и социальной адаптации иностранных учащихся к российской высшей школе. В этих работах были сформулированы закономерности и характер протекания психологической и социально-психологической адаптации инофонов к обучению в вузах России (Иванова М.А.), дидактической (Чернявская Т. П.), социокультурной (Чеснокова Н.В.), рассмотрены педагогические условия социокультурной и социально-психологической адаптации. Авторами исследований были разработаны практические рекомендации преподавателям, работающим с иностранными студентами в вузах страны. Однако эти работы рассматривают феномен адаптации, прежде всего, как явление социокультурное или социально-психологическое, а меры по облегчению адаптации иностранных учащихся к обучению и жизни в России в основном относятся к области административных, организационно-учебных, педагогических. Своеобразным итогом изучения взаимосвязи адаптационных процессов и результативности обучения иностранных учащихся стало выделение А.И. Сурыгиным принципа учета адаптационных процессов при обучении на неродном для учащихся языке: «процесс обучения и воспитания на неродном для учащихся необходимо строить в соответствии с уровнем социально-психологической, включая академическую, и физиологической адаптированности учащихся» [Сурыгин, 2000, с. 134].

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Как мы видим, социальные факторы во многом являются национально специфическими, однако поддаются систематическому описанию и могут быть учтены при разработке методики работы с определенным контингентом учащихся.

На основе систематического описания национально-специфических черт определенного контингента (в нашем случае – арабского), а также диагностирования проблем адаптации у студентов данного контингента, уже изучающих русский язык в России (анкетирование, беседа, наблюдения), мы



предлагаем разработать модель адаптации данного контингента учащегося в различных условиях (моноязычная или поликультурная группа, краткосрочное или долгосрочное обучения, уровень изначальной подготовки). При этом национально ориентированная модель лингвокультурной адаптации должна быть построена с учетом и на базе этнопсихологических, этнокультурных, учебно-познавательных особенностей иностранных (арабских) учащихся и представлять собой совокупность педагогических и методических приемов адаптации средствами русского языка применительно к данному конкретному контингенту учащихся и конкретным целям и условиям работы. Модель эта должна представлять собой мультикомпонентную многоуровневую структуру, охватывающую все типы адаптации, значимые для данного контингента учащихся, и все уровни взаимоотношений инофона с окружающей средой. В зависимости от сроков обучения, целей и задач, а также от национальной наполненности группы (моноязычная или поликультурная учебная группа) преподаватель русского языка как иностранного может использовать весь комплекс средств или его отдельные элементы.

## REFERENCES

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. *Eurasian Education Science and Innovation Journal*, 1(22), 15-19.
2. Ахмедов, Б. А. (2021). Динамическая идентификация надежности корпоративных вычислительных кластерных систем. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 495-499.
3. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайн-курсов в дистанционных условиях современного общества (модель-программа для преподавателей образовательных учреждений). *Universum: технические науки*, 12-1 (81).
4. Akhmedov, B. A. (2021). Cluster methods for the development of thinking of students of informatics. *Academy*, 3(66), 13-14.
5. Akhmedov, B. A. (2021). Innovative cluster model for improving the quality of education. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 528-534.
6. Akhmedov, B. A. (2021). Information technologies in Cluster systems: a competence approach. *Universum: технические науки*, 4 (85).
7. Ахмедов, Б. А. (2020). Математические модели оценки характеристик качества и надежности программного обеспечения. *Eurasian Education Science And Innovation Journal*, 3(10), 97-100.



- 
8. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. *Scientific progress*, 1(3), 113-117.

## **YANGI O‘ZBEKISTON – YANGI QO‘SHNICHILIK**

**Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li**

Toshkent davlat pedagogika universiteti, iqtisodiy bilim asoslarini o‘qitish  
metodikasi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: eldorbekovg01@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan tarixiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari va O‘zbekistonda hozirgi davrda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tahlili olib borilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning hozirgi iqtisodiy holatini tahlil etgan holda asoslarga ega takliflar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, qo‘shnichilik, Markaziy Osiyo, yangi, iqtisodiyot, siyosat, hamkorlik, rivojlanish, tashqi savdo.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируются исторические, культурные, экономические, политические отношения Узбекистана со своими соседями по Центральной Азии и текущие социально-экономические изменения в Узбекистане. Кроме того, были внесены обоснованные предложения с анализом текущей экономической ситуации в Узбекистане.*

***Ключевые слова :** Узбекистан, соседство, Центральная Азия, новое, экономика, политика, сотрудничество, развитие, внешняя торговля*

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the historical, cultural, economic, political relations of Uzbekistan with its neighbors in Central Asia and the current socio-economic changes in Uzbekistan. In addition, substantiated proposals were made with an analysis of the current economic situation in Uzbekistan..*

***Keywords:** Uzbekistan, neighborhood, Central Asia, new, economy, politics, cooperation, development, foreign trade*

### **KIRISH**

O‘zbek xalqi o‘zining boy va rang — barang madaniyatiga ega. Bu ko‘pgina qadimiy xalqlar madaniyati uyg‘unligi samarasidir. Markaziy Osiyo xalqlarining urf — odat va an‘analari ko‘p yillar davomida, zardushtiylar, baqtriyaliklar va so‘g‘dlar ma‘naviy merosi, boshqa tarafdin ko‘chmanchi qabilalar, keyinroq esa Qur‘oni Karimda ko‘zda tutilgan islom an‘analari asosida shakllandi. O‘zbekistonning hozirda ham qo‘shnilari — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistonda

ham bu an'analar saqlanib qolingan. Xuddi slavyan xalqlaridek Markaziy Osiyo xalqlari tarixan birga rivojlanishgan. Qadrdon davlatlardagi turli xil bayramlar, ayniqsa Navro'z bayrami keng nishonlanadi. Markaziy Osiyoda eng keng tarqalgan din Islom dini bo'lganligi uchun ham diniy bayramlar o'zgacha bir ruhda nishonlanadi. Avvaldan Markaziy Osiyo xalqlari qozoq, o'zbek, turkman, tojik va qirg'izlarga ajratilmagan. Bu mustamlakachilar tomonidan amalga oshirilgan. Avval barcha turkiy xalqlar Turkistonda bir an'ana, bir din, bir ma'naviyatga asoslanishgan. Avvaliga Chor Rossiyasi, so'ngra Sovet Ittifoqi kabi mustamlakachilarning siyosati tufayli bu birlik deyarli yo'q bo'ldi, Turkistonda "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" shiori ostida ish ko'rildi. Hozirgi paytda eng muhim vazifamiz esa oradagi tushunmovchilik va masofalarni yo'qotib, qo'shnilarimizga yangi O'zbekistonning yangi qo'shnichiligini ko'rsatishdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilishda va kerakli takliflar berishda iqtisodiy analiz metodlariga alohida urg'u berildi. O'zbekiston, O'zbekistonning xalqaro maydonlaridagi o'rni, O'zbekiston-Markaziy Osiyo mavzularida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlaridan, shuningdek prezidentimiz keltirgan iqtiboslar to'plamidan foydalanildi. Maqolada prezidentimizning 2020-yil so'nggida keltirilgan iqtiboslari o'rin olgan. Ko'rishimiz mumkinki, shu 5 yil ichida O'zbekiston xalqining farovonligi uchun muhim bo'lgan ishlarga poydevor qo'yildi. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida ko'rish mumkinki, kitobda yozilgan ko'plab jumlar reallikka aylanib bo'ldi va aylanmoqda. [2]

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston munosabatlarida ancha yillar muzliklar paydo bo'lgan bo'lsa-da Shavkat Mirziyoyev rahbarligi ostida birinchi o'rinda ana shu muzlar eritildi. Markaziy Osiyoda qisqa vaqt ichida « Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari tashabbuskori va arxitektori» nomini olgan Shavkat Mirziyoyev dunyoning 15 davlatiga 40 martadan ortiq tashrif buyurdilar va 5 davlat tomonidan turli xil ordenlar bilan taqdirlandilar. [6]

Prezidentimizning tashqi siyosatda birinchi amalga oshiradigan ishi aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatish edi. Yaqin-yaqingacha bu davlatlar bilan aloqalar iliq emas edi. Lekin Shavkat Mirziyoyev sharofatlari bilan yillar davomida paydo bo'lgan muzliklar 1 yilda erib

ketdi. To‘g‘ri hozirda pandemiya, lekin pandemiya oldingi 2017-2019 yildagi qo‘shni davlatlar bilan aloqani va undan oldingi paytdagi aloqalarni bir taqqoslab ko‘ringchi?! Yangi O‘zbekistonimiz yangicha dunyoqarash bilan jahonning rivojlanayotgan davlatlari orasida o‘z o‘rnini topayabdi.

Shuningdek, 2017-2020 yillar davomida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o‘ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o‘tish kabi murakkab va chalkash muammolarga yechim topildi. Agar besh yil oldin o‘zbek-qirg‘iz davlat chegarasini kuniga 200–300 kishi kesib o‘tgan bo‘lsa, global pandemiya ta‘sirida joriy qilingan cheklovlarga qadar bu ko‘rsatgich kuniga 30 ming kishiga yetgan, O‘zbekiston-Tojikiston chegarasini esa kuniga 20 ming fuqaro kesib o‘tgan.

Bundan tashqari mamlakatimizda “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” shiori ostida aholi orasida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va subsidiya berish siyosati olib borilyapti. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatidan byurokraliyani yo‘qotish ham muhim vazifalardan biri bo‘lib qolyapti. Bularning samarasi o‘laroq tadbirkorlikni ro‘yxatga olish indeksida 8-o‘ringa ko‘tarildik, umumiy biznes faoliyatini olib borish reytingida oxirgi 5 yil ichida 141-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarildik. Eng asosiysi esa tadbirkorlar shaxsan prezident bilan uchrashyaptilar, muammo va takliflarni erkin bildira olyaptilar. [7]

Yana bir muhim o‘zgarish sifatida O‘zbekistondagi iqtisodiy-statistik ma‘lumotlarni aniqligi va shaffofligi oshirilganligidir. O‘zbekistondagi istalgan fuqaro stat.uz ga kirish orqali O‘zbekistondagi eng yangi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarining statistikasini ko‘rish mumkin. Statistika qo‘mitasi hodimlarini doimiy malakasini oshirish va xalqaro standartlarga amal qilish orqali ma‘lumotlar yanada reallikka yaqin, aniqroq bo‘lmoqda. Shaxsan o‘zim uchun eng quvonarli o‘zgarishlardan biri bu palov indeksi tuzilganligidir. O‘zbekiston iqtisodiy holatini yanada aniqlashtirish maqsadida 2020-yil yanvar oyida “palov indeksi” tuzildi. Dunyoning ko‘plab davlatlarida “BigMak indeksi”, Rossiyada “olivye indeksi” bo‘lganidek, bu indeks ham fuqarolarimiz sotib olish qobiliyati qanchalik o‘zgarganligini ko‘rsatib beradi.

**O‘zbekistonning xalqaro maydonlardagi o‘rni.** Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi 200 ga yaqin mamlakat a‘zo bo‘lgan eng yirik xalqaro tuzilma hisoblandi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach birinchi bo‘lib a‘zo bo‘lgan xalqaro

tashkiloti ham aynan BMTdir. Bugungacha bu hamkorlik tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, sogʻliqni saqlash, ekologiya, taʼlim, madaniyat, turizm kabi koʻplab sohalardagi oʻzaro davom etib kelmoqda.

BMT Inson huquqlari boʻyicha kengashining 46-sessiyasida davlatimiz rahbarining ishtirok etishi va nutq soʻzlashini koʻrib, uni tahlil qilib xalqaro hamjamiyatning mamlakatimizga boʻlgan munosabati qanday ekanligini anglash mumkin. Prezidentimizning nufuzli minbardagi nutqi mamlakatimiz inson va uning huquqlari yoʻlida oʻzi tanlagan yoʻldan ortga qaytmasligini, xalqaro huquqning inson huquqlariga oid umum eʼtirof etilgan prinsip va normalarini qatʼiy himoya qilishini va uni faol ilgari surishini yana bir bor namoyon etdi.

Bugunga kelib Oʻzbekiston BMTning toʻlaqonli aʼzosi, shuningdek, 2015-yil sentabrda BMTga aʼzo barcha 193 ta davlat tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror taraqqiyot sohasidagi kun tartibini imzolagan tomon sifatida xavfsiz va sogʻlom sayyorada barcha odamlar uchun tenglik, taraqqiyot, qadr-qimmat va adolat hukm suradigan tinchlikka intilish boʻyicha global majburiyatni oʻz zimmasiga olgan. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston ichki siyosatida kuzatilayotgan keng qamrovli islohotlar, ochiqlik va yangilanishlar, mamlakatning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon boʻlmoqda. Oʻzbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaq va global darajada faol tashqi siyosatni yoʻlga qoʻyib, xorijiy hamkorlar bilan oʻzaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham eʼtirof etmoqda. Jahon boʻylab tarqalgan koronavirus infeksiyasi va global darajadagi inqirozli xavf-xatarlar davrida ham Oʻzbekiston mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlab, mintaq davlatlari va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishga alohida eʼtibor qaratdi.

### **Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining strategik hamkorliklari.**

Maʼlumki, Oʻzbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – oʻz hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qoʻshnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan doʻstona, yaqin qoʻshnichilik va oʻzaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yoʻnalish sifatida belgilab berdi.

2020 yil – “Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturi doirasida Oʻzbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosiy faoliyatini, jumladan, Markaziy Osiyo yoʻnalishida ham izchil davom ettirdi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda oʻzaro doʻstlik, yaxshi

qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqish borasida 2020 yil davomida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bo'yicha davlat idoralari tomonidan 23 ta oliy darajada va 12 ta yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda "xalq diplomatiyasi" amalda juda faol bo'lgani kuzatildi. Xususan, xalq vakillari – olimlar va rassomlar, madaniyat va din arboblari, ishbilarmonlar va yoshlar, turizm va sport tashkilotlari, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar ishtirokida 90 dan ortiq turli uchrashuvlar, anjumanlar, videokonfrensiyalar va boshqa shu kabi tadbirlar o'tkazildi.

Global pandemiya xavfiga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy muloqoti ta'minlandi va mamlakatlar o'rtasida faol hamkorlik aloqalari davom ettirildi. Mintaqa davlatlari koronavirus infeksiyasi tarqalishining dastlabki kunlaridanoq bir-birlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishni boshladilar. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga bir necha bor gumanitar yordam yubordi. Bunga javoban Qirg'iziston va Tojikiston singari qo'shnilarimiz Sardoba suv omborini tiklash uchun insonparvarlik yordamini ko'rsatdilar. Shuningdek, 2020 yilning dekabr oyida O'zbekiston ko'magi bilan Qirg'izistonda zarur tibbiy jihozlar va mebellar bilan to'liq jihozlangan 200 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, pandemiya davrida koronavirusga qarshi kurashda tibbiyot sohasida axborot va tajriba almashinuvi, o'zaro gumanitar yordam ko'rsatish, chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatlanishini yo'lga qo'yishga erishildi. Bu esa mintaqada dunyoning boshqa davlatlariga nisbatan koronavirus bilan kasallanish va uning natijasidagi o'lim sonining kamligini ta'minlash imkonini berdi.

Qolaversa, joriy yil yanvar oyida O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari AQSH bilan hamkorlikda mintaqada iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun besh yil ichida kamida 1 mlrd. dollarga teng mablag'larini jalb etish maqsadida "Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi" tashabbusini yo'lga qo'ydi. "C5+1" platformasi orqali amalga oshirilayotgan ushbu tashabbus Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotini mustahkamlash va o'sishini ta'minlash maqsadida savdo-sotiqni oshirish, kompleks rivojlanishni rag'batlantirish va ko'p tomonlama aloqalarni chuqurlashtirish uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanishga intiladi.

Jahon hamjamiyatida Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganini mintaqa va yirik davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin.



Mavjud “Markaziy Osiyo – AQSH”, “Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi”, “Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi”, “Markaziy Osiyo – Yaponiya” kabi muloqot formatlari qatoriga oxirgi yillarda “Markaziy Osiyo – Hindiston”, “Markaziy Osiyo – Xitoy” va “Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi” singari yangi formatlar qo‘shildi. Mazkur holat, birinchidan, mintaqadagi ijobiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan mutlaqo yangi muhit dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e‘tiborning oshganini ko‘rsatsa, ikkinchidan, chet el davlatlari mintaqa mamlakatlari bilan nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki yagona mintaqaviy ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolatdir.

Shu bilan birga, mintaqa hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o‘rtasida yangi formatlarning tuzilishi bu, Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga, shuningdek, mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatida qaralishiga olib kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatidagi o‘rni hamda o‘zaro hamjihatligi va birdamligi Qirg‘izistonda 2020 yil oktabr oyida yuz bergan norozilik namoyishlari va tartibsizliklarga O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Tojikiston respublikalari Prezidentlari qo‘shma bayonot bilan munosabat bildirganliklarida ham kuzatildi. Qo‘shma bayonotda qardosh Qirg‘izistonda sodir bo‘layotgan voqealar jiddiy tashvish tug‘dirayotgani hamda Qirg‘izistonning barcha siyosiy partiyalari va jamoatchilik doiralari tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, konstitutsiya va milliy qonunchilikka so‘zsiz rioya qilish bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan sa‘y-harakatlarni amalga oshirishiga umid bildirildi.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, xalq farovonligiga, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va mintaqa davlatlari o‘rtasida shakllangan va yanada mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o‘zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida hamda 2021 yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratilgan.

Xususan, joriy yil Davlat dasturida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni izchil davom ettirish chora-tadbirlar rejasida:

• O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

• oliy va yuqori darajada o‘zaro tashriflarni tashkil etish;

• “Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;

• yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni birgalikda hal etish;

• savdo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o‘shishi va hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

• mintaqaning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish va transport infratuzilmasi rivojlanishini ta‘minlash;

• Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari (shu jumladan, chegara hududlari) o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish ko‘zda tutilgan.[6]

Bundan tashqari, joriy yilda O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT), Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi (TTDHK), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) va boshqa tuzilmalar doirasida ham rivojlantirishni, bunda nafaqat siyosiy-diplomatik munosabatlar, balki iqtisodiy diplomatiya, parlamentlararo diplomatiya hamda xalq diplomatiyasini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Qolaversa, joriy yilda SHHTda O‘zbekiston Respublikasining 2021–2022 yillarda raisligini inobatga olib, mazkur yo‘nalishda ustuvor vazifalar va asosiy tadbirlarini ishlab chiqish ham Davlat dasturida rejalashtirilgan. SHHTda Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston qatori Markaziy Osiyo davlatlaridan O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning a‘zo davlatlar ekanligi, ushbu xalqaro tashkilot doirasida hamkorlikni jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etishini ta‘kidlash mumkin.

O‘zbekiston Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi va joriy yilgi Davlat dasturida qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlariga alohida urg‘u berilishining muhimligi shundan iboratki, mazkur yo‘nalish O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan chegaradosh mintaqadagi yagona davlatligi, mamlakatdagi har qanday siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi o‘zgarishlarning bevosita mintaqaga ta‘sir etishi

hamda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi mintaqaning barcha davlatlari manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning bugungi tashqi siyosati, xususan, yaxshi qo‘shnichilik va pragmatik mintaqaviy siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshiribgina qolmay, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qilmoqda.

**O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati.** Qayd etish joizki, so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarini qo‘shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch mustahkamlandi, davlat rahbarlarining Maslahatlashuv uchrashuvlari yo‘lga qo‘yildi.

Natijada mintaqadagi ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, 2017-2019 yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o‘rtacha 50 foizdan ko‘proqqa o‘tib, 5,2 mlrd. dollarga yetgan. 2020 yil natijalariga ko‘ra esa, global pandemiya sharoitiga qaramay, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 5 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Jumladan, O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019 yildagi 12,4% dan, 2020 yilda 13,6 % ga oshgan. O‘zbekistonning mintaqadagi umumiy tashqi savdo aylanmasida esa Qozog‘istonning ulushi 61%, Qirg‘iziston – 18,2%, Turkmaniston – 10,6% va Tojikistonning ulushi 10,2% ni tashkil etdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning mana shunday yaxshilanishi, umuman aytganda, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Xususan, 2017-2020 yillar oralig‘ida O‘zbekiston va mintaqa mamlakatlari o‘rtasida 300 dan ortiq shartnoma, shuningdek, qariyb 75 mlrd. dollarga teng shartnoma va bitimlar imzolangan.

O‘zbekiston statistika qo‘mitasining yangi ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonning 2021 yil yanvar-iyun oyiga tashqi savdo hajmi 18 mlrd dollarga yetgan, shundan 10 944 mln dollar import, 7 056 mln dollar eksport tashkil etdi. MDH davlatlari bilan 2021 yilgi yanvar-iyun oyidagi savdo hajmi 6 665,2 mln dollarni shundan 2 274,2 mln dollar eksport, 4 391,0 dollar import tashkil etgan. Shundan O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo 2 803,8 mln dollar tashkil etdi, shundan 1 174,6 mln dollar eksport, 1 629,2 mln dollar esa import hisoblanadi. [8]

**Logistika: yangi savdo yo‘llari.** O‘zbekistonning hozirgi sharoitining potentsiali juda yuqori hisoblanadi. Markaziy Osiyoda hozirda kishi boshiga YIM eng katta davlat Qozog‘iston hisoblansa-da, Qozog‘iston tashqi qarzining yildan-yilgi

oshaverishi tufayli (YIM ga nisbatan 94%) O‘zbekiston kelgusi o‘shida katta potensialga egadir. UzAvtoSanoat avtomobillari ham asosan Qozog‘istonga eksport qilinadi. Afg‘oniston esa hozirda O‘zbekiston uchun riskka ega yuqori foydali hamkor hisoblanadi. Hozirda Afg‘onistondagi vaziyat qaltis bo‘lsa-da, keyinchalik muammo hal etilgach O‘zbekiston o‘z tovarlari uchun yana bir davlatga va eng asosiysi okeanga chiqish imkoniyatlarini oshiradi. Afg‘onistondan o‘tgacha biz Pokistondagi Karachi porti orqali dunyo suv logistikasiga qo‘shilamiz. O‘zbekiston noqulay geografik joylashuviga qaramay okeanga chiqishni uddalasa eksportdan keladigan foyda bir necha barobar oshishiga shubham yo‘q. Okean logistikasi foydalari:

- Bir birlik yuk uchun arzon narx;
- bir reysda katta hajmdagi yukni yetkazish imkoniyati;
- juda og‘ir konstruksiyalarni yetkazish imkoniyati (6 tonnadan 600 ming tonnagacha);
- yuqori xavfsizlik darajasi;
- universallik (deyarli istalgan turdagi yukni tashish imkoniyati).

Bu nafaqat O‘zbekistonga okean logistikasi balki Pokiston va Afg‘onistondagi davlatlar bilan savdo aloqalari yanada yaxshilanishi, dinimiz birligi tufayli o‘zaro do‘stlik aloqalari o‘rnatishimiz mumkin. To‘g‘ri hozirda Afg‘onistondagi vaziyat beqaror, ammo ikki davlatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlar qurishga intilish, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov ancha tajribali diplomat ekanligi va Afg‘onistonning va‘dalari bu logistika loyihasining amalga oshish imkoniyatini ancha oshiradi. Lekin agar biz o‘ylagan yo‘l amalga oshmasa bizda yana Turkmaniston va Eron orqali ham okeanga chiqishimiz mumkin. Bu Pokistondagi portdek manfaatli bo‘lmas, ammo Turkmaniston bilan yaxshi aloqalar okean logistikasi faoliyatiga yordam berishi mumkin.

**Yangi tashqi savdo nazariyasi.** Yana bir iqtisodiy maslahat – iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan Pol Krugmanning “yangi tashqi savdo” nazariyasiga ko‘ra tashqi savdo aloqalarini olib borishdir. Nazariyaga ko‘ra davlatlar o‘z hududida ko‘p va arzon bo‘lgan tovarlarni eksport, qimmat va defitsit tovarlarni esa import qilishi yetarli emas. Juda ko‘p iqtisodchilarning 50 yildan ortiq kuzatishlaridan ma‘lum bo‘ldiki, rivojlangan davlatlar bu qonunga amal qilishmaydi, aks holda faqatgina bir davlat bir tovarni ishlab chiqargan bo‘lardiki. Krugman fikricha bunga quyidagi sabablar bor:

•Iste‘molchilarning tanlovga ega ekanliklari ularni quvontiradi va sotuvlarni oshiradi. Turli davlat tovarlari o‘rtasida raqobat yuzaga kelsa-da, tovarlarning shakli,

narxi va boshqa xususiyatlariga ko'ra har bir tovar o'z mijozlariga ega bo'ladi (masalan, Ford va Volkswagen mashinalari turli xil bo'lsa-da, AQSh va Germaniya davlatlarida ancha katta hajmda sotiladi)

- Bunda "masshtabdan iqtisod" qonuni amal qiladi, ya'ni kompaniyalar ko'proq tovar ishlab chiqargan sari bir birlik mahsulot ularga arzonroqqa tushadi. Oqibatda kompaniya yanada foyda ko'radi

- Kompaniyalarning katta daromadga ega bo'lishi ularni ko'proq tovar ishlab chiqarishga, qudratli raqobatchilarga ega bo'lishi esa xarajatlarni minimallashtirib, tovarlarni sifatli ishlab chiqarishga undaydi

Qisqa qilib aytganda "Transport xarajatlarini kamaytirish, shahar aholisining ko'payishi ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga, ish haqining oshishiga va tovarlarning xilma-xil yetkazib berilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida shaharlarga migratsiyani (qo'shimcha ishchi kuchini) rag'batlantiradi". Demak, O'zbekiston avtosanoatining qo'shni avtosanoatlar bilan raqobat qilishi, raqobatbardosh o'xshash tovarlar oldi-sotdisini tashkil etish muhim hisoblanadi. Oqibatda, monopolistik bozor vujudga keladi. Qanchalik paradoksal ko'rinmasin, bu iqtisodchilarning uzoq vaqt davomida kuzatishlari samarasi va bugungi kun haqiqati. Aks holda AQSh faqat mashina, Belarus kartoshka, O'zbekiston paxta eksporti bilan shug'ullanardi. [5]

Ko'plab ekspertlar fikricha MDH davlatlaridagi aholi, qulay iqtisodiy geografiya va o'zaro manfaatli shartnomalar orqali Krugman keltirgan "masshtabdan o'sishga" ega bo'lish mumkin. Krugman nazariyasiga ko'ra bunga 300 mln aholi zarur va aynan MDH davlatlarida shuncha odam bor. Lekin bunda barchaga adolatli shartnomalar tuzilishi shart, agar kimdir "ko'rpani o'ziga tortsa" bu boshqalarga va yakunda o'ziga ham zarar yetkazadi.

Bundan tashqari O'zbekiston bozorida ichki raqobatchilarni ko'paytirish muhim hisoblanadi. Hozirda Yaponiya misolidan olsa Yaponiya avtosanoatida 4 ta gigant – Toyota, Honda, Nissan va Suzuki brendlari mavjud. Toyota, Nissan va Honda esa AQSH da avtomobil sotilishi bo'yicha Top-5 likka kirishgan. Shu oddiy misoldan ko'rishimiz mumkinki ichki bozordagi kuchli raqobat tashqi bozor uchun raqobatbardosh tovar ishlab chiqarishga majbur qiladi. Albatta, Krugman nazariyasini amalga oshirishdan oldin ichki raqobatchilarni ham hosil qilish lozim.

**O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi.** Hozirda ba'zi insonlar O'zbekiston davlat qarzi ko'payayotganligidan xavotirda. Bu ko'rsatkich hozirda 23,2 mlrd. AQSH dollarini ni tashkil etadi. (YIM ga nisbatan 40.1%). Lekin shuni esda tutish kerakki Yaponiyaning hozirgi davlat qarzining YIM ga nisbatan 266% ni tashkil etadi.



O‘zbekistonda esa ahvol 6 barobar yaxshiroq. AQSh da bu ko‘rsatkich 140%ni tashkil etadi. Ammo AQSh va Yaponiya davlatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan iqtisodiy siyosat orqali bu qarzlarga katta xavf ko‘rsatmaydi. Bundan tashqari iqtisodchi-ekspert Bekzod Hoshimov so‘zlariga ko‘ra agar O‘zbekiston olgan qarzlarga to‘g‘ri yo‘nalishga sarflansa, aholining yashash sharoitlarini yaxshilagan holda qarzlarning ko‘p qismini qaytara olishimiz mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa shuki, hozirda O‘zbekiston yangi tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanishlarga erishish va yangi qo‘shnchilik aloqalarini o‘rnatish yo‘lida shaxdam qadamlar tashlamoqda. Deyarli barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha 5 yil ichida ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Oxirgi yillarda sodir bo‘layotgan iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar O‘zbekistonning xalqaro maydonlaridagi o‘rnini yuksaltirmoqda. Albatta, biz – yoshlar ham o‘zimizning innovatsion takliflarimiz, bilimimizni yanada yuksaltirishimiz orqali Yangi O‘zbekistonning yanada rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент : «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 488 бет
2. Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. Тошкент — «Ўзбекистон» 2016. — 59 бет
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! T: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 53 bet
4. Исмаилова Н.С., Шагазатов У.У. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик. –Т.: IQTISODIYOT, 2019. -244 б.
5. International Economics: Theory and Policy by Paul R. Krugman and Maurice Obstfeld. 2003 y. – 783 p.



## **QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISH JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA ILGARI SURILGAN VERSIYALARNI TEKSHIRISHNING AYRIM MASALALARI**

**Yesimbetova Barno Yesengeldievna**

O‘zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi doktoranti,

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada tergov uslubi tavsiya etgan taktik va metodik vositalarni qo‘llash va hodisa joyidagi qurollar, izlar, jabrlanuvchi shaxsi va tan jarahoti sababi haqidagi dastlabki ma‘lumotlar asosida versiya-tusmollarini ishlab chiqish va tergovni to‘g‘ri tashkil etish yuzasidan asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar** tan jarohati, jabrlanuvchi, jinoyat quroli, rashq, spirtli ichimlik*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье разработаны предложения, основанные на применении тактических и методологических средств, рекомендованных методом расследования, а также на основе предварительной информации о причине применения оружия, следов, личности потерпевшего и причинение телесных повреждений и правильной организации расследования.*

***Ключевые слова.** телесные повреждения, потерпевший, орудие преступления, ревность, алкоголь*

### **ANNOTATION**

*The article develops proposals based on the use of tactical and methodological tools recommended by the investigation method, as well as on the basis of preliminary information about the reason for the use of weapons, traces, the identity of the victim and the infliction of bodily injuries and the correct organization of the investigation.*

***Keyword.** bodily injuries, the victim, the instrument of the crime, jealousy, alcohol*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 may kuni qabul qilingan «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 3723-son qarori [1] bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari sifatida: jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish; fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta‘sirchan va

ishonchli muhofaza qilinishini; jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish; jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish belgilandi.

Qasddan badanga shikast yetkazish holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari bilan bog'liq, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan ishni qo'zg'atishda uning roziligini olishni nazarda tutuvchi holatlari ko'payib bormoqda. Ushbu jinoyatlarni tergov qilishda dispozitivlik asoslariga tayyanib ishni olib borish maqsadga muvofiq.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari og'ir va tergov uslubi ancha murakkab kechadigan hodisalardan hisoblanadi.

Kriminalistik tergov uslubini qo'llash qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatini tekshirishda jabrlanuvchiniga tan jarohatini yetkazish sababini aniqlashga: qasddan badanga shikast yetkazish tajovuzidan sodir bo'ldimi, degan holatlarni aniqlashga qaratiladi. Shuning uchun har qanday holatlarda qasddan badanga shikast yetkazish shubhali vaziyatda kriminalistik tergov uslubi qoidalariga asoslangan holda tekshirilishi lozim.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar turli usul va qurollarni qo'llaydilar. Ko'p hollarda ular o'q otish va sovuq qurollar, turli uy-ro'zg'or buyumlari (pichoq, tasha, bolta), biror qattiq predmet (temir, tosh kabi)lar bilan jarohat yetkazadilar.

Qasddan badanga shikast yetkazish usullari, jinoiy harakat motivlari, joyi, vaqti, hodisaning oqibati, izlar, qurollar bularning barchasi kriminalistik tavsifni tashkil qiladi. Uning ayrim elementlari esa bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, biri-ikkinchisidan kelib chiqadi va to'ldiradi. Ayniqsa, jinoyatning sub'ekti, jabrlanuvchi, ishlatgan qurol va jinoyat joyi kabi elementlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har qaysi elementdan qolgan izlar (oqibatlar) boshqa elementlarda aks etadi, birini kuzatish va tekshirish bilan ikkinchisi unga bog'liq bo'lgan holatning xususiyatini keltirib chiqaradi.

Jinoyatning kriminalistik tavsifini belgilashda yuqorida keltirilgan holatlarning ketma-ketligi, hodisa joyidagi vaziyatlarning kelib chiqishi, birining oqibati ikkinchisida ma'lum izlarning qoldirishi kabilarini aniqlash tergov dastlabki bosqichining muvaffaqiyatli bo'lishiga asos hisoblanadi.

Tergov amaliyoti tajribasiga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, eng ko'p tarqalgan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari uy-joy binolarida, jamoat

joylarida, ko'chalarda sodir etiladi, bunda jinoyatning oqibati, qurollar, izlar yashirilmaydi jinoyatni sodir etgan shaxs o'zi ham ba'zida qochmaydi, bekinmaydi. Bunday jinoyatlar ko'pincha g'arazlik, o'ch olish, rashq, bezorilik, ikki jinoiy guruhlarning qarama-qarshilik to'qnashuvlari natijasida sodir bo'ladi. Bu holatlarda sodir etilgan qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining ochilishi va tergov jarayoni unchalik qiyinchilikni tug'dirmaydi. Tergov uslubi tavsiya etgan taktik va metodik vositalarni qo'llash va hodisa joyidagi qurollar, izlar, jabrlanuvchi shaxsi va tan jarahoti sababi haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosida versiya-tusmollarini ishlab chiqish va tergovni to'g'ri tashkil etish, ya'ni ishni tegishli muddatlarda ochish-isbotlash mumkin bo'ladi.

Ayrim hollarda qasddan badanga shikast yetkazish jinoyati yashirin vaziyatda, guvohlarsiz, kechaning qorong'uligi, odamning yo'qligidan foydalanib sodir etiladi.

Jinoyatchi qasdga tayyorgarlik ko'radi, hodisa joyidagi izlarni yo'qotishga, qurolni o'zi bilan olib ketishga ham harakat qiladi. Bunday jinoyatlarni tergov olib borish, isbotlash nuqtai-nazaridan murakkab bo'lib, birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qasddan badanga shikast yetkazishning bu turini tergov qilishda tergovchi ixtisoslik mahoratini ishga solishi, dastlabki surishtiruv ma'lumotlaridan to'g'ri foydalana olishi, kechiktirib bo'lmaydigan tezkor va tergov harakatlarini o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazishi talab etiladi[2].

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilishda uni amalga oshirish usuli, motivlari, qo'llanilgan qurollar, sodir etgan shaxs haqidagi dastlabki ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi. Jabrlanuvchining shaxsi ma'lum bo'lgan hollarda jinoyatchi haqida, ular orasidagi munosabat, jinoyat hodisasini sodir etish usullari haqida tegishli versiya-tusmollar tuzmoq mumkin bo'ladi. Jinoyat hodisasi bilan jabrlanuvchiga qasddan badanga shikast yetkazilgan joylar haqida ma'lumot olish va dastlabki tezkor-tergov harakatlarini o'tkazish orqali jinoyatda shubhalangan shaxsni topish va qo'lga olish imkoni bo'ladi.

Shahar sharoitlarida sodir qilinadigan qasddan badanga shikast yetkazishlar ko'p hollarda jinoyat izlarini yo'qotishga qaratilgan bo'ladi. Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyat sodir etilgan joylar har xil hududlarda bo'lgan taqdirda, bu joylarni bir-birlari bilan bog'liq va moslik holatlari aniqlanmog'i lozim.

Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining tavsiflaridan yana biri uning sodir qilinish usulidir. Qasddan badanga shikast yetkazish sodir qilish usuli o'z ichiga ishlatilgan qurol, vosita, harakat, jinoyatga avvaldan tayyorgarlik ko'rish va jinoyat izlarini yo'qotishga urinish kabi holatlar kiradi.

Uy-ro‘zg‘or janjallari, rashq, bezorilik, spirtli ichimlik va giyohvandlik moddalar ta‘sirida sodir qilinadigan qasddan badanga shikast yetkazish deyarli oldindan tayyorgarlik ko‘rilmasdan sodir qilinadi.

Qasddan badanga shikast yetkazish duch kelgan predmet qurol (pichoq, tesha, bolta) yoki boshqa vosita bilan jarohat yetkazib, maqsadiga yetadi.

Qasddan badanga shikast yetkazish g‘arazli maqsadda yoki jabrlanuvchining lavozimi, xizmat vazifasiga qarshi qaratilgan bo‘lsa, jinoyatchi oldindan tayyorgarlik ko‘radi; joyini, vaqtini belgilab qo‘yadi. Qasdni amalga oshirgandan so‘ng jinoyatchi oyoq va qo‘l izlarini qoldirmaslikka harakat qiladi. Bu holatlar jinoyatchining shaxsi haqidagi ma‘lumotlarni olishga va uni kimlar orasidan qidirish lozimligini belgilaydi[3].

Ushbu jinoyatlarning izlarini yo‘qotishga qaratilgan harakatlar ba‘zida tan jarohati boshqa hodisa tusini berish uchun niqoblash usullarini ham qo‘llashlik hollari uchrab turadi. Qasddan badanga shikast yetkazilgan shaxsini xushsizlantirib yoki og‘ir jarohat yetkazib, tepalik – balandlikdan itarib yuboradi – niqobi tusini yaratadi va hokazo.

Qasddan badanga shikast yetkazilgan jabrlanuvchining shaxsini tavsiflash ham tergovning dastlabki bosqichida to‘g‘ri tasmollar tuzishga va gumon qilinuvchini topishga yordam beradi.

Qasddan badanga shikast yetkazilgan jabrlanuvchilar ayol kishilar bo‘lsa, ko‘p hollarda ular zo‘rlilik, g‘arazlik yoki rashq qurbonlari bo‘ladilar. Jinoyatchi va jabrlanuvchining o‘zaro aloqalari, munosabatlari bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib, jinoiy oqibatga olib kelish sababidan va qasdning mazmunidan darak beradi.

Qasddan badanga shikast yetkazgan gumon qilinuvchi, tergov amaliyotiga asoslangan holda quyidagicha tavsiflanishi mumkin. Spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchi 18 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan erkak kishilar, ko‘p hollarda qo‘pol muomala qiluvchilar, ahloqsiz, jamoaga va ayollarga nisbatan behurmat va rahmsiz, ilgari sudlangan kabi sifatlarga ega bo‘ladilar.

Qasddan badanga shikast yetkazgan jinoyatchining ba‘zi harakatlari – jabrlanuvchiga nisbatan o‘ta rahmsizlik bilan ko‘p jarohat yetkazishi, o‘zining yaqin qarindoshi, oila-a‘zolariga nisbatan tan jaroxatni yetkazish, uning aqli norasologidan xabar beradi, bunday hollarni tipik vaziyatlarga kiritish mumkin[4].

Tergov amaliyotida notipik hollar ham uchrab turadi. Jinoyatchi qurol bilan muomala qilishni yaxshi biladi, harbiy xizmatda yoki alohida mashq asosida otish yoki sovuq qurollarini qo‘llashlikni egallagan bo‘lib, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishni va sodir qilgandan so‘ng uning izlarini yo‘qotishni avvaldan belgilab qo‘yadi.

Bunday vaziyatlar tergovni dastlabki bosqichida bir muncha murakkablikni keltirib chiqaradi.

Lekin kriminalistik faoliyatning qonuniyatiga binoan hech bir jinoyat o'z oqibatini, izlarini qoldirmay iloji yo'q, shuning uchun har qanday jinoyat, shu jumladan, qasddan badanga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlari ham muvaffaqiyatli tekshirilib, fosh etiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, qasddan badanga shikast yetkazish holatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish, jinoyatlarni qo'zg'atish va tergov qilishda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar, tergov tasmollarini ishlab chiqish xususiyatlari ishni sudga qadar yuritish kompleks texnologiya sifatida tan olinishi lozim. Chunki u sudga qadar ish yuritishning qismi sifatida murakkab, kompleks va mas'uliyatli vazifani bajaradi. Bu esa qasddan badanga shikast yetkazish bo'yicha alohida maxsus ish yuritish bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq protsessual va tashkiliy-metodik faoliyati o'zaro bir-biriga aloqador.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 may kuni qabul qilingan «Jinoyat vajinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 3723–son qarori //http://lex.uz/docs/3735818 (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
2. Авакян М.В. Методика расследования и поддержания государственного обвинения по делам об умышленном причинении тяжкого вреда здоровью: Дисс. ...док. юрид. наук. – Калининград,2017. – С. 51.
3. Безручко Е. В. Преступления, посягающие на безопасность здоровья человека: теоретико-правовое исследование: Дисс. ...док. юрид. наук. – Ростов-на-Дону,2018. – С.45.
4. Беспечный О. В. Теоретические и практические проблемы расследования преступлений, связанных с причинением тяжкого вреда здоровью: дис. ... канд. юрид. наук / О. В. Беспечный. – Барнаул, 2003. – С.121.



## **YANGI O‘ZBEKISTON ILM-FAN TARAQQIYOTI YO‘LIDA KIMYO SOHASIGA BERILAYOTGAN E‘TIBOR**

**Ismailov Saidjon Azamjonovich;**

Nizomiy nomidagi TDPU “Kimyo” kafedrası katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tabiiy fanlardan kimyo sohasiga bo‘lgan e‘tibor 5 tashabbus doirasida tahlil qilingan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ilm-fan taraqqiy etib, ilm-fan rivojiga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaygan. Maqolada O‘zbekiston ilm-fan taraqqiyotida tabiiy fanlar yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish muhokama qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Yangi O‘zbekiston, kimyo, biologiya, tabiiy fanlar, taraqqiyot, ilm-fan, uzluksiz ta‘lim*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется направленность развития нового Узбекистана от естественных наук к области химии в рамках 5 инициатив. После обретения Узбекистаном независимости наука развивалась, и внимание к развитию науки возросло. В статье рассматривается развитие науки в Узбекистане, повышение качества непрерывного образования и эффективность науки в естественных науках.*

**Ключевые слова:** *Новый Узбекистан, химия, биология, естественные науки, развитие, наука, непрерывное образование.*

### **ANNOTATION**

*This article analyzes the focus of the development of the new Uzbekistan from the natural sciences to the field of chemistry in the framework of 5 initiatives. After the independence of Uzbekistan, science has developed and the attention to the development of science has increased. The article discusses the development of science in Uzbekistan, the improvement of the quality of continuing education and the effectiveness of science in the natural sciences.*

**Key words:** *New Uzbekistan, chemistry, biology, natural sciences, development, science, continuing education*

### **KIRISH**

Mazkur maqolada yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tabiiy fanlardan kimyo sohasiga bo‘lgan e‘tibor 5 tashabbus doirasida mulohaza yuritiladi. O‘zbekiston azaldan ilm-fan taraqqiyoti va madaniyati rivojlanib kelayotgan mamlakatlardan biri



hisoblanadi. Xususan, kimyo, biologiya, anatomiya, tarix, falsafa, astronomiya, matematika, tibbiyot, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Bugungi kunda, O‘zbekiston olimlari uzoq o‘tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o‘rganib, fanni boyitish maqsadida o‘zlarining yangi kashfiyotlari bilan jahon fani rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. Maqolada O‘zbekiston ilm-fan taraqqiyotida tabiiy fanlar yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish ham tahlil qilinadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Yangi O‘zbekiston ilm-fan taraqqiyotida nafaqat kimyo sohasiga bo‘lgan e‘tibor, shuningdek, tabiiy fanlarga bo‘lgan yosh avlodning dunyo qarashini kengaytirish va yangidan yangi bilimlarni kashf etish, qiziqishini oshirishda turli qarorlar amalga oshirilib, qator ilmiy-metodik adabiyotlar, qo‘llanmalar chop etilib kelinmoqda. Va ushbu qaror, ilmiy-metodik adabiyotlar, qo‘llanmalar manba sifatida maqolada foyladanildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4805-sonli qarorda hozirda mamlakatimiz hududida kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan 14 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati ushbu maktablar maqomiga moslashtirilgan. Shuningdek, mamlakatimiz tuman va shaharlarida kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 150 ta maktablar ochilishi haqida ham fikr yurutilgan.

Ushbu 164 ta maktabga mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarining 55 ta kafedra biriktirilib, ularni moliyalash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan maxsus jamg‘armalar tashkil etish rejalashtirilgan.

2020/21- o‘quv yilida maktablarda tabiiy fanlar o‘quv dasturlarida amaliy mashg‘ulotlarning ulushini ko‘paytirilmoqda.

Bundan tashqari, bir oy muddatda ixtisoslashtirilgan maktablarning kimyo va biologiya fanlari o‘qituvchilarining bilimi va pedagogik mahoratini baholash va saralab olingan nomzodlarning malakasini oshirish rejasi tasdiqlanib, ixtisoslashtirilgan maktablarga va tayanch ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul qilingan kimyo va biologiya fanlari o‘qituvchilari hamda rahbar kadrlari (direktor va

ixtisoslashgan fan bo'yicha direktor o'rinbosari)ning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan amalda belgilangan ustama haqi miqdori esa 50 foizgacha oshiriladi.

2021- yil 1-fevralga qadar Kimyo va biologiya fanlaridan bilimlarni baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimi joriy etilib, ushbu baholash tizimi doirasida pedagoglarning kimyo yoki biologiya fanlarini bilish darajasini aniqlash va bu to'g'risida milliy malaka sertifikatlarini (keyingi o'rinlarda – milliy sertifikat) berish ushbu qaror asosida belgilangan tartibda Davlat test markazi tomonidan, tabaqalashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Mazkur 2021- yildan boshlab ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil etilib, ushbu yildan har ikki yilda bir marta oliy ta'lim muassasa talabalari orasida kimyo va biologiya fanlari bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro fan olimpiadalari o'tkazilib kelinmoqda.

Shuning bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadasi g'oliblari hamda kimyo va biologiya fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari ham magistraturaga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha o'qishga ajratilgan kvota doirasida davlat grantlari asosida imtihonsiz qabul qilinib, 2021/22- o'quv yilidan boshlab, kimyo va biologiya yo'nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta'lim muassasalar umumta'lim maktablari bitiruvchi sinflari o'quvchilari o'rtasida ko'p bosqichli (tuman (shahar) – viloyat – oliy ta'lim muassasasi) kimyo va biologiya fani bo'yicha o'zining olimpiadasini o'tkazishi va 1-3 o'rinlarni egallagan o'quvchilarni oliy ta'lim muassasa mablag'lari hisobidan imtihonsiz o'qishga qabul qilishi amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Ayni qarorda xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarga bir marotaba oylik maoshining 100 foizi miqdorida, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha talabalar uchun to'garaklar olib borayotgan professor-o'qituvchilarga o'quv yili davomida oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan oylik maoshlariga 25 foiz miqdorida ustama belgilangan.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalarining kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli diplomga ega bitiruvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisligiga qo'shimcha imtihonlarsiz to'lov-kontrakt asosida qabul qilinmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining kimyo va biologiya mutaxassisligini a'lo baholar bilan tamomlagan magistrlar tayanch doktoranturaga oliy ta'lim muassasalar kengashi qarori asosida imtihonlarsiz to'g'ridan to'g'ri kvota doirasida qabul qilinishi qarorda nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-4884-son qarorini tahlil etar ekanmiz, ushbu qarorda tabiiy fanlarni o‘qitishga ham alohida urg‘u berilgan.

Ushbu qaror “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonini o‘z ichiga olib, binobarin, “Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” ning ikkinchi punktida “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini ko‘tarish va umumta’lim muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”, nazarda tutilib, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagilar maqsad

qilib qo‘yilgan:

- aniq va tabiiy fanlarni amaliyot bilan bog‘lash;
- o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratish;
- o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, xususiy xulosalardan umumiy xulosalar chiqarish va umumiy xulosalarni xususiy hollarga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mediaresurslar yaratish;
- tabiiy fanlarni o‘qitishdagi xalqaro tajribani o‘rganish asosida ta’lim jarayonini spiralsimon yo‘nalishda olib borish;
- magistrlik va doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan olimlarni umumta’lim maktablarida dars berishga jalb qilish;
- pedagogika yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalarning amaliyot soatlarini oshirish, amaliyotni asosan chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalarida o‘tishini ta’minlash.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi kimyo va biologiya fanlari o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarini xorijiy universitetlar tajribasi asosida tahlil qilib, takomillashtirish choralarini ko‘rib chiqdi va ularda, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutdi:

- o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlarini amalga oshirish, stajirovkalarni tashkil etish va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- o‘qituvchilar faoliyatini baholashning ilg‘or mezonlarini joriy etish.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda yurtimiz yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ma`lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Ushbu tashabbusning ijrosini tabiiy fanlar bilan bog‘lab ta`minlash maqsadida Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti “Kimyo” kafedrasida ushbu tashabbus doirasida talaba yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishda eksperimental tajribalarni onlayn kuzatib borish uchun “TDPU Chemistry” nomli telegram kanali ochildi, tabiiy fanlarga bilimlarni internet tarmoqlari orqali chuquqroq o‘rganish uchun ilmiy-anjumanlar tashkil etildi va yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tabiiy fanlarga oid chet el adabiyotlar va o‘zbek adabiyotlari tahlil etilib kitobxonlik tanlovlari o‘tkazildi.

Shuningdek, beshinchi tashabbus bo‘lmish xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalarini ushbu soha bo‘yicha o‘rganib, taklif mulohazalar ishlab chiqildi va ish bilan tam`minlashga jalb etildi.

Mamlakatimizda yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tabiiy fanlardan kimyo sohasiga bo‘lgan yana bir e’tibor natijasida poytaxtimizning Ulug‘bek shaharchasida barpo etilishi kutilayotgan ilmiy kimyo klasterini nazarda tutib o‘tsak. Unga ko‘ra, 60 gektar maydonda ma`muriy va o‘quv binolari, laboratoriyalar, O‘zbekiston-Koreya ilmiy markazi, ilmiy xodimlar uchun turar joylar, yotoqxonalar, amfiteatr, bog‘ va quyosh elektr stansiyasi barpo etiladi.

XX asrdan boshlab yurtimizda ham kimyo fanining zamonaviy yetuk olimlari yetishib chiqib boshladi. Xususan, Zarifa Saidnosirova, Sobir Yunusov, Karim Ahmedov, Yunus Toshpo‘latov, Obid Sodiqov, Hamdam Usmonov, Zokirjon Salimov, Sayyora Rashidova singari atoqli kimyogar olimlar nafaqat O‘zbekistonning, balki dunyo ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Qo‘shimcha qilganda, yurtimizda har yili may oyining 31 sanasida “Kimyogarlar kuni” nishonlanib, ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va ilmiy anjumanlar nishonlanib tashkil etib kelinadi.

Hozirda kimyo fanini o‘qitish va o‘rganish yangi O‘zbekiston taraqqiy etishining bir qismi sifatida quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- Kelajagi buyuk O‘zbekistonimiz uchun talabalarni hozirgi zamon kimyo fan asoslarini ongli ravishda va puxta o‘zlashtirishlariga erishish;

• Talabalar kimyo fanini o'rganishda atrofdagi tabiatni izohlash va undan oqilona foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslar bilan tanishtirish;

• Talabalarni tabiatga to'g'ri materialistik nuqtai nazardan qarash xususiyatlarini hosil qilishga alohida e'tibor berish lozim.

• Talabalarni ilmiy bilishini vositalaridan biri bo'lgan kimyoviy eksperimentlardan foydalana oladigan qilib tarbiyalash.

• Talabalarni mehnatga o'rgatish – ularni kelgusida amaliy faoliyatga tayyorlash.

• Talabalarni kimyo faniga qiziqishini yanada orttirish.

• Talabalarni mustaqil ravishda izlanuvchanlikka va bilim olishga o'rgatish.

• Talabalarda kundalik turmushda, hayotda bo'ladigan o'quv va malakalarini hosil qilish.

• Talabalarni qo'lidan keladigan ijtimoiy-foydali ishga jalb qilish

• Kimyo fanining hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirish.

• Jismonan baquvvat, aqlan yutuk insonlar darajasiga yetkazish.

• Kimyo o'qitish talabalarni mehnatsevar, Vatanga muhabbat, fanga qiziqish ruhida tarbiyalash kerak.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yurtimizda yangi O'zbekiston taraqqiyotida tabiiy fanlardan kimyo sohasiga bo'lgan e'tibor nafaqat fanga bo'lgan e'tibor mamlakatimiz rivojlanishida yurtimiz ilmiysalohiyati, xalqimiz va yosh avlod dunyoqarashi, bilim va fikrlash doirasi kengayishiga asosdir.

## **REFERENCES**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi. PQ-4805.12.08.2020
2. Sh.M. Mirziyoyev. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi. PQ-4884.06.11.2020.
3. Sh.M. Mirziyoyev. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108. 06.11.2020
4. X.T.Omonov, M.N.Mirvohidova. Kimyo o'qitish metodikasi. 2001.
5. T.Gulboyev. Kimyo ta'limi nazariyasi va metodikasi. 2001 .



## **SHAXSNI TAVSIFLOVCHI SO‘Z BIRIKMALARI VA ASSESMENT METODI**

**Xojiyeva Maxfirat Yusupovna**

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

[xojiyevamaxfirat8@gmail.com](mailto:xojiyevamaxfirat8@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*O‘zbek tilida so‘z birikmalari ma’naviy tiplari sirasida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari mavjudligini, o‘ziga xos xususiyatlarini muayyan ko‘rinishlari to‘plangan materiallar asosida o‘rganilganligi, shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari nutqda voqelashtiruvchi lisoniy qurilish qoliplari asosida tavsiflash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarining talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, ularning dars jarayonida o‘quv faoliyatining subyektivi sifatida o‘zliklarini takomillashtirish va namoyon etish olishlarida muhim ahamiyat kasb etishi, innovatsion texnologiya muayyan fan asoslarini singdirishni jadallashtirishda, talabalarning o‘zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilishda, baholashda, ularni fanni chuqur o‘zlashtirishga ishtiyoq uyg‘otish asosida amaliy faoliyatga o‘rgatishda va o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘qitish orqali fanni samarali o‘zlashtirilishidagi muhim qarashlar maqolada aks ettirilgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Til, nutq, so‘z, nutqiy hosila, so‘z birikmasi, assesment metodi, shaxs, jins, kasb, millat.*

### **ABSTRACT**

*Among the spiritual types of word combinations in the Uzbek language there are word combinations that characterize a person, specific features of which are studied on the basis of collected materials, characterization of word combinations that characterize a person on the basis of linguistic construction patterns that make it realizable in speech, demonstration of the internal capabilities of the student in innovative, their important role in improving and demonstrating themselves as a component of educational activities in the course of the lesson, innovative technology plays an important role in accelerating the integration of certain fundamentals of Science, in the constant control, evaluation of the level of students' mastering, in teaching them practical activities on the basis of enthusiasm for deep mastering of Science.*

**Keywords:** *language, speech, word, colloquial derivative, word combination, method of assessment, person, sex, profession, nationality.*



## **KIRISH**

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U oʻzida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda oʻz yoʻnalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtayi nazaridan turlicha talqin etiladi. U oʻta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, oʻzini oʻzi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, maʼnaviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantigʻi jihatidan tadqiqot manbayiga aylanishi mumkin<sup>78</sup>.

Til va shaxs munosabatlari haqida R. Jeykobson shunday yozgan edi. “Muayyan tilning aniq va aniq ilmiy tavsifi suhbatdoshlar orasida ularning ijtimoiy mavqeyi, jinsi yoki yoshi jihatidan tafovutlar mavjudligi yoki yoʻqligi haqidagi grammatik va leksik qoidalarsiz ish tutib boʻlmaydi; Tilning umumiy tavsifida bunday qoidalarning oʻrnini aniqlash murakkab tilshunoslik muammosidir”.

Darhaqiqat, tilshunoslikda shaxs tushunchasi antropologik paradigmaning asosiy ilmiy istilohi boʻlguniga qadar semantik, morfologik, sintaktik jihatlardan tahlil qilinganligi maʼlum. Chunonchi, shaxsni nomlovchi leksemalar “Shaxs tavsifi nomlari” ostida ot mikrotizimida alohida lugʻaviy maʼno toʻdasini tashkil etishi substansial tahlil asosida aniqlangan. Oʻzbek substansial morfologiyasi mazkur lugʻaviy maʼno toʻdasi lugʻaviy-maʼnoviy guruhlarga boʻlinishini va bunda semantik farqlovchi belgilarga tayanilganligini koʻrsatadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shaxsni tavsiflovchi lugʻaviy-maʼnoviy guruhlar ichida shaxsni jinsi, millati, qarindoshlik, yaqinlik munosabati, ijtimoiy mavqeyiga koʻra tasniflash fanimizda shaxs otlarini leksik mikrotizim sifatida oʻrganish natijasidir. Ammo nutq jarayonida shaxsni jinsi, kasbi, millati, yaqinlik munosabatiga koʻra tavsiflovchi ot leksemalarning sintaktik munosabatdan hosil boʻluvchi soʻz birikmalarining yuzaga chiqishi kuzatiladiki, bu shaxs kategoriyasi uning muayyan belgi-xususiyatlarini ifodalovchi sintaktik birliklarda namoyon boʻlishini koʻrsatadi.

Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari nazariyasini assessment metodi orqali amaliyotga tatbiq etishimiz Prezidentimizning “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonida taʼlimning davr talablariga mos boʻlishi uchun unda “oʻquv dasturlarida nazariy bilim olishga yoʻnaltirilgan taʼlimdan amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish” tamoyilining amaliy tatbigʻidir.

<sup>78</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Shaxs>.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Ayni shu o'rinda ana shunday vositalardan biri bo'lgan, ta'lim samaradorigiga erishish maqsadida darsning barcha bosqichlarida qo'llanilish imkoniyatiga ega bo'lgan "Assesment" texnologiyasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz.


Ko'p holatlarda bu texnologiya biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi.

So'nggi yillarda mazkur texnologiya ta'lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasi

har tomonlama, xolis baholanmoqda. Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari kamida to'rtta topshiriq bo'yicha

baholanmoqda<sup>79</sup>.

Quyida "Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari" mavzusini o'qitish uchun tuzilgan assessment namunasini taqdim etamiz.



1. "Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash" qaysi so'z turkumining UGMsi (umumiy grammatik ma'nosi)dir ?

A) *fe'l* B) *ot* C) *sifat* D) *son*

2. Quyidagi qaysi birikmalarda shaxs tavsifi nomlari hokim vaziyatda voqelashgan?

A) *Razzoq so'fi, Asror bobo*

C) *temirchi Jo'ra, usta Olim*

B) *Gulsum opa, mulla Abdurahmon*

D) *suvchi yigit, sotuvchi erkak*

3. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG va shaxsni jinsiga ko'ra orasidagi LMG orasida sintaktik munosabatni hosil qiluvchi ot leksemalari quyidagi qaysi so'z birikmalarini yuzaga chiqargan?

A) *qo'shni duradgor, mahalladosh tikuvchi*

<sup>79</sup>Муслимов Н., Усмонбекова У., ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. –Тошкент: 2015. –Б.60

B) *tatar muallim, arman savdogar*

C) *o'qituvchi ayol, naqqosh erkak*

D) *tilshunos olim, aravaso usta*

4. Kasb nomlari shaxsni millatiga ko'ra tavsiflovchi LMG a'zolari bilan birikkan so'z birikmalarini aniqlang.

A) *arman savdogar, yahudiy sartarosh*

B) *qo'shni duradgor, mahalladosh tikuvchi*

C) *qo'shni ayol, suvchi yigit*

D) *Asror bobo, Miroqil paxtafurush*

5. Tergovchi Mirzo Muhiddin so'z birikmasi qaysi qurilish qolipi hosilasi hisoblanadi?

A)  $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$

B)  $[O_A \sim O_{sh}] = SB$

C)  $[O_{sh} \sim O_A] = SB$

D)  $[S \sim O_A] = SB$

## Simptom

1. Lison-nutq qarama-qarshiligida tadqiq etilishicha ma'noviy (semantik) tasnif tamoyiliga ko'ra leksemalar qanday turkumlarga ajratildi?

2. Tobe va hokim a'zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so'z birikmalarini o'rganish asosida formal-grammatik talqinda qanday xulosalarga kelindi?

3. "Shaxs tavsifi nomlari" LMTsi butunlik sifatida qanday bo'laklar, ya'ni LMGlardan tashkil topadi?

4. Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining qurilish qoliplariga nimalar kiradi?

5. O'zbek tilshunosligida til birliklari, jumladan, SBlarining substansial tadqiqi natijalarini nutq lingvistikasi nuqtayi nazaridan baholash, lisoniy sintaktik imkoniyatlarni tildan foydalanuvchi nutqiy faoliyatida voqelanishini til, shaxs va jamiyat munosabatlari negizida sotsial va pragmatik jihatdan tahlil qilish ilmiy ehtiyoji nimalarda o'z aksini topadi?

## Qiyosiy tahlil

1. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG va shaxsni jinsiga ko'ra orasidagi LMG orasida sintaktik munosabatni hosil qiluvchi ot leksemalaridan hosil bo'lgan *Oshpaz ayol, shifokor erkak, o'qituvchi ayol, naqqosh erkak, quruvchi ayol, chiptachi erkak* so'z birikmalari va *oshpaz, shifokor, o'qituvchi, naqqosh, quruvchi, chiptachi* leksemalarini qiyoslab tahlil qiling.

2. “Shaxs tavsifi nomlari” LMTsi hamda “shaxs tavsifi nomlari” LMGsi turlarini o‘zaro qiyoslang.

3. Sezgi a‘zolari bilan sezish mumkin bo‘lgan predmetlarni atovchi leksik birliklar muayyan otlar hisoblansa, muayyan otlar birikuvidan hosil bo‘lgan birliklarni o‘zaro shu ot leksemalari bilan qiyoslang.

4. Nutqiy birlik sanalgan so‘z birikmasi va shaxsni tavsivlovchi so‘z birikmalarining o‘ziga xos xususyatlarini tavsiflang.

5. Til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish kabi tushunchalarni o‘zaro qiyoslang.

### **Amaliy ko‘nikma**

1. Tobe va hokim a‘zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so‘z birikmalariga misollar keltiring.

2. O‘zbek tilida tobe va hokim a‘zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so‘z birikmalari umumiy sintaktik qolipini yozing.

3. *Suvchi yigit, sotuvchi erkak, oshpaz qiz, tilshunos olim, aravasozi usta, tatar kampir, qozoq chol, lo‘li qiz, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, qo‘shni maxsido‘z* kabi so‘z birikmalarining lisoniy qurilish qoliplarini belgilang.

4. [Shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot + shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi ot] – [O<sub>k</sub> ~ O<sub>yo</sub>]; nutqiy hosilalariga misollar keltiring.

5. Birikish usuli tobe bo‘lak mavqeyida shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi ot leksemalari voqelashganligi hamda hokim bo‘lak mavqeyini shaxsni yoshiga ko‘ra tavsiflovchi ot leksemalari egallaganligini bildiradigan so‘z birikmalarining nutqiy voqelanishini misollar bilan izohlab, lisoniy-sintaktik qolipini belgilang.

### **XULOSA**

Ta‘lim jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalari talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, ularning dars jarayonida o‘quv faoliyatining subyektivi sifatida o‘zliklarini takomillashtirish va namoyon eta olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta‘lim texnologiyalarini ta‘limda to‘g‘ri va o‘rinli joriy eta olish dars samaradorligini oshiradi, talabalarning intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tabiiyki, bu o‘qituvchidan samarali usullarini qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lmoqlikni talab etadi.

### **REFERENCES**

1. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Номзодл. диссер. ...автореф.–Т., 1997. - 21 б.

2. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.
3. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Т.: Fan va texnologiya, 2010. – 414 б.
5. Nazarova S.A., Xojiyeva M.Y. Substantial Description of Uzbek Word Combinations . // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. United Kingdom. – Scopus journal. –ISSN: 1475-7192, Volume-24, Issue-1, January 2020.– P.422-429. <https://www.psychosocial.com/article-category/issue-1-volume-24>.
6. Xojiyeva M.Y. Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarida genderga mansublik ifodasi.// “Tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlar: muammolar va yechimlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari.Andijon 2020y.
7. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). LANGUAGE AND SPEECH EXPRESSION OF PERSONAL DESCRIPTIONS. *TJE-Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.
8. Муслимов Н., Усмонбекова У. ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. –Тошкент: 2015. –Б.60.
9. G‘afur G‘ulom. Shum bola. –Т.:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. –190 б.

## **TALABALAR KASBIY MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN XORIJIY TAJRIBALAR TADQIQI VA UNING KONTEKSTUAL JIHLATLARI**

**Mutallibjonov Ma'rufjon**

*erkin taqqiqotchi*

*Andijon Davlat Universiteti*

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada xorijiy tajribalarni tadqiq qilgan holda qolaversa buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan buyuk me'roslarini o'rgangan holda talabalarining kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ma'naviyat, tariqat, ma'naviy barkamollik, vatanparvarlik, tarbiya*

### **ABSTRACT**

*The article deals with some recommendations for the development of professional spirituality of students by studying foreign experiences, as well as the great legacy of our great ancestors.*

**Keywords:** *Spirituality, teachings, spiritual perfection, patriotism, education*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье даются рекомендации по развитию профессиональной духовности студентов на основе изучения зарубежного опыта, а также великого наследия наших великих предков.*

**Ключевые слова:** *духовность, учение, духовное совершенствование, патриотизм, воспитание.*

### **KIRISH**

Ma'naviy sohadagi chuqurlashib borayotgan inqiroz butun insoniyat uchun global muammoga aylanmoqda. Ijtimoiy tizimidan qat'i nazar, barcha mamlakatlarda alkogolizm, giyohvandlik, jinoyatchilik, ma'naviy va axloqiy tanazzul kabi hodisalar o'sib bormoqda. Moddiy boylik muammolarning echimini ta'minlamaydi va ildizlari etarlicha chuqur bo'lgan inqirozni bartaraf etmaydi. Manbasi tashqi dunyo bo'lgan moddiy ne'matlarni iste'mol qilishga yo'naltirilgan zamonaviy sivilizatsiyaning pragmatik tarafkashligi odamni o'z ichki dunyosi va ma'naviy ehtiyojlaridan uzoqlashishga olib keldi. Iste'molga haddan tashqari katta e'tibor shaxsni yo'q qiladi, yigit o'ziga xos "iqtisodiy hayvon" ga aylanadi, u uchun ideal yoki xatti-harakatlar normalari yo'q. A. Klizovskiy ta'kidlaganidek: "Hayotni rivojlantirish, ruhani tarbiyalashning asosiy omili insoniyat tarbiyasidan chetlashtirildi. Inson ilgari misli



ko'rilmagan inqirozni aynan uning ma'naviy rivojlanishining to'xtatilishi, ma'naviy qadriyatlarini yo'qotishi sababli kechirmoqda. Iqtisodiy qashshoqlashish ma'naviy qashshoqlikning natijasidir. Najot inson yolg'iz non bilan emas, balki bizning mavjudligimiz asosini tashkil etadigan eng yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan yashashini e'tirof etishdan iboratdir". Ushbu inqirozning oqibatlari yosh avlodda ko'proq seziladi. Oilaviy va maktab hayotidan, ijtimoiy va ma'naviy tarbiyaning uyushgan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shakllaridan begona bo'lgan yoshlar jinoiy muhitni to'ldirishning asosiy manbalaridan biriga aylandilar.

Binobarin, zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi inqiroz davrida, ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanish tendentsiyasi yaqqol namoyon bo'lganda, bu muammoni hal qilishning asosiy vositalaridan biri yoshlarda ma'naviyatni rivojlantira oladigan o'qituvchini tayyorlashdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Talabalarni iste'dodlarini shakllantirishda, pedagogik muloqotni rivojlantirish, kommunikativlik kompetensiyasini yuksaltirishda kasbiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos o'rin tutadi.

Darhaqiqat, yoshlarning ilm dargohlarida o'z madaniyati, aql-zakovati, yurish-turishi, qanday xislatlarga ega ekanligi oilada olgan tarbiyasining ifodasidir. Iqtisodiyot, fan va texnika taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson dunyoning butun sir-asrorlarini bilishga qodir bo'lmasa-da, Haq yo'lida haqiqatni kashf etib yashashga qodir. Shaxsni o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. O'z vijdoni, oilasi va jamoasi oldida hamisha ochiq yuz bilan hisob bera oladi. Ma'naviy-axloqiy va ruhiy poklik shaxsning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi asosiy mezon vazifasini o'taydi. Shaxslararo munosabatdagi andishasizlik, dag'allik, qo'pollik, bir-birini ko'ra olmaslik, savodsizlik, kibr, baxillik, ichi qoralik, ziqnalik, yolg'onchilik, ig'vo, adovat, g'iybat, manmanlik va hasad kechirib bo'lmaydigan umuminsoniy illat hisoblanib, uni bir gap bilan, ma'naviy-axloqiy nopoklik, deb yuritish mumkin. Milliy qadriyatlarimiz ulug'vorligining o'ziga xos belgisi sifatida ma'naviy- axloqiy yetuklikka ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina mutasavvuf donishmand, yurtparvar shoir Hoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqat -«Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk inson sifatida tanilgan [3]. Ozodlik va yurtparvarlik yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata olgan, nafaqat o'z xalqining, balki umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlagan buyuk vatandoshlarimiz,

o'zbek farzandlari – Shiroq, To'maris, Mahmud Torobiy, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Dukchi Eshon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning mustaqillik, erk va erkinlik, ma'rifat yo'lidagi ulkan jasoratlari, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning oliy namunasi.

### **MUHOKAMA**

Talabalarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning ma'naviy – axloqiy asoslari ana shu safarbarlikda, o'zini bag'ishlay olishda, o'z tashvishi bilan emas, o'z g'alalar dardi, xalq va Vatan dardi bilan yonib yashashda. Pedagog faoliyati uning faol harakati, tashkilotchiligi bilan cheklanishi mutlaqo mumkin emas. Pedagogning kasbiy tarbiyaviy faoliyatiga xos fidoyilik, ya'ni o'z bilimi va tajribasini yoshlarning farovon hayot yo'lini belgilab berishga yo'naltira olsa, alloma G'azzoliy tabiri bilan aytganda, haqiqiy ustozlik maqomiga ega bo'ladi. Ustoz – murabbiy chinakam donishmand darajasidagi inson hisoblanadi. Demak, har qanday ilmli, bilimli, tajribali odam ham donishmand bo'la olmas ekan. Ta'kidlash joizki, qadim-qadimlardan mo'tabar zaminimizda yashab kelgan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz ham barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma'naviy- axloqiy qarashlari jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishda, shuningdek, rahbar kadrlar va yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalarning mehr va ardog'iga, ko'magiga muhtoj bo'ladi. Farobiyning ta'kidlashicha: “Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi”. Shuningdek, alloma aqlni ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishning eng asosiy vositasi deb aytadi. “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuuri ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob tizim yaratilib, hozirgi kunda uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olinmoqda [5- 421]. Buyuk bobokalonimiz, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning quyidagi so'zlari buning dalilidir. Barkamollikka erishishning eng muhim vositalari ta'lim va tarbiyadir. Ta'lim - nazariy ximmat ezgulikka o'rgatsa, tarbiya - ezgu axloqiy sifatlarga o'rgatadi. Oliy axloqiy fazilatlar inson xatti-harakatida namoyon

bo'luvchi bilimdonlik, donolik va ko'pchilik maqsadlarni o'z shaxsiy maqsadlaridan yuqori qo'yish, haqiqatga, muhabbatga, yuksaklikka intilish, adolatni sevishdir. Aqlli kishi deb shunday kishiga aytiladiki, unda o'tkir zehn-idrok bo'lishi bilan birga, fazilati ham bo'lsin. Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir muloxazali, foydali ishlarga berilgan, zaruriy narsalarni kashf etishda zo'r iste'dodga egalar, deb hisoblaydi[6-182]. Ma'naviy barkamollik deganda, birinchi navbatda, insonning tafakkurlash madaniyati aqlu-zakozati nazarda tutiladi. Ma'naviy barkamollik o'z ichiga aqliy salohiyatni qamrab oladi. Insonga xos fikr yuritish tarzi aqlu-zakovat, intellekt tushunchasida o'z ifodasini topadi.

Intellektual inson – ma'naviy ehtiyojlar bilan yashovchi, aqliy kamolotga yetgan inson[7-216]. Shu bois yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish talab etiladi. Intellekt, intellektuallik shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxs faoliyatining asosida ehtiyoj va manfaatlar yotadi. Ma'naviy ehtiyoj shaxs ma'naviy qiyofasi, uning intellektual qobiliyatlarining shakllanishi va taraqqiyotining muhim omilidir. Intellektuallik shaxs kobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tomoni - insonning intellektual qobiliyatlarini takomillashtirishdan iborat. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiyani zamon talablari darajasiga ko'tarish siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. «Aqliy zakovat va ruxiy- ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir»[8-46]. Ma'rifatli inson, barkamol avlod tarbiyasi buyuk kelajagimiz kafolatidir. Ko'p jihatdan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mamlakatimizda shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishga bog'liq. Shuning uchun ham barkamol avlodni voyaga yetkazish, iste'dodli va salohiyatli yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlama qo'llab- quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yoshlar o'rtasida shiddat bilan o'sib borayotgan aqliy, intellektual salohiyat va raqobat ularning bilim darajasini belgilab beradi.

## **XULOSA**

Demak, shaxda kasbiy-ma'naviy fazilatlarini tarbiyalashning bosh maqsadi – uning kundalik hayotda, kasbiy faoliyatida, shaxslararo munosabatlarida va kasbiy muloqotlarida namoyon bo'luvchi yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining pedagogik yo'nalishidagi malaka talablarini to'laqonli bajarilishini qamrab olinganligi, o'quv dasturlari dars va darsdan tashqari faoliyatga qo'yilgan talablarga mos ravishda tashkil etish, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, talabalarning kasbiy ma'naviy faoliyatga tayyorgarligini talab darajasiga yetkazadi.

Aksiologik yondashuv asosida talabalarning ma'naviyat sohasida yuqori kasbiy natijalarga erishishi kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potentsialni rag'batlantirish, kasbiy aksiologik yo'nalganlikka, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli Konsepsiyasi.
3. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish va uning uslubiy ta'minotini kengaytirish borasidagi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasi"ni, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish kontsepsiyasi va yo'l xaritasini ishlab chiqish
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B.421
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Farobiy hikmatlari. - Toshkent: Abdulla Qodiriy. 1993. b.182
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. -Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006. B. 216.
8. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. Xalqaro konferentsiya materiallari to'plami. "Toshkent islom universiteti" Toshkent. 2017. B - 88.

## **OLIY TA'LIM: SAVODSIZLIKNING ILDIZI QAYERDA?**

**Ulash Utayevich Mustafayev**

falsafa fanlari nomzodi

Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi

[ulashmustafayev1957@gmail.com](mailto:ulashmustafayev1957@gmail.com)

+998915850657

### **ANNOTATSIYA**

*Kadrlar sifatiga davlat e'tirozi, reyting tizimi, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash mezonlari, qog'ozbozlik va byurokratiya, kredit-modul tizimi va Bolonya protsessi, hemis boshqaruv axborot tizimi, fanlar bazasi va resursi, ilmiy faoliyat va faollik.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, ta'lim sifati, reyting tizimi, kredit-modul, Bolonya protsessi, hemis, fanlar resursi, fan topshirig'i, ilmiy faoliyat, renessans.

### **АННОТАЦИЯ**

*Государственное обращение к качеству персонала, рейтинговая система, критерии мониторинга и оценки знаний студентов, формализм и бюрократия, кредитно-модульная система и Болонский процесс, информационная система управления hemis, научная база и ресурсы, научная деятельность и активность.*

**Ключевые слова:** высшее образование, качество образования, рейтинговая система, кредитный модуль, Болонский процесс, hemis, научный ресурс, научное задание, научная деятельность, ренессанс.

### **ABSTRACT**

*State appeal to the quality of personnel, rating system, criteria for monitoring and evaluation of student knowledge, paperwork and bureaucracy, credit-module system and the Bologna process, hemis management information system, sciences base, scientific process and activity.*

**Key words:** higher education, quality of education, rating system, credit module, Bologna process, hemis, science resources, science assignment, scientific activity, renaissance.

### **KIRISH**

Hech kimga sir emas, so'ngi besh yilni tahlil qilsak - O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida juda ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasi yildan yil yaxshilanib, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar obro'-e'tiboriga davlatning munosabati tubdan o'zgardi. Davlat oliy ta'lim tizimining nufuzini oshirish uchun ibratli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.



Lekin, bugun oliy tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning sifatiga davlatning e'tirozi ham o'rindir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Sifat borasida o'zgarishlar hali sezilmayapti. Ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv ishlarini bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etish masalasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, rektorlarning e'tiboridan chetda qolib ketmoqda"<sup>80</sup> deb bejizga ta'kidlamadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati talabalar bilimni nazorat qilish va baholash jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonning tarixiga bir nazar tashlaylik. 1998 yil oliy ta'lim tizimida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi joriy etilgan edi. Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanib kelindi. Bu 100 ball joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga taqsimlandi. Ushbu nizomga yillar mobaynida juda ko'p o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Eng afsuslanarli tomoni shundaki, oliy ta'lim professor-o'qituvchilari bu baholash tizimini stixiyali joriy qildi yoki shogirdlari orqali o'quv- me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirib qo'ydilar. Oliy o'quv yurtlarida o'nlab seminar-trening o'tkazilganda professor-o'qituvchilar faqat bizni arifmetik hisob kitob bilan chalg'itayapsizlar degan e'tirozlar aytiladi. Ba'zi holatlarda ularning e'tirozlarida ham haqiqat bor edi. Ta'limda bilim adolatli va xolisona baholansa tinglovchida o'qishga nisbatan motivatsiya paydo bo'lishi va bu ta'lim sifatiga eng yaxshi ta'sir qiladigan omil bo'ladi. Reyting tizimiga noxolis yondoshganimiz va talabaning bilimni ko'r-ko'rona baholaganimiz uchun ham oliy ta'limda kadrlar sifati juda ham pastga tushib ketdi. Talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasining so'nishiga olib keldi. Ayrim, professor-o'qituvchilarning guruhdagi talabalar bilimni guruh sardorlari orqali baholashi esa bu jarayonni jarlikka uloqtirdi. 2018 yildan boshlab esa talabalar bilimni baholash mezonida "5"(a'lo), "4"(yaxshi), "3"(qoniqarli), "2"(qoniqarsiz) deb baholanadigan bo'ldi. Bu mezon o'quv jarayoniga qandaydir iliq ruh olib kirdi. Professor-o'qituvchilar avvalgi reyting nizomiga nisbatan bu mezonni darrov tushundilar va talabalar bilimni nazorat qilish va o'zlashtirish ko'rsatkichini baholashda birmuncha bo'lsada ijobiy natijalar bera boshladi. Eng murakkab tomoni shunday bo'ldiki, tizimda ikki xil baholash jarayoni amal qila boshladi va bu professor-o'qituvchilarga yana ham qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu davrda qog'ozbozlik va byurokratiya eng kulminasion nuqtaga chiqdi. Talabaga bilim berishdan ko'ra reyting nazorati jadvali va baholash mezonini ishlab chiqish va stixiyali baholash orqali hujjatlarni rasmiylashtirib qo'yish

<sup>80</sup> Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 16 июнь куни олий таълим тизимидаги устувор вазибаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузасидан.



dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab ba’zi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi asosida kredit-modul tizimini joriy etish boshlandi. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab barcha oliy o‘quv yurtlari shu tizimga o‘tishi nazarda tutilayotgan ekan. Shunday bo‘lsada oliy ta’lim tizimida talabalar bilimini baholash mezonlari ikki shaklda amalga oshirilmoqda. Bu baribir professor-o‘qituvchilar uchun noqo‘lay holatlarni keltirib chiqaradi. Eng muhimi, O‘zbekiston oliy ta’lim ham xalqaro oliy ta’lim tizimini uyg‘unlashtirgan Bolonya protsessiga asta sekinlik qo‘shilmoqda. Bugun Yevropaning 48 davlati bu boshqaruv usulidan foydalanmoqda. Jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi Rossiya, Belorusiya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruzija, Qozog‘iston ham bu jarayonda teng huquqli a’zosi sifatida qatnashmoqda. O‘zbekistonda ham “oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish nazarda tutilsin”<sup>81</sup> deyilgan. Ma’lumki, o‘n yillab reyting tizimi bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezoni jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar tufayli oliy ta’limda bitiruvchilarimiz savodsiz bo‘lib chiqdi. Bu tizim uzoq muddat professor-o‘qituvchiga ham talabaga ham o‘z ustida ishlashga motivatsiya bermadi. Kredit-modul tizimining eng muhim afzalliklaridan biri bu professor-o‘qituvchiga ham talabaga ham motivatsiya berishi bilan ajralib turadi. Faqat professor-o‘qituvchidan ham talabadan ham kompyuter savodxonligi talab etiladi. Konsepsiyadagi “talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta’minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish”<sup>82</sup> degan talabi shuni taqozo qiladi. Respublikamizdagi 33 ta oliy ta’lim muassasalarining birinchi kurslarida bu o‘quv yilida kredit-modul tizimi joriy qilindi. Buni samarali boshqarish uchun oliy ta’limda Hemis boshqaruv axborot tizimi joriy etildi. Hozir oliy o‘quv yurtlaridagi talabalar bilimini baholashda eng katta muammolardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda kredit-modul tizimining afzalliklari haqida umumiy gap ko‘p aytilmoqda va yozilmoqda. Lekin, aniq bir fan misolida 2 kreditni yoki 4 kreditni to‘plash jarayoni bo‘yicha metodik fikrlar aytilmayapti ham yozilmayapti ham. Balki, tayanch oliy o‘quv yurtlari ma’sul kafedralari yoki vazirlik qoshidagi oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish Markazi xodimlari bu jarayonga e’tibor qaratadi. Ikkinchidan, o‘quv ishlari prorektorlari o‘zlari dars berayotgan

<sup>81</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 2019 йил 8 октябрь ПФ-5847-сон

<sup>82</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 2019 йил 8 октябрь ПФ-5847-сон

fanidan kredit-modul tizimini joriy etishi bo'yicha amaliy taqdimotlarini o'tkazib namuna bo'lishi kerak yoki bu tizimni amaliy biladigan xorijda ishlagan shaxslarni lavozimga tavsiya qilish shart. Uchinchidan, oliy o'quv yurtlari boshqaruv tizimida samara bermayotgan (ichki nazorat va monitoring, ta'lim sifati nazorat qilish va hokazo kabi) bo'limlarni qisqartirish hisobiga kredit-modul tizimini joriy etish va monitoringini yuritish uchun alohida bo'limga ehtiyoj sezilmoqda. Bo'limning vakolati va mavqeiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki, kredit-modul tizimini joriy etish uchun professor-o'qituvchi va talabalarga malaka va ko'nikmasini shakllantirishga ular amaliy yordam berib borishi kerak. Aks holda, reyting tizimiga o'xshab ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, kredit-modul va hemis boshqaruv tizimida ishlay oladigan yosh qobiliyatli kadrlarni o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinliga tavsiya qilish kerak. Beshinchidan, professor-o'qituvchiga hemis boshqaruvidagi fanlar bazasiga fan rusursi, fan topshiriqlari va ilmiy faoliyat bo'limidagi uslubiy nashrlar, ilmiy nashrlar, intellektual mulklar va ilmiy faolliklarga qo'ygan ma'lumotlariga va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinlariga esa o'quv jarayoni bo'limidagi imtihonlar ro'yxati, mashg'ulotlar, nazoratlarni to'ldirish va rasmiylashtirishiga qarab har semestrda moddiy-ma'naviy rag'batlantirish joriy etilsa, avvalgi yillardagi kamchiliklar takrorlanmaydi. Yuqoridagi omillarga e'tibor berilsa, kredit-modul tizimini joriy etish birmuncha bo'lsa-da yaxshilanadi. 2020-2021 o'quv yilidagi kredit-modul tizimini joriy etishdagi xato-kamchiliklar birmuncha bo'lsa-da kamayadi.

## **XULOSA**

Tarixdan ma'lumki, bironing bilimni baholash nihoyatda murakkab ish va eng qiyin kasb hamdir. Oliy ta'lim professor-o'qituvchilariga shunday qiyin kasb taqdir taqozasidir. Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevori barpo etilayotganda o'quv jarayonining eng nozik va dolzarb jihatiga e'tibor qaratish barcha o'quv jarayoni xodimlariga ma'suliyat yuklaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish"<sup>83</sup> ustuvor vazifalardan biri ekanligini bejiz ta'kidlamadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 16 iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

<sup>83</sup> Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 16 июнь кунини олий таълим тизимидаги устувор вазибаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузасидан.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019 yil 8 oktabr PF-5847-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2019 yil 8 oktabr.

4. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 16 iyun kuni oliy ta‘lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma‘ruzasi

## **QADRINI YO‘QOTAYOTGAN QADRIYATLAR!**

**Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi**

[ismonovayorqinoy@gmail.com](mailto:ismonovayorqinoy@gmail.com), +998936773889

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida ekanligi, uning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bir qator turlari, xususan, bolalar o‘yinlari va qo‘shiqlarining bolalar hayotidagi o‘rni va bugungi kundagi ahamiyati haqida gap boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Bolalar folklori, xalq o‘yinlari, bolalar qo‘shiqlari, xalq og‘zaki ijodi.*

### **ABSTRACT**

*The article discusses the fact that children's folklore is an important part of folklore, its peculiarities, as well as a number of types, in particular, the role of children's games and songs in children's lives and their importance today*

**Key words:** *Children's folklore, folk dances, children's songs, folklore.*

### **KIRISH**

O‘zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o‘rni, insoniyat tamaddunlariga qo‘shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og‘zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko‘rinadi. Xalq ijodi, xususan, og‘zaki ijod namunalari yurtboshimiz aytganlaridek, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma‘naviy xazina hisoblanadi. Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma‘nan kamolot topishi yo‘lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta‘kidlaganidek, “Tengsiz ma‘naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san‘atni, xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san‘atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir,,.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Biron bir kasb egasi yo‘qki, u ustoz ko‘rib kamolga yetmagan bo‘lsa. Inson zoti borki, oddiy ustadan tortib, taniqli olimgacha, kimnidir o‘ziga ustoz deb biladi. O‘zbek xalqining o‘tkan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo‘lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi ustoz-shogird an‘analarini ham kiritish mumkin. Bu nodir an‘ana mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o‘rin tutadi. Xalqimizda ustoz va

shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari o'ziga xos yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga yetib, rivojlanib kelmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an'alarini yana-da rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir. 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asr avvallaridan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini kelgusi avlodga yetkazishdek buyuk vazifa ham albatta, ustoz-shogird an'alarini orqali amalga oshiriladi. Buning uchun esa mamlakatimizda ko'plab dostonchilik maktablari tashkil etilgan bo'lib, ularning eng yiriklari Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shaxrizabz, Sherobod kabi baxshichilik san'ati markazlaridir. Ushbu maktablar ko'plab istedodli baxshilarni birlashtirgan va xalqqa namoyon qilgan. Jumladan, Abdukarim Juyruq, Mulla Xolnazar o'g'li, Bozor Sherqul o'g'li, Hazratqul baxshi Xudoyberdiyev kabilar.

Bola dunyoga kelganidan to ulg'aygunga qadar uning yoshi, jismoniy quvvati, qiziqishiga qarab turli xil mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Bular, asosan, bolalar o'yinlari hisoblanadi. Bolalar kichik yosh paytidanoq turli o'yinlarga ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, natijada ham ma'naviy, ham jismoniy kamolotga erishadilar. Bu masalada, ayniqsa, xalq og'zaki badiiy ijodining ahamiyati salmoqli. Ular orasida bevosita farzandlar ma'naviyatiga daxldori hisoblangan bir janr borki, u jismoniy tarbiyaga uyg'unligi bilan ham doimo e'tiborli bo'lib kelgan. Bu – bolalar folklori. Xo'sh, uning ma'naviy va jismoniy bo'linishlarini qay yo'nalishlar farqlab turadi. Masalan, allayu ertaklar bolalarning ma'naviy dunyosini boyitsa, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish kabi o'yinlar ularning jismonan chiniqishlariga sabab bo'lgan. Chunki milliy xalq o'yinlarini bajarish chog'ida bolalar harakatida ijobiy va ma'naviy fazilatlar: hamjihatlik, intizomlik, mehribonlik, kamtarinlik, halollik, hamkorlik, odillik, do'stlik tuyg'usi, zamon bilan hamnafas bo'lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarish shuningdek, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch va qiyinchiliklarni sobitlik bilan

yengish kabilar shakllana boshlaydi. Qolaversa, ular yosh avlodning xalq rasmlari va ogʻzaki ijodi ogʻushida ulgʻayishlariga ham munosib hissa qoʻshgan. Buni juda yaxshi tushungan ota-bobolarimiz esa ularni hatto zamon pedagogikasi talablari asosida asarlar shakliga keltirib nashr etishgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan bunday asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qolarli boʻlishiga alohida eʼtibor qaratishgan. Shuningdek, mazkur kitoblar, albatta, tarbiyaga ahamiyat qaratgani holda, bolalarda xalqiga, vatani, qadriyati va ajdodlariga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish uchun ham xizmat qilgan.

Oʻyinlar xalq bilim va tajribasining bitmas-tuganmas xazinasidir. Bu xazinaning saqlovchilari esa bolalarning oʻzlari. Chunki oʻyinlarga qiziquvchilar va uni sevib oʻynovchilar asosan bolalar hisoblanadi. Biz kattalar esa bolajonlarni milliy qadryatlar ruhida tarbiyalash, ota-bobolarimizdan qolgan anʼanalarimizni kelgusi avlodga ham bus butun yetkazishdek muhim vazifaga maʼsuliyat bilan yondoshmogʻimiz darkor.

Qadim-qadimdan bolalar tomonidan sevib oʻynab kelingan milliy oʻyinlarimiz talaygina. Shular jumlasiga quyidagilarni ham kiritishimiz mumkin: “Quvlashmachoq”, “Bekinmachoq”, “Kun va tun”, “Yongʻoq oʻyini”, “Eshak mindi”, “Xoʻrozlar jangi”, “Arqon sakrash”, “Kim oladi”, “Oq terakmi, koʻk terak”, “Paxmoq kuchuk”, “Gʻozlar, gʻozlar”, “Oq quyonim”, “Besh tosh”, “Lanka”, “Qirq tosh”, “Soqqqa”, “Varrak”, “Yomgʻir yogʻaloq”, “Chillak”, “Topishmachoq top”, “Tez ayt”, “Xola-xola”, “Quloq choʻzma”, “Durra”, “Chori-chambar” kabilar. Lekin, afsuski, bugungi kunda ushbu oʻyinlar oʻz ahamiyatini yoʻqotib, asta-sekin unutilib bormoqda. Buning asosiy sababi esa hozirgi zamon bolalarining qiziqishlarini koʻproq telefon, internet va kompyuter oʻyinlari egallaganligidir.

Bolalar oʻyinlari ijod etilibdiki, uning ajralmas detallaridan biri sifatida eʼtirof etish mumkin boʻlgan sanamalar ham paydo boʻlgan. Oʻyinlarning deyarli barchasida

bolalar ijodida alohida janr sifatida oʻz takomiliga erishgan sanamalar ijrosi

kuzatiladi. Sanamalar – keng tarqalgan oʻyin boshi badihalari boʻlib, oʻyin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini hamda galda qoluvchini belgilash vazifasini

bajaradi. “Sariq chumchuq”, “Misha koʻchaga chiqdi”, “Devor tagida tipratikon”,

“Yuzga kirgan oppoq qiz”, “Lagan-lagan”, “Adinam-badinam”, “Bir qop, ikki qop...”, “Itti-bitti...”, “Nemis chiqdi oʻrmondan...”, “Osmondan pichoq tushdi...”,

“Harbiy toʻn” kabi sanamalardan bolalar turli oʻyinlarda foydalanganlar.

Sanama koʻpincha “Quvlashmachoq” va “Bekinmachoq” kabi oʻyinlar uchun aytiladi. Negaki, bu oʻyinlarda bir bola navbatchi boʻlishi talab etiladi. “Quvlashmachoq”da navbatchi bola qochgan bolalarning ketidan quvib, birortasini



ushlamagunga qadar, “Bekinmashoq”da esa bolalar to pana-pastqamga yashirinib ulgurguncha ko‘zini berkitib poyloqchi bo‘lib turadi, so‘ngra ularni izlab, qaysi birinidir topmaguncha o‘yin davom etadi. Ma‘lum muddat bo‘lsa-da, o‘yinda navbatchilik qilish barchaga birdek ma‘qul kelavermaydi. Shu sababli bunday o‘yinlar jarayonida sanama aytish an‘anasi kelib chiqqan.

Bolalarning so‘z bilan bog‘liq ma‘naviy o‘yinlari qatorida ko‘pincha uxlashdan yoki dars qilishni boshlashdan oldin shovqinni to‘xtatish, jimjitlik va osudalikni ta‘minlash maqsadida tashkil qilinadigan “Guldur-gup” o‘yining o‘z o‘rni bor. Bu o‘yin matni yo o‘yin onaboshisi tomonidan, yo barcha bolalarning jo‘rligida baravariga baland ovozda aytiladi. Uning bir variantida shunday deyiladi:

*“G‘uldur-g‘ulup,  
Og‘zim qulup”.*

Shu gap aytilgach, bolalar og‘izlarini berkitib oladilar va gapirmay o‘tiradilar. Agar kim birinchi bo‘lib og‘zini ochib yoki gapirib yuborsa, o‘yinda yutqazgan hisoblanadi va qolgan ishtirokchilar tomonidan qo‘yilgan talablarni bajarishi kerak bo‘ladi. “Guldur-gup”larning barchasida uchraydigan asosiy shart – gapirmay turish. Uning Namangan viloyati variantida ko‘pincha “G‘uldur-g‘ulup” tarzida talaffuz etilgani kuzatildi. Folklorshunos H. Ro‘zmetov Xorazmda “Jildir-jip” deya nomlanishini ta‘kidlaydi. Mazkur o‘yin turi ayrim hududlarda “Og‘iz berkitar” deb nomlanadi. G‘. Jahongirov uning nomini “Dim-dim” hamda “Og‘iz boylash” tarzida ham ko‘rsatib o‘tgan va o‘yinda cheklashmashoq vazifasini bajaruvchi o‘yin sifatida tavsiflagan.

“Chandishlar” – bolalar ma‘naviy o‘yinlaridan biri. U ikki bolaning dialogi ko‘rinishidagi aytishuv ayimlari bo‘lganligidan bolalar orasida “aytishmalar” yoki “aytishuvlar” deb ham yuritiladi. O‘zbek folklorshunosligida ularni alohida janr sifatida tan olib, ilmiy izohlagan O. Safarov bo‘lsa-da, “chandish” atamasini ilk marta qo‘llab, uni iste‘molga kiritgan H. Razzoqovdir.

“Chandishlar” bir bolaning boshqa bir bolani o‘yin obyektiga aylantirib, uni ermak qilish hisobiga o‘zini xursand qilishga qaratilgan beozor hazilli so‘z o‘yinidir. O. Safarov ham chandishlarda so‘z harakatni boshqarishini aytib, “Sutmi, qaymoq?”, “Bobongni ko‘rsataymi?”, “Kulchangni tayloqcha qilib beraymi?” o‘yinlarini bu jihatdan tahlilga tortgan.

Bolalarning eng sevimli va taassurotlarga boy bo‘lgan fasllari bu – bahor fasli hisoblanadi. Har qanday kishi o‘z bolaligini yodga olar ekan, eng avvalo, bolalik

davrining aynan mana shu fasllari ko‘z oldida namoyon bo‘ladi, chunki sovuq qishda uydan chiqmay diqqinafas bo‘lgan bolalar go‘yo o‘zlarini ozodlikka chiqqanday his etadilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, ko‘klam bolalar hayotida alohida ahamiyat kasb etuvchi mavsum sanaladi. Bolalar og‘zaki ijodini kuzatar ekanmiz, ularning bahor mavsumining o‘zida iste‘molda bo‘ladigan “Boychechak xabari”, “Bo‘ka-bo‘kaboy”, “Varrak uchirish”, “Xon va jon”, “Kamaldak (kamalak, kamon) otish”, “Chuchvara qaynaydi”, “Chittigul”, “Lola-lola” kabi ko‘pgina o‘yinlari va o‘yin qo‘shiqlari mavjud.

Halinchak uchish ham bolalarning bahorgi o‘yin-qo‘shiqlaridan biridir. Xalqimizda “Halinchak uchgan kishining gunohlari to‘kiladi” degan qarash mavjud. Bu ma‘lumot O. Safarov tomonidan yozilgan “O‘zbek bolalar folklori” kitobida ham qayd etilgan. Shu tufayli ba‘zan katta yoshli kishilarning ham halinchakka o‘tirib tebranishayotganining guvohi bo‘lish mumkin.

## **XULOSA**

Axborot asri rivojlanib borgani sari, yosh avlod zamon bilan hamnafas qadam tashlamoqda. Bu albatta, yaxshi lekin afsuski milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan qolgan xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, bolalar folklori namunalari, turli qo‘shiq va aytimlar, o‘yinlar, marosimlar asta-sekin unutilib bormoqda. Bunga esa asosiy sabab xalq qo‘shiqlari, o‘yinlar-u aytimlarning e‘tibordan chetda qolib ketayotganligi, hozirgi zamon bolalarining ko‘p vaqti internet klublari yoki kompyuter o‘yinlariga sarflanayotgani, shuningdek, ota-onalar ham bunga befarq qarayotganligidir. Tan olish kerakki, hozirgi ota-onalar farzandlari bilan ko‘p vaqt o‘tkazmaydi. Aksincha, qo‘liga telefon tutqazib, bolani undagi o‘yinlar, turli hil videolar bilan ovutishga urinadi. Bola esa go‘daklik chog‘idan virtual olam “asiri”ga aylanib boradi. Vaholanki, virtual olamga tez-tez cho‘mish bolaning tengdoshlari bilan muloqotni cheklaydi, uning haqiqiy hayotda, bolalikda yashashiga to‘sqinlik qiladi va sekin asta asabiy va tajovuzkor bo‘lib qolishiga olib keladi. Milliy o‘yinlar bilan shug‘ullanish jarayonida esa mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Xalqimiz merosi bo‘lgan milliy o‘yinlarimizni o‘ynab, qadriyatlar ruhida ulg‘aygan bola ham ruhan ham jismonan sog‘lom bo‘lib ulg‘ayadi. Zero, sog‘lom bola – sog‘lom kelajak poydevoridir.

## **REFERENCES**

1. Sultanova, U. M. (2020). YOSH AVLOD TARBIYASIDA MILLIY QADRYATLARNING O‘RNI. Science and Education, 1(7).

2. Шайзаков, Г. (2021). Children's folklore as a basis of teaching to read and analysis text. Общество и инновации, 2(3/S), 393-401.
3. Чориева, Ф. А. (2016). УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИГРЫ В ВОСПИТАНИИ ПАТРИОТИЗМА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (6), 64-65.
4. Jahongirov, G. (1975). Ozbek bolalar folklori. Toshkent: O 'qituvchi, 64-88.
5. KARKINLI, R. (2017). ÖZBEKLERDE ÇOCUK OYUN-OYUNCAK KÜLTÜRÜ VE ÇOCUK OYUNLARI ÜZERİNE BİR TASNİF DENEMESİ. Electronic Turkish Studies, 12(22).

## **AFG‘ONISTONDA “SHE’RE NAV” VA UNING BORIQ SHAFEIY IJODIDAGI O‘RNI**

**Nazarova Afzuna Rahimovna**

afzuna\_nazarova@mail.ru

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola Afg‘on adabiyotiga “She‘re nav” uslubining kirib kelishi, uning afg‘on shoirlari, xususan, Boriq Shafeiy ijodiga ko‘rsatgan ta‘sirini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Maqolada turli afg‘on adabiyotshunoslarining afg‘on adabiyotiga ushbu uslub kirib kelishigacha va undan keyingi o‘zgarishlar, “she‘re nav” uslubining o‘ziga xosliklari haqidagi fikrlari yoritilgan. Shuningdek dariyazon adabiyotda “she‘re nav” uslubining yorqin namoyondalaridan biri sifatida tanilgan Boriq Shafeiy ijodi o‘rganilib, uning ushbu uslubdagi she‘rlari tahlilga tortilgan, “she‘re nav” uslubidagi she‘rlarda erkinlik, vaznsizlik va qofiyaning yo‘qligi qay darajada aks etgani ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“she‘re nav”, Muhammad Osif Gulzod, Boriq Shafeiy, “Ay nâla”, “Rehâ kon!”, she‘rlarda erkinlik, vaznsizlik va qofiyasizlik.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the study of the penetration of “She‘re naw” into Afghan literature and its influence on the work of Afghan poets, in particular Barik Shafii. The article examines the views of various Afghan literary scholars before and after the introduction of this style in Afghan literature, as well as the features of the “She‘re naw” style. The work of Barik Shafii, one of the brightest representatives of the “She‘re naw” style, was also studied, his poems in this style were analyzed. In addition, the degree of freedom, weightlessness and the absence of rhyme in the verses of the “She‘re naw” style are revealed.*

**Key words:** *“She‘re naw”, Muhammadasif Gulzod, Barik Shafii, “Ay nâla”, “Rehâ kon!”, freedom, weightlessness and the absence of rhyme.*

### **KIRISH**

Vaqt o‘tishi bilan adabiy jarayonda ham o‘zgarishlar yuz beradi. Har bir davr shu vaqtda yaratilgan ijodiy merosiga qaysidir darajada bo‘lsa-da yangilanish kiritgan holda o‘z izini qoldiradi. Bu yangilanishlar birdaniga bo‘lib qolmay, sekin-astalik bilan, bosqichma-bosqich va o‘zaro aloqadorlikda amalga oshadi. Bu esa adabiy asarda novatorlikka olib keladi. Xurshid Do‘stmuhammadning ta‘kidlashicha,

“Hayotda hech qanday yangilik to‘satdan yuz bermaydi”.<sup>84</sup> Shunday ekan, g‘azallarning an‘anaviylikdan novatorlikka ko‘chishida ham o‘ziga xos sabablar bor, albatta.

Afg‘on millatining Eron shoirlarining ijod namunalari bilan yaqindan tanishishi, unga bo‘lgan qiziqish ham mazmun va shakl o‘zgarishlarini o‘zida mujassamlashtirgan so‘nggi davr uslubi – “she‘re nav”ning paydo bo‘lishiga olib kelgan sabablardan biri bo‘ldi. Xususan, Afg‘onistonda bu uslubga eronlik zabardast shoir Nimo Yushij she‘riyatining ta‘siri katta bo‘ldi. Uslub mamlakatdagi she‘riyatga oshufta qalblarga tezda kirib borib, unda iliq kayfiyat uyg‘otdi. Afg‘on shoirlari ham unga monand she‘rlar yoza boshlashdi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani tahlil qilishda tarixiylik, mantiqiylik metodlariga murojaat qilindi, shu bilan birga empirik va nazariy tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Boriq Shafeiyning “شهر حماسه” – “Shahre hamosa” nomli she‘riy to‘plami, Muhammad Usmon Sidqiyning “سیر ادب در افغانستان” – “Sayr-e adab dar Afg‘oniston”, Muhammad Osif Gulzodning “سپیده دم ادبیات معاصر دری” – “Sapida dam adabiyote maosere dari” nomli kitoblari metodologik manba bo‘lib belgilandi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Adabiyotdagi bunday “yangilanish” nafaqat nazmda, balki nasrda ham o‘z bo‘y-bastini ko‘rsatdi. Chunonchi, Yusuf Oyining “میخواره” – “Mayxâra” (“Mayxo‘r”) nomli parchasi tahsinga sazovor bo‘ldi<sup>85</sup>.

“She‘re nav”ning an‘anaviy uslubdan afzal ko‘rilishining sababi uning fikrni bayon qilishda, hissiyotlarni yuzaga chiqarishda erkinligi bo‘ldi<sup>86</sup>. Shoir bu uslubda vazn va qofiyani ishlatmasligi ham mumkin. Bandlardagi strafalar miqdori ham turlicha bo‘ladi.

Garchand bu shoirlarning she‘rlarida an‘anaviy shakl saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning ijodi afg‘on she‘riyat ixlosmandlarini yangi – shakl o‘zgarishlari bilan bog‘liq bosqichga – “she‘re nav” uslubiga kirib kelishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

“Fransuz tabiatshunosi Byuffon Jorj – Lui Leklerkning ta‘biri bilan aytganda, “uslub bu odamdir”. Demak, u ijodga oid hamma narsani o‘ziga qamrab oladi. Uslubni belgilovchi xususiyatlar adabiy asarning shaklidan tortib mazmunigacha bo‘lgan barcha narsani o‘zida mujassamlashtiradi. Uslub bu ijodkorning o‘zligini namoyon etadigan adabiy hodisa bo‘lib, u:

<sup>84</sup> Сардор Карабаев. Хайбар адабий мактаби ва амир Ҳамза Шинворий ижоди. – Т., 2014. – Б. 141.

<sup>85</sup> محمد عثمان صدقي. سیر ادب در افغانستان. – کابل. 1340. ص 39

<sup>86</sup> محمد عثمان صدقي. سیر ادب در افغانستان. – کابل. 1340. ص 38

- 1) muallif dunyoqarashini;
- 2) tanlagan ijodiy metodini;
- 3) g'oyaviy niyatini;
- 4) ijodiy fantaziyani;
- 5) iste'dod salohiyatini;
- 6) tipiklashtirish mahoratini;
*Stable economic growth should be based on the priority development of the group of export-oriented industries capable of being a stable, long-term driving force of development, the most promising basis for the growth of the economy of Uzbekistan owing to intensive factors.*

**Keywords:** science-intensive, improving the organization, national economy.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается задача развития государственной отрасли не только в обеспечении перехода экономики на траекторию устойчивого развития, но и в изменении качества экономического роста. Здесь важная роль*



*принадлежит государственной научно-производственной политике, определяющей общую экономическую стратегию и наиболее перспективную основу для развития. Опыт показывает, что опережающее развитие сырьевых производств, ставших на сегодняшний день ведущими отраслями экономики Узбекистана, не может решить проблему экономического подъема в корне и надолго.*

*Создание новой наукоемкой продукции - сложный и многогранный процесс, который включает в себя научные, технические, производственные, экономические и социальные аспекты, а функционирование в рыночных условиях требует совершенствования организации и управления производством на нижнем уровне национальной экономики, т.е. на уровне предприятия. В процессе разработки новых продуктов между бизнес-единицами предприятия и между смежными фирмами устанавливаются определенные производственные и управленческие отношения, отношения которых отражают отношения между непосредственными производителями продукции, управленческим персоналом, а также организацию совместной деятельности участников производства новой продукции.*

*Стабильный экономический рост должен основываться на опережающем развитии.*

*группы экспортно-ориентированных производств, способных быть стабильной, долгосрочной движущей силой развития, наиболее перспективной базой для роста экономики Узбекистана благодаря интенсивным факторам.*

***Ключевые слова:** наукоемкие, совершенствование организации, народное хозяйство.*

## **I. INTRODUCTION**

New goals and objectives of science-intensive companies to create high-tech products can be achieved only through new approaches to management.

In this regard, the task of comprehensive research of theoretical and practical problems of the high-technology organization management in systematic development of new products takes on particular significance. The concepts of development management that could include all modern developments in this area are required.

## **II. MANAGEMENT OF SCIENCE-INTENSIVE COMPANIES**

The following factors can be considered as special aspects of management of the Uzbekistan science-intensive corporations in the market conditions:



- Modernization of science-intensive productions in the context of a large-scale reform of the defense industrial complex;
- Continuous improvement of the enterprise management system in the process of developing new products;
- Preservation of the business profile of science-intensive enterprises (technological area, scientific and technical issues);
- Use of the large science and technology reserve of the enterprise (transfer of documentation, inventions, know-how to the civil sphere) to manufacture science-intensive products that are not typical for such company (diversification of production);
- Use of the development and production potential of the enterprise to manufacture high-tech civilian products at available production facilities (conversion of production);
- Restructuring of science-intensive productions (establishment of integration structures).
- Pursuing an employee-focused personnel policy to maintain a highly skilled workforce at the company.

At the present time, the High -Tech Complex (HTC) is the largest supplier of machine-building products in the domestic market. Science-intensive companies form the backbone of the HTC, in which the share of R&D expenditures in total sales is at least 3.5%, and the share of employees engaged in research and development in the total number of employees is at least 2.5%.

### **III. INDUSTRIAL MODERNIZATION**

A knowledge-intensive business is a social and economic system that develops and creates innovative technologies, products and services, using its development and production potential and scientific and technological reserve to introduce high-tech products to the market, and in which R&D expenses represent a significant part of the production prime cost. Sustainable development of knowledge-intensive businesses and launching of production of high-tech products that are competitive in the domestic and foreign markets are the main modernization tasks set to the HTC by the Government of the Uzbekistan. Industrial modernization involves bringing the production system of enterprises and industrial complexes to state-of-the-art, and first of all this concerns the technical and technological base of production. The management system is a purposeful, really functioning interrelation between the object and the subject of management.

The system of management of a knowledge-intensive business in the development of new products should reflect the necessity to manage the two types of processes such as the processes of production of industrial products and the processes of production of light industry products. All these contribute to the adaptation of the process of development of new products of the knowledge-intensive companies to the modern conditions for creating new types of products for the national economy [1].

Therefore, two subsystems of management can be clearly identified as part of the management system of a knowledge-intensive business. Each of these subsystems has its own management object in combination with which it acts as a single organizational system. According to this approach, the new product development management system of knowledge-intensive enterprises can be presented as a set of the following basic elements. Under the action of control commands the state of the controlled object changes.

The management system ensures, firstly, collection, accounting and analytical processing of information about the state of the controlled object, and secondly, communication of managerial decisions to the controlled object. A new product development process is the initial stage of the product manufacturing process and is characterized by great complexity in the planning and organization of production. At the HTC enterprises in which, as a rule, the major part of the product range include the products intended for the needs of the country's defense capability, the development of new, high-tech civilian industry products should be performed in the conditions of maintaining the necessary volume of production of core defense products. The content of the development of high-tech products can be represented in the form of a logical chain of interdependent actions in which all types of resources of a knowledge-intensive business are used for the production of a product (for a certain period of time) with consumer properties clearly defined by customer.

#### **IV. INNOVATIVE PRODUCT**

Development of high-tech products is a manufacturing process during which the technological process of organization and planning of high-tech production is adjusted and optimized in order to produce new products (that were not previously produced by the enterprise) for the national economy in specified quantities, using dual-use technologies while achieving the planned economic performances and maintaining the required volume of production of defense products. In contemporary research studies, the following characteristic features of development

can be pointed out: dynamism of production; uncertainty of results; adaptability to innovations; and excessive consumed resources.

## **V. PRODUCTS OF HIGH-TECH ENTERPRISES**

The following features are characteristic for the process of development of new products of knowledge-intensive enterprises in addition to the above-mentioned ones:

- High knowledge intensity of newly created products (entails an increase in the development and production costs due to tougher regulatory requirements to the knowledge-intensive products and complication of products as such);
- Shortened exclusivity period (general availability of new technologies leads to a quick product removability);
- Mainly a long period of product use (this implies that a service system should be established).

The role and specifics of knowledge-intensive businesses in the innovative development of the economy are as follows:

- Knowledge-intensive technologies and the HTC are the main driving force of economic development both within a single country and globally;
- Knowledge-intensive industries are 3÷4 times higher than other sectors of the economy in terms of economic growth rates;
- Knowledge-intensive industries are characterized by a large share of value added in final products, by high wages of employees, large export volumes and high innovation potential;
- Knowledge-intensive industries are a priority line of business for small and medium-sized firms, as well as the main object of venture capital investments;
- Knowledge-intensive technologies are the basis for scientific and technological progress.

Foreign experience shows that the management of the HTC in the industrialized countries (USA, Germany, France, England, Japan, Sweden, and China) is performed through market mechanisms where the main objectives are: to prevent the growth of unemployment and to prevent the decline in economic growth rates. Financial assistance to businesses is not considered as a prerequisite for modernization. Even if such aid does take place, it is short-term and takes the form of tax breaks. The probability of bankruptcy acts as an incentive for enterprise management to search for competitive products. It is obvious that all products manufactured in the knowledge-intensive industries should be high-tech and

knowledge-intensive. High-tech products are the products that are manufactured by knowledge-intensive enterprises, created using their scientific and technological reserve and scientific and technical potential and that have high social and economic efficiency. Knowledge-intensive products are the products with qualitatively new characteristics created through the use of technologies developed on the basis of modern scientific achievements. The category of knowledge-intensive products usually includes the products in which the share of research and development costs in the total cost of production is not less than from 3.5 to 5.0%.

## **V. FOREIGN EXPERIENCE**

The theory and practice of modern corporate governance suggest a number of reasons to justify the necessity of restructuring the knowledge-intensive industries in the form of integration structures.

The restructuring focuses on improving the competitiveness of companies. Analysis of the experience of

U.S. and Western European aerospace companies in managing their products to increase their competitiveness by reducing their cost shows that the reduction of the final cost of products is achieved due to:

- Reduction of marginal production facilities (10%);
- Improvement of the production process, introduction of efficient technologies and enhancement of professional training of personnel (20%);
- Use of information technologies in the management of the programs of development, manufacturing, testing and delivery of products to consumers while monitoring costs incurred at each stage of the program implementation (24%);
- Use of new, efficient resource-saving materials and saving thereof in the production process (16%);
- Improvement of information technologies, borrowing of existing technological developments mainly in the commercial production sector in order to save funds on own developments (30%). The integration processes in the HTC, as well as in the entire economy of Uzbekistan, contribute to an increase in the total potential (scientific and technical, technological, production, investment and human resources).

## **VI. RESULT AND DISCUSSION**

Labor productivity has been increasing, the structure and competitiveness of production has been improving being increasingly in line with market requirements.

The potential is utilized more and more efficiently due to many factors, the main of which are as follows:

- Concentration of financial and material resources in the most critical or profitable areas;
- Increase of funding and material resources, hence, increase of the scale of investment projects;
- Increased mobility of use of all types of resources;
- Mitigation of technical and investment risks.

Concentration of high technologies and highly qualified human resources at the leading HTC enterprises is one of the important factors ensuring the strong development of scientific schools and the development of world class high-tech products. [2]

The modernization of knowledge-intensive industries has set out a number of tasks to the management of such enterprises, which tasks are the core of the implementation of the human resource management policy. Among them are:

- Definitive training of young specialists as an element of human resources recruitment;
- Economic incentive tool improvement;
- Introduction of the fundamentals of the contract system;
- Assignment of responsibilities to managers for ensuring contract volumes, payroll and product quality;
- Improvement of the employee social security system;
- Provision of resources to human resource management policies.

Practical experience has shown that a comprehensive approach to the motivation policy at a knowledge-intensive enterprise enables to achieve high performances in the professional growth of employees, real income increase, ensuring occupational safety and social guarantees. For this purpose, the following tasks have been set and accomplished:

- Wage growth supported by the stable growth of the economic position of the enterprise;
- Differentiated individual salaries based on results (fixed salary + bonus + personal allowance);
- Reasonable preservation of some social and cultural facilities (health care center, children's camp, recreation center, sports complex);
- Partial compensation for the cost of the purchased housing.

## **VII. CONCLUSION**

Thus, it can be concluded that the innovative product management at the knowledge-intensive enterprises is an important management tool which not only reduces unproductive costs, but also increases the product quality due to the use of all resources of the enterprise, i.e. primarily scientific and technological reserve and development and production potential. This is a tool that enables to obtain full information about the current process of development and business as a whole, as well as to make timely and strategically correct decisions.

## **REFERENCES**

1. Kondratiev N.D., Oparin D.I. Bol'shie tsikly kon'yunktury. , 1925. 48 s. [in Russ.].
2. Schumpeter J. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1982 [in ].
3. Drucker F. Kakvyiti v lidery. Praktika I printsypy. M.: Book Chamber International 1992 [in Russ.].
4. Drucker F. Novye realnosti. V pravitelstve i politike. V ekonomike i biznese. V obshestve i mirovozzrenii. M. : Book Chamber International, 1994 [in Russ.].
5. Crozier M. Predpriyatie ptislushiveyutsya. Uchitsa postindustrial'nomu menedzhmentu. Paris, 1991 [in Russ.].
6. Upravlencheskoe konsul'tirovanie / s angl. Pod. Red. M.: Cruz, 1992 [in Russ.].
7. Argynbayev M. Obespecheniye ekologicheskoy bezopasnosti Yevropeyskogo soyuza. Izvestiya KazUMOiMYA imeni Abylay khana. Seriya "Mezhdunarodnyye otnosheniya i regionovedeniye", 2014, № 1 (15). S. 25-31 [in Russ.].
8. Glazev Yu., Mikerin G.I., Teslya P.N. Dlinnye volny: nauchno-tekhnicheskii progress i sotsial'noe razvitie. Novosibirsk, 1991. 224 s. [in Russ.].



## **AUTIZM SINDROMLI BOLALAR IJTIMOYILASHUVIDA PSIXOKORREKSION VAZIFALAR**

**Nurmatova Durdona Gafurjon qizi**

SOS O'zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi

Samarqand filiali IYOOX psixologi

durдона@nurmatova mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada autizm sindromli bolarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalarning amaliy jihatlari keltirildi. Ushbu ilmiy muammo bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari berildi. Autizm sindromli bolarning ijtimoiy moslashuvi muammosi yechimlarining psixologik xususiyatlari qisqacha tahlil etildi.*

***Kalit so'zlar :** autizm, psixokorreksiya, diagnostik karta, rivojlanish dinamikasi, individual imkoniyat, o'yin terapiya.*

## **ПСИХОКОРРЕКЦИОННЫЕ ФУНКЦИИ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье представлены практические аспекты психокоррекционных задач в успешной социализации детей с аутизмом. Приведены результаты экспериментального исследования этой научной проблемы. Кратко проанализированы психологические особенности решения проблемы социальной адаптации детей с синдромом аутизма.*

***Ключевые слова:** аутизм, психокоррекция, диагностическая карта, динамика развития, индивидуальные возможности, игровая терапия.*

## **PSYCHOCORRECTIONAL TASKS IN THE SOCIAL LIFE OF CHILDREN WITH AUTISM SYNDROME**

### **ANNOTATION**

*The article presents the practical aspects of psychocorrectional functions in the successful socialization of autism-impaired children. The results of the experimental study on this scientific problem were given. A brief analysis of the psychological characteristics of solutions to the problem of social adaptation of people with autism syndrome.*

*Key words : autism, psychocorrection, diagnostic card, dynamics of development, individual opportunity, game therapy.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda psixologiya sohasida insonning hissiy rivojlanish muammolariga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Insonning individual rivojlanishida hissiyotlar muhim rol o'ynaydi. Ular subekt uchun ichki til sifatida sodir bo'layotgan voqealar ahamiyatini bilib oladigan signallar tizimi sifatida ishlaydi. Tuyg'ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bevosita motivlar o'rtasidagi munosabatni va ushbu motivlarga javob beradigan faoliyatni amalga oshirishni aks ettiradi. Inson faoliyatida, hissiyotlar uning taraqqiyoti va erishgan natijalarini baholash funksiyasini bajaradi. Agar insonning emotsional-irodaviy sohasi buzilgan bo'lsa va organizmga foydali yoki zararli ta'sir ko'rsatadigan hissiy signallar mavjud bo'lmasa, demak, har bir yangi vaziyat bilan tananing barcha funksiyalarini bir zumda birlashtirishning imkoni yo'q. Xususan, hissiy jarayonlar turli vaziyatda tez va oqilona yo'l topa olishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Emotsional-irodaviy soha buzilganda, ma'lum bir harakatlarga ma'lum reaksiya mexanizmi ishlagan holda, faqat ma'lum harakatlarning tor ko'rinishlari aks etishi mumkin bo'ladi, noma'lum vaziyatga javob berish jarayonida voqelikni idrok etish va o'z harakatlarini baholash buziladi. Natijada inson sezilarli darajada hissiy qashshoqlashadi, ya'ni boshqa odamlar bilan aloqaning yo'qligi va natijada shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyati yuzaga kelib, atrofni idrok etish imkoniyatini kamayadi. Hissiy sohadagi bunday buzilishlar shaxsni ijtimoiy yakkalanishga olib keladi. Bu holat esa oxir-oqibat insonni ancha chuqur ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ma'lumki, ruhiy kasalliklari mavjud odamlarda atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish qobiliyati buzilishi kuzatiladi. Bolalikda emotsional-irodaviy soha rivojlanishidagi buzilish turlaridan biri bu autizmdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

So'nggi bir necha yil ichida autizm sindromli bolalar soni sezilarli darajada ko'payganligi sababli, ushbu muammoga, xususan, autizmni psixologik tuzatish usullariga qiziqish bildiradigan psixolog mutaxassislar soni ko'paymoqda. Xususan, Rossiyadagi ba'zi universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari autizmga bag'ishlangan nashrlarini chop etadilar, masalan: "Autizm va rivojlanishning buzilishi", "Bolalikdagi autizm: tushunish va yordam berish usullari". Bunday nashrlar ushbu muammo bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun ham, autizm sindromli bolalarning ota-onalari uchun ham foydali nashrlar hisoblanadi. Shu bilan birga, autizm sindromli bolalarga psixokorreksion yordam usullari hozircha juda kam ishlab chiqilgan va bu

mavzuda katta muvaffaqiyatlarga erishgan mutaxassislarni topish juda qiyin. Shunga qaramay hozirgi kunda autizm sindromli bolalarni tashxislash bo'yicha mutaxassislarning bu sindromga nisbatan qiziqishi faol o'sib bormoqda.

Eksperimentda biz diagnostika kartasidan foydalanib autizm bilan sindromli bolalarning psixo-emotsional holatini psixokorreksion ishlaridan oldin va keyin o'zgarishini aniqladik. Tajribada 5 yoshdan 12 yoshgacha autizm tashxisi qo'yilgan 10 nafar bola ishtirok etdi. Tajribada ota-onalar psixolog bilan birgalikda psixokorreksiya ishining boshida va oxirida diagnostika kartasini to'ldirdilar.

Eksperimentning asosiy vazifasi - tuzatish ishlaridan oldin va keyin diagnostika kartasi yordamida autizm sindromi bo'lgan bolalar bilan tanlangan psixo-korreksiya ishlarining natijalarini baholash. Eksperiment natijasida autizm sindromi bo'lgan bolaning ongi va xulq-atvori darajalarining rivojlanish dinamikasida ijobiy natijalarga erishish. Tajriba uch oy davom etdi, autizm sindromli bolalar bilan birlamchi tadqiqot metodikalari 2020-yil 4-sentyabrda, takroriy diagnostika tuzatish ishlari natijalari bo'yicha 2020-yil 14-dekabrda o'tkazildi. Eksperiment dasturida ota-onalar bilan o'yin terapiyasi, syujetli rasm va o'qish kabi bolalik autizmini psixologik tuzatish usullari qo'llanildi. Tuzatish tadbirlarining maqsadi kattalar bilan hissiy munosabatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda bolaning ongi va xatti-harakatlarini tashkil etish mexanizmlarini izchil shakllantirishdir. Bu orqali bolaning aloqada ko'proq chidamliligini, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada ko'proq faollikni va moslashuvchanlikni, uning atrofida sodir bo'layotgan voqealarni chuqur hissiy tushunishni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot ishlarini boshlashdan oldin har bir bolaning individual imkoniyatlari bilan tanishib chiqildi. Aloqani o'rnatish imkoniyatlariga qarab, autistik bola bilan mashg'ulotlar dasturi tuzildi. Dastlab o'yin asosida aloqa o'rnatilsa, keying muloqotlarda rasm chizish va o'qish mashg'ulotlari kiritildi. Boshqa hollarda kitob yordamida aloqa o'rnatilganda, biz qo'shma o'yinga o'tdik, chunki bolaga o'yinchoqlar, qiziqarli belgilar bilan syujetli o'yin o'ynashga, kitobda o'qilgan narsalarning taassurotlarini konkretlashtirishga imkon berdi. Turli xil mashg'ulotlar bizga o'zaro ta'sirni kengaytirish hamda har bir bola uchun yanada moslashuvchan va individual yondashuv ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Tuzatish ishlarining **birinchi bosqichi** o'yin, rasm chizish orqali autistik bola bilan hissiy aloqa o'rnatishni, bolaning harakatlariga, faoliyatiga qo'shilish, nutq so'zlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy sharti sifatida mashg'ulotlarni hissiy va semantik sharh bilan birga olib borildi, ya'ni vaziyatga doimiy ravishda izoh berib, unga ijobiy hissiy rang berib o'yin ma'nosini tushuntirib berildi. Ushbu

bosqichdagi asosiy vazifa - syujet epizodlari bo'lgan o'yinlar orqaqli badiiy yoki adabiy obrazlarda mustahkamlangan mazmunli, yoqimli tajribalarni bolada shakllantirish. Autizm sindomi bo'lgan bolalarda ishlashning birinchi bosqichi natijasida diqqat yanada rivojlandi, bola kattalar bilan osonroq aloqa o'rnatishga erishdi va kundalik voqealarga qiziqish namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, o'yinlar taktil va ko'z bilan aloqa miqdorini ko'paytirdi, bu esa yuqori salbiy sezuvchanlikni kamaytirishga yordam berdi. Shu bilan birga, bolaning nutqi rivojlanishda taraqqiyot paydo bo'ldi.

**Ishning ikkinchi bosqichi** mashg'ulotning "stereotipini" shakllantirish, birinchi bosqichida paydo bo'lgan alohida, yoqimli tajriba va obrazlarni sodda, taniqli syujetga, harakatlarning ma'lum bir ketma-ketligiga bog'lashdan iborat bo'ldi. Qurilish asta-sekin tafsilotlar bilan to'ldirildi, qoida tariqasida, o'yin yoki rasm chizishda bunday syujetning asosi odatdagi kundalik holatlar, bolaning butun hayoti tarzidir amalga oshirildi. Ushbu bosqichda kitob o'qish, so'ngra o'qilganlarni talaffuz qilish va chizish orqali bolaning ijobiy hayotiy tajribasini konkretlashtirish va tizimlashtirishga yordam berildi. Shunday qilib, ushbu bosqichda bolaga zavq va farovonlik hissini beradigan, shuningdek, boshqa odam bilan va dunyo bilan aloqada barqarorlik va ishonchni ta'minlaydigan stereotiplar mexanizmlarini ishlab chiqish ishlari olib borildi. Ikkinchi bosqich orqali ishlash natijasida autizmga xos bo'lgan inikosning parchalanishi asta-sekin yengib chiqildi. Bu bosqichda autizm sindromli bolada u bilan sodir bo'lgan hodisani hissiy anglash qobiliyati rivojlana boshladi, sabab-oqibat munosabatlari to'g'risida tushuncha shakllandi, bolaning o'tmishi va kelajagi, vaqt o'tishi haqidagi g'oyalari rivojlandi. O'yinda va shunga mos ravishda hayotda bola har xil kundalik vaziyatlarda o'zini tutish ko'nikmalarini va ijtimoiy muloqot usullarini egalladi. Bu darajadagi o'zgarishlar keyingi vazifani ya'ni, kengaytirish mexanizmlarini shakllantirish imkonini berdi.

Ishning **uchinchi bosqichida** psixologning vazifasi xilma-xillikni qo'shma o'yinga kiritish, salbiy stereotiplarni yengish va "sarguzasht bilan" syujetni shakllantirish bo'ldi, bu odatiy voqealar tartibini buzish va tiklash bilan bog'liq. Ishning asosiy prinsipi - syujetni "yaxshi holatda" oxiriga yetkazish. Ishning ushbu bosqichida o'yin jarayoni syujetli rasmlar, ertaklarni birgalikda o'qish, kattalar tomonidan sharhlanadigan filmlar va multfilmlarni tomosha qilish bilan to'ldirildi. O'qish uchun esa bolalar haqida hikoyalar, ularning munosabatlari, sarguzashtlari, hazillari tanlandi. "Sarguzasht bilan" syujetning shakllanishi bolaning to'siqlarni yengish qobiliyatini va xavf, qo'rquv hissi bilan kurashish qobiliyatini rivojlantirdi. Ishning uchinchi bosqichi natijalariga ko'ra, kengayish mexanizmi ishga tushirildi -

bu autizm sindromli bolaga atrofdagi dunyoning barqarorligiga yopishib qolmaslik, balki o'zgaruvchan sharoitda yashash, faol hayot kechirish imkoniyatini berdi. Autistik bolada asta-sekin yangilik va xilma-xillikni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirdi.

**To'rtinchi bosqichda** kengayish tajribasining o'zi hissiy baholash kontekstiga mos kela boshladi. O'yin davomida rasm chizishga, o'qish paytida "nima yaxshi va nima yomon" degan mulohazalarni ro'yobga chiqarishga harakat qilindi. Bola o'zlashtirgan xavfli vaziyatdan chiqish tajribasi, "Sarguzasht", ijtimoiy jihatdan maqbul kontekstga kiritildi. Buning uchun psixolog o'qishda, o'ynashda, birgalikda rasm chizishda asta-sekin "ijobiy qahramon" obrazini shakllantirdi. Shunday qilib, autist bolalarda yaxshilik va yovuzlik tamoyillarini ajratish, yaxshilikka hamdardlik, noqulay vaziyatni yengishning yangi usullari paydo bo'ldi. Ushbu psixokorreksion ishlar autizm sindromining eng murakkab varianti bilan ham ishlashga mos keldi. Empirik tadqiqot natijasiga ko'ra tanlab olingan autist bolalarning 5 tasida yangilik va xilma-xillikni muvaffaqiyatli qabul qilish qobiliyati shakllandi va harakatlarida aniqlik, maqsadlilik yuzaga keldi, 3 ta autist bolada ushbu ko'rsatkich o'rtachadan yuqori bo'lgan bo'sa, 2 ta bolada hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtirish nisbatan o'rtacha namoyon bo'ldi yani kutilgan natijaning 50 foiziga erishildi. Tadqiqot ishtirokchilarining bittasida (autizmning og'ir ko'rinishi bo'lganligi sababli) natijalar nisbatan samarasiz bo'lganligiga qaramay bola harakatlarida sodda ko'nikmalar yuzaga keldi. Autizmning og'ir formalari bilan uzoq muddatli korreksiyalash ishlari olib borilganda kerakli natijaga erishish mumkin.

Autistik bolani hissiy tarbiyalashning tuzatish ishlari quyidagicha amalga oshirildi:

- turli xil o'yinlar;
- ijobiy hissiy fonga ega bo'lgan illyustratsion materialdan foydalanish;
- oilaviy albom fotosuratlarini ko'rish;
- bolalar uchun maxsus televizion dasturlarni birgalikda ko'rish;
- har xil hissiyotlarning yozuvlarini tinglash;
- ertaklar, o'yinlardagi turli xil belgilar bilan hamdardlik;
- oyna oldida shaxsiy yuz ifodalarini tekshirish;
- har xil intonatsiyali hayvonlarga taqlid qilish qobiliyati.

Autistik bolaning hissiy sohasini rivojlantirish jarayonida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- o'yin terapiyasi;
- psixo-gimnastika;



- ma'lum bir mavzu bo'yicha suhbat;
- rasmlarda, musiqada shaxsiy hissiy holatni shakllantirish;
- ko'rgazmali qurollar (fotosuratlar, rasmlar, diagrammalar, grafik tasvirlar, belgilar);
- psixologik trening elementlari.

Ushbu terapiyalardan foydalanishda ya'ni ijtimoiy jihatdan yetarlicha xulq-atvor shakllarini ishlab chiqish va rivojlantirishda autistik bolaning hissiy, shaxsiy rivojlanishidagi muammolar va xususiyatlarni hisobga olish kerakligini ta'kidlash kerak.

Izlanishlarim natijasida quyidagi xulosalarga keldim:

1. Autizmdagi hissiy sohadagi buzilishlar hayot sifatini keskin pasaytiradi va birinchi navbatda ularni tuzatish kerak, chunki ular ushbu sindromning yetakchi majmuasidir.

2. Autizmi tuzatish bo'yicha mavjud yondashuvlarni ikkiga bo'lish mumkin:

ulardan birinchisi, muammolarning faqat bir qismini hal qiladi - jamiyatda autizm bilan kasallangan bolaning ijtimoiy maqbul xatti-harakatlarini tashkil etishga imkon beradigan, bolaning hissiy va intellektual rivojlanishini ta'minlay olmaydigan yondashuvlar;

Hissiy sohani rivojlanishidagi buzilishlarni tuzatishga asoslangan, barcha boshlang'ich biologik yetishmovchiligi bilan, bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida ko'proq "normal" bo'lishiga imkon beradigan psixologik vositalarni topishga qaratilgan, bolani odamlar va atrof-muhit bilan munosabatda yanada chidamli, faol va moslashuvchan bo'lishiga imkon beradigan sharoitlarni izlashga qaratilgan yondashuvlar.

3. Emotsional buzilishda psixokorreksiya oldin va keyin tashxis qo'yish, autizmlil bolalarda emotsional darajalar rivojlanishidagi miqdoriy va sifat o'zgarishlarini kuzatishga imkon berdi. Xususan, birlamchi diagnostikada har bir autist bola uchun eng maqbul psixokorreksiya dasturini tanlashga imkon berdi.

4. Psixokorreksiya natijasida eksperimentni tugatgandan so'ng, barcha autistik bolalar hissiy sohada yaxshilanishlarni boshdan kechirdilar, xususan, har bir hissiy darajadagi buzilishning og'irligi nisbati pasayishiga imkon beradi.

## **XULOSA**

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalikdagi autizmda buzilishlar atrof-muhit bilan aloqada past chidamlilik tufayli yuzaga keladi, bu yangilikka yo'naltirilgan xatti-harakatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolaning yaqin odamlar bilan, shuningdek, uning atrof-muhit haqidagi g'oyalarini cheklash, stereotip va bo'laklarga



bo'lish uning mavjud bilim va ko'nikmalarini erkin qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz autizmli bolaning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirishning o'ta muhim roli to'g'risida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin yani, shaxsiyatni shakllantirishning zaruriy sharti - bu erta yoshda ta'sirchan sohani rivojlantirish va hissiy bog'lanishni shakllantirishdir. Autizm sindromli bolalar bilan ta'sirchan hissiy sohani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish ishlari ularga normal hissiy rivojga qaytishi uchun katta imkoniyatlar beradi. Faqatgina boshqa odamlar bilan aloqada bo'lgan umumiy tajribada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan atrof-muhit bilan faol mazmunli munosabatlarni rivojlantirish orqaligina autizmni yengib o'tilishi mumkin.

### **REFERENCES**

1. Kanner L., Autistic disturbances of affectiv contact. –Nevrous Child. 1943,
2. 217 p
3. Rimland B. Infantile autism. – NY.:Appleton-Centure-Crofts.1964, 282 p
4. Вроно М.Ш. О раннем детском аутизме (синдром Каннера).- Педиатрия,
5. 1976 № 7
6. Башина В.М. Катамнез больных с синдромом раннего инфантильного
7. аутизма. Журнал невропатология и психиатр., 1977, в.10

## **PANDEMIYA SHAROITIDA JAZOIRNING IJTIMOYIY-SIYOSIY ISLOHOTLARNING ISTIQBOLLARI VA ULARNING IQTISODIY OMILLAR BILAN ALOQASI**

**Rasulov Otabek Abdulazizovich**

O'zbekiston xalkaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari.

### **ANNOTATSIYA**

*Koronavirus pandemiyasi va unga bog'liq cheklov choralari, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, so'nggi yillarda allaqachon pasayib ketgan Jazoir iqtisodiyotiga zarba berdi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda IDR bo'yicha YaIM o'sishi 1,5% ga etdi va 2019 yilning birinchi choragida shu darajada saqlanib qoldi. Uglevodorod sohasidagi o'sish sust edi: iqtisodiy faollik 2018 yilda 6,5% ga va 2019 yilning birinchi choragida 7,7% ga kamaydi. Uglevodoroddan tashqari o'sishda 2018 yilda 3,4% va 2019 yilning birinchi choragida 3,9% ga ozgina o'sish kuzatildi.*

**Kalit so'z:** *Pandemiya, Jazoir, ijtimoiy-siyosiy, islohot, iqtisodiyot.*

### **ABSTRACT**

*The coronavirus pandemic and related restrictive measures, as noted above, have hit the Algerian economy, which has already declined in recent years. According to the World Bank, GDP growth on IDR in 2018 reached 1.5% and remained at the same level in the first quarter of 2019. Growth in the hydrocarbon sector was slow: economic activity fell to 6.5% in 2018 and 7.7% in the first quarter of 2019. Non-hydrocarbon growth saw a slight increase of 3.4% in 2018 and 3.9% in the first quarter of 2019.*

**Keywords:** *Pandemic, Algeria, socio-political, reform, economy.*

### **KIRISH**

Koronavirus pandemiyasi va unga bog'liq cheklov choralari, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, so'nggi yillarda allaqachon pasayib ketgan Jazoir iqtisodiyotiga zarba berdi. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda IDR bo'yicha YaIM o'sishi 1,5% ga etdi va 2019 yilning birinchi choragida shu darajada saqlanib qoldi.[1] Uglevodorod sohasidagi o'sish sust edi: iqtisodiy faollik 2018 yilda 6,5% ga va 2019 yilning birinchi choragida 7,7% ga kamaydi. Uglevodoroddan tashqari o'sishda 2018 yilda 3,4% va 2019 yilning birinchi choragida 3,9% ga ozgina o'sish kuzatildi.

Afrika taraqqiyot bankining taxminlariga ko'ra, Jazoirning yalpi ichki mahsulotining o'sishi 2019 yilda uglevodorodlar narxining biroz ko'tarilishi fonida

2,3 foizni tashkil etdi. Nisbatan zaif iqtisodiy o'sish asosan uglevodorod sohasidagi qo'shilgan qiymatning pasayishi bilan bog'liq, uglevodorod bo'lmagan sektorda o'sish mo'tadil bo'lib qoldi, qisman xususiy iste'molning pasayishi va davlat investisiyalarining muzlashi bilan bog'liq.[2]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Siyosiy noaniqlik va hukumat tomonidan olib borilgan korrupsiyaga qarshi kurash mamlakatning uglevodorod bo'lmagan sektori pasayishiga yordam berdi. Jazoir iqtisodiyotining turli sohalarida bir qator yirik korxonalarining yuqori lavozimli rahbarlari korrupsiya ishlarini tergov qilish munosabati bilan hibsga olingan, bu esa boshqaruv va nazoratning keskin o'zgarishi tufayli iqtisodiy buzilishga olib kelgan.

Bundan tashqari, uglevodorod sektoriga jahon bozorida uglevodorod xomashyosi narxlarining pasayishi, eksportning pasayishi va uzoq vaqt davomida ichki energiya iste'moli yuqori bo'lganligi sababli neft va gaz qazib olishni ko'paytirish rejalarining bajarilishidagi noaniqlik salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, etti yillik davr mobaynida, 2010 yildan 2017 yilgacha. Jazoir Demokratik Respublikasida ichki gazdan foydalanish hajmi 30 foizdan oshdi va 2019 yilga kelib 41 milliard kubometrni, eksport esa 54 milliard kub metrni tashkil etdi. Belgilangan davrda gaz qazib olish atigi 13 foizga oshdi. Mutaxassislarning taxmin qilishicha, 2030 yilga kelib Jazoirda ishlab chiqariladigan gazning 75 foizi ichki bozorga yo'naltiriladi. Xuddi shunday holat neft sohasida ham kuzatilgan. 2012–2017 yillar uchun neft-kimyo mahsulotlarining o'rtacha kunlik ichki iste'moli 20% ga o'sdi, qayta ishlash hajmi atigi 10% ga o'sdi, o'rtacha kunlik neft qazib olish 12% ga, xom neft eksporti esa 22% ga kamaydi.

2019 yilning 10 oyida (yanvar-sentyabr) Jazoirning umumiy gaz va neft eksporti 9 foizga kamaydi, energetika sohasidan tushumlar 2018 yilning shu davrida 29 milliard dollarga nisbatan 24 milliard dollarni tashkil etdi. Ijtimoiy sohadagi salbiy tendensiyalar, mamlakat aholisining noroziligi va yangi norozilik oppozisiyaning eski siyosiy hokimiyat tizimini tarqatib yuborish jarayonini tugatish talablariga sabab bo'ldi.

Jazoirda neft va gaz sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan hukumat choralariga qaramay, bu jarayon qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ushbu sohadagi ob'ektlar ko'pincha kechikish bilan etkazib berilmoqda, bu esa ichki talabning o'sishi fonida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga imkon bermaydi.

Agar bu holat davom etsa, eksportdan tushadigan daromad ham pasayishda davom etadi. Shu bilan birga, JXDR rahbariyati slanesli gaz konlarini o'zlashtirish

bo'yicha yangi maqsadlarni belgilab qo'ydi, ularning zaxiralari, Alnaft milliy resurs agentligi ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 20 trillion kub metrni tashkil etadi va 2030 strategiyasi dasturiga kiritilgan islohotlarni amalga oshiradi. Agar ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, "Jazoirning neft va gaz sektori rivojlanish uchun kuchli turtki oladi va investisiya jozibadorligini oshiradi, chet ellik sheriklarning ushbu mamlakatga bo'lgan qiziqishi ortgani haqida gapirmasa ham bo'ladi".[3]

Mamlakat neft va gaz sanoatining investisiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan 2019 yil dekabr oyida Jazoirda qabul qilingan "Uglevodorodlar sohasidagi faoliyatni tartibga solish to'g'risida"gi 19-13-sonli yangi qonun ushbu sektor holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. [4] Yangi qonunda Jazoir Demokratik Respublikasi hududida er osti boyliklaridan foydalanish shartlarini belgilaydigan neft va gaz shartnomalari turlarini ko'paytirish va ilgari tuzilgan neft va gaz shartnomalarini yangi shartlarga o'tkazish imkoniyatlari ko'zda tutilgan. Shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan shartlar bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash va valyutani tartibga solish qoidalarini soddalashtirish, shartnomalar tuzish va yuritishning yanada moslashuvchan shartlari bilan yanada aniq soliq qoidalarini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, G'arb investorlari tomonidan Jazoir qonunchiligining nomukammalligi deb hisoblangan shart – Jazoirdagi har qanday xorijiy investisiyalar uchun milliy sherikning 51% dan 49% gacha bo'lgan majburiy ishtiroki (51% bir yoki bir nechta Jazoir yuridik shaxslariga tegishli bo'lishi kerak) bo'lib qolmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Jazoir hukumatining investisiya qonunchiligini yangilash rejalari hali ham "qog'ozda" qolmoqda. Bozor islohotlari sohasidagi mutaxassislarning fikriga ko'ra, hokimiyatning investisiya muhitini liberallashtirishni istamasligi sabablari, mamlakat rahbariyatining strategik sektor ustidan nazoratni yo'qotishdan qo'rqishi va Jazoir ishbilarmonlarining G'arb biznesi bilan teng sharoitlarda raqobatlashishni istamasligi edi. Shu bilan birga, inqiroz davrida Jazoir rahbariyati chet el investisiyalarini rag'batlantirish bo'yicha misli ko'rilmagan choralarni ko'rdi, shu jumladan, ehtimol ularning 49% / 51% qoidasini bekor qilishga yaqinlashdi, bu ularning mamlakatda ishlashini ancha soddalashtiradi. Bekor qilish strategik faoliyatga taalluqli emas, ammo bu sohada cheklovlar bekor qilinishi mumkin.

Pandemiya inqirozi xususiy biznesni xodimlarni va ishlab chiqarish hajmlarini qisqartirishga majbur qilmoqda. Butun dunyoda bo'lgani kabi, Jazoir iqtisodiyotining turizm, umumiy ovqatlanish va qurilish sohalari eng qattiq zarbalarga duch keldi. Bundan tashqari, agar boshqa mamlakatlarda oziq-ovqat va farmasevtika kabi ba'zi tarmoqlar hatto pandemiyadan foydalansa, Jazoirda vaziyat

boshqacha – mamlakatning barcha sohalari zarar ko‘rdi. Masalan, gigiena va sanitariya holati, ishchilarning ahvolini tibbiy nazorat qilish, jamoat transporti faoliyatidagi uzilishlar bo‘yicha yangi ish talablari tufayli korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish xarajatlari narxi qo‘shimcha ravishda 10-15% gacha ko‘tarildi.

Farmasevtika sohasida, Farmasevtika operatorlari milliy ittifoqi vakili va Biofarm laboratoriyalari direktori Abdelvaheb Kerrarning so‘zlariga ko‘ra, aksariyat korxonalar avvalgidek ishlashni davom ettirmoqdalar, ammo inqiroz tufayli ayrim tovar guruhlariga talabning pasayishi,[5] shuningdek, texnologik bo‘shliq tufayli ularning ishlab chiqarilishi kamaydi, xorijiy komponentlarning ta‘minot zanjirlari va ularning milliy valyutaning qadsizlanishi va aholining sotib olish qobiliyatining pasayishi tufayli narxlarning ko‘tarilishi yuzaga keldi.

Shunday qilib, Jazoir uch marta iqtisodiy inqirozga duch keldi: sog‘liqni saqlash, iqtisodiy va davlat boshqaruvi. Pandemiya sharoitida mamlakat byudjet xarajatlarini qisqartirdi va bir qator sohalarda, shu jumladan energetika sohasidagi investisiya loyihalarini 2020 yilga qoldirdi, bu davlat byudjetining 60 foizini tashkil qiladi va eksportdan tushadigan umumiy daromadning 93 foizini tashkil etadi.

2020 yil iyun oyida Prezident A. Tebbun mamlakatning neft daromadlariga bog‘liqligi va pandemiya tomonidan qo‘yilgan cheklovlar oqibatlari bilan bog‘liq o‘sib borayotgan iqtisodiy muammolarni hal qilishga urinish uchun hukumatni o‘zgartirdi. Jazoir Markaziy banki rahbari Aymen Benabarahman, Iqtisodiyot vaziri Sonatrach Abdelmajid Attar – energetika vaziri davlat neft va gaz kompaniyasining sobiq bosh direktori etib tayinlandi. O‘zgarishlar Jazoir iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish dasturi doirasida yangi energiya o‘tish bo‘limini yaratishni o‘z ichiga oldi. Shuningdek, yangi kabinetga raqamli iqtisodiyot, kichik va o‘rta biznes, chet eldagi Jazoir jamoatchiligi va sport yutuqlari bo‘yicha vazirlar kiradi.

Iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun 2020 yil iyul oyida Jazoir Demokratik Respublikasi hukumati yangi “Iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish rejasi” doirasida iqtisodiy islohotlar boshlanganligini e‘lon qildi, bu 2020 yilda 20 milliard dollarni tejashga imkon beradi,[6] shu jumladan energetikaga qaramlikni kamaytirish orqali importning qisqarishiga olib keladi.

Prezident A. Tebbun bank tizimini isloh qilishni, kerakli tovarlarni import qilishda milliy parkdan foydalangan holda import narxini pasaytirish bo‘yicha choralarni ko‘rishni rejalashtirmoqda. Jazoir har yili tovarlarni, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish uchun taxminan 45 milliard dollar sarflaydi,



chunki 44 million aholining o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish uchun ichki ishlab chiqarish etarli emas.

Mamlakat hukumati, shuningdek, iqtisodiyotni moliyalashtirishning yangi manbasini yaratish uchun islom moliya sektorini ishga tushirish rejasini tezlashtirishni rejalashtirmoqda. Islomiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish mahalliy va boshqa arab investorlarini jalb qilishi mumkin.[7]

Jazoirlilik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, bank sektorini isloh qilish mumkin, ammo ma'lum sharoitlarda, shu jumladan bank kartalaridan foydalanishning ko'payishini (mamlakatdagi to'lovlarning ko'pi naqd pul bilan amalga oshiriladi) oshirish kerak.

Bundan tashqari, Prezident A. Tebbunning sog'liqni saqlash inqirozi tugaganidan keyin xorijiy investorlar yordamida uglevodorodlardan tashqari, tabiiy ravishda tabiiy boyliklarni, 'ni uran, oltin va fosfatlarni faol ravishda rivojlantirish rejalari to'g'risidagi tashabbusi muhim qaror bo'ldi.[8] Uglevodorod bo'lmagan sohani rivojlantirish byudjet va savdo defisitini og'irlashtirgan neft va gaz daromadlarining pasayishini engishga yordam beradi. Shuningdek, A. Tebbun qishloq xo'jaligini rivojlantirish va chet eldan sotib olish narxini sezilarli darajada kamaytirish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

Uch karra inqirozdan chiqish uchun, deydi iqtisodchilar, Jazoir hukumati iqtisodiyotni liberallashtirish va mustahkamlash uchun tezkor choralar ko'rish va keng ijtimoiy integratsiyaga asos yaratishi kerak. Xususan, ular raqobatni kuchaytirishi, raqamli iqtisodiyotni yaratishni rag'batlantirishi va mamlakatdagi davlat korxonalarini modernizatsiya qilishi kerak.

Jazoir iqtisodiyoti, mamlakatning aksariyat yirik korxonalarini va banklari hanuzgacha davlat qo'lida. Raqobatni kuchaytirish va monopoliyaga qarshi tizimni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar dastlabki bosqichda bo'lib qolmoqda, huquqiy va sud tizimlari hali ham zaif va qonunlarni to'liq bajarishga qodir emas.

Kirishning yuqori to'siqlari tufayli Jazoirliliklarning aksariyati norasmiy sektorda kam ish haqi va ijtimoiy sug'urtasiz ishlaydi. Jazoirning rivojlanmagan bozori, xususan, turizm va mehmondo'stlik kabi ko'p mehnat talab qiladigan xizmat ko'rsatish sohalariga chet el investisiyalarini jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. G'arb ekspertlari mamlakatda 1960-yillarning boshlarida mustaqillikka erishganidan beri mavjud bo'lgan taqsimotning samarasiz shakli Jazoir iqtisodiy rivojlanishining yagona harakatlantiruvchisi bo'lganligini ta'kidlamog'dalar. Biroq, yirik milliy davlat korxonalarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, yuqori davlat sektorida ish bilan



ta'minlash va katta davlat subsidiyalari "barqaror o'sishning achinarli samarasiz formulasi" ekanligi isbotlandi.[9]

### **XULOSA**

Shu bilan birga, mamlakatdagi ko'plab siyosiy kuchlar Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish loyihasini qo'llab-quvvatlamogda. Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha muvaffaqiyatli referendum o'tkazilgan taqdirda, Prezident A. Tebbun mamlakatdagi koronavirus pandemiyasi tufayli vaziyatning yomonlashuvi sharoitida jiddiy, shu jumladan mashhur bo'lmagan, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun muhim imkoniyatlarga ega bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. Algeria Economic Outlook. Macroeconomic performance and outlook. 2020. // African Development Bank Group. - <https://www.afdb.org/en/countries-north-africa-algeria/algeria-economic-outlook>.
2. Гулиев И. А., Домрачев М.А. Нефтегазовый сектор Алжира: современное состояние и перспективы. // Журнал «Экономика: вчера, сегодня и завтра» (Economics: Yesterday, Today and Tomorrow). – Ногинск, 2019, Vol. 9, стр. 180.
3. Gazprom EP International обсудила с АЛНАФТ новый закон об углеводородах. // Интернет-сайт Energy Base. – 17 февраля 2020 г. - <https://energybase.ru/news/companies/delegacia-gazprom-ep-international-obsudila-s-alnaft-novuj-zakon-ob-uglevodor-2020-02-17>
4. Балмасов С.С. Пандемия коронавируса усиливает экономический кризис в Алжире // Институт Ближнего Востока. - 9 июля, 2020. - <http://www.iimes.ru/?p=71226>;
5. Балмасов С.С. Алжир подсчитывает экономические потери от пандемии коронавируса. // Институт Ближнего Востока. - 22 июля 2020 г.
6. Algeria's new economic reforms aims to save \$20 billion by the end of 2020. // The New Arab. – 14 July, 2020. - <https://english.alaraby.co.uk/english/news/2020/7/14/algerias-new-economic-reforms-aims-to-save-20-billion/>
7. López, Celia. Algeria relies on Islamic finance to shore up its economy // Atalayar magazine, #27. – Madrid, 17 August, 2020. - <https://atalayar.com/en/content/algeria-relies-islamic-finance-shore-its-economy>.
8. Hamid Ould Ahmed. Algeria leader vows to develop new resources beyond energy to ease economic crisis // Reuters. – May 2, 2020. - <https://www.reuters.com/article/us-algeria-economy-idUSKBN22D6IK>

- 
9. Arezki Rabah. How Algeria can boost its economy. // World Economic Forum. – April 11, 2019. - <https://www.weforum.org/agenda/2019/04/how-to-liberate-algeria-s-economy/>

## **YANGI O‘ZBEKISTON: AJDODLARIMIZNING BOY MEROSI VA QO‘SHNICHILIK MUNOSABATLARI**

**Pardayeva Marhabo Davlatovna**

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi

Buxoro viloyati bo‘limi rahbari,

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada hozirgi yangi O‘zbekiston sharoitida qo‘shnichilik munosabatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan. Ajdodlarimizning boy madaniy merosida qo‘shnichilik munosabatlarining falsafiy talqini ochib berilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining do‘stona munosabatlarining turli xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Hozirgi kunda qo‘ni qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora tadbirlar yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Markaziy Osiyo, qo‘ni qo‘shnichilik munosabatlari, madaniy meros, taraqqiyot, mehmondorchilik.*

## **НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: БОГАТОЕ НАСЛЕДИЕ НАШИХ ПРЕДКОВ И ОТНОШЕНИЯ СОСЕДСТВА**

**Пардаева Мархабо Давлатовна**

Руководитель Бухарского регионального отделения Республиканского

центра духовности и просвещения,

кандидат философских наук, доцент

### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется роль добрососедства в развитии общества в новых условиях современного Узбекистана. Раскрывается философская трактовка добрососедства в культурных наследие наших предков. Уделяется особое внимание на различные особенности дружеских отношений народов Средней Азии. Изложены меры, принимаемые нашим государством и правительством для дальнейшего укрепления добрососедских отношений.

**Ключевые слова.** Центральная Азия, добрососедские отношения, культурное наследие, развитие, гостеприимство.

## **NEW UZBEKISTAN: A RICH HERITAGE OF OUR ANCESTORS AND NEIGHBORHOOD RELATIONS**

**Pardaeva Markhabo Davlatovna**

Head of the Bukhara regional branch of the Republican Center for Spirituality  
and Education, PhD in Philosophy, assistant professor

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the role of good neighborliness in the development of society in the new conditions of modern Uzbekistan. The philosophical interpretation of good neighborliness in the cultural heritage of our ancestors is revealed. Special attention is paid to various features of friendly relations between the peoples of Central Asia. The measures taken by our state and government to further strengthen good-neighborly relations are outlined.*

***Keywords.** Central Asia, good neighborly relations, cultural heritage, development, hospitality.*

***Olamahli, bilingiz-kim, ish emas dushmanlig',  
Yor o'ling bir-biringizg'a-kim, erur yorlig' ish.***

Alisher Navoiy

### **KIRISH**

Qadimiy davlatchiligimiz nuqtai nazaridan qaraganda, XXI asrning 20-yillari – Milliy tiklanishdan milliy yuksalish davri hisoblanadi. Muayyan mamlakatda ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, u haqda g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga kelib, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari rivojlanib, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat rivojlanadi. Bu o'z navbatida, mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni ham hal etish imkonini yaratadi. Davlat o'z faoliyatida ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida qaragandagina, uning barqaror taraqqiy etishi uchun imkoniyatlar kengayib boradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tadqiqot manbalarini ajdodlarimizning boy madaniy merosi, Sharq mutafakkirlari asarlari, tazkira va maqomatlar, qo'ni qo'shnichilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning ma'naviy va huquqiy asoslari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: tadqiqot muammosiga doir Sharq mutafakkirlari asarlarini o'rganish va tahlil qilish.

## **NATIJALAR**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida joriy yilning 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat... Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [1], deb ta’kidlagan edi.

Shuni qayd etish kerakki, mamlakatimizda ro‘y berayotgan har qanday yuksalishlar, e’tirofga loyiq yangiliklarning barchasi o‘zining mustahkam ma’naviy asoslariga ega.

Yangi O‘zbekiston sharoitida umuminsoniy qadriyatlarimiz yanada chuqurroq ildiz otdi. Xalqimizning azaliy odatlariga amal qilib, qo‘shnichilik munosabatlarini tiklash, saxovat ko‘rsatish, bag‘rikenglikni namoyon qilish, turar joylarni obod qilish, ta’lim-tarbiya o‘choqlarini qurish va ta’mirlash, yo‘llar, ko‘priklar qurishga e’tibor kuchaytirildi. Bu davrda katta bir oilaning farzandlari O‘zbek, Tojik, Turkman, Qirg‘iz va Qozoqlar ba’zi bir masalalarda vujudga kelgan araz va ginalarni unutib, yana o‘zlarining tarixan tarkib topgan oilalariga qaytdilar. Ular munosabatlarining yaxshilanishiga to‘siq, parda bo‘lib turgan devorlarga olib tashlandi. Muammolarning yechimini topish birlik, muhokama qilish, hal qilish, taraqqiyotga erishishda o‘zaro hamkorlik qilish, hamjihat bo‘lish - bularning bari Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshdi.

Tili, dini, an’ana va urf-odatlari bir-biriga o‘xshash xalqlar tarixiy taraqqiyot davomida she’r, dostonlarda, adabiyotning barcha yo‘nalishlarida bir-birlariga nisbatan o‘zaro hurmatda bo‘lganlar, quda andachilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yganlar. Turkman xalqi Alisher Navoiy g‘azallarini sevib o‘qiganidek, o‘zbek xalqi ham Maxtumlulini o‘z shoiridek ardoqlaydi. Atoqli shoir “Firog‘iyning ikki ko‘zi bor, biri turkman bo‘lsa, biri o‘zbekim”, deya ikki xalq o‘rtasidagi qardoshlik va do‘stlikni mehr bilan tarannum etgan edi. Bugun ushbu do‘stlik an‘analari yanada yangi bosqichga ko‘tarildi. Markaziy Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqdir. Uning ma’naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan

yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida qo'ni-qo'shnicilik munosabatlarini qayta yo'lga qo'yish, shuningdek jahon sivilizatsiyasidagi munosib va adolatli o'rnini tiklashga erishildi.

O'zbekiston-Tojikiston do'stligi, qo'shnicilik munosabatlari o'zgacha tus oldi. O'zbekistonda tojiklar, shuningdek Tojikistonda o'zbeklar juda ko'p istiqomat qiladi. Mamlakatimizda 15 ta tojik milliy madaniyat markazi millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda. Tojik tilida gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radio eshittirishlar efirga uzatilmoqda. 255 ta maktabda ta'lim tojik tilida olib borilayotir. Bir qator oliy o'quv yurtlarida shunday fakultetlar va bo'linmalar faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarning o'zida tojik millatiga mansub 130 fuqaro yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, 100 nafar mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan Prezident Shavkat Mirziyoevning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan 10 ta eng muhim tashabbuslari aniqlanib, ular ichida eng ko'p ovozga (96 ta) ega bo'lgan tashabbus yaxshi qo'shnicilik munosabatlari, chegaralarning ochilishi va nazorat-kiritish punktlarining tashkil etilishi, ya'ni Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha masalalar bo'yicha konstruktiv muloqot o'rnatilgani e'tirof etildi.

Ajdodlarimizning boy merosida qo'shnicilik munosabatlariga juda katta e'tibor berilgan.

Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vassalam: «Kimki urfda yaxshi ishni joriy qilsa, shu yaxshi ishning savobi va ergashib shu yaxshi ishni qilgan kishining savobi unga qiyomatgacha yetib turadi...» [3], deya marhamat qilganlar. Bunday misollarni Qur'oni Karim va Hadisi shariflardan ham ko'plab keltirish mumkin. Masalan, Baqara surasi, 195 oyati mazmuni quyidagicha: «Yaxshilik qiling! Albatta, Alloh yaxshilik qilguvchilarni sevadi». Hadisda esa: «Mening rizom yo'lida bir-birlarini sevganlarga muhabbatim sobit bo'lgay. Mening rizom uchun bir-birlarini ziyorat etganlarga, Mening rizom uchun bir-birlaridan yordam va ko'magini ayamaganlarga muhabbatim sobit bo'ldi», deb aytiladi. Ushbu oyati karima va hadisi sharifdan anglashiladiki, insonlar o'zaro mehr-muhabbatli, sadoqatli, bag'rikeng bo'lsalar, bir-birlarini Alloh rizosi uchun moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlab tursalar, unday insonlarni Alloh ham sevadi.

O'tmishda allomalarimiz kishilarni yaxshilik qilishga, bag'rikenglikka undabgina qolmay, balki eng avvalo, o'zlari bu borada elga namuna ko'rsatganlar. Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy butun umri davomida insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug'lagan. Kishilar g'amida bo'lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo'lgan. Husayn Boyqaro



Navoiyga yo‘llagan maktublarida «Davlatning buyuk kishisi, xayrli ishlarning asoschisi...» degan so‘zlar bilan boshlaganligi ham bejiz emas, albatta.

Xalqimizda “Qo‘shning tinch, sen tinch”, degan ajoyib naql takror va takror esga olinadi. Yon atrofimizda noxush voqealar sodir bo‘layotganda bunga aslo befarq bo‘la olmaymiz. Insonning, faqat o‘z dardi bilan emas, o‘zgalar dardi bilan ham yashashligi uni bu nomga loyiq ekanligini bildiradi. Alisher Navoiy bobomiz aytganidek:

*Odami ersang demagil odami,*

*Oningkim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami [11-14].*

Qo‘shnichilik munosabatlarida mehmondorchilik an‘analarning roli beqiyosdir! Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro bir-birlarining uylariga xalq vakillari bilan borib, tarixan tashkil topgan qadriyat va udumlarni qayta tiklashga muvaffaq bo‘lmoqdalar. Mehmondorchilik, ya‘ni mehmon kutish va kuzatish odati dunyodagi aksariyat xalqlarga xos xususiyatdir. O‘zbek xalqi bu odatni juda qadim zamonlardan ixtiyor qilgan. Shuning uchun madaniyatimizning ko‘hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning odamiylik, saxovat, madaniy va ma‘naviy aloqasi – bag‘rikenglik muloqoti mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olingan. O‘zbeklar, “mehmonxonang tor bo‘lsa ham, mehru diling keng bo‘lsin”, deyishadi.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma”sida: “Har vaqt mehmonlarning uyingga oyoq qo‘ysalar, sen barcha odamlarning bilan ularning oldilariga chiqqil va yaxshi so‘z bila muloqot qil, to ular sening shukringni aytsinlar” [4] deb nasihat qilgan.

Turkiy xalqlar qadimdan mehmondorchilik odatiga qat‘iy rioya qilishgan. Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrning nodir namunasi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk” [5] asarida bu haqda quyidagi misralar yozib qoldirilgan:

Mehmon kelsa, o‘tqazg‘il, hordiq olib, tinch bo‘lsin.

Oti ham yorug‘likda, arpa somonga to‘ysin.

Umar Xayyom yorug‘ dunyoni kirib-chiqiladigan rabotga qiyoslab, bunda har kuni boshqa-boshqa qavmlar qo‘nim topadi deydi:

Dunyo yak rabotu du dar ast,

Dar in rabot har ko‘z qavmi digar ast.

Buyuk alloma Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai sultoniy” asarida mehmon kutish har bir insoning olijanob xislatiga aylanishi kerakligi xususida to‘xtalib, mehmon kutish odobi va qoidalarini ko‘rsatib o‘tadi: mehmonga halol va pokiza taomni taqdim etish; mehmonni biror g‘arazli maqsad yoki riyo uchun kutmaslik. Uningcha, mehmon qancha kelsa ham mezbom ranjimasligi, chaqirilmagan

mehmonni ko'proq hurmat qilishi, baxillik qilmasligi, mehmondan narsani qizg'anmasligi kerak, deb shunday yozadi:

Kimki ko'rsang bu jahonda o'z rizqin teradir,  
Xoh sening uyingda bo'lsin, xoh o'z ayvonida.  
Sen karam xonini yoz ham shukur qil, parvardigor  
Berdi oshu non do'stga do'st dasturxonida [6].

Qo'shnichilik munosabatlarining tiklanishi bag'rikenglik timsolidir! Bag'rikeng inson qalbini quyoshga o'xshatadilar. Shu quyosh taftidan mehrga tashnalar bahra oladilar, bulutli kunlar yorishadi, ishonch, imon, e'tiqod mustahkamlanadi, hayot jozibasi ortadi. Shunday kishilar tufayli ezgulik bor, yaxshilik bor. Imom G'azzoliy hazratlarining «Muqoshafat ul-qulub» nomli kitoblarida bu haqda shunday deyiladi:

Jonkuyarlik odatingni hech kimsadan ayama,  
Kunlar o'tib ketdi endi, bo'ldi endi, bas, dema.  
Imkon qadar yaxshilik qil, yaxshilikning yo'li keng,  
Birov uchun bo'lgin yoqa, birov uchun, mayli, yeng.  
Kuching yetsa, hojat chiqar, dindoshingga mador bo'l,  
Dardini ol, g'amdan qutqar, g'am yo'lga devor bo'l.  
Kenglik-zo'rlik paytlaringda yaxshilik qil, ey shunqor!  
Sening ham bir kuning kelar bir hojatga intizor.

Yangi O'zbekiston o'zining yaqinlariga, qo'shnilariga qalb taftini darig' tutmaslikni o'zining oliy maqsadi deb biladi.

Azaldan qardosh xalqlar bir-birining salomatligi xususida qayg'urgan, boshiga musibat tushganda yordam qo'lini cho'zgan, muammoli vaziyatlarni o'zaro tahlil qilgan. Bu yuksak umuminsoniy, milliy qadriyat hozirgi kunda ham butun dunyoni larzaga keltirgan pandemiya sharoitida xalqlarimizning salomatligini saqlash, ushbu virusga qarshi bahamjihat kurashish maqsadida onlayn videoanjumanlar o'tkazishni taqozo qildi.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari koronavirus pandemiyasi tarqalishiga yo'l qo'ymaslik borasida amalga oshirilayotgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashib, ushbu xavfli yuqumli kasallikka qarshi kurashish maqsadida mamlakatlar sog'liqni saqlash vazirliklari va boshqa vakolatli idoralari o'rtasidagi sheriklikning aniq mexanizmlari ishlab chiqildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida xalqimizning unutilayozgan qadimiy an'ana va urf-odatları qayta tiklanishi barobarida ularning ijtimoiy ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasidagi tinchlik va barqarorlik butun mintaqada mo'tadil siyosiy iqlim, tinchlik va barqarorlik bardavom bo'lishida juda katta ahamiyatga

egadir [7-10]. Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvlari tashkil etilgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Mazkur uchrashuv doimiy muloqot maydoniga asos soldi, mintaqada xavfsizlik, barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. O'zbekiston mintaqa mamlakatlari, xususan, Tojikiston va Qirg'iziston bilan eng nozik masalalar yechimida, ayniqsa, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida pragmatik yondashib, tarixiy kelishuvlarga erishmoqda. xususan Prezidentimiz taklif etgan «Ipak yo'li» viza rejimi transmilliy sayyohlik mahsuloti yo'lidagi to'siqlarni (qo'shni davlatlar chegaralarini kesib o'tishda viza, bojxona va chegara to'siqlari) yengishga imkon beradi. Amalda, viza olgan chet ellik sayyoh, masalan, O'zbekistonda, Qozog'istonga yangi viza olishiga hojat qolmaydi - u avtomatik ravishda bitta safar davomida boshqa mamlakatga tashrif buyurish uchun noyob imkoniyatga ega bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi konferensiyada [2] Afg'oniston masalasida nafaqat Markaziy Osiyo, shu bilan birga, Janubiy Osiyo davlatlari yakdillik namoyish etib, ikki mintaqada o'rtasida hamkorlikni tiklash, bu masalada Afg'onistonning o'rni juda ham muhim ekanligi alohida e'tirof etildi. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov raislik qilgan Maslahat uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Natalya German xonim ham ishtirok etdi.

### **XULOSA**

Ta'kidlash joizki, qo'shni davlat rahbarlari uchrashuvi bu qardosh xalqlar munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi. Bu esa, albatta, mehnatkash xalqimizning ertangi buyuk istiqbolimizga bo'lgan ishonchini yuksaltiradi hamda bunyodkorlik borasidagi ishlariga yangicha shiddat bag'ishlaydi. Ulkan ma'naviyat ustuniga ega bo'lgan qo'ni-qo'shnilik munosabatlari yangi O'zbekiston sharoitida yanada munosib e'tirofga loyiq bo'ldi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida joriy yilning 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada

davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi.

2. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi konferensiyada so'zlagan nutqi.

3. А.Абдурахмонов «Саодатга элтувчи билим». – Т.: «Мовароуннахр», 2003 й

4. Кайковус "Қобуснома" 1994 й 53-бет

5. М.Саттор "Ўзбек удумлари" Т., 1993й. 70- бет

6. Хусайн Воиз Кошифий "Футувватномаи султоний ёхуд жавонардлик тариқати" Т.,1994 й. 64-бет

7. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОЗДАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 119-123).

8. Кенжаева, Х. П. (2021). ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИ МЕЗОНЛАРИ ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАЛҚИНИДА. *Academic research in educational sciences*, 2(3).

9. Кенжаева, Х. П. (2021). Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни. *Scientific progress*, 1(6), 957-961.

10. Кенжаева, Х. (2021). Миллий маънавий меросимизда таълим-тарбия масалалари. *Общество и инновации*, 2(6/S), 18-24.

11. Пардаева, М. Д. (2021). ЎТМИШИ ШАРАФЛИ, КЕЛАЖАГИ БУЮК ХАЛҚ МАЪНАВИЯТИДА ҲАЗРАТ АЛИШЕР НАВОЙЎ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(3).

12. Pardaeva, M. D. (2020). THE ROLE OF THE JADID'S THINKING VIEWS IN THE FIGHT AGAINST ENLIGHTENMENT AGAINST IGNORANCE. *Ўтмишга назар журналари*, 10(3).

13. Пардаева, М. Д., Узбекистан, Р., & Голди-Скотт, М. Р. (2020). Реформа школьного образования в Узбекистане: переосмысление методики обучения и оценки. ISBN 978-5-9929-0917-3 © ОГУ имени ИС Тургенева, 2020 © МОО «Академия информатизации образования», 2020 © Коллектив авторов, 2020, 25.

14. Пардаева, М. Д. (2018). Использование средств народной педагогики в воспитании толерантности у молодежи. *Проблемы педагогики*, (6 (38)).

---

## **O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI BARTARAF QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xolmurodov Nozimjon Qosimovich**

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada kambag‘allikni bartaraf qilishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Islom manbalari va Sharq mutafakkirlarining muruvvat, ijtimoiy yordam xususidagi fikrlaridan misollar keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar mazmuni yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Kambag‘allik, ijtimoiy himoya, yordam, qashshoqlik, dastur, hunarga o‘qitish, kambag‘allikni qisqartirish.*

## **ОСОБЕННОСТИ ИСКЛЮЧЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Холмуродов Нозимжон Косимович**

Соискатель

Бухарского государственного университета

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируются особенности борьбы с бедностью. Приводятся примеры из исламских источников и взглядов восточных мыслителей о милосердие и социальной помощи. Раскрывается содержание реформ, направленных на сокращение бедности в Республике Узбекистан.*

***Ключевые слова.** Бедность, социальная защита, помощь, программа, профессиональное обучение, сокращение бедности.*

## **FEATURES OF POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN**

**Kholmurodov Nozimjon Kosimovich**

Job seeker

Bukhara State University

### **ANNOTATION**

*The article analyzes the features of the fight against poverty. Examples are given from Islamic sources and the views of Eastern thinkers on mercy and social assistance. The content of reforms aimed at reducing poverty in the Republic of Uzbekistan is revealed.*



*Keywords. Poverty, social protection, assistance, program, vocational training, poverty reduction.*

## **KIRISH**

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda kambag'allik holatini o'rganish aniq chora-tadbirlarni talab etadi. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, uni tahlil qilish o'ta muhim masala hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish lozimki, kambag'allik holatini to'liq tugatib bo'lmaydi, biroq uning darajasi va hajmini iloji boricha kamaytirish mumkin. Bu esa, davlatning kambag'allikni negativ ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralarni doimiy ravishda olib borishini taqazo etadi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish, bunda avvalo, kambag'allik tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish; kambag'allik tushunchasining tarixiy tahlili va ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ochib berish; kambag'allikning ijtimoiy oqibatlarini muhokama qilish; shaxsda kambag'allikka moyillikni oldini olish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvar kuni [ 1 ] mamlakatimiz Parlamentiga qilgan Murojaatnomasida O'zbekistonda kambag'allik va unga qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor qaratgan edi. Unda so'nggi uch yil ichida «Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun» degan tamoyil asosida olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Ma'ruzada aholi farovonligini oshirish, uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarida aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi, har qanday mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjudligi xususida to'xtalib, turli hisob-kitoblarga ko'ra, kam ta'minlangan aholi qatlamlari taxminan 12-15 foizni tashkil etayotganligini uqtirib o'tgan edi.

Ba'zilar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, deb o'ylaydi. Bu albatta, bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir.



Shuning uchun Prezidentimiz Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etdi [2]. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozimligiga e'tiborni qaratgan edi [3-4].

Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, taraqqiyotga erisha olmaydi. Kambag'allikni qisqartirish masalasi ham milliy ma'naviy qadriyatlarimizda alohida o'rin egallaganini ko'rish mumkin.

Inson o'zining kundalik amaliy faoliyatida o'ziga to'q, iymonli bo'lishi uchun, ya'ni iymonini mustahkamlashi uchun Sharqning buyuk shoirlaridan biri – So'fi Olloyor aytganidek, bilimli, ilmi kishilar suhbatida tez-tez bo'lib turmog'i darkor. Boshqacha aytganimizda, iymonli bo'lishning dastlabki shartlaridan biri – ziyoli, bilimli, ilmi kishilar suhbatida bo'lishdir. Bunday suhbatlarda bo'lgan inson o'z-o'zidan munofiq, johil kimsalar davrasidan o'zini olib qocha boshlaydi. Ulamolar, yaxshi kishilar suhbatida bo'lgan kishi asta-sekin savob ishlar qilishni o'ziga odat qila boshlaydi. Jumladan, tashnaga suv beradi, bemordan hol so'raydi, kambag'al bechoraga shafqat ko'rsatadi, ota-onaning hurmatini o'rniga qo'ya boshlaydi va xokazo. Iymonli kishi barcha yaxshiliklarga amal qilishni o'ziga odat qiladi.

Buzurgmehrdan „qaysi podshoh ulug'roqdir?“ deb so'radilar. U esa, „Begunoh odamlarni omonda saqlaydigan va gunohkorlarni qo'rquvda tutadigan, barq uruvchi tig'ining xandasi sitamkorlar yig'isi yondosh bo'lgan va fayz yetkazuvchi lutfining nasimi kambag'allarga in'om yomg'iri bilan hamnafas bo'lgan podshoh ulug'dir“ deya javob qaytardi.

Ma'lumki, Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni sanab o'tib, birinchi-uchinchi sifatlar aynan bag'rikenglik, saxovat, kambag'allarga yordam qo'lini cho'zish sifatlaridir. Jumladan, *Birinchi sifat:* «Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim». *Ikkinchi sifat:* «Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim». *Uchinchi sifat:* «Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf

qildim». Tarixning guvohlik berishicha, Amir Temur davrigacha ham, undan keyin ham faqat boylik ortidan quvgan odamlar bo‘lgan. Sohibqiron tushunchasiga ko‘ra, kimki biror ishni faqat boylik orttirish maqsadida amalga oshirsa, u baxtsiz insondir. Mabodo podshoh biror gunohkorning aybini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. U kambag‘alning oldidan biror yordam bermay o‘tmagan. «Men bir qo‘limda adolat shamini va ikkinchi qo‘limda beg‘arazlik shamini tutib, ham ikki sham bilan butun umr bo‘yi o‘z yo‘limni yoritib yurdim. Barcha qilmishlarimda ana shunday adolat qoidalariga rioya qildim» [7-9].

XX asr boshlaridagi dorixonaning holati va faoliyati haqida N.G.Mallisskiyning tahliliy ma‘ruzasida shunday deyiladi: «1908 yilda dorixona uchun 51939 rubl sarflandi va olingan foyda 44106 rublni tashkil etdi. Bepul dori-darmonlar shahar davolash muassasalariga, dezenfeksiya uchun, polisiya amaldorlariga, maktab o‘quvchilariga, kambag‘allarga tarqatilgan shu bilan birga turli xil xayriya tashkilotlariga mulki bo‘lmagan kishilarga 32757 rubllik, ya‘ni dorining tayyorlash uchun ketadigan xarajatigacha chegirma tariqasida berilgan». Bunday misollarni ko‘p davom ettirish mumkin.

Yuqoridagi faktlardan xulosa shuki, milliy ma‘naviy qadriyatlarimizda kambag‘allarga yordam berish, ular hayotini farovon qilish, ularda tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, boqimandalikni yo‘qotish kabi xislatlar asosiy o‘rin egallagan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakatimizdagi kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha 700 million dollarlik dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida «...biz shu paytgacha aksariyat fuqarolarimiz haqiqatan ham kambag‘al ekanini ko‘rib-ko‘rmaslikka, eshitib-eshitmaganlikka oldik. Bu noto‘g‘ri. Afsuski, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, xalqimizning 4-5 foizi kambag‘al ekani aniqlandi. Endi yashirish kerak emas, og‘ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashimizni o‘zgartirishimiz lozim bo‘ladi» deb ta’kidlab o‘tdi.

Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Prezident Sh.Mirziyoev alohida ta’kidlab o‘tganidek, «Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa etib belgilandi va bu yo‘nalishda keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshladik. Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak. Kambag‘allikni qisqartirish uchun, birinchi navbatda, ishsizlikni kamaytirish kerak. Avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, ularning

iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa, ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg'otish zarur».

2020 yil 26 mart kuni «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora- tadbirlari to'g'risida» PF-5975-son Prezident Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu farmon liberalizatsiya va bozor sharoitida iqtisodiyotni maqsadli boshqarishning shaffof mexanizmlarini yaratish zaruriyati tug'ilganligi sababli qabul qilindi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Kambag'allikni qisqartirish borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan tizimli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, birinchi navbatda, kambag'allarda iqtisodiy faollikni uyg'otish muhim vazifa hisoblanadi. «Kambag'allikka yalqovlik qo'shilsa, buning davosi yo'qdir» degan dono naql bor. Shu sababli kambag'allarni yalqovlikdan forig' etish talab qilinadi. Muhimi, kambag'allarga ishlab pul topib, to'q yashashiga sharoit va imkoniyat yaratish kerak. Ikkinchidan, kambag'allarga davlatning va korxonalarining moddiy yordam berishini tashkil etish lozim. Milliy ma'naviy qadriyatlarda nogironlarga, keksalarga yordam qo'lini cho'zish barcha uchun burch hisoblangan. Biroq, jismonan baquvvat, sog'lom kishilarni doimiy moddiy yordam bilan ta'minlab turish ularning faolligini pasayishiga, boqimandalik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi. Faollikka undovchi kuch – bu ularni kasb-korga, hunarga o'rgatish, o'qitish hisoblanadi [10-15]. Shu sababli mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga oid chora tadbirlarda kasb-korga o'qitishga katta e'tibor qaratilgan. «Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi 11.08.2020 yil PQ-4804-sonli Qarori [4] aynan mana shu masalada qabul qilindi. Qarordan asosiy maqsad — kambag'al va ishsizlarni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitishning yangi tizimini joriy qilish, ularni kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitish jarayonlarini tashkil etish, ehtiyojmand aholi va nogironlar ish bilan bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha choralarni amalga oshirish hisoblanadi. Mazkur qarorda [5] belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda ishsizlikni oldini olish, kambag'allikni qisqartirishda ahamiyati katta.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yilning 24 yanvar).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi 11.08.2020 yil PQ-4804-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son Farmoni.
7. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОЗДАНИИ И РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 119-123).
8. Кенжаева, Х. П. (2021). ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИ МЕЗОНЛАРИ ШАРҚ ФАЛСАФАСИ ТАЛҚИНИДА. *Academic research in educational sciences*, 2(3).
9. Кенжаева, Х. П. (2021). Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни. *Scientific progress*, 1(6), 957-961.
10. Хусейнова, А. А. (2010). Торговля людьми: попытка противодействия. *Социологические исследования*, (11), 150-151.
11. Холова, Э. Х., & Хусейнова, А. А. (2012). ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН" О ПРОТИВОДЕЙСТВИИ ТОРГОВЛЕ ЛЮДЬМИ". *Современные научные исследования*, (12), 1-1.
12. Холова, Э. Х., & Хусейнова, А. А. (2010). Закон Республики Узбекистан «о противодействии торговле людьми». *Journal of Siberian Medical Sciences*, (4).
13. Хусейнова, А. А. (2017). ФИЛОСОФСКОЕ МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. *Ученый XXI века*, 88.

- 
14. Хусейнова, А. А. (2017). О СУЩНОСТИ ФИЛОСОФСКОГО МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 74-78).
15. Хусейнова, А. А. (2016). СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ РЕНЕССАНС И АБДУРАХМАН ДЖАМИ. *ББК 65.34. 13 (2Рос-4Кем)*, 355.

## **СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ**

**Тухта Юлдашева**

Чирчикский государственный педагогический институт

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена рассмотрению важного вопроса о применении современных инновационных технологий в образовании и открытых инноваций как части новой педагогической парадигмы и государственной политики в области образования.*

*Ключевые слова: педагогика, образование, методика, кластер.*

### **MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION**

#### **ABSTRACT**

*The article is devoted to the consideration of the important issue of the application of modern innovative technologies in education and open innovation as part of the new pedagogical paradigm and state policy in the field of education.*

*Keywords: pedagogy, education, methodology, cluster.*

#### **ВВЕДЕНИЕ**

Сейчас у многих на слуху такие понятия, как «интерактивные технологии и методы», «инновации», «мультимедийные учебные материалы» и многие другие. Слова на первый взгляд сложные и неизведанные, но с другой стороны имеют похожий смысл. А дело все в том, что современная профессиональная школа на данном этапе образования должна отвечать определенным требованиям. Это в основном касается оснащенности в учебных кабинетах компьютерами, проекторами, то есть информационными ресурсами. В профессиональном образовании существует различные педагогические инновации, и каждое учреждение использует свои наиболее «прижившиеся» или традиционные инновационные технологии в образовании.

#### **МЕТОДОЛОГИЯ**

Образовательная технология (технология в сфере образования) - это совокупность научно и практически обоснованных методов и инструментов для достижения желаемого результата в любой области образования. Понятие



"образовательная технология" представляется несколько более широким, чем "педагогическая технология" (для педагогических процессов), ибо образование включает, кроме педагогических, еще разнообразные социальные, социальнополитические, управленческие, культурологические, психолого-педагогические, медико-педагогические, экономические и другие смежные аспекты. С другой стороны, понятие "педагогическая технология" относится (что очевидно) ко всем разделам педагогики. • В зарубежной литературе имеются следующие близкие термины: • technology in education - технологии в образовании, • technology of education - технологии образования, • educational technology - педагогические технологии. • Применение технологического подхода и термина "технология" к социальным процессам, к области духовного производства - образованию, культуре, - это относительно новое более сложное явление для социальной действительности.

### **РЕЗУЛЬТАТЫ**

Кластер («гроздь») – выделение смысловых единиц текста и графическое их оформление в определенном порядке в виде грозди. Кластеры могут стать ведущим приемом и на стадии вызова, рефлексии, так и стратегией урока в целом. Делая какие-то записи, зарисовки для памяти, мы часто интуитивно распределяем их особым образом, komponуем по категориям. Кластер – графический прием систематизации материала. Наши мысли уже не громоздятся, а «гроздятся», т.е. располагаются в определенном порядке.

*Правила очень простые.*

В центре – это наша тема, а вокруг нее крупные смысловые единицы. Система кластеров охватывает большее количество информации, чем мы получаем при обычной работе.

Этот прием может быть применен на стадии вызова, когда мы систематизируем информацию, полученную до знакомства с основным источником (текстом) в виде вопросов или заголовков смысловых блоков.

Этот прием имеет большой потенциал и на стадии рефлексии: исправление неверных предположений в предварительных кластерах, заполнение их на основе новой информации. Очень важным этапом является презентация новых кластеров. Задачей этой работы является не только систематизация материала, но и установление причинно-следственных связей между «гроздями».

Последовательность действий проста и логична:

1. В начале, посередине чистого листа (классной доски), документа Word, слайде Present Point написать ключевое слово или предложение, которое является «сердцем» идеи, темы.

2. Вокруг «накидать» слова или предложения, выражающие идеи, факты, образы, подходящие для данной темы.

3. По мере записи, появившиеся слова соединяются прямыми линиями с ключевым понятием. У каждого из «спутников» в свою очередь тоже появляются «спутники», устанавливаются новые логические связи.

В итоге получается структура, которая графически отображает наши размышления, определяет информационное поле данной теме.

В работе над кластерами необходимо соблюдать следующие правила:

Не бояться записывать все, что приходит на ум. Дать волю воображению и интуиции. Продолжать работу, пока не кончится время или идеи не иссякнут. Постараться построить как можно больше связей. Не следовать по заранее определенному плану. Система кластеров позволяет охватить избыточный объем информации. В дальнейшей работе, анализируя получившийся кластер как «поле идей», следует конкретизировать направления развития темы.

Возможны следующие варианты:

- Укрупнение или детализация смысловых блоков (по необходимости)
- Выделение нескольких ключевых аспектов, на которых будет сосредоточено внимание.

Разбивка на кластеры используется как на этапе вызова, так и на этапе рефлексии, может быть способом мотивации мыслительной деятельности до изучения темы или формой систематизации информации по итогам прохождения материала.

## **ОБСУЖДЕНИЕ**

В зависимости от цели учитель организует индивидуальную самостоятельную работу учащихся или коллективную деятельность в виде общего совместного обсуждения. Предметная область не ограничена, использование кластеров возможно при изучении самых разнообразных тем.

Существуют различные виды кластеров.

- классический кластер - бумажный кластер - кластер с нумерацией слов для составления рассказа - кластер с использованием отдельных или сюжетных картинок вместо записи слов - групповые кластеры с использованием в каждой

группе разных фрагментов одной темы с целью составления коллективного рассказа - обратный кластер - грамматический кластер.

В начале урока учитель записывает в центре доски тему (ключевое слово) и просит учеников сделать запись в тетради, подумать и записать вокруг данного слова все, что приходит на ум в связи с этой темой. Через несколько минут можно предложить учащимся обменяться своими идеями в парах, затем поделиться ими со всем классом и записать их на доске.

Дополнительные категории учитель дает либо сам, либо помогает ученикам наводящими вопросами, помогает учащимся сформулировать их самостоятельно.

Бумажный кластер. Может служить средством развития навыков не только письменной речи, но и чтения. В таком случае ученики получают карточки с отдельными словами, предложениями или даже небольшим текстом на заданную тему. Читают их, располагают их, при необходимости приклеивают на лист в определенном порядке вокруг ключевого слова. Затем кластеры проверяются, обсуждаются и оцениваются – на усмотрение учителя. Подготовка бумажного кластера не обязательно должна стать задачей учителя. Эта работа может стать отличным домашним заданием для учащихся. Пусть ученики одного класса приготовят дома лист с написанным ключевым словом и соответствующие ему карточки для учеников другого класса и наоборот. В первом случае можно проверить и оценить домашнюю работу, во втором – правильность составления на уроке бумажных кластеров другими учащимися. Оба класса основательно проработают тему урока.

Кластер с нумерацией слов.

Подобный кластер целесообразно использовать в том случае, когда необходимо определить последовательность событий при составлении рассказа или устном изложении темы. Этот метод хорошо подходит для работы с учениками начальных классов, и теми, кто изучает иностранный язык, поскольку именно для них наибольшую трудность представляет определение очередности предложений в тексте: с чего начать изложение событий, как его развивать и каким образом закончить. Кластер с нумерацией слов составляется коллективно следующим образом: в центре доски записывается тема (ключевое слово), затем ученики называют все слова и словосочетания, которые приходят им на ум в связи с данной темой. Когда вся предлагаемая учениками лексика написана на доске, класс приступает к обсуждению последовательности событий в данном рассказе. Учитель помогает наводящими вопросами и вместе

с учащимися проставляет номера очередности возле записанных на доске слов: рядом со словами, которые надо использовать в первом предложении, ставится номер 1, во втором – номер 2 и т. д. Рекомендация: чтобы ученикам было легче ориентироваться в кластере и не пропускать слова при составлении рассказа, можно писать цифры цветными мелками: все цифры 1 – одним цветом, цифры 2- другим и т. д.

Арт-кластер (кластер с картинками). Кластер с использованием сюжетных картинок вместо записи слов – эффективный метод для изучения большой темы при работе с учениками начальной школы и при начальном изучении иностранного языка. Принцип построения тот же. В центре листа наклеивается картинка на определенную тему, вокруг которой ученики наклеивают или рисуют составляющие ее компоненты. Готовые картинки могут содержать только один предмет (вещь, живое существо, какой-либо цвет и т. д.) или целый сюжет (явления природы, занятия людей и т. д.)

Предметный Арт-кластер. Например, тема «Овощной салат». В середине листа рисуется или наклеивается миска с салатом. Ученики должны выбрать из предложенных им картинок овощи и наклеить (нарисовать) их вокруг главной темы. Затем ученики по кластеру рассказывают, из чего сделан их салат. По истории подобный кластер можно составить по феодальной лестнице, изучая феодальное общество в 7 классе.

Сюжетный Арт-кластер. Например тема «Занятия людей в различные времена года». В центре 4 человека, одеты по сезонам. Вокруг располагаются 4 знака времен года: снежинка, дождь, подснежник, солнце. За ними несколько картинок с катанием детей на санках или лыжах, купающихся и загорающих, уборка овощей на поле и т. д. По 2-3 картинки на каждое время года. По истории можно использовать при изучении темы занятия людей в разные периоды истории.

Групповой кластер. Групповой кластер подразумевает распределение фрагментов одной темы по группам и составление коллективного рассказа. Сочиняется рассказ, например на тему «Саки». Одна группа составляет кластер «Группы саков и места их расселения», вторая – «занятия саков», третья – «общественный строй саков», четвертая – «войны саков за независимость», пятая – культура саков». Готовые кластеры на больших листах приклеиваются вокруг главной темы. Каждая группа рассказывает часть рассказа по своему кластеру (или по чужому кластеру другую часть – на усмотрение учителя),

остальные помогают, дополняют, затем каждый пишет индивидуально рассказ о саках, пользуясь кластерами на доске.

Обратный кластер. Данный вид кластера используется на стадии вызова для того, чтобы вызвать интерес у учащихся, их активизации и определения темы занятия или на других стадиях для лексической работы и как способ выделения основной мысли, сути содержания, идеи (на стадии рефлексии - как обобщение, резюме, подведения итогов) Составляется следующим образом: записываются дополнительные категории или основные компоненты, в центре ставится знак вопроса или оставляется пустая рамка для определения и записи ключевого слова, основной темы, предмета обсуждения. Например, на стадии вызова учитель показывает учащимся следующий кластер и просит назвать тему урока:

Мидия 550 г. до н. э. , Кир Великий, Египет 525 г. до н.э. , Дарий I- самый могущественный правитель Вавилон 538 г. до н. э., 20 сатрапий, Царская дорога, Столица Персеполь

Ученики должны сами определить, что темой занятия будет Древнее Персидское царство. На других стадиях ученики могут сами составлять обратные кластеры для своих одноклассников или для учеников других классов – по ходу чтения текста или по памяти. Это поможет им повторить и закрепить тему, активизировать лексику, а дальнейшее использование ученических кластеров поможет учителю проверить знание содержания темы учащимися и их словарный запас. (подобным образом можно проверять знание терминологии). Задание для слушателей мастер-класса. Используя ромашку Блума, выразите свое отношение к полученной информации по теме «Виды кластеров» Приём "Ромашка" Блума *Описание:* "Ромашка" состоит из шести лепестков, каждый из которых содержит определенный тип вопроса. Таким образом, шесть лепестков - шесть вопросов. *Пример.*

Простые вопросы — вопросы, отвечая на которые, нужно назвать какие-то факты, вспомнить и воспроизвести определенную информацию: "Что?", "Когда?", "Где?", "Как?".

Уточняющие вопросы. Такие вопросы обычно начинаются со слов: "То есть ты говоришь, что...?", "Если я правильно понял, то ...?", "Я могу ошибаться, но, по-моему, вы сказали о ...?". Целью этих вопросов является предоставление учащемуся возможностей для обратной связи относительно того, что он только что сказал. Иногда их задают с целью получения информации, отсутствующей в сообщении, но подразумевающейся.

Интерпретационные (объясняющие) вопросы. Обычно начинаются со слова "Почему?" и направлены на установление причинно-следственных связей. "Почему листья на деревьях осенью желтеют?". Если ответ на этот вопрос известен, он из интерпретационного "превращается" в простой. Следовательно, данный тип вопроса "срабатывает" тогда, когда в ответе присутствует элемент самостоятельности.

Творческие вопросы. Данный тип вопроса чаще всего содержит частицу "бы", элементы условности, предположения, прогноза: "Что изменилось бы ...", "Что будет, если ...?", "Как вы думаете, как будет развиваться сюжет в рассказе после...?".

Оценочные вопросы. Эти вопросы направлены на выяснение критериев оценки тех или иных событий, явлений, фактов. "Почему что-то хорошо, а что-то плохо?", "Чем один урок отличается от другого?", "Как вы относитесь к поступку главного героя?" и т.д.

Практические вопросы. Данный тип вопроса направлен на установление взаимосвязи между теорией и практикой: "Как можно применить ...?", "Что можно сделать из ...?", "Где вы в обычной жизни можете наблюдать ...?", "Как бы вы поступили на месте героя рассказа?".

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Разнообразные приемы, методы, технологии – это не самоцель. Важен результат. Педагог должен оценивать свои успехи успехами своих учеников. Нетрадиционные педагогические технологии повышают мотивацию обучения и интерес детей к школе, формируют обстановку творческого сотрудничества и конкуренции, воспитывают в детях чувство собственного достоинства и уважение к различиям, дают им ощущение творческой свободы и, самое главное, приносят радость.

Закончить хотелось бы словами древнего мыслителя Конфуция: «Тот, кто, обращаясь к старому, способен открывать новое, достоин быть учителем». Поэтому определяясь с целями, оглянитесь на то, что уже сделано.

## **REFERENCES**

1. Yuldasheva, T., & Kadirova, K. (2020). Teaching Russian with Innovative Approach. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(7).



- 
2. Аметовна, Ю. Т., & Назаровна, К. Х. (2020). Применение интеграции при обучении русскому языку в национальных группах. *Суз санъати*, (3).
  3. Юлдашева, Т. А. (2021). МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
  4. Ametovna, Y. T. (2021). FEATURES OF THE METHODOLOGY OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN UNIVERSITY. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(ICDSIIL), 3-3.

## **RANGLARNING KOREYA IJTIMOY-FALSAFIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA RAMZIY MA’NOLARI**

**Murodilloyev Nodir Baxodir o‘g‘li**

Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi III kurs +998993855521

[nodirmurodilloyev@gmail.com](mailto:nodirmurodilloyev@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Koreya xalqi ijtimoiy-falsafiy hayotida ranglarning ahamiyati, ularning qanday ramziy ma'nolarni anglatishi, jamiyatda ranglarga qarab tabaqalanish qay tariqa kechgani, bugungi kunda ranglarning mohiyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgani haqida so'z boradi.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Koreya, Xitoy, madaniyat, ranglar, tabaqalanish, yovuzlik, ezgulik, In-Yang, besh unsur, tabiat, qirol saroyi, imperator, hanbok, milliy kiyim.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье обсуждается важность цветов в социально-философской жизни корейского народа, каковы их символические значения, как происходило расслоение цветов в обществе и какие изменения произошли в сущности цветов сегодня.*

**Опорные слова и выражения:** *Корея, Китай, культура, цвета, стратификация, зло, добро, Инь-Ян, пять элементов, природа, королевский дворец, император, ханбок, национальная одежда.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the importance of colors in the socio-philosophical life of the Korean people, what their symbolic meanings are, how color stratification has taken place in society, and what changes have taken place in the nature of colors today.*

**Keywords and expressions:** *Korea, China, culture, colors, stratification, evil, goodness, In-Yang, five elements, nature, royal palace, emperor, hanbok, national dress.*

### **KIRISH**

Koreya madaniyatidagi ranglar ramziyligiga din va tafakkur tizimlari, In-Yang, Buddizm, Konfutsiylik, shuningdek Besh unsur kabi bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Biroq, bu an'anaviy ramziylik so'nggi bir necha o'n yillar mobaynida g'arb ta'siri va xalqaro tendensiyalar tufayli ko'plab o'zgarishlarga duch keldi.

Ranglarning Koreya tarixida ishlatilishiga to'xtaladigan bo'lsak, an'anaviy koreys ranglarining ramziyligi asosan turli sulolalar tomonidan boshqarilgan. Ular orasida esa 1392-yildan 1897-yilgacha besh asr davom etgan Choson sulolasi alohida ahamiyatga ega. Koreyaning boy tarixida ranglardan foydalanish ikkita asosiy xususiyatga ega: oq va boshqa tabiiy ranglardan, ikkinchisi - Koreyaning 5 asosiy rangidan foydalanish bo'lib, obangsek(오방색)<sup>106</sup>(oq, ko'k, qora, qizil va sariq) deb nomlanadi. Bu ranglar atrofda tabiiy elementlardan - olov, suv, daraxtlar, qimmatbaho metallar (oltin va kumush) va yerdan olingan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xitoydan kelib chiqqan va Sharqda "in-yang va besh unsur nazariyasi" yoki koreys tilida imyang-oheng (음양오행) degan e'tiqod mavjud<sup>107</sup>. Qadimgi Sharqiy Osiyo madaniyati va odamlari hayoti tabiat bilan chambarchas bog'liq edi va bu nazariya ham butun dunyo asoslanuvchi tabiiy tizimni ifodalagan. In-yang (음양 – im-yang) quyosh va oy bilan ifodalangan yorug'lik va zulmatni bildiradi. Oheng (오행) esa besh unurni anglatadi; olov, suv, daraxt, metall yoki oltin va yer<sup>108</sup>. In-yang va besh unsur nazariyasi koinotning ranglari, pozitsiyalari va vaqti (ob-havo) kabi qismlarini talqin qiladi. Bu ranglar, shuningdek, beshta pozitsiyani - janub, shimol, sharq, g'arb va markazni anglatadi. Keyin to'rtta pozitsiya - sharq, janub, g'arb va shimol - har mavsumga to'g'ri keladi - bahor, yoz, kuz va qish<sup>109</sup>. Garchi asosiy beshta rang Xitoy va Yaponiyaning an'anaviy ranglari bo'lsa-da, ular Koreyada har xil rang, ma'no va ishlatilish xususiyatiga ega<sup>110</sup>.

Obangsek ranglarining har biri o'ziga xos ma'noni bildiradi.

- Yaratilish, ehtiros va muhabbatni ifodalovchi qizil rang yovuz ruhlardan himoya qiluvchi kuchli rang deb o'ylangan. Shu sababli koreyslar qish fasli kunlarida qizil loviyali sho'rva iste'mol qilishadi.
- Qora – donolik, zulmat va o'limni anglatadi. Qora o'limni ifodalagani uchun, saroylarda kamdan-kam ishlatilgan. Biroq, sudyalarda halollik va hurmatni ifodalash maqsadida qora libos kiyishgan.

<sup>106</sup> <http://www.newshyu.com/news/articleView.html?idxno=32143>

<sup>107</sup> 《중교학대사전》, 음양오행설 한국사전연구사(1998년판)


<sup>108</sup> <http://encykorea.aks.ac.kr/Contents/Item/E0043032>

<sup>109</sup> <http://kswclemson.com/korean-culture.html>

<sup>110</sup> Wang, Yuanchong (15 December 2018). Remaking the Chinese Empire: Manchu-Korean Relations, 1616–1911. Cornell University Press. p. 154. ISBN 978-1-5017-3051-1.

- Moviy rang yangi tugʻilish, yorqinlik va ravshanlikni anglatadi. Moviy rang odatda saroylardagi qizlar va vassallar kiyimlarida ishlatilgan. Nikoh marosimlarida kelinning libosi va ip bezaklari ham qizil va koʻk rangda boʻladi.
- Oq rang – haqiqat, hayot va bokiralik ma'nosini bildiradi. Bu rang koreyslarning eng sevimli rangi hisoblanadi.
- Nihoyat, sariq yoki oltin yorqinlik va quyosh nurlarini ifodalaydi. Oltin arqonlar muqaddas va himoyaga muhtoj joylarni belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, yangi chaqaloq tugʻilgan uyda bu rangni koʻrish mumkin.

Ogansek - bu obangsek ranglarining har bir kombinatsiyasidan yaratilgan beshta rangning yana bir toʻplami<sup>111</sup>. Ogansek ranglarini tayyorlash uchun ikkita obangsek



rangi aralashtiriladi; yashil (sariq+koʻk), och koʻk (koʻk+oq), och qizil (qizil+oq), oltinugurtli sariq (sariq+qora) va binafsha (qizil+qora). Obangsek Koreyaning an'anaviy ranglari sifatida ogansekdan yuqoriroq tursada, ular koreys milliy dizaynida uygʻun tarzda ishlatiladi.


An'anaviy koreys rang simbolizmida oq rangning ma'nosiga, ayniqsa uning yigʻim-terim marosimi va quyosh bilan bogʻliqligi tufayli katta ahamiyat beriladi. Shu sababli oq rang koreys mifologik ertaklari va afsonalarida keng tarqalganligi ham ajablanarli emas. Hozirgacha koreyslar oq kiyim kiyishni afzal koʻrishadi, shuningdek ular ming yillar davomida "oq kiyingan koreyslar" laqabiga sazovor boʻlgan.

Qadimgi koreyslar uchun oq rang insoniyatning boshlanish nuqtasi, kelib chiqishi va asosini ifodalagan. Ular oq rangni eng asosiy ramz deb hisoblashgan. Bu ularning nega oq kiyimlarni afzal koʻrishini izohlaydi, shu sababli bu odat koreys xalqining oʻziga xos xususiyatiga aylangan. Koreyslar oq rangni poklik va kamtarlik ramzi deb ham bilishadi va undan foydalanish tabiiy, sof va bezaksiz narsalarga sodiqlikni bildiradi. Choson davrida Konfutsiyga ergashgan olimlar oq libos, qora astar kiyib, olimning asketizmini vizual tarzda ifoda etishgan. Bu yerda qora va oq

<sup>111</sup> <http://kswclemson.com/korean-culture.html>

uyg'unlikni, oqlik esa poklik, bilim va aybsizlikni anglatadi. Qora va oq ranglardan foydalanish atmosferaning tinchligi va osoyishtaligini ham bildiradi. Ba'zilar, bunday ranglar tanlanishi dunyoviy istaklarga berilmagan, lekin osmonda osoyishta inoyat, sharaf va chidamsiz ruh bilan harakatlanadigan turna qushlarining ramziyligi bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

Choson davrida odamlar to'y, bayram va jamiyat manfaati uchun qilingan shamanistik marosimlarda qizil, sariq va ko'k kabi yorqin ranglarni kiyib yurishardi. Bu ranglar odamlarning quvnoq kayfiyatini butun dunyoga e'lon qilishga yordam



berardi. Davrlar o'tgani sari, kelin va kuyovga yorqin va tiniq ranglar bilan bezanishga ham ruxsat berildi, oldin esa bu ranglar amaldorlar tomonidan cheklangandi. Ayniqsa, kelinlar qizil mato bilan qoplangan yashil vonsam (tantanali ustki palto), kuyovlar esa ko'k yoki yashil rangdagi tallyong (uzun kiyim) kiyishgan. Shuningdek, bo'lajak er-xotin sariq rangli ichki kiyim kiyishga da'vat etilgan. Bu ranglarga qo'shimcha ravishda, to'ylarda ma'lum ranglar kombinatsiyasi juda muhim edi, chunki ular In-Yang elementlarini muvozanatda saqlardi. Shuning uchun qizil va ko'k (ular Koreya bayrog'ida ham uchraydi), qizil In, shu bilan birga erkakni, ko'k esa Yin – ayolni ifodalovchi

muhim juftlik hisoblangan. Agar kelin-kuyov to'y libosi uchun qizil va ko'k rangni tanlasa, bu ularning In va Yangni muvozanatda saqlashga bo'lgan xohishini bildiradi. Moviy va qizil rang hayotning timsolidir, chunki ular quyosh energiyasini oladigan janub va sharqni ifodalaydi. Shuning uchun odamlar to'yda qizil va ko'kni tanlash salbiy energiya va ruhlarni quvib chiqaradi, deb ishonishgan.

Choson davrida Koreyadagi tartib-qoidalarga ko'ra, yuqori tabaqaga mansub xotin-qizlar yoki saroyda bo'lganlar quyida ko'rsatilgandek (vonsam yoki ustki kiyimda) saroyning rang cheklovlariga rioya qilishlari kerak edi:

- Imperator - sariq
- Qirolcha - qizil
- Malika - binafsha qizil
- Saroy amaldorlarining xotinlari - yashil



Yuqoridagi rang cheklovlaridan shamanlar, ayol san'atkorlar va bolalar istisno qilinadi. Bu odamlarga maqomiga ko'ra ma'lum rangda kiyinishga ruxsat berilgan. Yana bir istisno holati mavjud bo'lib, bular: tug'ilgan kunlar, to'ylar, bayramlar va maxsus tadbirlar edi. Ajablanarlisi shundaki, rangni maqom yoki shaxsni tasvirlash uchun ishlatish hozirgi zamonda ham har xil yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Farqi shundaki, ilgari kiyimlarning ranglari saroyda yoki akademiyada o'z pozitsiyasini ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunda brendlar, kollejlarda, kasblar, jinslar va kompaniyalarni ifodalaydi.

Xuddi g'arbda bo'lgani kabi, qizlar va o'g'il bolalar kiyimlari asosan pushti va och ko'k rangda bo'ladi. Zamonaviy koreys to'ylarida kuyovning onasi ko'k hanbok (2 qismli an'anaviy libos), kelinning onasi esa pushti hanbok kiyishi kerak. So'nggi 20 yil ichida bu amaliyot biroz kuchini yo'qotdi va ko'p ayollar shunchaki qaysi rangni kiyishni xohishlariga qarab tanlashyapti.

G'arb ta'lim tizimining kirib kelishi tufayli, ko'plab universitetlar talabalarning qora mantiya kiyish odatini ham joriy etdi. Biroq koreyslar yagona qora rang o'rniga ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda xilma-xil ranglardagi mantiyalar kiyishni boshlashdi. Misol uchun:

- Sabzirang – muhandislik mutaxassisliklarini;
- Och ko'k – har xil ta'lim yo'nalishlarini;
- Oq – gumanitar yo'nalishni ifodalaydi.

G'arbdagi kabi Koreya sud organlari amaldorlari ham qora mantiya kiyadilar. Qora rang kuch, qadr-qimmat va hokimiyatni ramziy ifodalash uchun tanlangan.



1998-yilga kelib, adliya idoralarida qora liboslar dizayniga bir nechta o'zgartirishlar kiritildi va ular an'anaviy koreys go'zalligiga urg'u berish uchun binafsha rangli jakkardlar bilan bezatildi.

An'anaga ko'ra, koreyslar kulrang, qaymoqrang va jigarrangni "nopok" ranglar deb hisoblashgan. Biroq, filmlar, g'arb tendensiyalari, globallashuv va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlar tufayli hozirda bu rangdagi paltolar mashhur bo'lib ketdi. Qora, shuningdek, g'arb va modernizmni ifodalovchi rang sifatida qabul qilingan.

Oq libosni sevuvchi koreyslar endi rasmiy tadbirlar, ish uchrashuvlari, mukofot topshirish marosimlari, to'ylar, maktab formasi va dafn marosimlari uchun qora kostyumlarni afzal ko'rishmoqda. Qora kiyim endi avangard, oliyjanoblik, modaga



mos ko‘rinishni ifodalaydi. Mashhur yulduzlar ham, ishbilarmonlar ham qora rangni tanlayaptilar, chunki u rangning nafisligi, bashangligi va yuqori saviyasini ifodalaydi.

14-aprelni koreyalik yolg‘iz yoshlar Koreyaning qora kuni sifatida nishonlaydilar. Bu guruhga 14-fevralda (Sevishganlar kunida) va 14-martda (Yaponiyada Sevishganlar kuniga teng keladigan bayram, “oq kun” deb ham ataladi) hech qanday sovg‘a olmagan odamlar kiradi. Qora kunda koreyalik yolg‘iz yoshlar qora kiyim kiyib, qora lab bo‘yog‘i surishadi, shuningdek qora loviya pastasidan tayyorlangan makaron yeyishadi<sup>112</sup>.

Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi, ranglar ham odamlarga to‘g‘ri xabarlarini yetkazish uchun Koreya siyosatida ishlatiladigan juda kuchli vositadir.

- Qizil - odamlarga kommunizmni eslatadi. Bu shuningdek, ish tashlashlar va boshqaruvdagi nizolarning rangi.

- Ko‘k va yashil barqarorlik, halollik, uyg‘unlik va o‘shishni anglatadi. Prezident Li Myong Bak iqtisodiy o‘shishga urg‘u berish maqsadida ko‘pincha ochiq ko‘k rangda kiyingan.

- Yorqin sariq - bu Koreyadagi eng muvaffaqiyatli siyosiy rang. Ikki sobiq prezident (No Mu Hyon va Kim De Jung) umid va tinchlik xabarini ta'kidlash uchun shu rangni tanlagan.

Qizil ilgari koreyslar uchun, ayniqsa siyosat va sanoatda, ko‘plab salbiy fikrlarga sabab bo‘lardir. Bu, asosan, kommunistik mafkura, noroziliklar, kasaba uyushmalari va tartibsizliklar ramzi edi. Biroq, 2002-yilgi FIFA jahon chempionati (Koreya-Yaponiya) bu rangga butunlay boshqa ramziy ma'no berdi va koreyslar uni hayotiylik, energiya, quvonch va bayramning rangi sifatida ko‘rishni boshlashdi. Endi qizil rang odamlarda ehtiros, hayajonni uyg‘otadi va ularni yakdillik bilan bog‘laydi, deb ishonishadi<sup>113</sup>.

Qizil, binafsha va qora koreys hashamati va yuqori sifatining vakiliga aylandi. Ko‘pgina korxonalar marketing materiallari, logotiplar, broshyuralar, vizitkalarda va boshqalarda bu ranglardan foydalanishyapti, chunki ular sotuv va daromadni oshiradi.

## **XULOSA**

So‘nggi bir necha o‘n yilliklar ichida Koreyadagi rang ramziy ma'nosi ancha o‘zgardi. Ushbu o‘zgarishlar va tendensiyalarni o‘rganish bizga koreyslarning turmush tarzi va tafakkurini, shuningdek, odamlarning estetik ongini tushunish imkoniyatini beradi. G‘arb ta'siri tufayli bugungi kunda koreys rangining ramziy

<sup>112</sup> <http://www.newshyu.com/news/articleView.html?idxno=32143>

<sup>113</sup> <http://www.newshyu.com/news/articleView.html?idxno=32143>

ma'nosi chuqur va murakkab ma'noga ega bo'ldi. Bir nechta ranglar turli xil ma'nolarni oldi, birinchi navbatda qizil va qora. Qizil, ayniqsa siyosatda, avval salbiy rang sifatida qaralgan bo'lsa, bugun u umid va birlik rangiga aylandi. Xuddi shunday, oq rangni yoqtiruvchi koreyslar tomonidan xalqaro moda ta'sirida qora rang afzal ko'rilmogda. Bu o'zgarishlarga qaramay, kelajakdagi koreys avlodlari ko'p asrlik an'analar bilan belgilab qo'yilgan rang ramziyligini hurmat qilishda davom etadilar va hech bo'lmaganda to'y va jamoat marosimlarida ularning ramziy ma'nosidan foydalanadilar, deb umid qilishimiz mumkin.

### **REFERENCES**

1. Wang, Yuanchong (15 December 2018). Remaking the Chinese Empire: Manchu-Korean Relations, 1616–1911. Cornell University Press. p. 154. ISBN 978-1-5017-3051-1.
2. Akmalova, P. D. (2019). The concept of moral personality development in creativity of thinkers of central asia. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(1), 135-141.
3. “종교학대사전”, 음양오행설, 한국사전연구소(1998년판)
4. <http://www.newshyu.com>
5. <https://www.koreascience.or.kr>
6. <http://encykorea.aks.ac.kr>
7. <http://kswclemson.com>

## **IMOM ABU HANIFANING BA'ZI ASARLARDAGI BAHSLI MASALALARNI MA'NAVIIY-AXLOQIY TARBIYADAGI O'RNI**

**Mirzachayev Adhamjon**

Alfraganus universiteti Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi  
O'zbekiston Milliy universiteti Huquqiy fanlar kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

ORCID:0009-0007-5501-9621

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada Imom A'zam jamiyat va uning har bir a'zosining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, fikrlash qobiliyati, muomala madaniyati, insonparvarlik, tinchlik va hamjihatlikka intilishi, bag'rikenglik, vatanparvarlik haqida muhim g'oyalarni ilgari surgani haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *din, meros, oliy maqsad, yoshlar, komil, milliy, qadriyat, tarbiya.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье говорится о том, что Имам Азам выдвинул важные идеи о повышении духовно-нравственного воспитания общества и каждого его члена, о умении мыслить, культуре обращения, гуманности, стремлении к миру и согласию, толерантности, патриотизму.*

**Ключевые слова:** *религия, наследие, высшее цель, молодежь, совершенное, национальное, ценность, воспитание.*

### **ABSTRACT**

*The article mentions that Imam Azam put forward important ideas about improving the moral and moral education of the society and each of its members, the ability to think, the culture of behavior, humanitarianism, the pursuit of peace and harmony, tolerance, and patriotism.*

**Key words:** *religion, heritage, highest goal, youth, perfect, national, value, education.*

### **KIRISH**

“Fiqhi absat» sharh yozgan Abulays Samarqandiy bu kitobni Abu Mansur Moturidiyga nisbat bergan, bu xato yoki xatodan boshqa narsa emas, deyishimiz mumkin. “Fiqhi absat» ma'lum muddat “Fiqhi akbar» bo'lib qolaveradi, lekin yozilishida u an'anaga asoslanadi. Hammud ibn Abu Hanifa butunlay boshqacha “Absot fiqhi» so'z yoki fikr nuqtai nazaridan gapiradi, lekin bu imom Abu Hanifaning shogirdi Abu Mutiyning savoliga bergan javobida aks etadi. Imom Abu Hanifa (r.a.) bu tezisda shogirdi Abu Mutiyga bu masalani batafsil bayon

qilgan. Imom Abu Hanifa “Absat fiqh»ning ko‘p sonlarida o‘z javobi bilan shogirdi Abu Mu‘toiyini qanoatlantirishga harakat qilgan.

“Fiqhi absat” so‘z masalalariga javoblari juda mufassal, tiniq kitob bo‘lib, talaba va ilm toliblari uchun juda foydali kitobdir<sup>114</sup>. (38, 339). Imom Abu Hanifaning shogirdi Abu Mu‘texning savollariga bergan javoblari “Absat fiqh» risolasi qog‘ozda bo‘lgani uchun uni o‘rgatishning eng yaxshi yo‘li suhbat usulidir. Ushbu bitiruv malakaviy ishni o‘rgatish jarayonida, shuningdek, Imomi A‘zam so‘zlarini oydinlashtirishda o‘qituvchi suhbat usulidan foydalanishi va talabalar bilan savol-javob tarzida masalalarni ko‘tarishi, masalani tushunishga osonlik bilan erishilishi kerak. Bu tezisda Imom Abu Hanifa (r.a.) rayidagi ayrim masalalar uning shogirdi Abu Mutiyga batafsil bayon etilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Imom Abu Hanifa (r.a.)dan musulmonlar xotirasida shu kungacha saqlanib qolgan yana bir risola “Al-olimu-val-mutallim» risolasidir. Bu risola yuqorida tilga olingan ikki kitobdan farq qiladi, chunki bu risolada Imom Abu Hanifa (r.a.) iymon va iymonga bog‘liq bo‘lgan narsadan boshlamagan, balki talabaning fikr va tasavvurini ilmga yo‘naltirgan va u ham ekanligini bizga tushuntirib bergan. Inson a‘zosi inson ko‘zining izdoshidir, buyruq bilan harakat qilish butunlay fanga bog‘liq. Boshqacha aytganda, ilm o‘z egasiga to‘g‘ri hayot yo‘lini ko‘rsatuvchi, hayotning burilish-burilishlarida qoqilmasligi, yo‘lini silliqlashi uchun sham yoki insonning ko‘zidir. Imom Abu Hanifa (r.a.) bu tezisda u zinokorning tanasidan iymonning chiqishi yoki nashr va mansx haqida, shariat va din o‘rtasidagi farq haqida ba‘zi fikrlarini o‘ziga xos uslubda bayon qilgan. Imom Abu Hanifa nuqtai nazaridan din yolg‘iz Allohni bilishdir, chunki Alloh taolo barcha payg‘ambarlariga odamlarni dinga, ya‘ni Allohning birligiga da‘vat qilishni buyurgan. Imom Abu Hanifa (r.a.) bu risolaning avvalida ham so‘z yoki fikr ilmi haqida gapirib, iymonning natijasi amal emasligini o‘z nuqtai nazaridan tushuntirib berganlar<sup>115</sup>. Imom Abu Hanifa (r.a.) Usmon Albattiyga risola yozib, unga fitnachilarga aldanmaslikni va Imom Abu Hanifa (r.a.) marjiylarning fikriga qo‘shilmasligini bilishni tushuntiradi. (Marjiyalar kimki Allohga iymon keltirsa, ya‘ni Allohni tanisa va “Lailaha illalloh» kalimasini aysa, hatto gunoh qilsa ham, bu gunohlar unga zarar yetkazmaydi, deb e‘tiqod qiluvchi mazhabdir.

<sup>114</sup> Алї Абдулфаттоњи Мағрибї. Алфарқ-ул-каломият-ил-исломия. Абдулфаттоњи Мағрибї. –Мадина: Муассисат-ул-Фурқон. 2001. -321 с.

<sup>115</sup> Алї Абдулфаттоњи Мағрибї. Алфарқ-ул-каломият-ил-исломия. Абдулфаттоњи Мағрибї. –Мадина: Муассисат-ул-Фурқон. 2001. -321 с.

Imom Termiziy Ibn Abbos (r.a.) dan rivoyat qiladilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Odam (a.s.) farzandlaridan ikki toifaning Islomda hech qanday hissasi yo‘q, biri marjiya, ikkinchisi esa qadariyadir<sup>116</sup>. Imom Abu Hanifa (r.a.) bu risolada bu talabaning fikrini g‘arazli terrorchilar hujumidan himoya qilmoqchi. Shuning uchun uni ogohlantiradiki, bugun sizni o‘z fikriga chaqirmoqchi bo‘lgan bu guruh, men ularning fikrini qabul qilmayman. Ularning hiylasiga berilib, Ahlu Sunna val Jamoat fikridan chetga chiqmaslik kerak. U holda ibodatingiz, ilmingiz va nutqingiz shubha ostiga qo‘yiladi va duolaringiz Alloh taolo tomonidan qabul bo‘lmaydi, chunki marjiylarning bu fikri noto‘g‘ridir.

Aytish joizki, bugun ham jonajon yurtimiz O‘zbekistonda ham hamma joyda xorijliklarning fikri eshitiladi yoki ksenofoblar fikrining shiddatli ovozi muhitni beqarorlashtirishni xohlaydi. Yurtimizning ulamolari, zodagonlari va ayni paytda ziyolilari, amaldorlari bo‘lishi kerak. bu ish va ularning qadamlarini yaxshi bilish shuningdek, ularning Imomi Abu Hanifa No‘mon (r.a.) bu yo‘lda sobit bo‘lib, bu buyuk tarix zotiga xos uslub va uslubda mamlakat yoshlari va musulmon xalqining fikrini himoya qilishlari lozim.

Imom Abu Hanifa (r.a.) bu risolada Payg‘ambarimizdan (s.a.v.) boshlab, Makka ahlining ahvoli, butparastlik va jaholatda yashab, inson va insoniyat qadrini unutib, jonsiz yog‘och va toshlarga sig‘inishlarini aytib o‘tgan. Xudo sifatida va axloq Ular butun insoniyatni butunlay unuttirdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu toifani mushrik va mushrik deb atab, jaholat botqog‘idan qanday chiqarganlar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) orqali Alloh taolo tomonidan qanday amrlar nozil qilingan, Payg‘ambarning da‘vatini qabul qilgan tavhid va tavhidlarga.

Imom Abu Hanifa iymonning ikki ustuni bor: biri qalbda tasdig‘, ikkinchisi tilda iqror. Amal iymon ustuni emas<sup>117</sup>. Imom A‘zam (r)ning Islom dini, Qur‘oni karim va hadislar haqidagi qarashlari va qarashlarining uslubi va uslubi haqida bugun boshlang‘ich maktab, o‘rta va oliy maktab o‘qituvchilari yurtimiz yoshlariga ma‘lum qilishlari zarur. Islomning payg‘ambari, ularni o‘z mazhabi bilan bir qatorda begonalarning qarashlari va fitnalaridan himoya qilish uchun musulmonlarni mamlakatdagi va xorijdagi hayoti va faoliyati davomida aldashga qodir.

<sup>116</sup> Муъаммад ибни Исои Абӯисои Тирмизӣ. Ал- ломеъ ас-саъеъ. Сунани Тирмизӣ. Муъаммад ибни Исои Тирмизӣ. Бейрут: Доруул-иъёи туроси арабӣ, 1987. 433 с.

<sup>117</sup> Али Абдулфаттоъи Мағрибӣ. Алфарқ-ул-каломият-ил-исломия. Абдулфаттоъи Мағрибӣ. –Мадина: Муассисат-ул-Фурқон. 2001. -321 с.

Imom Abu Hanifa (r.a.) yozgan yana bir risola “Al-Vosiyat» risolasidir. Bu tezisda Imom Abu Hanifa (r.a.) ham iymon, Qur’on va boshqa muhim masalalarga oid fikr va mulohazalari haqida gapiradi. U diniy gapirdi. Mulla Husayn ibn Iskandariy Hanafiy bu risolaga “Al-Javhar-ul-munifa fi sharhi Imom Abihanifa vasiyatnomasi» deb nomlangan sharh yozgan. Imom Abu Hanifa roziyallohu anhunging e’tiqod masalalaridagi uslubi va uslubi juda nozik va tushunarli. Bir kuni arab Misrida bir kishi bilan suhbatlashib qoldim va u kishi mening hanafiy mazhabiga tobe ekanligimni bilgach, xafa bo’lib qoldi. U zot dedilar: Imomlaringiz hadisdan bilmagan, faqat o’n yetti hadis bilishgan va tamom. Javobida men: Imom Abu Hanifa (r.a.) o’n yetti hadisdan iborat mazhab tuzgan bo’lsalar, dunyo musulmonlarining aksariyati uning mazhabiga ergashadilar, dedim. Demak, ular juda buyuk olim va ulamolar bo’lgan ekan. U kishi mening maqsadimni tushundi va xijolat tortdi va: Ular shunday deydilar. Men u bilan suhbatning ipini uzdim, chunki johil suhbatdan zarar va bosh og’rig’idan boshqa foyda yo’q. Ming afsuski, oradan bir necha yil o’tib, bu so’zlarni yurtimiz, aziz O’zbekiston yoshlarimizdan eshitib, juda xafa bo’ldim va shuni angladimki, yoshlarimiz o’z yurtini savodsiz qoldirib ketayotganlarida, o’zlari ham bu so’zlarni o’rtaga tashlaydilar. ularga ta’lim uchun nima desa, ular buni himoya qiladilar. Ular o’z vatanlariga qaytganlaridan so’ng yurtning balosiga aylanib, fitnalar keltirib chiqaradilar, ularning ayrimlarini bugun biz kuzatyapmiz. Jamiyat dardini boshqalardan avval his qilgan o’qituvchilar, o’quvchilar ham kerak dan Xavfli diniy bo’lmagan xabardors bo’shca Imom Abu Hanifaning so’zlash uslubi va uslubini ham bilishlari va ularni shogirdlarga o’rgatishlari kerak.

Imom Abu Hanifa (r.a.)ning tasnifi va fikrlari biz zikr qilgan shu bir necha tezislar bilan tugamaydi, chunki Imom Abu Hanifa (r.a.) doimo izlanishda edi. Imomi A’zam (r.a.) kitoblari va Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad (r.a.)ning tasniflariga nazar tashlasak, Imomi A’zam (r.a.)ning barcha islom ilmlarida, xususan, so’z, fiqh, hadis va tafsirni to’liq kengaytirgan holda ma’ruzalar va ilmiy bayonotlar qildi<sup>118</sup>.

Imom Abu Hanifa (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) hadislarini yozish va saqlashda katta mahoratga ega edilar. Ular Islom payg’ambari (s.a.v.) hadislarini roviy va yetkazuvchilar bo’lib, ko’plab hadislarni yozib, saqlab qolganlar. Imom Abu Hanifa (r.a.) Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sahobalarining yodgorliklaridan faqat qirq mingtasini himoya qilganlar. Imomi A’zam (r.a.)

<sup>118</sup> Мулло Алии Қорі. Шарњи фикњи акбар. \Мулло Алии Қорі.Деньлі: Матбаъаи Ғулом Нусайн, 2000. 166 с.



hadis rivoyatidan payg‘ambarlik hadislarining ijthod va fiqhiy masalalariga hurmat bilan qaraydilar.

Yahyo ibn Nasr ibn Hojib rivoyat qiladilar: Imom Abu Hanifa (r.a.)ning shunday deganlarini eshitdim: “Menda Islom Payg‘ambari (s.a.v.) hadislaridan bir xazina bor, ulardan faqat bir nechtasini xalq manfaati uchun rivoyat qildim”<sup>119</sup>.

## **XULOSA**

Imom Abu Hanifa (r.a.) rivoyat qilgan hadislarni shogirdlari o‘n yetti musnadda to‘plashgan. Imom Abu Hanifa (r.a.) Islom payg‘ambari (s.a.v.)ning hadislarini fiqh boblariga bo‘lib, tasnif qilgan birinchi shaxsdir<sup>120</sup>. Bu so‘zlarni isbotlash uchun hozirgacha Islom olamiga xizmat qilib kelayotgan Imom Abu Hanifa (r.a.)ning “Musnad» kitobini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bugun biz, shu mashab tarafdorlari, ushbu kitobdan Islomning payg‘ambari (s.a.v.) hadislarini bayon qilishda Imomi A‘zam (r.a.)ning uslub va uslublarini o‘rganishimiz va shogirdlarimizga tushunib yetishimiz zarur.

## **REFERENCES**

1. Мулло Алии Қорі. Шаръи фикъи акбар. \Мулло Алии Қорі. Деълі: Матбааи Ғулом Нусайн, 2000. 166 с.
2. Шайх Муъаммад Абӯзаъра. Абӯъанифа наътуъу ва асруъу ва ороуъу ва фикъуъу. \Шайх Муъаммад Абӯзаъра. Мадина: Мактабат-ул-Ватані, 2002.- 222 с.
3. Эргашева, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. Alma mater (Вестник высшей школы), (9), 86-89.
4. Ergasheva, Y. A. (2016, January). The experience of reforming and developing the education system in modern Uzbekistan. In International Scientific and Practical Conference World Science (Vol. 5, No. 2, pp. 14-17).
5. Сулаймони Ғовалӣ. Абӯъанифаи Нуъмон. \Сулаймони Ғовалӣ. Бейрут: Дору-ул-инъеи туроси арабі, 1988. 222 с.

<sup>119</sup> Шайх Муъаммад Абӯзаъра. Абӯъанифа наътуъу ва асруъу ва ороуъу ва фикъуъу. \Шайх Муъаммад Абӯзаъра. Мадина: Мактабат-ул-Ватані, 2002.- 222 с.

<sup>120</sup> Сулаймони Ғовалӣ. Абӯъанифаи Нуъмон. \Сулаймони Ғовалӣ. Бейрут: Дору-ул-инъеи туроси арабі, 1988. 222 с.

## **O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA SO‘FIYLIKNING O‘RNI**

**Tuychiyev Zafar Nardonqulovich**

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tarix fani o‘qituvchisi,

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: [tuychiyevzafar1984@gmail.com](mailto:tuychiyevzafar1984@gmail.com)

Tel: +998 99 477 55 30

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada so‘fiylikning jamiyatda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashga oid muhim bo‘lgan g‘oyalar to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan. So‘fiylikda yoshlarga ahloq-odob, mehnatsevarlik, kamtarlik va axloqiy poklikni jamiyatning asosiy qadriyatlari sifatida ilgari surishgan murosa, teran mulohaza qilish, bag‘rikenglik xislatlarni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarga izchil munosabat bildirilgan. Qolaversa, so‘fiylik g‘oyalarining kamolotga erishishdagi ahamiyati xususidagi ilmiy tahlillar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kamolot, maqom, tana va ruh pokligi, nafs, tasavvuf, tariqat, qalb, mistik-asketik oqim, adolat, shavqat, mazhab, ma‘rifat.*

## **РОЛЬ СУФИЗМА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ДУХОВНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются важные идеи суфизма относительно обеспечения духовной стабильности в обществе. В суфизме выразилось последовательное отношение к идеям, направленным на развитие качеств компромисса, глубокого размышления и толерантности, пропагандировавших этику, трудолюбие, скромность и нравственную чистоту как основные ценности общества. Кроме того, дается научный анализ важности суфийских идей в достижении зрелости.*

***Ключевые слова:** зрелость, статус, чистота тела и души, эго, мистика, секта, душа, мистико-аскетическое течение, справедливость, страсть, секта, просветление.*

## **THE ROLE OF SUFISM IN ENSURING SPIRITUAL STABILITY IN UZBEKISTAN**

### **ABSTRACT**

*This article discusses the important ideas of Sufism regarding ensuring spiritual stability in society. Sufism expressed a consistent attitude towards ideas aimed at developing the qualities of compromise, deep reflection and tolerance, promoting ethics, hard work, modesty and moral purity as the main values of society. In addition, a scientific analysis is given of the importance of Sufi ideas in achieving maturity.*

**Key words:** *maturity, status, purity of body and soul, ego, mysticism, sect, soul, mystical-ascetic movement, justice, passion, sect, enlightenment.*

### **KIRISH (INTRODUCTION).**

O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda so'fiylikning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u milliy ma'naviyat, ruhiy yetuklik va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir.

So'fiylik, o'zining axloqiy-etik ta'limotlari bilan inson qalbi va aqlini komillikka yo'naltiradi va ma'naviy ozodlikka erishishga qaratilgan bo'lib, jamiyatdagi insoniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. So'fiylik ta'limoti orqali insonlar ma'naviy yetuklikka erishishlari, nafsni tarbiyalash, moddiy qadriyatlardan yuksalish va ruhiy komillikka intilish muhim hisoblanadi. Bu tamoyillar insonning ma'naviy-axloqiy barqarorligiga, ichki tinchlik va adolatli munosabatlarga olib keladi. Shuningdek, so'fiylik o'zining ichki tarbiya usullari orqali jamiyatda hamjihatlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mulohaza va muvozanatli turmush tarzini shakllantiradi.

O'zbekistonning tarixiy merosi hisoblangan so'fiylik tariqatlari (masalan, Yassaviylar, Naqshbandiylar) millat ma'naviyatida chuqur iz qoldirib, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu tariqatlar vakillari ahloq-odob, mehnatsevarlik, kamtarlik va axloqiy poklikni jamiyatning asosiy qadriyatlari sifatida ilgari surishgan. Bu qadriyatlar hozirgi davrda ham milliy g'oya va mafkuraning muhim qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kun sharoitida, so'fiylikning o'rganilishi va uning ma'naviy qadriyatlari yoshlar ma'naviy tarbiyasida qo'llanilishi O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'fiylik ta'limoti yoshlarni moddiy dunyo tashvishlaridan uzoqlashtirib, ularning ichki dunyosi va ruhiy kamolotiga yo'naltirilgan mustahkam asosni yaratadi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).**

Sufizm ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy o‘rin tutadi, chunki u inson qalbi va ongini ma‘naviy poklikka yo‘naltiradi. So‘fiy tarbiyasi insonni o‘z nafsi ustidan g‘alaba qozonishga, hulq-atvorni yaxshilashga va moddiy dunyoning yomon ta‘sirilaridan xalos bo‘lishga undaydi. Bu shaxslar darajasida yuz bergan ma‘naviy yuksalish jamiyatga o‘z ta‘sirini o‘tkazib, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shadi. So‘fiylikning asosiy g‘oyalaridan biri – tinchlik va hamjihatlikdir. So‘fiy ma‘naviy olamda ezgulik, aloqalarni mustahkamlash va birlikka erishishni targ‘ib qiladi. O‘zbekiston kabi ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda so‘fiylik jamoalar o‘rtasida o‘zaro tushunish va birlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. So‘fiylikning boshqa dinlar va madaniyatlarga nisbatan to‘g‘ri munosabati ham ushbu jarayonga hissa qo‘shadi. So‘fiylikning ijtimoiy adolatga bo‘lgan e‘tibori uning jamiyatda ijtimoiy faollikka chorlashini ko‘rsatadi. So‘fiylar insonning ma‘naviy va axloqiy barqarorligi jamiyatdagi adolat bilan bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. So‘fiylarning ta‘limotlarida, faqirlik va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy mas‘uliyatni oshirish kabi g‘oyalar o‘rnini topgan.

I. Mo‘minov tasavvuf haqida to‘xtalib, “Sufizm – murakkab falsafiy oqimdir. U juda xilma-xil shakllarga, mazmunga va oqimga ega” ekanligini ta‘kidlaydi [1, 34].

Sufizm paydo bo‘lish va rivojlanish jarayonida turli falsafiy, diniy va madaniy ta‘sirilar ostida shakllangan, shu jumladan, hind falsafasi, neoplatonizm va xristianlik kabi oqimlardan ta‘sirlangan. Biroq uning asosi Islom dinining ma‘naviy qadriyatlarini va Qur‘oni Karimdan kelib chiqqan. Bu jamiyatda o‘zaro ma‘naviy ta‘sir va madaniy almashinuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning ma‘naviy rivojlanishida so‘fiylikning turli ta‘sirilar bilan boyishi uning jamiyatda turli ma‘naviy va madaniy jarayonlarni birlashtirish qobiliyatini ko‘rsatadi.

So‘fiylik nafaqat ma‘naviy yoki diniy yo‘nalishda, balki ijtimoiy faollik va adolatni ta‘minlashda ham qo‘llaniladi. So‘fiylar o‘z faoliyatida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qarshi chiqib, kambag‘allar va zaiflar uchun qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratganlar. Bu O‘zbekistonda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ijtimoiy adolatsizlikni kamaytirish va ma‘naviy tarbiya orqali jamiyatda barqarorlikni saqlash mumkin. Umuman olganda, so‘fiylik O‘zbekistonda ma‘naviy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omillardan biri bo‘lib, uning ijtimoiy-axloqiy va ma‘naviy tarbiyasi orqali jamiyatda yaxshilik, tinchlik va adolatning yuzaga kelishiga hissa qo‘shadi.

Soʻfiylik Islomning mistik-asketik oqimi sifatida shakllanib, insoniyatning maʼnaviy rivojlanishiga, hayotiy qadriyatlar va jamiyatning maʼnaviy ustunlarini shakllantirishga katta hissa qoʻshgan. Bu mazhabning asosiy tamoyillari insonning maʼnaviy kamolotga erishish, asketizm va nafsni nazorat qilish orqali Allohga yaqinlashishga intilishiga qaratilgan. Bu esa jamiyatda axloqiy va maʼnaviy barqarorlikni taʼminlashda muhim oʻrin tutadi.

Soʻfiylikning asosiy gʻoyasi boʻlgan maʼrifat (botiniy ilm) nafaqat maʼnaviy kamolotga erishish, balki haqiqatni anglashga boʻlgan intilishni ham oʻz ichiga oladi. Bu gʻoya Oʻzbekistondagi maʼnaviy tarbiya va jamiyat axloqiy normalarini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Soʻfiylikka xos boʻlgan fikr va amallar insonning nafsini tarbiyalash, dunyoviy nafsoniyatdan xalos boʻlish va maʼnaviy kamolotga erishishga asoslangan. Bu esa jamiyatda yomon illatlardan voz kechishga, axloqiy meyorlarning mustahkamlanishiga va jamiyatda maʼnaviy barqarorlikning taʼminlanishiga olib keladi.

Oʻzbekistonda soʻfiylik taʼlimotlari nafaqat diniy sohaga, balki milliy gʻoya va mafkuraviy jarayonlarga ham taʼsir qilgan. Xoja Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi buyuk soʻfiy allomalarning merosi jamiyatda maʼnaviy kamolot va axloqiy meyorlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Ular tomonidan ilgari surilgan gʻoyalar jamiyatda ijtimoiy birdamlikni taʼminlash, adolat va insoniylik tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Soʻfiylikning Oʻzbekistondagi maʼnaviy barqarorlikka taʼsiri uning yosh avlodni maʼnaviy tarbiyalashdagi oʻrnida koʻrinadi. Yoshlar oʻrtasida axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ularni maʼnaviy toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish soʻfiylik taʼlimotlarining asosiy maqsadlaridan biridir.

Soʻfiylik, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, inson va jamiyatning maʼnaviy rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Uning gʻoyaviy asoslari insonning maʼnaviy kamolotga intilishi va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon insonning nafsoniy ehtiyojlardan ustun boʻlishi va jamiyatda maʼnaviy barqarorlikni taʼminlash uchun muhim omil sifatida qaraladi. Oʻzbekistonda maʼnaviy barqarorlikni taʼminlashda soʻfiylikning oʻrni juda katta. U nafaqat shaxsiy maʼnaviy kamolotga erishishga qaratilgan, balki jamiyatning maʼnaviy-axloqiy asoslarini mustahkamlashda ham muhim rol oʻynaydi. Soʻfiylik taʼlimotlari orqali axloqiy, maʼnaviy va ijtimoiy qadriyatlar tarbiyasi nafaqat jamiyatning maʼnaviy barqarorligini taʼminlaydi, balki umumiy ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi.



## **TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS).**

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan mutasavviflar islom ta'limotining markaziy muammolarini o'z g'oya va qarashlarining asosiy nuqtasiga aylantirishgan. Ularning inson kamolotida maqomlar, tana va ruh pokligi, axloqiy poklik va nafs tarbiyasi haqidagi g'oya va qarashlari hozirgi kunda ham ustuvor g'oyalar hisoblanadi"[2].

O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda so'fiylikning ijtimoiy-falsafiy o'rni alohida ahamiyatga ega. So'fiylikni diniy-falsafiy tizim sifatida o'rganish, uning g'oyaviy asoslari, maqsadlari va metodlarini tushunish jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi. Sufizm o'z mohiyatiga ko'ra insonning ma'naviy kamolotga intilishi, uning ilohiy haqiqatni anglashga urinishini aks ettiradi. O'z navbatida, so'fiylikning o'rganilishi va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlik muammolarini hal qilishda o'ziga xos vazifalarni bajarishi mumkin.

So'fiylikdagi asosiy g'oyalardan biri — vaxdat al-vujud (buyuklik birligi)dir. Bu g'oya butun olam va mavjudotlarning yagona ilohiy mohiyatga egaligiga urg'u beradi, ya'ni borliq va Alloh o'rtasidagi ajratib bo'lmaydigan birlikni ifodalaydi. So'fiylar Allohni butun mavjudotlar, insoniyat, tabiat va olam bilan birlashgan yagona hodisa deb bilishadi. Bu esa O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi, chunki bu g'oya jamiyatning birlikka intilishini va hamjihatlikni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Ibn Arabiyning vaxdat al-vujud ta'limoti shuni ko'rsatadiki, borliq ilohiy voqelikning bir qismi bo'lib, bu ma'noda inson va tabiat orasidagi aloqa yaqinligi yuzaga keladi. Bu g'oya fuqarolarning tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilashga, ularning ma'naviy va axloqiy darajasini ko'tarishga yordam beradi. Sufizm insonning ichki ma'naviy holatini shakllantirishga, uni ma'naviy-axloqiy komillikka yetaklashga qaratilgan. Shu bilan birga, so'fiylik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham hissa qo'shishi mumkin. So'fiylar yo'li insonni nafs ustidan g'alaba qozonishga, o'z xohish-istaklarini nazorat qilishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Bu yo'nalish O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanishi mumkin. So'fiylik g'oyalari asosidagi ma'naviy kamolot jamiyatda ma'naviy axloqiy asoslarni mustahkamlaydi, bu esa barqarorlik va tinchlikni saqlashda muhimdir. So'nggi vaqtlarda so'fiylikka qarshi bo'lgan ayrim harakatlar uning islomiy an'analarga zidligini ta'kidlashmoqda. Lekin shunday qarashlar ham mavjudki, so'fiylik musulmon an'anasining bir qismi sifatida qabul qilinib, ijtimoiy muammolarni hal etishda yordam beradigan vosita sifatida qaraladi. So'fiylik



g'oyalarini jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga mos tarzda qayta tahlil qilish va zamonaviy kontekstda foydalanish O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda ijobiy natijalar berishi mumkin.

So'fiylik, o'zining ichki ma'naviy yo'llashuvi va shaxsiy axloqiy kamolotga e'tibor qaratishi orqali ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'fiylik inson va uning axloqiy tanlovlari, jamiyat va uning tashkil topishi, insonning o'ziga xos ma'naviy kamolotga erishishi kabi mavzularga alohida e'tibor beradi. So'fiylik ta'limotlarida insonning axloqiy tanlovlari va uning Alloh oldidagi mas'uliyati hamda bunyodkorlik qobiliyati alohida ta'kidlanadi. Mazkur jarayonlarda insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lida qilgan tanlovlari va bu tanlovlarning jamiyatga ta'siri muhim o'rin tutadi. Alloh insonga tanlash erkinligini bergan va inson Allohning irodasiga muvofiq ish tutishi uchun o'zining shaxsiy axloqiy yo'lida harakat qilishi lozim.

So'fiylar, xususan, Rumi, Ibn Arabiy va al-G'azzoliyning ta'limotlari insonning ma'naviy kamolotga erishishida tanlov va fidokorlikning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Masalan, Ibn Arabiyning vahdat al-vujud (yagona mavjudlik) nazariyasida inson mikrokosm sifatida nafaqat dunyoviy voqeliklarni, balki ilohiy va moddiy voqeliklarni ham o'z ichiga oladi. Insonni mikrokosm deb bilgan Ibn Arabiyning qarashlariga ko'ra, insonning ma'naviy tanlovlari va jamiyatdagi roli uning ilohiy va moddiy dunyoni birlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Azizidin Nasafiy komil insonga ta'rif berib e'zadi: «Bilginki, komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilginki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif»[3, 143].

Al-Farobiyning ta'limotiga muvofiq, inson jamiyatning a'zosi sifatida o'zining kamolotini jamiyat bilan hamkorlikda erishadi. Uning "Fozillar shahri aholisi qarashlari to'g'risidagi risola"sida ideal jamiyat, ya'ni fozillar shahri, insonlarga o'z tanlovlarini amalga oshirishda qulay sharoit yaratib berishini ta'kidlaydi. Bu falsafiy qarashlar O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonning ma'naviy kamolotga intilishi jamiyatning barqarorligi va ma'naviy yuksalishining asosiy omilidir. So'fiylikning bunday falsafiy yo'nalishi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy barqarorligi va hamohangligi uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Insonning axloqiy va ma'naviy tanlovlari so'fiylik falsafasi bilan yaqin bog'liq bo'lib, ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Hozirgi davrda insoniyat ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojini oshirib bormoqda. Zamonaviy jamiyat moddiy dunyo cheklanganligini anglab, ruhiy va ma'naviy qadriyatlarga yuzlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, so'fiylik ta'limoti ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat islomiy ma'rifatning bir qismi, balki insonning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi vosita sifatida ham ko'riladi. So'fiylik, mistik ta'limot sifatida, islom dinining ma'naviy merosida muhim o'rin tutadi. Bu ta'limot insonni ilohiy Absolyut bilan bog'lanishga intiladigan mukammal ruhiy yo'l sifatida namoyon bo'ladi. Musulmon dunyosida so'fiylik turli mazhablar, maktablar va yo'nalishlarni o'zida mujassam etib, juda keng ma'naviy merosga ega.

O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlik va milliy o'zlikni saqlashda so'fiylikning o'rni ko'p jihatdan qadriyatlar tizimi, ma'naviyat va axloq meyorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. So'fiylikning asketizmga asoslangan hayot tarzi, ruhiy intizom va irodani tarbiyalashga qaratilgan o'rganishlari, jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. U insonning nafsini yengib, ma'naviy kamolga yetishiga yo'l ochadi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlash uchun muhimdir. Shuningdek, so'fiylikni jahon diniy-mistik an'alarini komparativ tahlil qilish orqali o'rganish muhimdir. Universal xususiyatlar va jahon dinlaridagi individual mistika an'alarini o'rganish so'fiylikning umuminsoniy qadriyatlarga qo'shgan hissasini tushunishga yordam beradi. Bunday tahlil so'fiylikni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va ma'naviy yangilanish jarayonlarini rivojlantirish uchun zaruriy asosni beradi. Shunday qilib, so'fiylik O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Uning axloqiy qadriyatlar, ma'naviy intizom va Absolyutga bo'lgan mehr-muhabbatga asoslangan ta'limotlari jamiyatning ma'naviy muhitini rivojlantirishga yordam beradi.

So'fiylik, o'zining ikki asosiy yo'nalishi – "intellektual" va "pragmatik" – orqali, ma'naviy tajriba va bilim orqali insonni Allohga yaqinlashtirishni maqsad qilgan. Ibn al-Arabiyning vaxdat al-vudjud (Borliqning birligi) konsepsiyasiga ko'ra, inson o'zining zohiriy va botiniy aslini tushunish orqali Allohning birligiga yetishishi mumkin. Bu, ma'naviy barqarorlik uchun muhim asos bo'lib, insonlarning ichki va tashqi birligiga e'tibor qaratiladi. O'zbekistondagi ma'naviy barqarorlik so'fiylikning amaliy yo'nalishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Amaliy so'fiylik, ayniqsa, Alloh bilan bevosita tajriba orqali "birlik" holiga yetishishga qaratilgan bo'lib, bu insonlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik, va ma'naviy yaxlitlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Mavlono Junayd al-Bag'dodiyning fano (o'zlikdan kechish) va baqo (Allohda

yashash) holati orqali insonning Alloh bilan munosabatini yaratishi bu barqarorlikning asosi sifatida qaraladi.

Mahmud A'sad Jo'shon bu borada shunday fikr yuritadi. Allohga yondashuv ruhiy yuksalishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib hisoblanadi. «Tasavvuf – nafs tarbiyasi,-islomning haqiqati, asosi, jon tomiridir. Nafs tarbiyalangach, kishi savobtalab va foydali bir insonga aylanadi. Tasavvuf taqvo yo'lidir. Bu – qo'rqish, saqlanish degani... Kishi Allohdan qo'rqib, gunohlardan, haromlardan, Alloh yoqtirmagan ishlardan o'z nafsini tiygani uchun taqvo yo'li deyiladi...»[3, 168].

O'zbekistonda so'fiylikning ma'naviy ahamiyati jamiyatdagi insonlarning o'zaro munosabatlarini ma'naviylashtirishga, ma'rifat va ma'naviy kamolotga yo'naltirishga hissa qo'shadi. Insonlarning Allohga yaqinlashishi va o'zaro ma'naviy birlashishi jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikka asos bo'ladi. Shunday qilib, so'fiylikning amaliy tamoyillari orqali ma'naviy barqarorlikni ta'minlash, insonlarning ijtimoiy munosabatlarida hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga olib keladi.

So'fiylikning ijtimoiy-falsafiy tahlili O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. So'fiylik islom dinidagi mistik yo'nalish sifatida insonning ma'naviy kamoloti va Allohga yaqinlashishga qaratilgan maxsus ma'naviy mashqlar, ruhiy amaliyotlar, axloqiy tozalanish yo'lidan boradi. Bu yo'nalishdagi asosiy g'oya nafsni (ya'ni egosentriklik va havoyi nafs) yengish, ma'naviy poklanish, axloqiy yuksalish va insoniyat manfaatlari uchun yashashdir. Ma'naviy barqarorlik – bu jamiyatning ma'naviy tamoyillari va axloqiy qadriyatlar bilan mustahkamlangan holatidir. So'fiylikning bu boradagi ta'siri nafaqat shaxsiy ma'naviy kamolotga, balki jamoaviy hamjihatlik, o'zaro hurmat va tinch-totuvlikni rivojlantirishga qaratilgandir. So'fiylik insonlar o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni rivojlantirish, shaxslarning egoistik xohishlari ustidan g'alaba qozonishiga yordam beradi.

So'fiylikning asosiy maqsadlaridan biri – «komil inson» mafkurasiga erishishdir. So'fiylar ushbu tushunchani o'zlarining tarbiya va ta'lim jarayonlari orqali ommaga yetkazishga harakat qilishgan. Bu g'oyalar O'zbekistonda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. So'fiylarning ta'limoti nafsga qarshi kurashni talab qiladi, bu esa shaxslarning nafsqonlikdan voz kechishiga va axloqiy tozalanishiga olib keladi. Bu jarayon orqali insonlar jamoatchilik manfaatlarini o'z nafslaridan ustun qo'yishni o'rganadilar.

So'fiylikda nafs insonning eng katta to'sig'i sifatida qaraladi. So'fiylar nafsni yengish orqali insonning ma'naviy yuksalishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Moddiy dunyo va uning ne'matlariga to'g'ri munosabatda bo'lish, ulardan foydalanishda

Allohning irodasini ustuvor qo‘yish so‘fiylikning markaziy g‘oyalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, so‘fiylikning jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ta‘siri uning insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilganligi bilan namoyon bo‘ladi. So‘fiylik ilmi bilan shug‘ullangan zotlar jamiyatning ijtimoiy hayotiga faol aralashib, turli sohalarida ma‘naviy va axloqiy tarbiya berishni targ‘ib qilganlar. Ular hozirgi kunda ham O‘zbekistonda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi. So‘fiylikning inson ruhiyatiga ijobiy ta‘siri, insonlarni nafsni yengishga va moddiy manfaatlarga emas, balki ma‘naviy qadriyatlarga tayangan hayot kechirishga undashi, uning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuning uchun, O‘zbekistonda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash jarayonida so‘fiylik asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

So‘fiylikning O‘zbekistonda ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, mamlakatning ma‘naviy, madaniy va ijtimoiy muhitiga ta‘sir ko‘rsatgan muhim mazmunli tamoyillarning o‘zaro bog‘lanishini tushunishga yordam beradi. So‘fiylikning doktrinal asoslari, xususan, Absolyutga nisbatan muhabbat va ishonch («tavakkul»), insonlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va ijtimoiy adolatning rivojlanishi uchun muhim ma‘naviy asos hisoblanadi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION / RECOMMENDATIONS).**

So‘fiylikning «muhabbat doktrinasi» inson va Alloh o‘rtasidagi aloqani muhabbat orqali tushunishi bilan islomiy ma‘rifatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shaxsiy ifodaga ega bo‘lishiga olib keladi. Buning natijasida shaxs o‘zini ma‘naviy rivojlanish yo‘lida, nafaqat shaxsiy axloqiy kamolotga, balki jamoatchilikka bo‘lgan ma‘naviy mas‘uliyatiga ham ega bo‘ladi. So‘fiylik, ushbu mazmunda, shaxsni nafs va egosidan voz kechish orqali insonlarning ma‘naviy quvvatiga ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy mistik-asketik oqimi va hamjihatlikka asoslangan jamiyat qurishni qo‘llab-quvvatlaydi.

So‘fiylik doktrinasining insonning ichki tarbiyasiga e‘tibori, jamiyatdagi yomonlik va zo‘ravonlikka qarshi ma‘naviy immunitetni shakllantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston kabi mamlakatlarda, ma‘naviy va madaniy barqarorlikni ta‘minlashda muhimdir, chunki ma‘naviy rivojlanish jamiyatning barcha sohalarida barqarorlikni kafolatlaydi. Shuningdek, so‘fiylikning zikr va samoa kabi ma‘naviy amaliyotlari orqali inson ruhiyatining tozalanishi va Alloh bilan bog‘lanishga intilish jamiyatda ma‘naviy hayotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zikr, so‘fiylikning markaziy amaliyoti sifatida, insonlarning yuraklarini poklash,

ularning Allohga bo'lgan muhabbatini mustahkamlash va jamiyatdagi ma'naviy o'zaro ta'sirni kuchaytirishga qaratilgan.

O'zbekistonning ma'naviy muhitida so'fiylik nafaqat shaxslarning shaxsiy rivojlanishida, balki jamoatchilik ma'naviyatini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi. So'fiylikning ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ta'limot jamiyatda axloq va ma'naviy kamolotni rivojlantirish uchun doimiy asosiy omillardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Мўминов И. Танланган асарлар. 1 жилд. – Т.: 1969. –Б. 34.
2. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13272\\_1\\_FFEF609F6C7A16D3AFC28D5B05858A4F9510736A.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13272_1_FFEF609F6C7A16D3AFC28D5B05858A4F9510736A.pdf).
3. Комилов Н. Тасаввуф. –Т., 1996. –Б. 143.
4. Маҳмуд Аъсад Жўшон. Ислом, Тасаввуф ва ахлоқ. – Т. Истиқлол. 2000. 168 б.

---

**“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.**  
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. - 417 b.

**ISSN 2181-1784**

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'sis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining 7-soni o'rin egallagan.

**Mas'ul muharrir:**  
**falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov**

**Ilmiy kotib:**  
J.B. Sulaymonov  
SH.N. Pulatov  
I.R. Ikramova

**Texnik muharrir:**  
Sh.S.Jurayev

